**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**
**MILLIY LIBOS VA SAN’AT FAKULTETI**

**TEXNOLOGIK TA’LIM KAFEDRASI**

# MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANIDAN

## O‘QUV - USLUBIY MAJMUA

**TERMIZ – 2023**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**
**MILLIY LIBOS VA SAN’AT FAKULTETI**

**TEXNOLOGIK TA’LIM KAFEDRASI**
**MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANIDAN**

# O‘QUV - USLUBIY MAJMUA

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **100 000 – Gumanitar** |
| **Ta’lim sohasi:** | **110000 – Pedagogika** |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | **60112400 – Prafissianal ta’lim (60720700-texnologik mashinar va jihozlar)** |

**TERMIZ – 2023**

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 1 martdagi “Yangi o‘quv-uslubiy majmualarini tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmani tavsiya etish to‘g‘risida”gi № 107 – sonli buyrug‘i asosida tayyorlandi.

Mazkur fanda tayyorlangan o’quv-uslubiy majmua O’bekistobn Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ushbu ma’ruzalar matni ________ 2023 yil Termiz davlat universiteti O’quv - uslubiy kengashining №___sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan fanning o’quv dasturi asosida ishlab chiqilgan bo’lib, oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan 60112400-Prafissional ta’lim (60720700-texnologik ta’lim mashinalar va jihozlar ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan.

**Tuzuvchi:** Z.Sh.Nurmamatov ‘‘Texnologik ta’lim’’ kafedrasi katta o’qituvchisi p.f.f.d.(PhD)

**Taqrizchilar:** Toirov Akbar Xasanovich –Termiz iqtisodiyot va servis universiteti fizika-matematika fanlari nomzodidotsent.

Mengliyev.I.A-TerDU Axborot texnologiyalar fakulteti “Amaliy matematika” kafedrasi, P.F.F.d(PhD) katta o’qituvchisi.

Ushbu o’quv uslubiy majmua kafedraning 2023 yil 28.06.21-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Ushbu o’quv uslubiy majmua TerDU ilmiy Kengashi tomonidan ko’rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan. 30.06.2023 yil №11 bayonnoma

## Mundarija


| № | Bo'limlar | betlar |
|---|---|---|
| **1** | **O'MMning kelishilgan varag'i** | |
| **2** | **O'MMning mundarajasi** | |
| **3** | **Ma'ruza mashg'ulotlar mazmuni** | |
| 1 | Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati. | |
| 2 | Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati. | |
| 3 | Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti. | |
| 4 | Xorij ommaviy axborot vositalarining media makonidagi o'rni. | |
| 5 | Media maydon tuzulishi va ta'siri. | |
| 6 | Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar. | |
| 7 | Media maydonda axborot tarqatish madaniyati. | |
| 8 | Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar. | |
| 9 | Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy- nazariy asoslari. | |
| 10 | Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy- nazariy asoslari. | |
| 11 | O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari. | |
| 12 | Vertual o'yinlarning yashlar ongiga ta'siri | |
| 13 | Media maydon va internet imkoniyatlari. | |
| **4** | **Seminar mashg'ulotlari mavzulari.** | |
| 1 | Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati. | |

| | | |
|---|---|---|
| 2 | Axborotni jamiyatda tutgan o’rni va ahamiyati. | |
| 3 | Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti. | |
| 4 | Xorijiy ommaviy axborot vasitalarining media makonidagi o’rni. | |
| 5 | Media maydon tuzulishi va ta’siri. | |
| 6 | Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar. | |
| 7 | Media maydonda axborot tarqatish madaniyati. | |
| 8 | Shaxsga yo’naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar. | |
| 9 | Axborot xavfsizligini ta’minlashning g’oyaviy-nazariy asoslari. | |
| 10 | O’zbekistonda axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari. | |
| 11 | Virtual o’yinlarning yoshlar ongiga ta’siri. | |
| 12 | Media maydon va internet imkoniyatlari. | |
| **5** | **Ilovalar** | |
| **6** | **Fan dasturi** | |
| **7** | **Ishchi fan dasturi** | |
| **8** | **Glossariy** | |
| **9** | **Nazorat savollari** | |
| **10** | **Foydalanilgan adabiyotlar** | |

## 1-Mavzu: Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati

Reja:

1. Media savodxonlik haqida tushuncha
2. Axborot haqida tushuncha
3. Axborot madaniyati.
4. Axborot texnologiyalarining jamiyatdagi o`rni
5. O’zbekistonda media savodxonlik uchun qilingan ishlar haqida.

***Tayanch so’z va iboralar:*** *media, savodxonlik, axborot, madaniyat, evolyutsiya, jamiyat, ahamiyat, texnologiya.*

**1. Media savodxonlik haqida tushuncha.** Media savodxonlik insonlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko‘nikmalar to‘plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto‘g‘ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo‘lgan odam osongina sezishi mumkin bo‘ladi. Media savodxonlik — insonlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko‘nikmalar to‘plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto‘g‘ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo‘lgan odam osongina sezishi mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik — bu tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo‘llash qobiliyati.

Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta’sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o‘yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko‘rishimizga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, bu ta’sir ko‘pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste’molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko‘nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo‘ladi. Bu ko‘nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o‘zi ishlab chiqarish kiradi. Media savodxonligi ko‘nikmalarini o‘rganishning ushbu jarayoni media ta’lim

deb ataladi. UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta'limni targ'ib qilish madaniy-ma'rifiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi hamda aynan shu yo'l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi takidlandi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Tashkilot, ayniqsa, siyosatchilar, o'qituvchilar, ommaviy axborot vositalari mutaxassislari, yoshlar tashkilotlari va ushbu sohadagi nochor aholi qatlamlarining salohiyatini oshirishga intiladi, a'zo davlatlarga milliy ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi siyosati va strategiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

**2. Axborot haqida tushuncha.** «Axborot» so`zi kutilayotgan yoki bo`lib o`tgan voqea, xodisalar to`g`risidagi ma'lumotlarni bildiradi. Kundalik turmushda har bir mutaxassis turli xil axborotlar bilan ish yuritadi. Axborot tushunchasi bir qancha fanlarda turlicha izohlangan. Masalan: falsafada axborot inson ongiga ta'sir etib, ob'ektiv reallikni aks ettiruvchi va harakatlantiruvchi kategoriya sifatida ishlatiladi. Kibernetika, informatika fanida axborot voqea - xodisa to`g`risidagi bilimlarni oshirish yoki noaniqlikni kamaytirish mezoni sifatida qo`llaniladi. Kompyuterlarni ishlatish faoliyatida esa axborotdan boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi ob'ekt sifatida foydalaniladi. Axborot tushunchasi ma'lumot tushunchasi bilan uzviy bog`langan, lekin har qanday ma'lumot axborot bo`lavermaydi.

Masalan: olma desak, bir necha xil ma'noni tushunish mumkin: qizil olma deganda, mevaning ma'lum bir rangi tushuniladi, demak barcha ma'lumotlar axborotga aylanishi uchun voqea - xodisa to`g`risidagi butun xususiyatlarni ifodalashi lozim. Hozirgi kunda barcha axborotlarni nisbiy holda quyidagi turlarga ajratish mumkin: texnik axborot; agrobiologik axborot; siyosiy axborot; huquqiy axborot; iqtisodiy axborot va boshqalar. Barcha axborotlar quyidagi xususiyatlarga ega: Uzluksiz hosil bo`lishi. Harf raqamlarda ifodalanishi.

Diskret harakterdaligi. Yer yuzida jonli mavjudodlarning paydo bo'lishi bilan birgalikda ularning taraqqiyoti, hamda atrof muhit to'g'risidagi, voqea xodisalar

to’g’risidagi ma`lumotlarni bilish va ular to’g’risida axborot olish shu axborotlar asosida yashash sharoitlarini belgilash, rivojlanish taraqqiyotini anglash katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari vaqt o’tishi bilan birgalikda tabiatni insonlar tomonidan o’rganish davomida bu axborotlarga yaratilayotgan va ishlatilayotgan mashinalar, apparatlar, o’lchov asboblari, texnoligik jarayonlar haqidagi axborotlar qo’shilib bordi. Yigirma-o`ttiz yil oldin axborot nimaligini aniqlash juda oson edi. Axborot odamlar o’rtasida uzatiladigan ma`lumotlar hisoblanib, keyingi vaqtda ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish uchun, hamda yashash sharoitlarini, iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilashda katta ahamiyatga ega bo’lib qoldi.

Axborot odamlar o’rtasida uzatiladigan ma`lumotlar hisoblanib, keyingi vaqtda ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish uchun, hamda yashash sharoitlarini, iqtisodiy taraqqkiyot darajasini belgilashda katta ahamiyatga ega bo’lib qoldi. Masalan. Biologlik o’simliklarni o’rganish orqali o’simliklarning hayoti to’grisidagi axborotlarni yig’adi va bu axborotlar asosida o’simliklarni tabiatdagi ro’lini, ularning ko’payishini, insonlar uchun kerakli tomonlarini aniqlaydi. Ikkinchi bir misol. Avtobus xarakatlanish davomida motorning ovozi boshqacha chiqmoqda. Avtobusdagi yulovchilar uchun bu uncha ahamiyatsiz bo’lsa, malakali xaydovchi uchun esa bu axborot hisoblanib va bunga asosan, ya`ni motordan chiqayotgan ovozga qarab motorni xolatini aniqlaydi. Demak axborot degan savolga qisqacha javob berishimiz uchun ikkita ob`yektga manba va istemolchi orasidagi bog’lanishga murojaat qilishimiz zarur ekan.

Axborot manbaiga tabiiy ob`yektlar-sayeralar, yulduzlar, insonlar, xayvonlar, o’simliklar, maydon, o’rmonlar - fan va texnikani rivojlantirishdagi ilmiy tajribalar, mashinalar, texnoligik jarayonlar kiradi. Axborot istemolchilar ro’yxati ham katta bo’lib unga, insonlar, xayvonlar, o’simliklar, turli hil o’lchov asboblari kiradi. Shuning uchun axborot keng doiradagi tushuncha bo’lib, jamiki ob`yektlar,mavjudodlar, jarayonlar xaqidagi ma`lumotlarni o’z ichiga oladi. Axborot manbalari va istemolchilarining har hilligi axborot shaklining turli ko’rishda bo’lishiga olib keldi: belgili, matnli va grafik. Axborotning belgili ko’rinishida

asosan belgilar - harf, belgi, raqam va boshqalar qo'llanilib, voqia-hodisolar xaqidagi signallarni uzatishda foydalaniladi.

Masalan. Svetoforning yashil chirog'i yo`lovchi va haydochilarning harakatiga ruxsat berilganligini, sariq chiroq kucha harakatini o'zgarishi va qizil chiroq esa harakatlanish taqiqlanishi haqidagi ma`lumotlarni beradi. Matnli axborot juda murakkab axborot shakli bo'lib, bu shaklda ham harflar, raqamlar, matematik belgilar qullaniladi. Faqatgina bu belgilar yakka holda emas balki ularning bir necha tuzilmalaridan, tartibli kelishidan tashkil topadi.
Belgi va harflarning o'zaro bog'lanishida, hamda inson nutqining matn ko'rinishida aks ettirilishida matn axborotini ishlatish qulay va keng qullaniladi.
Masalan. Ko'p miqdorda nashr etilgan kitoblar, qo'llanmalar, gazeta va ro'znomalar.
Axborot shaklining grafik ko'rinishi turmush hayotimizda muhim ahamiyatga va katta axborotlar massiviga ega bo'lgan tabiat ko'rinishlari, foto tasvirlar, rasmlar, chizmalar, sxemalarni misol qilishimiz mumkin.
Axborotning na bir og'irligi, na bir geometrik o'lchami va xech qanday ximik yoki fizik hususiyatlar mavjud emas. Lekin axborotni mavjud bo'lishi, saklanishi, uzatilishi uchun biror bir material-ob`yekt bo'lishi zarur. Bunday ob`yektlar juda ko'p bo'lib va ularning soni taraqqiyot natijasida o'sib bormoqda.
Xozirgi kunda axborotlarni asosiy tashuvchilari quyidagilardir.

**3. Axborot madaniyati.** Axborot madaniyati muloqotning yangi turi bo'lib, u shaxsga mavjud bo'lgan axborotga erkin kirish imkonini beradi; Axborotdan chiqish va undan foydalanish erkinligi globaldan mahalliygacha bo'lgan barcha darajalarda, chunki axborotning milliy, davlat ichidagi turi milliy fan kabi asossizdir; Insonning muntazam axborot va intellektual mehnatdan ozod bo'lishi natijasida shakllangan fikrlashning yangi turi, uni belgilaydigan xususiyatlar orasida, ikkinchisining o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini o'rganishga yo'naltirilganligi bugungi kunda allaqachon aniq namoyon bo'lmoqda. "Axborot madaniyati" tushunchasida etakchi so'z "madaniyat" bo'lib, u eng katta semantik yukni o'z ichiga oladi.

Eng ko'zga ko'ringan mahalliy madaniyatshunoslarning tadqiqotlari madaniyatni yagona sub'ekti va asosiy ob'ekti shaxs bo'lgan natija, jarayon, usul, munosabat, norma, faoliyat tizimini anglatuvchi murakkab tushuncha sifatida ta'riflashga imkon beradi. Axborot madaniyati bu Insonning axborot mavjudligiga erkin kirishiga imkon beradigan yangi aloqa turi; Axborotdan chiqish va undan foydalanish erkinligi globaldan mahalliygacha bo'lgan barcha darajalarda mavjud, chunki axborotning milliy, davlat ichidagi turi milliy fan kabi asossizdir; Insonning muntazam axborot va intellektual mehnatdan ozod bo'lishi, uni belgilaydigan xususiyatlar muhiti, ikkinchisining o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini o'rganishga yo'naltirilishi natijasida shakllanayotgan fikrlashning yangi turi allaqachon aniq. bugun namoyon bo'ldi. Shaxsning axborot madaniyati shaxsning tizimli xususiyati sifatida shaxsning asosiy madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, unga axborot bilan ishlashning barcha turlarida: olish, to'plash, kodlash va qayta ishlashda samarali ishtirok etish imkonini beradi. , shu asosda sifat jihatidan yangi axborot yaratish, uni uzatish, amaliy foydalanish.

Axborot madaniyatining ajralmas qismi yangi axborot texnologiyalarini bilish va uni oddiy operatsiyalarni avtomatlashtirish uchun ham, noan'anaviy ijodiy yondashuvni talab qiladigan favqulodda vaziyatlarda ham qo'llash qobiliyatidir. Binobarin, axborot madaniyati muloqotning yangi turi bo'lib, insonga axborot mavjudligiga erkin kirish imkonini beradi; Axborotdan chiqish va undan foydalanish erkinligi globaldan mahalliygacha bo'lgan barcha darajalarda, chunki axborotning milliy, davlat ichidagi turi milliy fan kabi asossizdir; Insonning muntazam axborot va intellektual mehnatdan ozod bo'lishi natijasida shakllangan fikrlashning yangi turi, uni belgilaydigan xususiyatlar orasida, ikkinchisining o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini o'rganishga yo'naltirilganligi bugungi kunda allaqachon aniq namoyon bo'lmoqda.

**Axborot madaniyatining tarkibiy qismlari** Axborot madaniyati axborot jarayonlari va munosabatlarining mohiyatini tushunish savodxonligi va malakasini o'z ichiga oladi; insonparvarlik yo'naltirilgan axborot qiymat-semantik soha

(intilishlar, qiziqishlar, dunyoqarash, qadriyat yo'nalishlari); rivojlangan axborot aks ettirish, shuningdek, axborot xulq-atvori va ijtimoiy axborot faoliyatida ijodkorlik. Shaxs axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri axborot resurslarini bilishdir (iloji bo'lsa, ulardan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish). Mamlakatimizda axborotni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bilan ko‘plab tashkilotlar shug‘ullanadi: kutubxonalar, statistik markazlar, axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalari. Birinchi marta “axborot savodxonligi” tushunchasi 1977 yilda AQSHda kiritilgan va oliy ta’limni isloh qilish milliy dasturida qo‘llanilgan. A. P. Ershov kompyuter savodxonligini “kompyuter yordamida muammolarni hal qilish, harakatlarni rejalashtirish va ularning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, informatikaning asosiy g'oyalarini tushunish, rolini tushunish qobiliyati deb tushunadi. Oliy ta’lim o‘qituvchisining axborot-pedagogik kompetensiyasi uning umumiy pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi, uning kasbiy mahorati va oliy ta’lim sohasidagi jahon andozalariga muvofiqligining eng muhim ko‘rsatkichidir.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan o‘sha davlatlar, birinchi navbatda, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya o‘z intellektual kadrlarini tayyorlashni birinchi raqamli vazifa qilib qo‘ygan, mudofaa, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda eng katta muvaffaqiyatlarga erishgan. huquqiy va madaniy sohalar .Turli xil ma'lumotlarni olish va uzatish usullarini faol bilishni, kasbiy, uslubiy va umumiy madaniy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning kompleks majmuiga asoslangan ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalariga ega bo'lishni nazarda tutadigan axborot-pedagogik kompetentsiya majburiy bo'lishi kerak. kengroq tushunchaning tarkibiy qismi - o'qitilayotgan fanning mazmunidan qat'i nazar, zamonaviy universitet o'qituvchisining umumiy pedagogik madaniyati. Bizning fikrimizcha, bu axborot savodxonligini yuqori darajadagi bitiruvchidan har qanday ishlab chiqarish yoki jamoat sohasida stajyorga - o'qituvchi, muhandis, menejer, shifokor va boshqalarga o'tkazish zanjirining birinchi bo'g'inidir. Axborotni qayta ishlash madaniyati (analitik va sintetik faoliyat); Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish madaniyati (nashr faoliyati, ilmiy tadbirlarda ishtirok etish, fan va texnika yutuqlaridan

amaliyotda foydalanish); Bibliografik ma'lumotlarni yaratish madaniyati; Kompyuter va ofis texnikasidan foydalanish madaniyati; Axborot uzatish madaniyati (axborot-kommunikatsiya faoliyati); Axborotni tarqatish madaniyati (IPni bilish, axborotdan foydalanuvchilarni bibliografik ta'minlash usullari va vositalarini bilish). “Pedagogik kibernetika” kontseptsiyasi ta’lim jarayonini, pedagogik tizimlarni optimal boshqarish haqidagi fan sifatida, kibernetik yondashuv va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan ta’lim texnologiyasi haqidagi fan (G. G. Vorobyov va boshqalar) axborot madaniyatini rivojlantirish masalalarini ko‘rib chiqadi. eng muhim vazifalar sifatida. Axborot madaniyati tushunchasi madaniyatning odamlar hayotining axborot jihati bilan bog'liq bo'lgan qirralaridan birini tavsiflaydi. Axborot madaniyati inson o'z faoliyati maqsadiga erishish uchun qo'ygan muammolarni hal qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanishini taxmin qiladi. Dunyoning zamonaviy rasmini tushunish sifatida (V. A. Izvozchikov); Axborot va odamlar bilan ishlash qobiliyati va qobiliyati sifatida (V.N. Solovyov); Dunyoning tizim-axborot rasmini tushunish sifatida (T. Yu. Kitaevskaya) va boshqalar.

**Axborot madaniyatini shakllantirish muammolari.** O'qituvchining axborot madaniyatini shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega: Tashabbuskorlik, o'z muammolariga yechim topish qobiliyati (I. P. Osintsova); Ish joyida minimal moslashishdan so'ng kutubxona ishining istalgan sohasidagi barcha vazifalarni bajarish qobiliyati (A. Ya. Chernyak); Intellektual, texnologik, iqtisodiy, ekologik, axloqiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik, estetik-tematik, uyushtirilgan o'qish, tashkilotchilik fazilatlari; Axborot holatini mustaqil tahlil qilish qobiliyati (G. S. Galiullina); Axborot oqimida yo'naltirilganlik, hujjatlarni optimal saqlash va ulardan foydalanishni tashkil qilish qobiliyati (I. A. Meizhys); Operator mahorati, jarayonlarni modellashtirish qobiliyati, psixologik moslashuv (L. N. Fedorova); Pedagogika fanlari sohasidagi yangi yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni bilish (I. A. Meyjis); Muammolarni hal qilish qobiliyati, etakchilik qobiliyati, tadqiqot ishlariga moyillik (M. G. Voxrisheva); Tashabbuskorlik, ijodkorlik, intellektual salohiyat,

yuksak psixomotor sifatlar, axloqiylik, bilimdonlik, ijodiy idrok etish qobiliyati, jiddiy tahlildan aslo qolishmaydi; Psixologik moslashuv, stressga chidamlilik, o'z-o'zini bilish, o'zini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tuzatish ko'nikmalari.mBir qator tadqiqotchilar axborot madaniyati rivojlanishining qarama-qarshi xususiyatini hisobga olib, insonning o'zi yaratgan axborot "yirtqich hayvoniga" to'liq bog'liqligi xavfi (N. I. Vitiska va boshqalar) mavjudligiga ishonishadi.

Ularning fikriga ko'ra, noaniq ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan intellektual axborot tizimlarini qurish alohida rol o'ynaydi, bu esa mutaxassislarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq fikr-mulohazalarining sifat tomonini eng mos modellashtirishga imkon beradi. Axborot madaniyati muammosiga oid tadqiqotlarda bir qancha umumiy masalalar aniqlangan: uning asosiy tushunchalari va turlari; axborotlashtirishning huquqiy va axloqiy jihatlari, shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik muammolari; uning pedagogik jarayonda rivojlanishining psixologik mexanizmlari; axborot texnologiyalarining o'rni, global axborot tarmoqlarining madaniyat rivojidagi o'rni va ta'siri, Rossiyaning madaniyat, san'at va ta'lim sohasidagi axborot resurslarining holati. Shunday qilib, bir qator mualliflar (Yu. S. Zubov va N. A. Slyadneva) tarixiy ongda moddiy o'zgartiruvchi inson faoliyatining roli hali ham hukmronlik qiladi, degan pozitsiyani ko'rib chiqadilar. Axborotni o'zgartirish faoliyati odatda ma'naviy madaniyat tarixi sifatida qaraladi va texnologik va ijtimoiy tarixga bo'ysunadi. Biroq, mualliflarning fikricha, axborot ishlab chiqarish usuli inson faoliyati asosida yotadi va asosan madaniyat turlarini belgilaydi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiyaning zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish juda muhimdir.

Tadqiqotchilarning yana bir guruhi (Z. E. Vorobieva va A. I. Muxachev) yaqin kelajakda barcha tizimlarda sodir bo'ladigan energiya-axborot o'zaro ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan yagona fan shakllanishini taklif qiladi. Demak, fanlararo tadqiqot tushunchalari va toifalarini aniqlash va aniqlashtirish zarurati tug‘iladi, bu esa o‘z navbatida ta’lim tuzilmasi va mutaxassislar madaniyatining sifat tarkibiy qismlarini jiddiy qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bu jarayonda yetakchi o‘rin

shaxsning axborot madaniyatini yuksaltirishning eng muhim omili va butun bilim industriyasining ham global, ham mintaqaviy miqyosdagi eng yirik tarmog‘i sifatida ta’lim tizimiga tegishli, ya’ni. mutaxassisning axborot madaniyatining mintaqaviy jihatini yoritib berish.

Tadqiqotchilar odamlarning axborotga kirishning turli imkoniyatlariga bo'linishi munosabati bilan yuzaga keladigan shaxsning axborot madaniyatining axloqiy jihatlariga (M. G. Voxrisheva, V. M. Petrova, A. S. Chachko va boshqalar) katta qiziqish bildirmoqdalar: saqlash qiyinligi tufayli. asl va mualliflik huquqi, pullik va bepul ma'lumotlarni ajratish, ijtimoiy munosabatlarning maxsus ierarxiyasining paydo bo'lishi va turli ijtimoiy guruhlarning axborot hissasidagi farq bilan. Pedagogika bilan chegaradosh axborot madaniyatining muammolari - axborot faoliyatidagi muloqot tamoyillari, shaxsning axborot madaniyati tipologiyasi, 21-asrda uning rivojlanish prognozlari, virtual haqiqatda shaxsning o'zini o'zi identifikatsiya qilish xususiyatlari ( A. A. Grechixina va boshqalar), jamiyat rivojlanishining axborotlashtirish tarixi va nazariyasini o'rganishda optimal nisbatni izlash va shaxsiy ma'lumotlarning xulq-atvori sohasida mutaxassislarni tayyorlashning zarur darajasini ta'minlash (N. L. Nikitina, E. L. Kudrina, N. I. Gendina va boshqalar). .). O'quv dasturlarini qurishning blok-modulli printsipi taklif etiladi, bu esa ta'limning fundamental xarakterini ta'minlagan holda kursni talabalar toifasiga qarab o'zgaruvchan qilish imkonini beradi.

**4. Axborot texnologiyalari fanining jamiyatdagi o’rni va ahamiyati.** Axborot ustida kerakli amallarni bajarish borasida tashkil qilingan javraen axborot texnologiyasi deb ataladi. Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo’llaniladi. Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli boskichlarida ham mavjud bo’lgan bulsa-da, xozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining uziga xos xususiyati shundaki, tsivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga yerishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch yenergiya, xom ashyo, materiallar va moddiy iste’mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik

kilmokda, ya’ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida etakchi urinni yegallamokda. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma’lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan boglik faoliyat soxalari tashkil kiladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi turlarga ajratish mumkin.Birinchi turdagi texnologiyalar mexnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo’ladi. Yaratuvchi (ijodiy) axborot taxnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy kism sifatida uz ichiga oladigan tizimlardan iborat. Axborot texnologiyalarining xozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko’rsatmokda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-taxnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta’minlaydigan jamiyat boyligi sifatidafoydalanish tushuniladi.

Darxaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish—inson xayotining barcha jabxalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan boglik ob’ektiv jarayon xisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy yextiyojlarning kondirilishiga, iqtisodning usishi hamda fan-texnika tarakkiyotining jadallashishiga xizmat kiladi. Jamiyatni axborotlashtirish jaraenini 5 asosiy yunalishga ajratish mumkin:

- Mexnat, texnologik va ishlab chiqarish jaraeni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.
- Ilmiy tadkikotlar, loyixalash va ishlab chiqarish axborotlashtirish.
- Tashkiliy- iktisodiy boshkarishni avtomatlashtirish.
- Axoliga xizmat ko’rsatish soxasini axborotlashtirish.
- Talim va kadrlar tayerlash jaraenini axborotlashtirish.

Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi axborotlarni uzlashtirishda kompyuter tizimining yordami benixoya kattadir.Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qat'i nazar, uni yigish, saqlash, kayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi.

Birinchidan, ukitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart (an'anaviy) tizimga nisbatan ukuv jarayonini jadallashtirib, talabada ilmga kizikishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini ustiradi, bilim berishga differentsial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash va nazorat qilishni engillashtiradi, talabani ukuv jarayonining sub'ektiga aylantiradi. Ikkinchidan, yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish mumkin bo'ladi: muayyan pedmetlarni ukitishda kompyuter darslari; kompyuter darslari— kurgazmali material sifatida; talabalarning guruxli va frontal ishlarini tashkillashtirishda; talabalarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda; talabalarning ukishdan bush vaktlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini xal yetishda va x.k. Mexnat samaradorligining bundan keyingi o'sishi va farafonlik darajasini ko'tarish. katta xajmdagi multimediya axborotini (matn, grafika, video tasvir, tovush, animatsiya) qabul qilish ishlashga yangi intellektual vositalar va inson mashina interfeyslardan foydalanish asosidagina yerishish mumkin. Informatikada mexnat unumdorligini oshirish suratlari etarli bo'lmasa, butun halq xo'jaligida samaradorligini o'sishi anchagina kamayib ro'y berishi mumkin. Xozirgi dunyodagi barcha ish joylarining 50 foizi ga yaqin axborotni qayta ishlash vositalari bilan ta'minlangan.

Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnalogiyalari bilan ta'minlash insonlarning turli – tuman ma'lumotlarga bo'lgan yehtiyojini qondirishda muxim o'rin tutadi. Inson axborot olami ichra yasharkan , voqeya xodisalar jarayonlarning bir – biriga aloqadorligini, o'zaro munosabatlari va moxiyatni tashkil yetish ,o'z xayotidan kelib chiqayotgan murakkab savollarga ilmiy javob topish maqsadida ko'pdan - ko'p dadil va raqamlarga murojat qiladi. Axborot tufayli nazariya amalyot bilan birikadi. Amaliyot nazariyasi nazariya yesa amalyotsiz mavjud ham bo'lmaydi

,rivojlanmaydi ham. Zavodlarimizning asosiy maqsadi informatika vositalarining ahamiyati to'g'risida fikir yuritish yemas, balki jamiyatning axborotga bo'lgan yextiyojini qondirishdagi usul va vositalar to'g'risida tushunchaga yega bo'lishdir. Mazkur yehtiyoj doim mavjud bo'laveradi va biror -bir axborotli muxit doirasida qondiriladi. «Axborotli muxit» tushunchasiga xozirgi kunda ingformatika masalalarini o'rganishda muxim o'rin yegallaydi.

Insoniyatni o'rab tturgan muxit o'z xizmatlariga ko'ra turlichadir – tabiy siyosiy, ijtimoiy, milliy va oylaviy ruxiy bo'lishi munkin. Aniqrog'i bular xar birimiz yash bir butun muxitninig tekisliklaridir. Mazkur tekisliklarining markazida axborotli muxit turadi va u barcha axborotli odimlarni boshqaradi: voqealikning moddiy axborotli muxitni boshqarish vositalari – yenergetik tamonlarini to'ldiradi, rivojlantiradi va bunda u turli ijtimoiy faktorlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Axborotli muxitning tabiyatni tushunishda axborotning bilimga aylanishini o'rganish katta ahamiyatga yega. Bir qarashda bir xildak tuyiladi ammmo ular munosabatini chuqurroq o'rganishda axborotda bilimning kommunikativ «boshqa vositalar» o'rtasidagi bog'liqlik xususiyati borligini ko'ramiz. Jamiyatda odamlar o'rtasidagi aloqa faktori bo'limlar o'rtasidagi «ko'prik» - bu axborotdir.

Demak ,bilimni «o'zi uchun» axborotga aylantirish mexanizii axborotli muxitini vujudga keltirishda aloxida o'rin yegallaydi. +adimda axborotli muxit juda qashshoq bo'lib ,u tor doiradagi yeng kerak va chekli ma'lumotlar majmuasidan iborat yedi, bu xol odamlar orasidagi bog'liq doirasini ming yillab chegaralab keladi va odamning jamiyat axborotli muxitidagi xissani kamaytirib yuboradi. Bugungi kunda ijtimoiy turli ko'rinishdagi axborotlar majmuasi keng va rivojlangan bo'lib ,uning jamiyatda tutgan o'rni bexisobdir. Oxirgi davrda axborotli muxitda katta o'zgarishlar bo'lib bormoqda. Ana shu o'zgarishlar qog'ozsiz texnologiya zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu yesa o'z navbatida, YEXM ning yanada keng rivojlanishiga sabab bo'ladi. Axborotli muxitning kelajakda inson xayotida o'rni va ahamiyati, bugungi holatdan ancha yuqori bo'lishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar qo'llamini kegaytirish talab yetiladi.

Respublikamizda axborotlashtirish keng yo'lga qo'yilishi bilan undagi xar bir fuqoroga kerakli paytda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda olish imkoniyatlari ochilmoqda. Respublikamizdagi viloyatlar, shaxarlar, tumanlarga qarashli korxonalar, tashkilotlar va muassasalar zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jixozlanib, ular maxsus qurilmalar (teleforin tarmog'i, modem va boshqalar) yordamida axborotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatiga yega bo'lmoqda. Insonning iqsodiy, yekologik, siyosiy va boshqa soxalarda fikirlash doirasining kengayishi axborotli muxitninig sifat va miqdor jixatdan o'zgari ,yangi xusiyatga yega bbo'lgan axborotli muxitning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Demak axborotlashtirish vaqtinchalik tadbig' yemas, rivojlanishning zarur vositasidir va axborotli muxitning hozirgi rivojlanish darajajasidagi holatini informatikasiz qo'llab bo'lmaydi. Axbortllarni tez, sifatli yg'ish saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi vazifalarni bajarishda hisoblash texnikasining xizmati beqiyos yekaniga ishonch hosil qilmoqda. Iqsodiyotning boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munossabatlarga o'tish buxgalteriya xisobini tashkil qilish va olib berishga katta ta'sir ko'rsatadi.

isobning xalqaro tizimlarga o'tishi amalga oshirilmoqda bu uning uslubiyatini yangi shakillarini ishlab chiqarishni talab qilad. Buxgalteriya xisobining axborot tizimi va uning kompyuterda ishlab chiqarishning tashkil qilishning ananaviy shakillari katta o'zgarishlarga uchragan. Xisobchidan korxona moliyaviy xolatining ob'ektiv baholarini bilish, moliyaviiy taxlil usullarini yegallash, qimmatli qog'ozlar bilan ishlashni bilish bozor jarayonlarida pul mablag'lar investitsiyalarini asoslash va boshqalar talab qilinadi.

**Axborot texnologiyasining rivojlanish tarixi** Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi **ichki** va **tashqi** omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- Ichki omillar.
- Tashqi omlilar.

**Ichki omillar-** bu axborotni poydo bo'lish turlari, xosalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, uni jamlash uzatish, saqlash va h.k.

**Tashqi omillar** – bu axborot texnologiyasining texnika – uskunaviy vositalari orqali axborot bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi. Axborot texnologiyalari jamiyat axborot resurslaridan oqilona foydalanishning yeng muhim omillaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

**1 – bosqich.** XIX asirning 2 – yarmigacha davom yetgan. Bu bosqichda «qo'llik» axborot texnologiyalari taraqqiy yetgan. Uning vositasi pero,siyoxdon, kitob. Kommunikatsiya ya'ni aloqa odamdan – odamga yoki pochta orqali xat vositasida amalga oshirilgan.

**2 - bosqich**. XIX asirning oxiri, unda «mexanik» texnologiya rivoj topgan. Uning asosiy vositasi yozuv mashinkasi, arifmometr kabilardan iborat.

**3 – bosqich.** XX asirning boshlariga mansub bo'lib, «yelektromexanik» texnologiyalar bilan farq qiladi. Uning asosiy vositasi sifatida telegraf va telefonlardan foydalanilgan. Bu bosqichda axborot texnologiyasining maqsadi ham o'zgardi. Unda asosiy urg'u axborotni tasvirlash shaklidan uning mazmunini shakllantirishga ko'chiliriladi.

**4 – bosqich.** XX asir o'rtalariga to'g'ri kelib, «yelektron» texnologiyalar qo'llanilishi bilan belgilanadi. Bu texnologiyaning asosiy vositasi YEXM lar va ularning asosida tashkil yetiladigan avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari va axborot izlash tizimlaridir.

**5 – bosqich**. XX asirning oxiriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda kompyuter texnologiyalari taraqqiy yetdi. Ularning asosiy vositasi turli maqsadlarga mo'ljallangan turli dasturiy vositalarga yega bo'lgan shaxsiy kompyuterlardir. Bu bosqichda kundalik turmush, madaniyat va boshqa sohalarga mo'ljallangan texnik vositalarning o'zgarishi ro'y berdi. Lokal va global kompyuter tarmoqlari ishlatila boshlandi.

**5.O'zbekistonda media savodxonlik uchun qilingan ishlar haqida.** Zamonaviy OAV turi hisoblangan internet jurnalistikasi OAV taraqqiyoti, uning vazifalarining kengayishi, ishlab chiqarish va texnika sohasidagi keskin oʻzgarishlar, jurnalistika va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi jurnalistlar

oldiga yangi vazifalarni qoʻymoqda. Bir vaqtning oʻzida yangiliklar yoza oladigan, intervyu olish, rasm va videoga tushirish mahoratini egallay olgan, internet uchun materiallar tayyorlay oladigan universal jurnalistlarni yetishtirish hozirgi kunda muhim. Shu bilan birga ushbu an'anaviy jurnalistik malakaga endilikda yana texnik xarakterdagi matematik va muhandislik kabi sohalar boʻyicha ham malaka hamda koʻnikmalarni hosil qilishga toʻgʻri kelayapti. Bu, ayniqsa, internetdan foydalanuvchi jurnalistlar uchun juda zarurdir.

Shunday qilib, turli sohalarning konvergensiyasi jurnalistlardan ham universallashish, ham ixtisoslashuvni talab etadi. Shu bilan birga universallashuv, toʻgʻrirogʻi, transprofessionallashuv, avvalambor, aynan bir sohani toʻliq oʻzlashtirib olishni taqozo etadi. Universal jurnalist bu muayyan bir sohani toʻliq egallagan mutaxassis ham demakdir. Aynan mana shu narsa bir-biriga yaqin boʻlgan ixtisosliklarni tezlikda oʻzlashtirib olish imkonini beradi. Yuzaki yondashuv, barcha narsani shunchaki bajarish professional vazifani amalga oshirish uchun yetarli emas. Medialarning birlashuvi, ya'ni konvergensiya sharoitida jurnalist ijodi oʻzining koʻp qirraligi, axborotni qisqa, faktlarga asoslangan holda, zamonaviy talablarga mos ravishda tezkor uzatishi bilan ajralib turadi. Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi sharoitida media va axborot savodxonligiga ega boʻlgan jurnalistlarning ijodiy faoliyati sifat bosqichiga koʻtariladi.

Shuningdek, universallashuv jarayoni jurnalistlarni quyidagilarni bajara olishlariga sharoit yaratdi:• dolzarb, ijtimoiy axborotni yaratish; • mavjud ijtimoiy jarayonlarni tankidiy jihatdan tahlil eta olish; • medianing ijtimoiy jarayonlarga ta'sir etish koʻlami va darajasini, unda axborotni namoyish etish shakllarini tushunish; • ularning oʻzlarining faol fuqarolik pozitsiyasini namoyish etishda undan foydalanish va ijodiy jihatdan tushunish; • har taraflama puxta va mustaqil qarorlar qabul qilish; • atrof-muhit haqida yangi axborot olish; • umumiylik hissiyotini shakllantirishga koʻmaklashish; • jamiyat rivojining dolzarb masalalari boʻyicha ommaviy debatlar va dialoglarni ta'minlash va qoʻllab-qoʻvvatlash; • hayoti davomida uzluksiz ta'limni qoʻllab-quvvatlash; • oʻz xavfsizligini ta'minlagan va

ijtimoiy mas’uliyatni his qilgan holda mediadan foydalanish; • fuqarolik jamiyati va global axborot tarmogʻini shakllanishi va rivojini qoʻllabquvvatlash. Yuqorida sanab oʻtilganlarning barchasi kun.uz saytida faoliyat yuritayotgan jurnalistlarda namoyon boʻlmoqda. Saytning “Oʻzbekiston yangiliklari”, “Jahon yangiliklari”, “Iqtisodiyot yangiliklari”, “Jamiyat yangiliklari”, “Fan va texnika yangiliklari”, “Sport yangiliklari” ruknlari ostida berilayotgan materiallar respublikamiz va xorijda sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga oʻzgacha, qolipdan chiqqan holda yondoshuv natijasida juda ham oʻqishlidir.

Internet tizimida faoliyat yurituvchi jurnalist radio, televideniye, matbuotda faoliyat yurituvchi jurnalistdan albatta farq qiladi. Internet jurnalisti yuqorida tilga olingan jurnalistlarning barcha xususiyatlarini oʻzida mujassam etgan holda oʻz faoliyatini bajarishi lozim. Internet jurnalistining mahorati yangiliklarni baholay olishida bilinadi. Bu jurnalistdan talab qilinadigan asosiy narsalardan biri hisoblanadi. Yangiliklarni tanlash va ularni baholash internet jurnalisti kundalik faoliyatidagi eng qiyin yumushlardan biri hisoblanadi. Bu jurnalistning tajribasini ham ko’rsatib beradi. Masalan, “kun.uz” sayti jurnalistlari yangiliklarni baholashda mazkur saytning axborot siyosatiga, voqeaning ijtimoiy ahamiyati va dolzarbligiga e’tibor berishadi. Saytda berilgan “Nazorat qiluvchi idoralar mustaqil bo‘lishi kerak. Davlat boshqaruvidagi muammolardan biri haqida” sarlavhasi ostida chop etilgan xabar 2 soat ichida 13 804 marta o’qilganini kuzatish mumkin, bu ham albatta auditoriyaning qiziquvchanligidan dalolat beradi. “Musulmonlar idorasining yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishga doir fatvosi e’lon qilindi” kabi xabarlar ham foydalanuvchilar diqqat-e’tiborini tortib kelmoqda. Internet jurnalistining mahorat qirralaridan yana biri uning tezkorligidir.

Agarda 2-3 yil oldin respublikamizda faoliyat yuritayotgan saytlarning salkam 50 foizi muntazam yangilanmagan boʻlsa, bugungi kunda sifatli axborotga boʻlgan talabning oshishi, saytlarning koʻpayishi va axborot bozori uchun kurash OAV maqomiga ega saytlarning har kuni yangilanib turishini taqozo etmoqda. Buni “kun.uz”, “daryo.uz”, “gazeta.uz”, “qalampir.uz”, “xalq so’zi” saytlari misolida

koʻrishimiz mumkin. Ularda berilayotgan bugungi kunning dolzarb muammolariga bagʻishlangan materiallar foydalanuvchilar xabardorligining oshishiga olib kelmoqda.

Agarda saytlar kontenti bilan tanishish dinamikasini kuzatadigan boʻlsak, www. uz portalining xabariga koʻra, bir kunda daryo.uz saytiga 422 496 mingga yaqin foydalanuvchilar kirsa, reytingning uchinchi oʻrnini egallagan “qalampir.uz” saytiga 106 086 mingga yaqin foydalanuvchi kirib, uning mazmuni bilan tanishar ekan. Bu ko`rsatkichlar ham bugungi kunda insonlarning axborotga qanchalik kuchli ehtiyoji borligini ham ko`rsatib bermoqda. Aslida jurnalistlar, o‘z kasbiy vazifalariga muvofiq, axborot vakuumida yashashlari mumkin emas. Blogerlardan olingan ma’lumotlar jurnalistlar tomonidan rasman e’lon qilinmasa-da, baribir ularni kundalik faoliyatlarida nazardan qochirmaydilar. Zero, an’anaviy OAVning axborotni yashirish odati ularga bo‘lgan ishonchga putur yetkazadi. Natijada odamlar bloglarga o‘xshagan axborot manbalariga murojaat etishga majbur bo‘ladilar. Bunda auditoriyaning professional jurnalistlarga bo‘lgan ishonchi pasayadi, blogerlar mavqei esa oshib boraveradi. Natijada an’anaviy jurnalistikaning reytingi biroz tushib ketishi mumkin.

Internet jurnalistining mahorati avvalo jurnalistika konvergensiyasi jarayonida oʻquvchi uchun qiziq boʻlgan faktlarni zudlik bilan har tomonlama, ya’ni matn, video va audio jamlanmasi koʻrinishida yetkazishdir. Bugungi kunga kelib saytlarda (“kun.uz”, “daryo.uz”, “gazeta.uz”, “human.uz”) muhbir bilan birgalikda fotograf va operator faoliyatini kuzatishimiz mumkin, bu albatta ularda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar matn va surat bilan chegaralanib qolmay, axborotni video va audio shaklida ham aholiga yetkazib berishayotganliklarini ko’rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiya agentligi, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiatsiyasi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyat ko‘rsatayotgani axborot sohasini rivojlantirish uchun zarur barcha sharoitlar yaratilganidan yana bir dalolatdir.

Soha xodimlarini rag‘batlantirish, yangidan-yangi ijodiy parvozlar sari da’vat etish, kasb malakasi va mahoratini yuksaltirish, zamon talabiga uyg‘un mutaxassis kadrlar tayyorlash borasidagi ishlar ko‘lami tobora kengaymoqda. Bu jihatlar jurnalistikamiz rivojiga xizmat qilayotgan turli ko‘rik-tanlovlar, ijodiy bellashuvlar, grant-loyihalar, ijtimoiy dasturlarda ham o‘z ifodasini topmoqda. Bu borada jurnalistlar o‘rtasida o‘tkazib kelinayotgan “Oltin qalam” Milliy mukofoti, “Yilning eng faol jurnalisti”, «Eng ulug‘, eng aziz» singari tanlovlar, ”Jurnalistlar bahori”, “Ijtimoiy media maxsulotlar milliy festivali”, “Ozod yurt to‘lqinlari” kabi mediafestivallar ijod ahlining jamiyatdagi faolligini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirish, iqtidor sohiblarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. OAV uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishiga ham katta e’tibor berilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetlarida, shuningdek, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universitetida soha uchun kadrlar tayyorlanmoqda va hozirgi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida jurnalistikaning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog‘liq masalalarni chuqur o‘rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot va ijodiy ishlar samaradorligini ta’minlash hamda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish yo‘lida ish olib borilmoqda.

Milliy ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, jahon andozalari talablari darajasida faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ijodkorlar mehnatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib kelinmoqda. “Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning o‘zi hayotimizga keskin sur’atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo‘lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo‘lida g‘oyat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo‘ymoqda. Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat

professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o‘z so‘zi uchun ma’sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma’naviy jasorat ham talab etiladi”, — degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida.

Davlat rahbarining biz jurnalistlarga yuksak ishonchi, har tomonlama qo`llab quvvatlanishi, sharafli kasb egalari oldiga yuksak va sharafli vazifalarni yuklaydi. “Hamma davrlarda ham jurnalistlarga oson bo‘lmagan. Bu kasbni bilib turib tanlaganmiz. Jurnalistika kurashishni talab qiladigan soha. Matbuot va ommaviy axborot vositalarini to‘rtinchi hokimiyat darajasiga chiqishini istaymiz. Bugun biz shu kuchga to‘laqonli ega bo‘lish uchun harakat qilyapmiz. O‘zbek jurnalistikasining erkinligi, yutuqlari haqida gapirilganda ko‘pchilik avvalgi davr bilan qiyoslashga o‘rganib qoldi. Bunday solishtirish u qadar to‘g‘ri emas, nazarimda. Chunki jurnalistikamizni avvalgi vaziyati bilan qiyoslagandan ko‘ra, “Aslida jurnalistika qanday bo‘lishi kerak?” degan savol nuqtai nazar bilan qarashimiz lozim. Sohamizning bugungi natijalari uchun kimgadir rahmat aytishimiz shart emas. O‘zi shunday bo‘lishi, bundan ham yaxshiroq bo‘lishi kerak-da. Hamkasblarimga shuni aytgan bo‘lardimki, oldinga yanayam katta maqsadlar qo‘yib, haqiqiy to‘rtinchi hokimiyat bo‘lishga intilaylik. Bilasizmi, demokratiya ancha rivojlangan davlatlarda matbuot va ommaviy axborot vositalariga nisbatan birinchi hokimiyat sifatida ham qarashadi. Bu jurnalistikaning kuchida ko‘rinadi. Shuning uchun kuchli mamlakatlardakuchli jurnalistika barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida o‘zini ko‘rsatgan. O‘zbek jurnalistikasi ham ana shunday maydonga chiqishi kerak.

Buning uchun esa eng avvalo, jamiyatning, iqtisodiyotning rivojlanishida shaffoflik muhim. Nima uchun aynan 27 iyun – Matbuot va OAV xodimlari kuni sifatida nishonlanishini bilasiz-ku. Chunki bu kunda ilk milliy nashrimiz “Taraqqiy” chop etila boshlangan. Bu kunni bayram sifatida nishonlar ekanmiz, mustamlakachilik zamonidagi o‘sha og‘ir vaziyatlarda milliy matbuotimizning poydevorini qo‘ygan insonlardan shijoatni, jasoratni o‘rganaylik, ulardan ruh olaylik. Ular millat qayg‘usi bilan yashagan.” “Rost24.uz” sayti bosh muharriri Anora

Sodiqova o'zining "Hurriyat" gazetasi 2021 yil 27 iyun soniga bergan intervyusida jurnalistika sohasidagi yutuq va kamchiliklar haqida o`z qarashlarini bayon etgan. Axborot (Informatsiya) termini "information" lotincha so'zdan olingan bo'lib, ma'lumot berish, tushuntirish ma'nosini anglatadi .

Qadimdan bu tushuncha orqali odamlar o'rtasida og'zaki, yozma va boshqa usullar vositasida ma'lumot almashinish tushunilgan. "Informasiya" tushunchasiga keng, har tomonlama izohni kibernetika beradi. Uning asoschisi Nobert Viner shunday yozadi: "Informasiya bu tashqi olamdan olingan ma'lumot mohiyatiga bizning moslashuvimiz va bizning xis-tuyg'ularimiz moslashuvi jarayoni bilan izohlanadi" . Ikkinchi tomondan "informasiya" tushunchasi "ma'lumot bilan ta'minlangan, ya'ni axborot uzatish va uni ommaviylashtirish" ma'nosini ham anglatadi. Axborot - inson va jamiyat hayotidagi o'ziga xos hodisadir. Bir tomondan, axborot bu inson va jamiyatning mavjudlik sharoitlariga moslashuv imkoniyatini ta'minlovchi, atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni yig'ish vositasi bo'lib, ular asosida inson va jamiyat o'z ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini amalga oshirish maqsadlarida to'g'ri keladigan harakat yo'nalishini tanlashadi. Masalan, "ko'chada yomg'ir yog'yapti" degan axborot sayrga otlangan kishi uchun soyabon olish zarurligi haqida qaror qabul qilishga yordam beradi. Boshqa tomondan, axborot bu - insonni, uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlarini, texnik tizimlarni boshqarish vositasidir. Axborot muloqoti shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va shakllantirishning asosini hosil qiladi.

Axborot insonga ijtimoiy va texnik me'yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me'yorlarga amal qilmaslikning bo'lg'usi salbiy oqibatlari haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi. Bugungi kun insonlari kundalik hayotini axborot yoki yangiliklarsiz tasavvur eta olmaydi. Zamonaviy media makonda juda katta hajmdagi axborotlarni auditoriya har kuni qabul qilyapti. "Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o'z so'zi uchun ma'sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma'naviy jasorat ham talab etiladi" . Bugun biz yashayotgan

shiddatli XXI asrda zamonning o‘zi, hayotimizga keskin sur’atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo‘lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo‘lida go‘yat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo‘ymoqda”. Darhaqiqat, jahonda sodir bo‘layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Media savodxonlik haqida tushuncha
2. Axborot haqida tushuncha
3. Axborot madaniyati.
4. Axborot texnologiyalarining jamiyatdagi o`rni
5. O’zbekistonda media savodxonlik uchun qilingan ishlar haqida.

## 2-Mavzu: Axborotni jamiyatda tutgan o’rni va ahamiyati.

Reja:

1. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun mohiyati.
2. Xabar ma`lumot bitm va shartnomalar.
3. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendensiyalari.
4. Media qadriyatlar.

**Tayanch so’z va iboralar:** axborot, jamiyat, mazmun, mohiyat, xabar, ma’lumot, bitm, shartnoma, madaniyat, shakl, tendensiya, mediya, qadriyat.

Media manbalaridan va boshqa yetkazib beruvchilardan olingan axborotdan mos ravishda foydalanish insonning kasb nuqtai nazaridan axborot ehtiyojlarini tahlil qilishi, shuningdek, axborotni izlashi va uni baholashiga bog’liq. «Axborot» atamasi ko’plab tavsifga ega. U ma’lumotlar, tadqiqot jarayonida olingan bilimlar, tajriba yoki tahsil olish, shuningdek, signal yoki belgilarni anglatishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, axborot – bu to’plangan, qayta ishlangan va izohlangan, foydalanish uchun qulay bo’lgan ko’rinishda taqdim etiladigan ma’lumotlardir. Axborotni yana bir boshqacha tavsifi - «tushunishga oson shaklda berilgan bilimlar»dir. Lotin tilida “informatio” – tushuntirish, bayon qilish demakdir. O’tmishda mazkur tushuncha

ortida odamlar tomonidan bir biriga og'zaki, yozma va boshqa usulda beriladigan ma'lumotlar tushunilgan.

Keng ma'noda axborot ta'rifi kibernetika fanida keltirilgan. Uning asoschisi Norbert Vinerning yozishicha, "axborot – bu biz unga va uning bizning hissiyotlarimizga moslashuvchi, tashqi dunyodan olingan mazmun tavsifidir". Boshqa tomondan, "axborot" istilohi shuningdek "axborot berish", axborotni uzatish va uni tarqatish ma'nosida ham qo'llaniladi. Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, axborot deb oldindan ma'lum bo'lmagan biror narsa haqidagi xabar yoki ma'lumotlar tushuniladi. Nima bo'lgan taqdirda ham axborot muhim unsur bo'lib, usiz nafaqat alohida insonni, balki jamiyatni ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Masala, uning sifati, mazmuni, ohangi va yo'naltirilganligidadir. Shu bois axborot chegaralangan, qalbakilashtirilgan, tezkor, dolzarb va h.k. bo'lishi mumkin. Inson va jamiyat doimiy ravishda ma'lum bir axborot muhitida bo'ladi. Buni xattoki "axborotning yo'qligi ham, baribir axborot" degan ibora tasdiqlaydi. Axborotdan mahrum bo'lish, dezinformatsiya har qanday jarayonni turg'unlashuvga, shaxs va jamiyatni esa degradatsiya holatiga olib keladi. Sotsiologlarning ta'kidlashicha, axborot qanchalik ko'p to'plansa, jamiyat shuncha tez rivojlanar ekan.

Albatta, bu fikr to'g'ri, ammo u izoh talab etadi. Bu yerda axborot mazmuni aniqlashtirilmaganligi bois, uning "mohiyati" - siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va h.k. bo'lishi mumkin. Totalitar tuzum (o'tmishda militarizmga g'arq bo'lgan Yaponiya, fashizm o'chog'iga aylangan Italiya va Germaniya, "temir parda" egasi bo'lgan SSSR va b.)larga "ongni tozalaydigan", unga saralab olingan qadriyatlarni shafqatsizlarcha singdiradigan axborot xos bo'lib, buning natijasida insonlar manqurtlik va zombilashtirish qurboniga aylangan. Demokratiya sari taraqqiyotga yuz tutgan mamlakatlarga esa fuqarolarning turfa manfaatlarini qondirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi va mazmundagi axborot xosdir. Axborot hokimiyat demakdir. Axborotga egalik holatga egalik qilish demakdir. SHuning uchun ham qadimdan u qabila yetakchilari va kohinlar, shamanlar va siyosiy elita quroli bo'lib kelgan. Omma esa hokimiyat vakillari qo'lida to'plangan mazkur bilimlarning juda

ham oz hajmiga ega bo'lgan. Faqatgina xalqlarning ma'rifatga va demokratiya sari intilishlari natijasida yuqoridagilar axborotga bo'lgan monopoliyadan chekinishga majbur bo'ldi. Ammo hozirgi kungacha ham axborot erkinligi ajralmas qismi bo'lgan fuqarolik erkinliklari va ularga davlat hokimiyatining munosabati o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q.

Zero, ochiq jamiyatlarda ham fuqaro erkinliklari, ularning fikr va axborot erkinliklarini chegaralash holatlari kuzatilmoqda. Demak, axborotga u yoki bu tarzda egalik qilish uchun kurash davom etmoqda. Axborot - bu pul, aniqrog'i, xarid qilinadigan va sotiladigan mahsulot bo'lib, u orqali ba'zi bir insonlar katta kapitalga ega bo'ladi. Masalan, AQSHda Ted Terner, Fransiyada Fr.Buig, Italiyada S.Berluskoni va b. Bugungi kunda insoniyat axborot sohasidagi "inqilob"ga tayanib, o'z evolyutsiyasining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bugungi kunda media, turli axborot va kommunikatsion texnologiyalari turli xil shakllarining tez ommalashishi, ularning shaxsiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotga bo'lgan ta'siri, insonning yashashi uchun axborot muhitining "elektron kottej" nomini olgan sifat jihatidan yangi ko'rinishini taqozo etdi. Shu bois insonlarning axborot jamiyati hayotida faol va samarali ishtirok etishi uchun yangi bilim, ko'nikma va ko'rsatmalar zarur.

Axborot taqdim etayotganlar unga bo'lgan egalikni rag'batlantiradi, ba'zi holatlarda esa insonlarga muayyan axborotni saqlab berish imkonini ham ta'minlaydi. OAVdan tashqari boshqa axborot manbalari ham (masalan, tibbiy sharhlar, hukumat byulletenlari, hisobotlari va og'zaki xabarlari) mavjud. Axborot texnologiyalari yordamida (masalan, televideniye orqali ko'rsatiladigan saylovoldi munozaralar) yoki shaxsiy muloqot (masalan, fuqaro yig'inlari majlisida) natijasida uzatilishi mumkin. Uni media va insonlar vositasida ham tarqatish mumkin. Bugungi kunda misli ko'rinmagan miqyosda axborot, kontent va resurlar, shu jumladan, Internet zaxiralari mavjud bo'lib, ularning barchasi aniqligi, ishonchliligi va muhimligi jihatidan farqlanadi. Axborot turli shakl(masalan, statistika ma'lumotlari, elektron yoki qog'oz ko'rinishda)larda mavjud bo'lib, u onlayn fayl va portallarda, virtual va real kutubxonalarda, hujjatlar jamlanmasida, turli ma'lumotlar bazasida, arxivlar,

muzeylar va h.k.larda saqlanadi. Lekin bundan qat'iy nazar turli axborot manbalari taqdim etgan axborot ishonchli yoki ishonchsiz bo'lishi mumkin. Demak, jurnalist axborotni izlay boshlar ekan, unga, eng avvalo qanday mazmundagi ma'lumot zarurligini anglashi lozim. Axborotga bo'lgan ehtiyoj – aynan ma'lum bir ijtimoiy rol va vazifalarni bajarish uchun lozim bo'lgan axborotni olishga bo'lgan ehtiyojdir. Aksariyat hollarda iste'molchi u yoki bu maqsadga erishish uchun nimani bilishi zarurligini anglaydi va o'z qidiruv ishini ma'lum bir natijaga qaratadi.

Masalan, inflyatsiya sharoitida har bir fuqaroni narx-navoning o'sishi qiziqtiradi. Abituriyent oliy ta'lim muassasasiga kirish qoidalariga oid barcha ma'lumotni o'rganadi. Tadbirkor va moliyachini birinchi navbatda birjadagi narx kotirovkasi qiziqtiradi. Insonga u yoki bu axborot kanaliga murojaat qilish maqsadi tushunarli. Tanlov xabarning to'laligi, manbaning ishonchliligi yoki qiziqarligi va h.k. asosida qilinadi. Ammo bu yerda ham manbaning ishonchligini chuqur o'rganish lozim. Masalan, o'zini adabiy tanqidchi deb tanishtirgan shaxsning yangi adabiyot bo'yicha tavsiyalari avvalo muayyan maqsadda berilgan bo'lishi mumkin. Demak, axborotni saralash asosida uning iste'molchiga xatto, o'zi tushunmagan holatda ham qadrliligi yotadi. Axborot manbasini baholashda avvalo inson undan axborotni nima maqsadda olayotganini aniqlash zarur. Mazkur jarayon ishonchli axborot manbalarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, quyidagi savollarga javob topishga harakat qilish joiz: ushbu holatda qaysi manba axborot olish uchun eng ishonchlidir?

Qaysi manbalar haqqoniy, xolis bo'la oladi? Axborot manbalari. Axborot manbasi, odatda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ( ya'ni, keng ommaga qiziq va kerak bo'lgan) axborotga ega bo'lgan shaxs yoki tashuvchidir. Jurnalistikada axborot manbalari an'anaviy (rasmiy manbalar, ya'ni hujjatlar, OAV materiallari, hukumat qarorlari, hayotning o'zi va h.k) va noan'anaviy ("ishonch telefonlari", ijtimoiy sog'lomlashtirish markazlari, axlatxonalar, makulatura, ikkilamchi xomashyo, shisha qabul qilish, mashina yuvish va yonilg'i quyish shahobchalari, bozorlar va h.k.) ga ajratiladi. Kontent (mazmun, tartib, shakl) sifatiga ko'ra manbalar uch toifaga bo'linadi. Birlamchi manbalar – bu original manbalar bo'lib, ular axborotni

izohlamaydi. Bu tadqiqot hisobotlari, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, original san’at asarlari, qo’lyozmalar, fotosuratlar, kundaliklar, shaxsiy maktublar, og’zaki hikoya/intervyu yoki diplomatik hujjatlar bo’lishi mumkin. Aksariyat holatlarda va muayyan vaziyatlarda imkon qadar birlamchi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ikkilamchi manbalar sifatida axborotni yetkazib beruvchilar maydonga chiqadi. Bu holatda axborot o’zgarishi, tahlil qilinishi yoki umumlashtirilishi mumkin (masalan, ilmiy kitoblar, jurnallar, tanqidiy tahlil yoki ma’lumotlar talqini).

Foydalanishga tavsiya etiladigan birlamchi manbalar ikkilamchi manbalarga nisbatan har doim ham o’zida nufuzli yoki xolis axborotni mujassam etmaydi. Axborotni sub’ektiv baholash holatlarini tekshirilgan ikkilamchi manbalardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Ikkilamchi manba muayyan soha yoki muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin. Uchlamchi manbalar – bu tashkil etilgan va o’zida birlamchi hamda ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, o’zida mujassamlagan (masalan, referatlar, bibliografiya, turli qo’llanmalar, ensiklopediyalar, ko’rsatkichlar, xronologik jadvallar, ma’lumotlar bazasi va h.k.) manbalardir. 2. MAS: kompetensiyalar va asosiy unsurlar, Axborot savodxonligi. Jurnalistning axborot savodxonligi qaror qabul qilish va borliqning dolzarb muammolarini tahlil qilish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generatsiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo’lgan bilimlar, ko’nikmalar va mahorat majmuasini bildiradi Bunday bilimga ega bo’lgan jurnalist quyidagi bazaviy ko’nikmalarga ega bo’ladi: –tanqidiy tafakkur, – axborotni tahlil qila bilish va undan keyingi bosqichda materialda ko’tarilgan muammoni hal etishda foydalanish, – mustaqil ta’lim olish qobiliyati, – davlat faoliyati va demokratik jarayonlarda ishtirok etishga imkon beruvchi shaxsiy mediaresurslarni yaratish.

Kasbining ustasi bo’lgan jurnalist o’z oldiga qo’yigan maqsad- vazifalaridan kelib chiqqan hamda axloqiy qoida va me’yorlarga tayangan holda axborotni qanday to’plash, undan foydalanish, uni sintezlash va tashkil etishni yaxshi biladi.

Jurnalistning axborot savodxonligi o'z ichiga qo'yidagi ko'nikmalarni oladi: – OAV kanali axborot ehtiyojlarini aniqlash/anglash: Unga nima kerak? U qandday muammoni hal qilishga urinmoqda? – Aniqlangan axborot manbalaridan samarali foydalanish: rasmiy hujjatlar, ekspert fikrlari, voqea ishtirokchilari, Internet ma'lumotlari, radio- va telesyujetlar, kitoblar va h.k. Birlamchi, ikkilamchi yoki uchlamchi manbalarning qaysi biridan foydalanish zarur? Bu ham axborot izlash jarayoniga kiradi: Axborotni qayerda izlash maqsadga muvofiq? Yordam olish uchun kimga murojaat qilish lozim? – Axborot sifatini tahlil qilish va uni baholash: axborotning ishonchliligi va haqqoniyligini aniqlash. – Axborotni tashkil etish, saqlash yoki arxivlash: ko'plab axborot manbalaridan olingan axborotni qanday qilib samarali tashkil etish mumkin? Ya'ni jurnalistning shaxsiy arxivini yaratish haqida gap boradi. – Axborotdan foydalanishda axloq me'yorlariga rioya qilish. – Shaxsiy axborot kontentini yaratish va uni taqdim etish usullari. Axborot savodxonligi jurnalist materialini tayyorlashda zarur bo'lgan muayyan hajmdagi axborot to'planganini anglash imkonini beradi. Media savodxonlik Media savodxonlikning bir nechta ta'rifi mavjud.

Biz "Media savodxonlikning asosiy jihati sifatida mediamuhitga tahliliy yondashuv, ya'ni uni tanqidiy qabul qilish va media vositasida o'zini ifoda etish", degan ta'rifga tayanamiz. Bu ma'noda media savodxonlik o'z ichiga quyidagilarni oladi: – utilitar, funksional va pragmatik ko'nikmalar u yoki bu axborotning amaliy foydaliligini ko'rish, eshitish, tasavvur etish, tushunish va namoyish etishni bildiradi; – tanqidiy tahlil ko'nikmalari turli tahliliy vositalardan foydalangan holda turfa mediakontentni adekvat tarzda talqin eta olish, mediamatnni baholashni bildiradi. Ushbu ko'nikmalar rang-barang mediakontent va janrlar vositasida yaxshiroq rivojlanadi; – estetik va kreativ ko'nikmalar mediamatnni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin qilish qobiliyatini bildiradi. Talaba mazkur ko'nikmalarni o'zida media-resurslar yaratish orqali shakllantirishi mumkin. – interfaollik ko'nikmalari media orqali muloqot qilish va turli mediarollarni bajarib ko'rish qobiliyatini ko'rsatadi. Mazkur ko'nikmalarni ta'lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin.

Interfaollik ko'nikmalari o'z fikri va ko'rsatmalarini ifoda etishga tayyorligini ko'rsatadi. – xavfsizlik ko'nikmalari murakkab vaziyatlardan chiqish va ularga duch kelmaslik qobiliyatini namoyon etadi. Virtual makonda xavfsizlikka rioya qilishning muhim ko'nikmalaridan hususiy makonni himoyalash hamda kerak bo'lmagan kontent va muloqotdan voz kechishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat barpo etish zamonimizning konstitutsiyaviy oliy maqsadi qilib qo'yilgan va bu mazkur yo'nalishda jiddiy amaliy ishlar olib borilayotir.

Ma'naviyat va huquqqa ham turli boshqa sohalar kabi dialektik xarakterga ega. Shu bois hukukiy davlat dialektikasini kichik bir jarayonlari haqida, so'z yuritar ekanmiz, avvalo ma'naviyat va huquqga dialektik yondashuvning xarakteri nima? Dialektik yondashuvning xususiyati shundaki, u eski fikrlar, qarashlar, harakatlarni o'zaro munosabatini aniqlab, ularga har tomonlama yondashuvni taqozo etadi deyish mumkin. Milliy g'oyada mentalitet namoyon bo'ladi. Mentalitetning fikrlash uslubi va qadriyatlar bilan bog'liq elementlari mavjud. Mentalitet (lotincha "ichki tuyg'u, aql-idrok") gumanitar yo'nalishdagi umumlashtiruvchi, xususan turli psixik va boshqa sifatlardan iborat alohidaliklar, o'ziga xosliklar majmuasini va ularning ifodalanish holatlarini anglatuvchi ijtimoiy- siyosiy, publitsistik va metaforik tushuncha. Asosan tafakkurdagi, o'ylash va fikr yuritishdagi o'ziga xoslikni aks ettirish uchun qo'llanadi. Ilgarilari nisbatan kam ishlatilgan mentalitet keyingi paytlarda jamoaviy tafakkur shaklini, asosan milliy xarakterning jihatlarini anglatuvchi deyarli umumiste'mol so'zlardan biriga aylangan. Birinchi marta 1691 yilda ingliz lug'atlarida paydo bo'lgan mentalitet so'zi XIX asr o'rtalariga kelib boshqa G'arbiy Yevropa tillarida ham tarqala boshladi. O'sha asrning oxirlarida ilmiy adabiyotlarda ham qo'llana boshlaydi: fransuz sotsiologiya maktabining asoschisi Emil Dyurgheym uni individdan yuqori turuvchi (jamoaviy) ma'naviy o'ziga xosliklarni ifodalovchi sinonim sifatida ilmiy amaliyotga olib kiradi. Mentalitet o'z tabiyatiga ko'ra serqirra va bir-biriga zid voqe'liklardan xoli bo'lmagan o'ta murakkab ijtimoiy tushuncha. Ushbu tushunchaning mazmunida uning bir tomondan

tafakkur, dunyoqarash va tasavvur, ikkinchi tomondan, xulq va harakatdan iborat ikki muhim jihati ko‘zga tashlanadi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun mohiyati.
2. Xabar ma`lumot bitm va shartnomalar.
3. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendensiyalari.
4. Media qadriyatlar.

## 3-Mavzu: Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti.

Reja:

1. Aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji.
2. Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muxiti.
3. Bloger va vaynerda kasbiy etiket.
4. Axborot daromad manbaiga aylanishi. Axborotning inson ongiga ta’sir muammolari.

***Tayanch so’z va iboralar:*** *media, axborot, makon, raqobat, muhit, bosma, nashr, ommaviy, vosita, bloger, vainer, kasb, etiket, daromad, manba.*

**Aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji.** Zamonaviy jamiyatning bosma ommaviy axborot vositalariga bo'lgan talabi ular jamiyatda ommaviy muloqot vositasi sifatida qanchalik muvaffaqiyatli harakat qilishlari bilan belgilanadi, ular shaxs, guruh va boshqa ijtimoiy sub'ektlarga kognitiv, ta'lim, aksiologik, tashkiliy faoliyatda faol ishtirok etishga yordam beradigan bunday axborot munosabatlarini shakllantiradi. , xulq-atvor va boshqa ijtimoiy jarayonlar. Matbuot tomonidan ommaviy auditoriyaga taqdim etilgan hozirgi voqelikning to'liq, jonli va ob'ektiv tasvirisiz bunday muloqotni amalga oshirish mumkin emas. Turli ijtimoiy guruhlar hayotining real sharoitlarida namoyon bo'ladigan jamiyatning ma'naviy salohiyatini ushbu manzarada munosib aks ettirmasdan, mazmuni hozirgi voqelikni butun xilma-xilligi va to'liqligi bilan aks ettiruvchi nashrlar to'plamini yaratmasdan mumkin emas.

Unda sodir bo'layotgan real voqealarning asosi. To'liq jurnalistik ma'lumotsiz odamda sodir bo'layotgan voqealarga adekvat munosabatni shakllantirish, oqimning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ijobiy va salbiyni tushunish, manipulyatsion xabarlar, taxminlar va uydirmalarga qarshi turish, faol ishtirok etish qiyin. jamoatchilik fikrini ifodalash va shakllantirish jarayonlarida. Siyosat, iqtisod, ilm-fan, ma’naviy, ma’naviy, amaliy va amaliy faoliyatning boshqa turlarini ommalashtirish zarurati bosma ommaviy axborot vositalarining jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari o‘zaro hamkorligini ta’minlashga qaratilgan kommunikativ funksiyalarini amalga oshirishdagi katta mas’uliyatini belgilaydi. birinchi navbatda ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida shakllanganlar. Aslida, bu shaxs, guruh, tashkilotning turli xil ijtimoiy sub'ektlarning real hayot sharoitlariga muvofiq jamiyatda shakllanishi kerak bo'lgan xattiharakatlari uchun javobgarlikdir.

Bugungi kunda bosma ommaviy axborot vositalarini o'rab turgan muhitda ro'y berayotgan global o'zgarishlar ularning xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, texnologik qatlamlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalari tizimining jamiyat hayotining barcha sohalari bilan o'zaro ta'sirining integral natijasi sifatida oshkoralikni belgilab, publitsistikani rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy bosma ommaviy axborot vositalarini hisobga olish kerak. Ularni ochib berish Mustaqillik yillarida matbuot faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ular orasida ommaviy axborot makonining transformatsiyasi bor.Tabiat va jamiyatdagi har bir evolyutsion jarayon insoniyat tarixining muhim qismi sifatida insoniyatni o‘zi haqidagi tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga yaqinlashtiradi. Shu ma’noda u yerning yaratilish tarixi, hayvonot olami va o‘simlik dunyosining o‘zaro bog‘liqligidan dunyoning yaratilishi bilan dunyoning yaratilishi bilan bog‘liq muhim yangilikni tadqiq qiladi. Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining hayotimizga chuqur kirib borishi tufayli axborot hajmi ham oshdi va bunday global jarayonda jurnalistika ommaviy demokratik muloqotning eng yaxshi kafolati hisoblanadi. Muloqotning bu turi inson huquqlarini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Yangi ijtimoiy mehnat taqsimoti axborot munosabatlarining yangi subyektlarini vujudga keltirdi, turli ijtimoiy subyektlarning kommunikativ funksiyalari tarkibini qayta tashkil etdi va kengaytirdi, ularni amalga oshirishga ommaviy axborot vositalarini jalb qildi. Bu, birinchi navbatda, sof iqtisodiy faoliyatning kommunikativ funktsiyalariga taalluqlidir. Ammo siyosiy sohada, madaniyat va fan sohasidagi sub'ektlararo o'zaro munosabatlar ham sezilarli darajada o'zgardi. Internet ushbu o'zaro ta'sirning yangi texnologik imkoniyatlarini qo'shdi. Natijada, rivojlanayotgan bozor ehtiyojlari bilan kuchaygan axborot makonida segmentatsiya yuzaga keldi: uning ishtirokchilari ishlab chiqarish va tijorat faoliyati samaradorligini oshirish uchun o'zlarining tovar va xizmatlarini sotish uchun maqsadli auditoriyaga muhtoj edilar. Bularning barchasi birgalikda ommaviy axborot tizimidagi siljishlarni oldindan belgilab berdi: o'zgarishlar ularning tipologik tuzilishiga ta'sir qildi.

Ommaviy axborot vositalari turlarini raqobat muhitida muloqotning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirish boshlandi. Tipologik xususiyatlarni qisman o'zgartirish yordamida katta tijoriy muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yaratildi. Ushbu jarayonni media turini formatlash sifatida aniqlash mumkin. XX asrning 90-yillarida istiqlolga erishgan davlatlar mustaqil taraqqiyot yo‘lini yaratish bilan bir vaqtda tobora avj nuqtasiga ko‘tarilayotgan globallashuv jarayonlari talablariga moslashishga majbur edilar. Globallashuv hodisasiga shu qadar ko‘p ta’rif berilganki, ular qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, barchasida bir katta haqiqat – globallashuv – umumlashuv, yaxlitlashuv, o‘zaro aloqadorlik va hamkorlik ekanligi u yoki bu ko‘rinishda, shakl-shamoyilda ta’kidlanadi, takrorlanadi.

Yana bir haqiqat – globallashuv, keng ma’noda olib qaralganda, ko‘proq axborot globallashuvida o‘z ifodasini topmoqda. Bunday holat jahon media makonida axborot va umuman ommaviy axborot vositalari tushunchasini o‘zgartirib yubordi. Vujudga kelgan “yangi jahon axborot tartibi” har qanday davlat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko‘ndalang qo‘ydi. Qolaversa, ushbu holatga moslashish mustaqil davlatning xalqaro imiji shakllanishida hal etuvchi ahamiyat kasb eta boshladi.

1. Shunday ekan, xalqaro jurnalistika nima?
2. Jahon media makoni qanday tushuniladi?
3. Ulardagi yo‘nalishlar, manfaatlar, qonuniyatlar nimalardan kelib chiqadi?
4. Global axboriy qarama-qarshiliklar hamda g‘oyaviy-siyosiy texnologiyalarning ta’siri mamlakatimiz jurnalistlari oldiga qanday talab va vazifalarni qo‘ymoqda?
5. Xalqaro jurnalistika dunyosiga O‘zbekistonning integratsiyasi jurnalistlarimiz oldiga qanday yangidan-yangi talablarni qo‘ymoqda?

Bu kabi savollarga ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazarlardan javob topa bilish jamiyatning, davlatning zamonaviyligidan, zamon talablari darajasida taraqqiy topayotganligidan, pirovardida esa xalq va davlat imiji nechog‘li mukammal yaratilayotganligidan dalolat beruvchi mezon bo‘lib qolmoqda. Axborot globallashayotgan hozirgi zamonda dunyo mamlakatlaridagi matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyati bir tizim sifatida tasavvur qilib bo‘lmas, aql bovar qilmas oqimga aylanib bormoqda. Inson aql-idrokining, sivilizatsiyasining bemisl ixtirolaridan bo‘lgan mazkur oqim “jahon jurnalistikasi”, “xalqaro jurnalistika” deb atalmoqda. Insoniyat “globallashuv” deb atalgan yangicha hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan va bu aloqalar jadal sur’atlarda kengayib, chuqurlashib borayotgan yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi.

Buning natijasida “globallashuv” so‘zi iqtisodiygina emas, ijtimoiysiyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va boshqa qariyb barcha sohalardagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylanib ulgurdi. Axborot globallashuvi dunyo mamlakatlaridagi shart-sharoit va ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi umumiylikni, o‘xshashliklarni keltirib chiqardi. Buning oqibati o‘laroq: birinchidan, dunyoda oliy darajadagi ilg‘or jamiyat barpo etishning birdan-bir oqilona yo‘li demokratik-huquqiy davlat qurish ekanligini e’tirof etish kuchaydi; ikkinchidan, demokratik-huquqiy jamiyatning bosh belgisi va shartlaridan biri – ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo‘lmay qoldi; uchinchidan, biror taraqqiy etgan mamlakat matbuotini erkinlashtirish sohasida erishilgan ilg‘or tajribalarni uzoq-yaqin davlatlarga tarqatish imkoniyatlari ko‘paydi; to‘rtinchidan,

xalqaro jurnalistika maktablarini qamrab olishga qodir ko‘plab muhim xalqaro hujjatlar yaratildi va hayotga tatbiq etildi; beshinchidan, dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi ahvolini xalqaro miqyoslarda kuzatish, ular haqida fikr-mulohaza yuritish, bahosini berish va shu asosda muayyan mamlakatdagi ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odati birmuncha ommalashdi.

Sanab o‘tilgan holatlar, tabiiyki, dunyoni yaxlit axborot maydoniga aylantirib ulgurmoqda. E’tirof etish kerak, endilikda davlatlarning qudrati, salohiyati nechog‘li ko‘p axborotga egaligi bilan o‘lchanmoqda. Eng muhimi, axborotga egalik qilish tevaragida raqobat har qachongidan kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonning o‘zi xalqaro jurnalistikaning qaror topishini, rivojlanishini, pirovard natijada butunjahon jurnalistikasi xususiyatlarining umumiylashuvini jadallashtirmoqda. Filologiya fanlari doktori X.Do‘stmuhamedovning fikriga ko‘ra, bu hol milliy jurnalistikani jahon jurnalistikasi nuqtai nazaridan, ayni chog‘da jahon jurnalistikasini milliy jurnalistika nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil qilish zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda.

To‘g‘ri va aniq belgilab olingan vazifalar qatorida, fikrimizcha, jahon media makoni, unda xalqaro jurnalistikaning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati, shuningdek, milliy jurnalistikaning jahon media makonida tutgan o‘rni kabi mavzular ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi. “Xalqaro jurnalistika”, “xorijiy jurnalistika”, yanada kengroq ma’noda qo‘llanadigan “jahon jurnalistikasi” atamalarining har biri o‘ziga xos baho, ma’no bo‘yoqlari va yo‘nalishlarga ega bo‘lish bilan birga, umuman olganda bir tushunchani ifodalaydi. Xalqaro jurnalistika diplomatiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy me’yorlaridan keng foydalanilish zaruratiga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, milliy-madaniy o‘ziga xosliklar, qadriyatlar, mentalitet va axloqiy-tarbiyaviy me’yorlar, an’ana va aqidalar ham xalqaro jurnalistikaning tarkibiy unsurlaridandir.

Darhaqiqat, demokratiya va inson xuquqlari, urush va tinchlik, giyohvandlik, terrorizm, ekologik muammolar, shuningdek Yevropa davlatlarining dunyo

hamjamiyatiga integratsiyasi masalalarini jahondagi deyarli barcha yirik OAV sahifalarida ko‘rish, kuzatish mumkin. Dunyo mamlakatlaridagi milliy jurnalistika maktablariga xos bo‘lgan umumiy o‘xshashliklar haqida so‘z yuritganda, ayni vaqtda har bir davlat jurnalistikasida muayyan tafovutlar ham mavjudligini e’tibordan soqit qilmaslik kerak. Qayd etish joiz, jurnalistika sohasi jadal o‘zgarib borayotgan hamda OAV murakkab jarayonlarni boshidan kechirayotgan mamlakatlarning asosiy guruhini sobiq sotsialistik davlatlar tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar davriy matbuot, radio va televideniening faoliyat yo‘nalishini belgilab bermoqda.

Shu sababdan yosh mustaqil mamlakatlardagi rivojlanish tendensiyalari milliy jurnalistikadagi tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Aslida ham madaniy kelib chiqishi bir-biriga o‘xshash – “G‘arb”ga mansubligidan qat’i nazar, Yevropa va Amerika mamlakatlari jurnalistikasi bir-biridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladi. Umuman, Yevropa qit’asi jurnalistikasida muallif nuqtai nazarini ifodalovchi “fikr”ni berish (ya’ni, “Fikrlar jurnalistikasi”) ustun mavqeni egallagan bo‘lsa, Amerika va Britaniya jurnalistikasida aniq dalil va faktlarga ko‘proq tayanilgan, boshqacha aytganda, matbuot vakillari tomonidan ijtimoiy ahamiyatli yangilik sifatida baholanib tarqatilgan xabarlar tobora ko‘proq qadrlana boshlagan.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji.
2. Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muxiti.
3. Bloger va vaynerda kasbiy etiket.
4. Axborot daromad manbaiga aylanishi. Axborotning inson ongiga ta’sir muammolari.

## 4-Ma’ruza: Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makondagi o’rni.

**Reja:**

1. Media haqida tushuncha.

*2.* Umumiy media tasnifi.

*3.* Ommaviy axborot vositalari turlarining umumiy tavsifi.

*4.* media reklama.

*5.* makondagi o`rni.

**Tayanch so’z va iboralar:** *xorijiy, ommaviy, axborot, vosita, media, makon, tushuncha, tasnif, reklama.*

Endi sayyoramizdagi butun aholi yangiliklar kuzatish ko'p vaqt to'laydi. Axir, butun xabardor bo'lish uchun - bu eng yaxshi odam bo'lish, degan ma'noni anglatadi. Lekin barcha bir fikr bor , nima axborot vositalari? Media - bu kun haqida ma'lumot mavjud bo'lgan qaysi tomonidan chora. Ular bir necha xususiyatlari bilan ajralib turadi: massalari tomonlama ta'siri. tushunishda tiniqligi. Izolyatsiya umumiy, shuningdek, ishlab chiqarish haqida ma'lumot. shaxslar ma'lum bir guruh tomonidan ishonch va tan shakllantirish uchun tez-tez bo'lib zarur. Umumiy media tasnifi. Media ma'lum shartlarga ko'ra, turli toifalarga bo'linadi, soni qat'iyan sobit emas. turlari jalb viloyatlar, shuningdek, turlari va ommaviy axborot vositalari vazifalari:

Biroq, Rossiya qonunchiligi asosiylari quyidagilardir belgilaydi. Quyidagicha turiga ko'ra ajratish mumkin:Reklama.Yaltiroq.Ijtimoiy va siyosiy.Infotainment.Biznes va boshqalar.Hududlar, ommaviy axborot vositalari ishtirok radioeshittirish maydoni ta'sir qiladi. Bunday media hokazo Moskva, chet el, mintaqaviy va o'z ichiga oladi. kabi bir narsa ham bor "ommaviy axborot vositalari shakllari." Bu o'ziga xos ommaga ma'lumot berish uchun bir usul taqdim etadi. Bugungi kunda dunyo kabi ommaviy axborot vositalari bu turdagi foydalanadi: Muddatli (turli jurnallar, broshyuralar, varaqalar, gazetalar, va hokazo).TV va radio. Maxsus media.

Shuningdek onlayn resurslar sifatida. ommaviy axborot vositalari turlarining umumiy tavsifi_Ko'pincha, ko'pchilik uchun bu media kompaniyalari va ularning xususiyatlari hatto eng tez-tez ishlatiladigan turlari, sir bo'lib qolmoqda. Shuning uchun, birinchi qarashda, savolga da ko'rinadi, deb bizga bu qadar qiyin emas

qaraylik. Avvalo, biz bir davriy qaratiladi. Ular faqat, bir yilda kamida bir marta chiqib doimiy nomini va nashr o'ziga xos raqami bor chaqirdi. Tufayli ma'lumotlarni tarqatish usuli keng rivojlantirish uchun, u ham batafsil bo'linish qabul qildi. Bosma ommaviy axborot vositalari turlari kabi kabi, taniqli o'z ichiga oladi: Jurnallar - dolzarb siyosiy va ijtimoiy, ilmiy, ish va boshqa masalalar bo'yicha maqolalarning turli ichiga davriy.

Gazeta, - davriy tegishli taklif etadi, lekin tez vaqt va mazmun turli ega qisqa davrlarda o'tadi sana axborot chiqib ketadi. Almanacs - adabiy va ilmiy-ommabop asarlar nashr ixtisoslashgan to'plamlari. Bosma ommaviy axborot turlari, shuningdek, kam taniqli ommaviy axborot vositalari va boshqa turkum mavjud. Quyidagicha boshqa kategoriyalar media ifodalanadi: TV dasturlari - muayyan signal chastota spektri shaklida jamoa audiovizual xabar va adabiyotlar soni suxandon. Doimiy nomi va davriy shamollatish va quritish zarur. Radio - audio muayyan shaklida adabiyot xabarlarni, komplekslari elektromagnit maydon, shuningdek TV dasturlar.

Doimiy nomi va chiqish chastota sifatida zarur. Maxsus media - bu ro'yxatga olish va qonun tomonidan axborot tarqatish uchun maxsus qoidalar bor, buning uchun adabiyotlar. Bu jinsiy aloqa erotik, negadir ekspluatatsiya qiziqtirgan nashr o'z ichiga oladi.

Media reklama. Bugungi kunda, ko'proq va ko'proq mashhurlik Reklama mahsulotlari qozonmoqda, katta oluvchilar uchun qidiruv osonlashtiradi tovar va xizmatlar. Bundan tashqari, turli paydo davom reklama shakllari. ommaviy axborot vositalari bor juda ko'p, shuning uchun ularning ko'rib. bosma ommaviy axborot vositalarida reklama. asosiy afzalligi: bir martalik to'lov - cheklanmagan saqlash. Bu nashrlarda muddatli faoliyat e'lonlar cheklanmagan. Shuning uchun, matbuotda kamdan-kam hollarda aksiyalarni va chegirma dasturlari haqida yangiliklar kabi dolzarb ma'lumot joylashtirilgan, lekin butun kompaniya jami joylashtirilgan. radio reklama. Bu tez-tez ma'lum bir e'tiborini jalb qilish uchun ishlatiladi maqsadli auditoriya: haydovchilar, yoshlarni, nafaqaxo'rlar, boshqalar afzalligi - aksiyalarni haqida oddiy taklif o'z mahsulotlari va xizmatlarini, shuningdek ma'lumotlarni.

Televizorda reklama. yuqori baho hisobga reklama kampaniyasi keraksiz xarajatlarni oldini olish uchun, butun maqsadli guruh batafsil monitoringini amalga oshiriladi, televizorda. Internet reklama. Bu qat'iy nazar, uning yoshi, katta lariga ega, va juda samarali hisoblanadi. Ko'pincha, mijozlar tez ehtimoli ishlatiladigan axborot uzatish yaxshi taklif haqida. Eng tez-tez, bu afzalligi ijtimoiy ommaviy axborot vositalari va bannerlar, o'zini namoyon.

**Media vazifalari.** Endi, barcha ommaviy axborot vositalarida jihatlarini bilimga ega, ularning maqsad haqida emas faqat, bilaman. Bu maydon bartaraf tomonidan ommaviy axborot vositalari asosiy vazifalarini tadqiq etadi. Ular: Axborot: mohiyati masalalar va turli turdagi tadbirlarda maqsadli ogohlantirmagan bo'ladi. Baholash va komentariynaya: xabar va mutaxassislar tomonidan izoh faktlarni baholanadi. Bilim-o'quv: maqsadli bilim do'kon to'ldirish uchun ishlatiladi. Manipulator: aqli ta'sir va (ko'pincha siyosatda) turli joylarda odamlar beixtiyor.

**Makondagi o`rni** Bugungi kunda yoshlar mediadan juda keng va faol foydalanmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqlarga uyali telefon orqali suratlar yuboradi, turli yangiliklarga munosabat bildiradi, doimiy ravishda virtual makonda muloqotga kirishadi. Agar kattalar ish vaqtini dam olish vaqtidan ajratishga majbur bo’lsa, yoshlar onlayn va offlayn tartibdagi faoliyat o’rtasiga chegara tortish zaruratini his etmaydi. Global tarmoqdan yosh avlod vakillari dunyoning turli mintaqalarida yashaydigan insonlar bilan muloqotga kirishish uchun foydalanadi. Ular vizual va kommunikativ madaniyatning yangi toifasi vakillaridir. Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan voqealar qisqa fursat ichida zamonaviy ommaviy axborot vositalari ta'sirida boshqa davlatlarga tarqalmoqda. OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan g‘oyaviy ta’sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki u o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltiribchiqarmaydi.

Axborot dushmanni yo‘q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda asosiy diqqat

kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta’sir o‘tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televidenie fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda 1 milliard 250 million kishi u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkur fikrlarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi vabarqarorligigajiddiytahdidlarvujudgakelmoqda:inson ongini zaharlashga qaratilgan, ularning ruhiyatida agressivlik, tajavvuzkorlik, vahshiylik kabi illatlarni uyg'otadigan turli yot g'oyalarning, milliy mentalitetimizga, urf- odat, an'analarimnizga umuman mos kelmaydigan odatlar, pornografik axborotlar, turli xil yolg'on ma'lumotlar, mish-mishlarni tarqatiloyotgani insonni ogohlikka chorlaydi; insoniyat hayotiga qarshi qaratilgan noan'anaviy tahdidlar: xalqaro terrorizm, diniy ekstrimizm va fundamentalizm, noqonuniy qurol savdosi kundan-kunga milliy, mintaqaviy hamda xalqaro xavfsizlikka xavf solmoqda. Medialar shuningdek, yoshlarga muhim bo’lgan axborotlarni izlab topishda hamda fuqarolar bahs-munozaralarida qatnashishi uchun imkoniyatlar yaratishda yordam berishi kerak.

O’z fikrini aniq bayon etish, uni asoslab bera olish, voqea va hodisalarni turli nuqtai nazardan ko’rib chiqish malakasi –media savodxonligining muhim tarkibiy qismi bo’lib, undan OAVning turli kanallari uchun maqola tayyorlashda, videomaterialni e’lon qilishda, muhim masalalar yuzasidan ijtimoiy reklama tayyorlashda yoki bahs-munozaralarni tashkil etishda foydalanish mumkin. Masalan, o’quvchilar o’zi uchun ahamiyatli bo’lgan muammo yuzasidan ijtimoiy mediakompaniyaga qo’shilishi, kampaniya qanday kechayotganini kuzatib borishi mumkin. Bir vaqtning o’zida ular opponentlar uchun ma’qul bo’ladigan shaklda o’z nuqtai nazarini shakllantirishni ham o’rganib boradi. O’z fikrini bayon etish

erkinligini cheklashga, faqat boshqa odamlarga ham o'z qarashlarini bildirish imkonini berish zarurati tug'ilgandagina yo'l qo'yiladi. Haqorat qilish, sha'nga tegish, nafrat kabilarni taqiqlovchi qonunlar ko'rinishidagi bunday cheklovlar turli suiste'mol qilish holatlarining oldini olish uchun juda zarur. Ular uchun "mashhur bo'lib ketish" o'zini namoyon etish, hamda shu orqali tor yoki keng doiradagi odamlar, aksariyat hollarda tarmoqlardan xalqaro miqyosda foydalanuvchilar qo'llab-quvvatlashi va e'tirofiga sazovor bo'lishdan iboratdir.

Yoshlar uchun mediadan foydalanish yaqqol ijtimoiy ma'noga egaligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ayni damda o'zidan olisda bo'lgan yaqinlari bilan muloqotda bo'lib turadi, yangi do'stlar orttiradi. Ular Internetda turli ijtimoiy rollarda o'zlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega. Uyatchan va kamgap inson tarmoqda ochiq va sergap bo'lib ketishi ham mumkin. Ammo interfaol muloqot orqali barcha ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'la olish mumkin emas. Shuning uchun yoshlarning real hayotda ham do'stlari bo'lishi juda muhim. Ko'plab yoshlar tarmoqdagi do'stlari bilan real hayotda ham uchrashib turadi. 1. Yoshlar va kommunikatsiyalarning mobilligi. Kommunikatsiyaning mobilligi deganda "ko'p kanallilik" tushuniladi. Yoshlar vaziyat va o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, turli-tuman media qurilma va kontentlardan foydalanadi. 2.Yoshlar media-resurs parcha(fragment)larini afzal ko'rishadi.

Foydalanuvchilar ko'plab takliflar orasidan mediani tanlash imkoniyatiga ega, ya'ni: qaysi videoklipni ko'rish, qanday yangiliklarni ochish, qaysi ma'lumotlarga ishonish va h.k. Yoshlar turli manbalardan olingan axborot parchalarini yaxlit holatga keltiradi. Natijada esa parchalanish (fragmentatsiyalash) xavfi va umumiy manzaraning buzilishi ehtimoli yuzaga keladi. 3.Yoshlar mediakontentni do'stlariga tavsiya etadi. Ijtimoiy mediada har kim axborotning markaziy manbasiga, fikrlar filtri yoki baobro' yetakchisiga aylanishi mumkin. Bunda axborot oqimlari kesishadigan markazga aylanish juda oson, chunki bu vositalardan barcha foydalana oladi.

4. Yoshlar parallel ravishda bir necha mediadan foydalanadi. Bir vaqtning o’zida medianing bir necha turi qo’llanilishi mumkin: yoshlar bir vaqtning o’zida radio tinglashi, jurnal o’qishi va Facebookda do’stlari bilan muloqot qilishi mumkin.

5. Yoshlarda har doim mediavositalar mavjud bo’ladi.

Deyarli barcha o’smirlarning qo’lida har doim uyali telefon, planshet yoki mp3pleyer bo’ladi. Mobil Internet ijtimoiy tarmoqlar uchun yangidan-yangi imkoniyatlar eshiklarini ochib bermoqda. Makondagi joylashuvni o’rnatishga asoslangan ilovalardan foydalanish bunga yaqqol misol bo’la oladi. Media va axborotni yaratish hamda undan foydalanish. MAS yoshlarni media va axborot platformalari bilan o’zaro munosabatga kirishish, kasbiy muloqot hamda kontentni tayyorlash bo’yicha zarur kompetensiyalar bilan ta’minlaydi. Ushbu ko’nikma va qobiliyatlar sirasiga xalqaro standartlar va madaniyatlararo bag’rikenglikni e’tiborga olgan holda media va axborot axloq-odobi tamoyillarini o’zlashtirish kiradi.

MAS materiallari va vositalarini saralash, moslashtirish va yoki yaratish qobiliyati uchun zarur bo’lgan ko’nikmadir. OAVning bo’lajak mutaxassisida mustaqil ravishda mediaresurslar yaratish ko’nikmasi shakllanishi ham juda muhim, chunki bu narsa uni mediatadqiqotlar olib borishga undaydi va kasbi doirasida tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Foydalanuvchi kontenti ham yangi, ham an’anaviy medialarga diqqatni jalb etishning asosiy omili bo’lib bormoqda. Shu ma’noda O’zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va boshqa mobil media imkoniyatlarini fuqarolarning jamiyat hayotida hamda millat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy va siyosiy masalalar yuzasidan ijtimoiy muloqot-munozaralarda faol ishtirok etishini ta’minlash nuqtai nazaridan yanada faollashtirish zarur. MAS bo’lg’usi jurnalistlarga izchillik bilan jamiyatda media va axborot savodxonligini keng targ’ib qiluvchi kuchga aylanish imkoniyatini yaratadi.

## Nazorat uchun savollar

1. Media haqida tushuncha.

2. Umumiy media tasnifi.

3. Ommaviy axborot vositalari turlarining umumiy tavsifi.

4. media reklama.

5. makondagi o`rni.

## 5-Ma’ruza: Media maydon tuzulishi va ta’siri.

Reja:

1. Axborotga odamlarning ehtiyoji.
2. Matbuotda so‘z va axborot erkinligi.
3. Axborotni daromad manbaiga aylantirish.
4. Axborotning inson ongiga ta'siri muammolari.

**Tayanch so’z va iboralar:** media, maydon, tuzulish, ta’sir, axborot, ehtiyoj, matbuot, erkinlik, daromad, manba, muammo.

1. Axborotga odamlarning ehtiyoji. Zamonaviy jamiyatning bosma ommaviy axborot vositalariga bo'lgan talabi ular jamiyatda ommaviy muloqot vositasi sifatida qanchalik muvaffaqiyatli ishlayotgani, shaxslar, guruhlar va boshqa ijtimoiy sub'ektlarning kognitiv, ta'lim, aksiologik, tashkiliy, ijtimoiy va ijtimoiy faol ishtirok etishga yordam beradigan bunday axborot munosabatlarini shakllantirish bilan belgilanadi. Bugungi kunda bosma ommaviy axborot vositalarini o'rab turgan muhitda ro'y berayotgan global o'zgarishlar ularning xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, texnologik qatlamlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

Ommaviy axborot vositalari tizimining jamiyat hayotining barcha sohalari bilan o'zaro ta'sirining integral natijasi sifatida oshkoralikni belgilab, biz Rossiya bosma ommaviy axborot vositalarining rivojlantirishda ishtirok etgan zamonaviy resurslarini ana shunday pozitsiyalardan ko'rib chiqmoqchimiz. Ularni ochib berish postsovet davridagi mahalliy matbuot faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ular orasida ommaviy axborot makonining transformatsiyasi bor. Mamlakatda boshlangan jamiyat hayotining eng muhim

sohalarini modernizatsiya qilish amaldagi aloqa tizimlarini, birinchi navbatda, ommaviy axborot vositalari tizimini tubdan qayta qurishni taqozo etadi. Ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy o‘zaro aloqalar yangi kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti tufayli tobora kengayib borayotgan imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, O‘zbekiston media tizimi ulardan jamiyatni modernizatsiyalash muammolarini hal etishda yetarlicha foydalanmayapti.

Axborotga bo'lgan ehtiyojning mohiyati. Biz darslik falsafiy kategoriyalariga amal qilamiz. «Mohiyat - bu ob'ektning barcha xilma-xil va qarama-qarshi shakllarining barqaror birligida ifodalangan ichki mazmuni; ob'ektning u yoki bu kashfiyoti hodisasi, uning mavjudligining tashqi shakllari. Tafakkurda bu kategoriyalar ob'ektning turli xil o'zgaruvchan shakllaridan uning ichki mazmuni va birligiga - tushunchaga o'tishni ifodalaydi. O'quvchilar sonining jadal o'sishi, raqamli texnologiyalarning faol rivojlanishi, tarmoqqa kirishning kengayishi, Internet segmentida ichki reklama bozorining rivojlanishi va jahon reklama bozori bilan integratsiyalashuvi tufayli onlayn medianing jadal rivojlanishi. onlayn media segmenti sanoatida xorijiy kapitalning ortib borayotgan roli media korxonalari o'rtasida raqobatning kuchayishiga olib keldi. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy bozorda raqobat muhiti o'ziga xos tarmoq xususiyatlariga ega va raqobatbardosh ustunliklarni shakllantirish va rivojlantirishning strategik jarayoni, shuning uchun ham sanoatning o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Bu umuman ommaviy axborot vositalari bozorining xo'jalik yurituvchi sub'ektlari uchun ham, Internet tarmog'ida faoliyat yurituvchi media-korxonalar uchun ham, xususan, ularning mahsulotining o'ziga xosligi, foydalanuvchi auditoriyasining xususiyatlari, globallashuv va axborotning mintaqaviylashuvining hozirgi tendentsiyalari tufayli xarakterlidir. reklama bozorlari. Bularning barchasi birgalikda ommaviy axborot tizimidagi siljishlarni oldindan belgilab berdi: o'zgarishlar ularning tipologik tuzilishiga ta'sir qildi. Ommaviy axborot vositalari turlarini raqobat muhitida muloqotning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirish

boshlandi. Tipologik xususiyatlarni qisman o'zgartirish yordamida katta tijoriy muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yaratildi.

Ushbu jarayonni media turini formatlash sifatida aniqlash mumkin.Bosma nashrning formati o'ziga xos "tipologik yangi shakllanish" bo'lib, uning paydo bo'lishi ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy barqarorligini izlash bilan bog'liq bo'lib, yuqori ixtisoslashgan, yuqori darajadagi nashrlarni yaratish orqali ularning tipologik tuzilishini differentsiatsiyasini oshirishga olib keladi. ixtisoslashtirilgan ommaviy axborot vositalari. Bosma ommaviy axborot vositalari formatlari media muhitining zamonaviy voqeliklariga moslashtirilgan va zamonaviy kommunikatsiya strategiyalari va texnologiyalari bilan boyitilgan ularning tipologik modellari majmuidir. Media turi uning tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirining integral natijasi bilan tavsiflanadi. Bunday natija ijtimoiy faoliyatning ma'lum bir turi ishtirokchilari o'rtasida yaratadigan aloqa va u tomonidan yaratilgan tegishli ijtimoiy munosabatlar: mafkuraviy, siyosiy, axloqiy, tashkiliy va boshqalar. Bu aloqa va tegishli ijtimoiy munosabatlar birgalikdagi harakatlarni tashkil etishga yordam beradi. ushbu ijtimoiy guruh - bu guruhning real hayotiy sharoitlariga mos keladigan xatti-harakatlar.

Uning ishtirokchilari va ma'naviy ishlab chiqarishning boshqa sohalari ishtirokchilarining kuchlari orqali bunday aloqa ushbu ijtimoiy guruhning ham, butun jamiyatning ham ma'naviy salohiyatini boyitishni ta'minlaydi. Jamiyat taraqqiyotining turli murakkablikdagi ziddiyatli ko‘rinishlari xorijlik olimlar D.Bell, T.Parsons, J.Gelbreyt, P.Draker, M.Kastels, U.Rostou, A.Toffler, F.Uebsterlar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, ularning asarlarida axborot, axborotlashgan jamiyat va axborot almashinuvi jarayonlariga oid muammolarini tadqiq etishga qaratilgan. Axborotning yuzaga kelishi, qimmati, axborot va axborotlashtirish masalalarining ijtimoiy tizimdagi murakkab o‘zgarishlar strategiyasidagi o‘rni kabi muammolar R.Abdeev, V.Inozemsev, I.Melyuxin, N.Moiseev, I.Novik, V.Styopin, V.Goroxov, M.Rozov, D.Chernavskiy, A.Chernov, kabi MDH olimlari tomonidan o‘rganilgan.

Axborot hamda axborotlashtirish jarayonining alohida falsafiy va iqtisodiy jihatlari bo‘yicha J.Abdullaev, M.Yoqubova, O.Kostrina, O.Lanseva, M.Usmonova, Sh.Qo‘shoqovkabi ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. 2. Matbuotda so‘z **va** axborot erkinligi Rudolf fon Jering yakkalanishni xalqlarning halokatli gunohi deb e'lon qiladi, chunki tarixning eng oliy qonuni birlashishdir.

Globallashuv jarayoni tabiiydir, chunki muloqotning o‘zi tabiiy va bu jarayon tobora kuchayib, jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, xalqlar muloqotini ta'minlovchi ommaviy axborot jarayonlarida o'z ifodasini topadi. Ommaviy axborot vositalari muloqot qilish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratadi. L.V Mrochkoning so'zlariga ko'ra, ular og'zaki muloqot (ma'ruza, konferentsiya, uchrashuv va suhbat), madaniyat va san'at (teatr, adabiyot va kino) va ommaviy axborot vositalari (davriy matbuot, televidenie va radioeshittirish) larni o'z ichiga olishi mumkin. Muloqot - bu ma'lumot uzatishni o'z ichiga olgan jarayon. So'nggi yillarda axborot uzatishning ikkita modeli mavjudligi nazariyasi ishlab chiqildi - "vertikal" (rasmiy, davlat yoki xususiy ommaviy axborot vositalaridan aholiga) va "gorizontal" (fuqarodan fuqaroga, masalan, Internet orqali).

Ommaviy axborot vositalari faoliyati jiddiy va mas’uliyatli jamoat va davlat vazifasidir. Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalarida so‘z erkinligini ta’minlash, bu erkinlik chegaralarini belgilashga yo‘l qo‘yilishi masalasi bilan belgilanadi. So‘z erkinligi uchun va unga qarshi kurash asrlar davomida davom etib kelmoqda. XXI asr boshlarida jahon hamjamiyati inson huquqlarini, jumladan, so‘z erkinligini himoya qiluvchi va ta’minlaydigan keng qamrovli qonunchilikni yaratdi. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlangan matbuotga oid davlat siyosati tahririyatlar va jurnalistlarning kasbiy mustaqilligini, ommaviy axborotni olish va tarqatish erkinligini kafolatladi. Milliy matbuot bozori shakllandi, u umumiy tovar bozorining segmentiga aylandi. Haqiqiy so'z erkinligi ikkita muhim shart - shaxsga ma'lumot to'plash, tahlil qilish va uning asosida shaxsiy fikrni shakllantirish imkonini beradigan oshkoralik rejimi va xizmatda bo'lgan matbuot erkinligi mavjud bo'lganda

amalga oshiriladi jamiyatning fikri va shaxsiy fikrini bildirishni xohlovchilar uchun imkoniyat yaratadi. Jamoatchilik fikrini ochib berish va namoyon qilish kontekstida oshkoralik va matbuot erkinligi jamiyatni demokratlashtirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq, ommaviy so'rovlar, siyosiy teledebatlar va ko'cha namoyishlari amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, agar biror narsada muvaffaqiyatga erishilgan bo'lsa, bu ijtimoiy texnologiyalarning tobora takomillashib borayotganidadir. Ularning maqsadi xalqni gapirish imkoniyati berilganiga ishontirishdir. Ta’kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari kommunikatsiya tizimining bir bo‘lagi sifatida jamiyatning mustaqil siyosiy instituti sifatida faoliyat yuritadi. Bu institut demokratik plyuralistik tizim doirasida faoliyat yuritib, jamoatchilik ongida mavjud bo‘lgan turli fikr va mulohazalarni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu ma'lumotlar, ichki, yopiq aloqa orqali keladigan ma'lumotlarga nisbatan, ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalari elektoratni boshqarish, siyosiy tarbiya va safarbarlik vazifalarini bajaradi.

Xuddi shu funksiyalar siyosatchining ommaviy kommunikatsiyaga qo'shilish motivatsiyasini aniqlaydi, bu esa qarorlarni nashr etish va tushuntirish, ijtimoiy hayotdagi kutilmagan vaziyatlarni izohlash, aholini siyosiy qo'llab-quvvatlash uchun murojaat qilish va ko'z oldida o'zining jozibali qiyofasini yaratish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, saylovoldi tashviqoti, saylovchilar oldiga hisobot berish, nutqning xalqaro rezonans kuchayishi davrida kuzatilmoqda. Ommaviy axborot vositalari jamiyat ommaviy kommunikatsiyasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, bir butun sifatida qabul qilingan holda turli ijtimoiy-siyosiy rollarni bajaradi, ularning u yoki bu qismi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qarab alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Bular jamiyatni birlashtiruvchi, uning tarbiyachisi, tashkilotchisi rollari bo'lishi mumkin. Tarixiy taraqqiyotning inqirozli davrlarida ommaviy axborot vositalari turli kuchlar, hokimiyat va xalq o‘rtasidagi muloqotda vositachi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ommaviy axborot vositalarining o‘zining asosiy ijtimoiy funksiyalarini bajarishi, jamiyatni birlashtirishga hissa

qo‘shishi, mamlakat siyosatining asosini tashkil etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash lozim.

Davlat esa, o‘z navbatida, axborot sohasida fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratib berishi, davlat va moliyaviy-tijorat tuzilmalarining matbuotga ta’siri kamayishi, matbuot, eng avvalo, fuqarolik nazorati ostiga o‘tishi kerak. jamiyat. 3. Axborotni daromad manbaiga aylantirish “Ayni vaqtda barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz zarur: axborot maydonidagi turli bahs va tortishuvlar, avvalo, haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun va odob qoidalari doirasida bo‘lishi, shaxsiy g‘araz va xusumatga, soxta obro‘ orttirish usuliga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va sha’nini tahqirlashdan yiroq bo‘lishi, bunday salbiy holatlarga bizning media maydonimizda mutlaqo o‘rin bo‘lmasligi kerak”1 deydi Sh.Mirziyoyev.

Axborotlarni yig’ish usullari Axborot atamasi lotincha information axborot so‘zidan olingan bo'lib, tushuntirish, xabardorlik, taqdim etish degan ma'noni anglatadi. Keng ma'noda axborot - bu odamlar o'rtasida axborot almashish, jonli va jonsiz tabiat, odamlar va qurilmalar o'rtasidagi signal almashishni o'z ichiga olgan umumiy ilmiy tushuncha. Axborot - bu atrof-muhit ob'ektlari va hodisalari, ularning parametrlari, xususiyatlari va holati to'g'risidagi ma'lumotlar, ular haqidagi bilimlarning noaniqligi va to'liq emasligi darajasini kamaytiradi. Informatika fanida axborot bilan bir qatorda ma'lumotlar tushunchasi ham tez-tez ishlatiladi. Ma'lumotlar qandaydir sabablarga ko'ra ishlatilmaydigan, faqat saqlanadigan belgilar yoki qayd etilgan kuzatuvlar sifatida qaralishi mumkin. Agar biror narsaga nisbatan noaniqlikni kamaytirish uchun ushbu ma'lumotlardan foydalanish mumkin bo'lsa, ma'lumotlar ma'lumotga aylanadi. Shu sababli, ma'lumot foydalanilgan ma'lumotlar deb ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda bloggerlik butun bir professional yo'nalishdir, garchi bu kasb hali universitetda o'rgatilmagan.

O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi 560—II-sonli Qonuniga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu o‘zgartirishlar blogerlarning faoliyatini tartibga solish maqsadida

kiritildi. Bu haqda “Xalq so‘zi” gazetasining rasmiy saytixabarberadi. Unga ko‘ra: Bloger — Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan axborotdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs. O‘zbekistonda blogerlik faoliyati "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi qonun doirasida tartibga solinadi. Qonunga "blogerlik" iborasi ilk bor 2014 yilda kiritilgan. ochiq manbalardan qo‘lga kiritilgan axborotni tarqatayotgan shaxsning mas’uliyati belgilab berilgan. «Axborotlashtirishto‘g‘risida»gi Qonunda «bloger» tushunchasini quyidagi tarzda kengaytirilgan: xabar va materiallarni to‘plash, tahlil qilish, tahrirlash, tayyorlash va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi hamda ularni axborotdan foydalanuvchilar tomonidan, shu jumladan, muhokama qilishi uchun Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z vebsaytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga joylashtiruvchi jismoniy shaxs.

Hozirda bloger – jamoatchilik-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa tusdagi axborotlarni ulardan foydalanuvchilar tomonidan, shu jumladan, muhokama qilishi uchun Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytiga va (yoki) vebsayt sahifasiga joylashtiruvchi jismoniy shaxs.2O‘zbekiston Respublikasining 30.03.2021 yildagi O‘RQ-679-son yangi tahrirdagi Qonuninida bilogerlik faoliyatiga quyidagicha o‘zgartirishlar kiritilgan. «121-modda. 4. Axborotning inson ongiga ta'siri muammolari YUNESKO hujjatlarida mediata’lim “pedagogik nazariya va amaliyotda o‘ziga xos va avtonom sohaning bir qismi sifatida qaraladigan zamonaviy ommaviy axborot vositalarini o‘zlashtirish nazariyasi va amaliy ko‘nikmalarini o‘rgatish; Matematika, fizika yoki geografiya kabi boshqa ta’lim sohalarini o‘qitishda yordam sifatida ommaviy axborot vositalari va aloqa vositalaridan foydalanishdan farqlanishi kerak”. Ilm-fanning fundamental yo‘nalishlari bilan bog‘liq holda “media ta’lim” va “media pedagogikasi” tushunchalari so‘nggi paytlarda rivojlandi. A. A. Novikova o'z maqolasida ta'kidlaganidek, 60-yillarda. 20-asrda dunyoning yetakchi mamlakatlari (Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya)

pedagogika fanida o‘ziga xos yo‘nalish – mediata’lim maktab o‘quvchilari va talabalariga yaxshi moslashishga ko‘maklashishga qaratilgan. media madaniyat olami, ommaviy axborot vositalari tilini puxta egallash, media matnlarni tahlil qilishni o‘rganish va boshqalar. A. V. Sharikov media-ta'limni ommaviy kommunikatsiya sohasidagi ta'lim, "bu o'ta muhim hodisaning sirlari va qonuniyatlari" bilan tanishish deb tushunishni taklif qiladi.

S. N. Penzinning ta'kidlashicha, media ta'lim auditoriyaga savodxonlikni o'rgatish bilan cheklanib qolmaydi, "estetik va axloqiy sintez" zarur. Rivojlanayotgan jamiyat ommaviy axborot vositalaridan (ommaviy axborot vositalaridan) keng foydalanish bilan barcha axborot jarayonlarini faollashtirishni talab qiladi. Ommaviy axborot vositalarining o'sib borayotgan imkoniyatlari tufayli axborot iste'molchiga yuqori tezlikda etib boradi, ko'p marta takrorlanadi va omma ongiga faol kiritiladi. Axborotning o'sishi urbanizatsiyalashgan hududlarga xos bo'lgan yangi aloqa shaklini - ommaviy kommunikatsiyani keltirib chiqardi. Ommaviy kommunikatsiya deganda ommaviy axborotni ishlab chiqarish va uni to'g'ridan-to'g'ri muloqot orqali yoki ommaviy axborot vositalari orqali raqamli va tarqoq auditoriyaga tarqatish jarayoni tushuniladi. Bir xil ma'lumotlarni katta maydonlarga o'tkazish va uni takroriy va deyarli bir vaqtning o'zida ko'paytirish imkoniyati ommaviy axborot vositalarining ommaviy ongning ommaviy sub'ektiga ta'sirini tartibga solish imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalarining ommaviy ongga sezilarli ta'sir ko'rsatish qobiliyati uzoq vaqt oldin sezilgan. Ommaviy axborot vositalarining texnik imkoniyatlarini takomillashtirish ishonuvchan va oson ta'sirlanadigan ommaviy ongni manipulyatsiya qilish ko'lamini sezilarli darajada kengaytirdi.

Ommaning o'z fikri yo'q, chunki u nazariy fikrlashga moslashtirilmagan, shuning uchun har qanday fikrni unga tashqaridan va bosim ostida siqib chiqarishga to'g'ri keladi va ma'lumotni mohirona manipulyatsiya qilish taklif qilish imkoniyatlarini yaratadi. ommaviy axborot vositalari tomonidan amalda cheklanmagan. Axborot asrida ijtimoiy qadriyatlar, yo‘nalish va qarashlarni

shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari odamlar hayotiga chuqurroq kirib, ommaviy ongga dinamik va maqsadli ta'sir ko'rsata boshladi. Bu ommani tashkil etuvchi shaxslar ommaviy axborot vositalari tomonidan joylashtirilgan "axborot fantomlari" dunyosida yashay boshlaganiga olib keldi. Axborot asrida ijtimoiy qadriyatlar, yo‘nalish va qarashlarni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari odamlar hayotiga chuqurroq kirib, ommaviy ongga dinamik va maqsadli ta'sir ko'rsata boshladi. Bu ommani tashkil etuvchi shaxslar ommaviy axborot vositalari tomonidan joylashtirilgan "axborot fantomlari" dunyosida yashay boshlaganiga olib keldi.

Ommaviy axborot vositalarining (televideniye, matbuot, radio, Internet) keng doirasi, ko'rinishidan, insonning xarakterini, faoliyati va ongini individuallashtirishga olib kelishi, unga tanlash imkoniyatini berishi kerak: televizor ko'rish yoki ko'rmaslik, va agar ko'rsangiz, unda qaysi kanal yoki dastur, matbuotni o'qiysiz yoki o'qimaysiz, radio eshittirishlarini tinglaysiz yoki eshitmaysiz. Ammo, bizning fikrimizcha, bu faqat illyuziya, odamning tanlovi yo'q. Odamlarning katta qismi televizorni, xuddi shu kanallar, dasturlarni va dastur qo'llanmasi qoidalari bilan tasdiqlangan tartibda tomosha qiladi. Ular boshqa ko'pchilik o'qigan jurnal va gazetalardagi xuddi shu maqolalarni o'qiydilar, o'z ishlari bilan shug'ullanayotganda yoki uyda dam olayotganda bir xil radio spektakllari va yangiliklar eshittirishlarini tinglashadi. Mavjud vaziyat OAVga baho berishda noaniqlikni keltirib chiqarmoqda. Bir tomondan, ommaviy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi odamlarning atrofidagi dunyo haqida xabardorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin ayni paytda, ularning rivojlanishi ortida ommaning ongini manipulyatsiya qiluvchi omil mavjud. Aynan ommaviy axborot vositalari va ommaviy kommunikatsiyalar birinchilardan bo'lib shaxsning ommaviylashishini qo'zg'atadi, odamlarning qarashlarini, xatti-harakatlarini standartlashtiradi va ularning reaktsiyalarining bir xilligini rivojlantiradi.

Uinston Cherchill ma'lumotga ega bo'lgan odam dunyoga egalik qiladi, degan edi. Bugun biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ommaviy axborot vositalarini boshqarayotgan kishi odamlarning qarashlariga, ularning xulq-atvoriga, umuman, jamiyatdagi ommaviy ongga faol ta'sir ko'rsatishga qodir. Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish turli «axborot bosimi» tarkibidan milliy taraqqiyot manfaatlariga moslarini to‘g‘ri tanlab olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish masalasiga oydinlik kiritib olish lozim. Bu esa quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: axborot olish, uni tasarruf etishda axborotning mazmun-mohiyatiga, uning haqiqiy ekanligi, qaysi omillarga asoslanganligi va qanday maqsadda tarqatilayotganiga e’tibor qaratish; axborotning qanday natija berishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uni tahlil qilish, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlab, so‘ngra muayyan bir xulosaga kelish; axborotga ongli, yuksak tafakkur bilan yondashish va uni kerak hollarda sintez qilish, salbiy fikrlarga qarshi, axloqiy-ruhiy sharoitlar yaratish; axborotda ijobiy fikrlarni jonlantirish, targ‘ib etishda milliy qadriyatlarga asoslanish.

Bu ishni aniq tarixiy vaziyat bilan rivojlantirish uchun davom etayotgan ichki va tashqi sharoitlar bilan muttasil bog‘lab olib borish; mavjud axborotda jamiyatdagi plyuralistik ilmiy g‘oyalarni saqlagan holda, individning o‘z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qilishiga qarshilik qilmaslik; yoshlarda axborot madaniyatining shakllanganligini hisobga olib, undan samarali foydalanish, bajariladigan ishlarning ta’sirchanligini puxta nazorat qilib turish orqali jamiyatda mustahkam barqarorlikni ta’minlashga erishish zarur.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Axborotga odamlarning ehtiyoji.
2. Matbuotda so‘z va axborot erkinligi.
3. Axborotni daromad manbaiga aylantirish.
4. Axborotning inson ongiga ta'siri muammolari.

## 6-Ma’ruza: Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar.

Reja:

1. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari.
2. “Axborot xuruji” tushunchasi.
3. Axborot xurujlari va tahdidlarning salbiy oqibatlari.

**Tayanch so’z va iboralar:** ijtimoiy, tarmoq, axborot, xuruj, tahdid, texnologiya, xavfsizlik, tizim, faoliyat.

Axborot ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotning muhim omilidir. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyati kundan–kunga ortib, ma’lumotlar bilan ishlash usullari o’zgarishi va yangi axborot texnologiyalarini qo’llash sohalarining kengayishi kuzatilmoqda. Axborot hajmining borgan sari ko‘payishi XX asrning ikkinchi yarmidan yaqqol namoyon bo‘la bordi. O‘tgan asrning 70 yillarida axborot hajmi har 5-7 yilda ikki barobarga ortgan bo‘lsa, 80-yillarda bunday o‘sish har 20 oyda, 90-yillarda esa har yili kuzatilgan. Axborot hajmining bu qadar ortib ketishi insonning axborotni butunligicha qabul qilish imkonini cheklab qo‘yayotganini ta’kidlash lozim. “Axborot”, “huruj” va “axborot huruji” tushunchalarining ta’rifini berish va ularni o‘zaro bog‘lash orqali qo‘yilgan muammoni yanada chuqurroq tushunish, axborot xavfsizligini ta’minlash masalasining dolzarb ekanligini anglash mumkin. Axborot so‘zining kelib chiqish tarixiga nazar solsak, u arabcha “axbor”,ya’ni xabar s o‘zidan olingan. Informatsiya esa lotincha informatio so‘zidan olingan bo‘lib, «tushuntirish, xabar qilish, talqin etish» ma’nolarini anglatadi va namoyon bo‘ lish shakllaridan qat’iy nazar biror narsa haqidagi ma’lumotni o‘zida namoyon etadi.

Bugungi kunda axborot va informatsiya so‘zlari ko‘p hollarda yagona mazmundaishlatilmoqda.Amerikalik muhandis, matematik va birinc hilardan bo‘lib axborot nazariyasini yaratgan olim Shennon K. axborotni “oydinlashtirilgan mavhumlik”, - deya ta’riflagan. Buning ma’nosi shundan iboratki, axborotni qabul qilib inson yangi bilimlar bilan tanishadi,

ilgari mavhum bo‘lgan narsalarni anglaydi, qo‘ygan savollariga javob topadi. Bu tugamas va doimiy jarayondir.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida” gi qonuniga muvofiq axborot axborotlashtirish jarayonida qo‘llanuvchi axborot resursi sanaladi. Mazkur malakaviy ish doirasida axborot deyilganida biror manbada qayd qilinuvchi, omma uchun qiziqarli bo‘lgan va qayta ishlanuvchi faktlar, hodisalar, voqealar yig‘indisini tushunish maqsadga muvoffiq. Huruj deyilganida, biror tizimga nisbatan disfunksional yoki uning tartibini buzishga intiluvchi turli kuchlar va omillar mavjud bo‘lgan holat tushuniladi. Hurujlarning asosiy maqsadi tizimning faoliyatini tartibsizlik holatini keltirish orqali buzishdan ibo rat.

Ular kelib chiqish manbasiga, amalga oshiruvchi kuchlariga va qaysi ob’ektlarga ta’sir ko‘rsatishiga, shuningdek, ta’sir xavfi hamda rivojlanish darasiga ko’ra farqlanadi. Aniqroq qilib aytganda, vaqt omili hisobidan hurujning xavfi va tizimga nisbatan ta’sirdan kelib chiqib uni buzush ehtimoli nazarda tutiladi. “Axborot huruji” deyilganida muayyan kuchlarning o‘z siyosiy maqsad va muddaolarini amalga oshirish yo‘lida eng avvalo mafkuraviy omillar, shuningdek, m oddiy va ma’naviy ta’sir o‘tkazish orqali kishilar ongi, qalbiga yot g‘oyalarni singdirishni, ularning hissiyotlari, e’tiqodi, tuyg‘ulariga ta’sir etishni, turmush tarzi, mentalitetidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishni ko‘zlovchi xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Davlatning o‘z jamiyati xavfsizligini ta’minlashi vazifasi nuqtai nazaridan olganda, axborot hurujlari axborot xavfsizligini buzish xavfini solgan sharoit va ijtimoiy omillar yig‘indisidir.

Axborot xurujlarining manbalari. Ularning ijtimoiy muhitda amalga oshish usullari. Bugungi axborot hurujlari orqali o’z g’oyalarini singdirish va jamiyat a’zolarini, ayniqsa, yoshlarni o’z izmiga solish ko’p kuzatilayotgan holat bo’lib qolmoqda.

Axborothurujlari bugungi kunda globallashuv jarayoniga qo‘shilgan har bir davlat va jamiyat uchun potensial yoki real darajada xavf tug‘diradi. Chunki axborot orqali

o‘sha mamlakat yoshlari ongini manipulyatsiya qilish, o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga shu yo‘l bilan erishmoqchi bo‘layotgan kuchlar mavjudligi sir emas. Axborot xurujlarini bugungi kunda davlatlar (jumladan chet el davlatlari), turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tashkilotlar, rasmiy va n orasmiy sotsial guruhlar, alohida shaxslar uyushtirishi mumkin. Shuning uchun axborot urushlari, axborot-psixologik xavfsizlik kabi mavzularda butun dunyo olimlari keng baxs va mushohadalar olib borishmoqda. Axborot oqimining ortishi, axborot urushlari va axborot terrorizmi kabi masalalarning ko‘tarilishi, jamiyatda ommaviy axborot vositalari o‘rnining ortishi, m ehnat faoliyatini texnik axborotlashtirish usullarining keng qo‘llanilishi tufayli ko‘plab ilmiy va ilmiy-amaliy adabiyotlarda axborot xurujlarining amalga oshish usullari o‘rganilmoqda.

Axborot ta’sirlari kimga ta’sir ko‘rsatish kerakligi va axborot hurujining maqsadidan kelib chiqqan holda tegishli usullar orqali amalga oshiriladi. Bularga psixologikusullar (o‘zfikrini singdirish, rag‘bat, majburlash, jazolash, namuna ko‘rsatish), harbiy usullar (jismoniy zarar yetkazish orqali o‘z fikrini singdirish), iqtisodiy usullar (potensial raqibning iqt isodiy holatini yomonlovchi savdo yoki moliyaviy sanksiyalar yaratish), siyosiy usullar (turli siyosiy o‘yinlar) kiradi. Mazkur usullarni mukammal bilgan holatdagina axborot hurujlariga qarshi kurash yo‘llarini ishlab chiqish mumkin. Globallashuv sharotida dunyoningmafkuraviy manzarasi hozirda juda murakkablashib ketdi. Unda ta’sir kuc higa ega bo‘lishni eng maqbul yo‘li sifatida, mablag‘ qancha ketishidan qat’iy nazar yirik axborot tarqatuvchilik mavqeini egallash ekanligi hozirda sir bo‘lmay qoldi. Jahonda informasion urush ketayotganini hatto oddiy insonlar ham sezishlari mumkin. Misol uchun biron mamlakat hududida ma’lum turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi risolalar, san’at asarlari, kinofilmlar, axborotlar va hokazolar tarqatilmoqda. Bunday informatsiyalar jamiyatda ma’lum ijtimoiy fikrning shakllanishiga ta’sir etmay qolmaydi. Shu

munosabat bilan birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning yoshlarni ochiq axborot olish davrida hukm suradigan umumbashariy axloqiy inqirozdan asrash muammosiga alohida e'tiborqaratganidiqqatga sazovor:

Keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan jangarilik filmlarini olaylik. Bu filmlarni ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko'radi, chunki odamzot tabiatan mana shunday to'polonlarni tomosha qilishga moyil… Afsus bilan ta'kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya'ni xatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsi zliklarni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi.

Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki ular bunday uydirma talqinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydi. Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda axborot hurujlarini bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashishning asosiy yo'llari sifatida jamiyatdagi quyidagi omillarni ko'rsatish mumkin: - Kuchli siyosiy boshqaruv va nazorat tizimining mavjudligi (siyosiy omil);- Fuqarolar huquqlarining kafolati (huquqiy omil); - Barqaror va farovon turmush (ijtimoiy – iqtisodiy omil); - Ma'naviy yetuklikni ta'minlovchi ijtimoiy institutlarning shakllantirilishi (ma'naviy omil).Umuman olganda axborot hurujlari istalgan jamiyatda kuzatilishi mumkin, ammo jamiyat hayotining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy sohalarida biror salbiy jarayonlar mavjud bo'lganida ular o'ta faollashadi, o'zta'sir doirasini kengaytiradi, ularning ta'sir darajasi ortadi. Shuning uchun ushbu muammoni keng ko'lamli sotsiologik tadqiqotlar asosida o'rganish orqali kerakli bo'lgan vaziyatni yaxshilovchi hamda mo'tadillashtiruvchi yechimlarni aniqlashi mumkin .

## Nazorat uchun savollar.

1. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari.
2. “Axborot xuruji” tushunchasi.
3. Axborot xurujlari va tahdidlarning salbiy oqibatlari.

## 7-Ma’ruza: Media maydonda axborot tarqatish madaniyati.

Reja:

1. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta’sir muammolari.
2. Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi.
3. Axborot almashinuvining mexanizmlari v ava ilmiy nazariy asoslari.

**Tayanch so’z va iboralar:** media, maydon, axborot, tarqatish, madaniyat, tafakkur, ruhiy, visual, ommaviy, almashinuv, mexanizm.

Bugungi kunda o’sib kelayotgan yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirish kechiktirib bo’lmaydigan masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining o’zi, ko’pincha, sof texnologik jarayon sifatida baholanishiga qaramay, mazmun-mohiyatiga ko’ra chuqur ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. Chunki axborotlashtirish jamiyatning bir shakldan boshqa, ijtimoiy taraqqiyotning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo’lgan shakliga o’tishni anglatadi hamda jamiyatning istiqboldagi xususiyatlarini belgilab beradi.

Tashviqot, feyk axboroti, pranking, raqamli tajovuz, trolling va h.k. hodisalar o qibatidamediamakondagi buzilishlar tufayli jurnalistika sohasida hozirgi paytda inqiroz kuchayib bormoqda. “Ortiqcha axborot” “axborot mavhumligi”ni keltirib chiqarmoqda. Ushbu vositalar yordamida ong bilan manipulyatsiya qilish shunga olib keladiki, auditoriyaning “tanqidiy avtonomiyasi” mavjud emasligi tufayli dunyoda har qanday ma’lumotlarni “yutib yuborish” kuchaymoqda. 1982 yilda YUNESKO Xalqaro Simpoziumida qabul qilingan Mediata’lim bo’yicha Gryunvald Deklaratsiyasida 19 ta a’zo mamlakat vakillari shunday deb ta’kidladi: “Axborot vositalarining muqarrar kuchini muhokama qilish yoki ma’qullash o’rniga biz uning hayotning barcha jabhalariga

jiddiy ta’sir ko’rsatishi va singib borishini mavjud fakt sifatida tan olishimiz, shuning dek, ularning zamonaviy madaniyatning ajralmas elementi sifatidagi ahamiyatini hisobga olishimiz zarur.

Siyosiy va ta’limiy dasturlar shuni tan olishi kerakki, fuqarolar tomonidan kommunikatsiya hodisasini tanqidiy anglashga ko’maklashish ularning majburiya-tini tashkil etadi... mediata’lim bo’yicha dalillar ongli fuqarolikni tayyorlash vositsi si fatida hozir muayyan ikkilanishlarga sabab bo’lsa, eng yaqin kelajakda, kommunikatsion texnologiyalarda sakrash ro’y bergach, ushbu dalillar muqarrar bo’lib qoladi”. Mediasavodxonlik konsepsiyalari rivojlanishi va zarurati munosabati bilan OAV vajurnalistikaning mediata’lim funksiyasi faol rivojlanmoqda. Bu ommaviy auditoriyaning mediakompetentligini oshirish, uning OAVdagi ma’lumotlarni mos ravishda qabul qilish, uni tahlil etish hamda axborot madaniyati m e’yorlari va tamoyillariga mos keladigan ijtimoiy ahamiyatga ega mediamatnlarni yar atish layoqatini rivojlantirishdan iborat. Shu narsa oydinki, faqat boshqalar tomonidan yaratilgan ma’lumotlar va axborotlarni topish, tahlil qilish, ushbu ma’lumotlar va axborotlardan voqealar yaratish ko’nikmalariga ega jurnalistlargina o ’z funksiyalarini bajara oladi. Ijtimoiy voqealar nimani anglatishini va o’quvchilar bu nga tayyor bo’lish uchun nimalar qila olishini tahlil etadigan va bundan so’ng nimalar bo’lishini tushuntira oladigan jurnalistlargina auditoriyaga bilimli, hammaga tushunarli bo’lgan ma’lumotlarni yetkazishi mumkin.

Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo’lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Xususan, axborotlashtirish va istiqbolli axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat tejamkorligini oshirishni, ilmiy bilimlar va ilg’or texnologiyalar jamiyatda jadal tarqalishini, jamiyat intellektuallashuvi umumiy darajasini oshirishni ta’minlashi kabi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda axborot makoni uchun kurash va insonga axborot-psixologik ta’sir ko’rsatishning avj olishi kabi alohida xavfni ham yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda sha xs axborot psixologik xavfsizlikni ta’minlanganlik darajasini sotsiologiko’rganish,

yangi konsepsiyalar bilan boyitish bugungi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi uchun o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni ta'qiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi.

Ma'lumki, hozirgi zamon yoshlarining hayotiy tushuncha va tasavvurlarini, asosan, internet shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'ymoqda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigan axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qa-ratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi. S huning uchun ham mazkur muammo faqatgina ma'lum bir davlat chegaralaridan chiqib, global xarakterga ega bo'ldi. Axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foyd alanish esa insonning ong darajasi bilan bog'liq.

Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa, o'z navbatida, borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan mutanosib bo'lishi darkor. Shuning uchun, birinchi navbatda, axborot olayotgan kishi uni mutlaqlashtirmasdan, o'z shuuri darajasida tahlil qilib, so'ng qabul qilishi lozim. Zamonaviy jamiyatning farqli belgilaridan biri – bu o'sib kelayotgan yosh avlodni tevarak atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga doimiy moslashtirib borish hisoblanadi. sivilizatsiyaning rivojlanishida uning asl mohiyatini oldin qanday bo'lganligi bilan taqqoslaymiz. Uning o'ziga xoslik belgilari uzluksizlik, shiddatlilik, global xarakterlilikdir. Axborotlashtirish asrida axborot xurujining avj olishi, ayniqsa, yoshlarda axborot olish madaniyati, o'qish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha,1 bugun axborot shiddat bilan yangilanib, hajmi oshib bormoqda. Natijada, bilimning o'sish sur'ati ilgarilab ketmoqda. Amerik

alik muhandis, matematik va birinchilardan bo'lib axborot nazariyasini yaratgan olim Klod Shennon axborotni «oydinlashtirilgan mavhumlik», – deya ta'riflagan. Buningma'nosishundan iboratki, axborotni qabul qilib inson yangi bilimlar bilan tani shadi, ilgari mavhum bo'lgan narsalarni anglaydi, savollariga javob topadi.

Bu tugamas va doimiy jarayondir. Bugin kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, ulkan hajmdagi axborot resurislaridan oqilona foydalanishda jamiyat va inson uchun axborot madaniyati fenomenining global ahamiyatini anglash talab etiladi.

Axborot madaniyati fenomenining paydo bo'lishining asosiy faktorlari bu axborotlashtirish asriga o'tishning universal ijtimoiy muhim kategoriyalari, ya'ni axborot hajmining o'sishi, jamiyatni axborotlashtirish, texnika va texnologiyaning rivojlanishi, axborot jamiyatining shakllanishi kabilar. Axborot olish madaniyatiga

Ega bo'lish –bu har bir inson o'zligini anglashda o'z o'rnini va vazifasini bilishida katta ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini keng ko'lamda ochib berishdagi jarayondir.Axborotlashgan jamiyatda kishilarning, xususan, yoshlarning axborot madaniyatiga, demakki, axborot almashinuvi madaniyatiga erishuvida axborot savodxonligi bosqichi borligini ham nazardan qochirmaslik zarur. Axborot savodxonligi «Axborotga bo'lgan ehtiyojni his qilish, uni topish, unga baho berish va undan samarali tarzda foydalanish» uchun kerak bo'ladigan malakalar to'plami sifatida ta'riflanadi.

«Axborot savodxonligi» tushunchasini birinchi marta P.Zurkovskiy XX asrning 70-yillarida ish va kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishda axborot resurslaridan to'g'ri foydalana olgan insonga nisbatan ishlatgan. «Axborot resurslarini o'z hayot faoliyatida to'g'ri tatbiq qila olgan odamlarni axboriy-savodxon deb atash mumkin» deydi. Keyingi o'n yilliklar davomida axborot savodxonligi AQSHning kundalik hayotida, maktabda, ish joylarida eng faol tushunchaga aylandi. Ushbu tushuncha evolyutsiyasiga rasmiy asos AQSH Prezidenti ma'muriyatining axborot savodxonligi to'g'risidagi hisoboti bo'ldi. Unga ko'ra «axboriy-savodxon inson deb axborotga talabni his qilgan, axborotni qidirish, baholash va to'g'ri qo'llay olishni bilgan shaxsni atash mumkin.

Hozirgi kunda optimal qaror qila oladigan va demokratik jamiyatda to'liq qatnasha oladigan har qanday zamonaviy shaxs axboriy-savodxon inson bo'lishi kerak»deyilgan. Axborot savodxonligi bo'yicha xorij mamlakatlariga nazar solinsa, AQSH kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga 1989 yildanbuyon jiddiy etibor qaratib kelinadi. Bu yo'lda AQSH prezidenti huzurida max sus ishchi guruh tuzilgan bo'lib, «Axborot savodxonligi» atamasi aynan mana shu ishchi guruh faoliyati natijasida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, guruh axborot savodxonligi bo'yicha milliy forumning yaratilishiga sabab bo'lib, u o'z ichiga yigirma beshtadan ziyod turli tashkilot va muassasalarni birlashtirgan. Oxirgi bir necha yillar mobaynida umumiy axborot savodxonligini rivojlantirish lozimligi jamiyatimizda yoshlar bilan ishlashning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kelmoqda. Fikr yuritish va axborotni baholash yangi mazmundagi axborot savodxonligining markazidan o'rin olgan. Axborot savodxonligi bo'yicha xorijiy ma mlakatlarda standartlar ishlab chiqilgan.

Ushbu standartlarni 1998 yili Amerika maktab kutubxonalari uyushmasi va Ta'limiy kommunikatsiya vositalari va texnologiyalari uyushmasi joriy etilgan. Bular jumlasiga «Talabalarning ta'lim olishdagi axborot savodxonligi standartlari»ni kiritish mumkin. Unda 12 yillik ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilar uchun o'rnatilgan axborot savodxonligi standartlari belgilab berilgan. Mazkur standartlar o'rniga «O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash: maktab kutubxonalari dasturlari uchun yo'riqnomalar» deb nomlangan hujjat amalga kiritilgan bo'lib, unda kutubxonaning texnologiyalar, amaliy o'rganish va bilim olish dargohi sifatidagi ahamiyatiga alohida urg'u berilgan. Amerika Qo'shma SHtatlarida qabul qilingan «XXI asr talabasi uchun standartlar» deb nomlangan yo'riqnomada esa, talabalar malaka, manba va bilim olish vositalarini quyidagi maqsadlarga yo'naltirishi lozimligi belgilgan.

Bular: ma'lumot izlash, tanqidiy o'ylash, bilim olish, xulosalar yasash, tegishli ma'lumotga asoslangan holda qaror qabul qilish, bilimni yangi vaziyatlarga yo'naltirish, yangi bilimlarni yaratish, bilim almashish va shaxsiy kamolot hamda

estetik jihatdan o’sishga intilishdir. Mazkur standartlar oliy ta’lim sohasidagi axborot savodxonligi masalalariga bag’ishlangan bahs-munozalarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Mazkur standartlar axborot savodxonligiga ega bo’lgan insonni quyidagicha ta’riflaydi: kerak bo’lgan axborot ko’lamini belgilay oladigan; axborot va uning manbalarini tanqidiy baholay oladigan va saralangan axborotni o’z bilim bazasi bilan uyg’unlashtira oladigan;
axborotdan foydalanish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy masalalarni tushunadigan, shuningdek axborotdan qonuniy tarzda hamda axloq me’yorlari doirasida foydalana biladigan; mahsulot va jarayonga baho bera ola digan kishidir.

Shunday qilib, «axborot savodxonligi» atamasi ishlatilganda ko’plab amerikalik tadqiqotchilar har qanday ziyoli kishi axborotlashgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun faqat bir yoki bir necha ko’nikmalar emas, Balki katta bilimlar kombinatsiyasi va mukammal qobiliyatga ega bo’lishni nazarda tutishadi. Axborot savodxonligini murakkab tushuncha sifatida ta’riflagan holda,rus mutaxassislari uning tarkibiga axborotlarni qidirish (topish), tahlil qilish, an ’anaviy muhit(kutubxona, kitob)da va yangi, elektron muhitda kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyatini kiritganlar. Ko’pgina rus mutaxassislari axborot savodxonligi tushunchasini kengroq, ya’ni shaxsning axborot madaniyatining bir qismi sifatida tavsiflashadi.

Shaxsning axborot madaniyati, axborot savodxonligidan tashqari, o’ziga axborot dunyoqarashini, axborot bilimlari va ko’nikmalarini egallash zarurligiga ishonchni, axborotlashgan jamiyatda yashovchi shaxs tomonidan qanday maqsadlarga erishish lozimligini anglash; ma’lumotlardan to’g’ri foydalanish uchun mas’uliyatni his etish kabilarni ham qamrab oladi. Yuqoridagi fikrlarga yaqin nuqtai nazar o’zbekistonlik olimlar ishlarida ham mavjud. Xususan, s otsiolog A.Umarov e’tiroficha, «Oldingi an’anaviy jamiyatlarda, shuningdek industrial jamiyatda ham mutolaa madaniyati axborot madaniyatiga nisbatan ustun

mavqeda edi. Lekin postindustrial jamiyatning hosilasi bo’lgan axborotlashgan jamiyatga o’tilishi bilan axborot jamiyat va inson hayotining hamma sohalarida asosiy resursga aylangach, axborot madaniyatining ko’lami va mavqei ortgani aniq bo’lib qoldi. Endi axborot madaniyati tizim yasovchi kategoriya maqomiga ko’tarildi, mutolaa madaniyati esa shu tizimning ajralmas qismi sifatida jamiyat va inson hayotida o’rin tuta boshladi».

Bugungi kunda axborot madaniyatini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki, axborot oqimining jadal o’sib borishi, taqdim etilayotgan axborotlar orasidan kerakli, zaruriy va foydalilarini ajratib olish m urakkab jarayondir. Buning uchun har bir shaxs mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng, axborotlar ummonidan o’zi uchun kerakligini ajratib olish salohiyatiga ega bo’lishi lozim. Axborot madaniyatini shakllantirishning bir nechta b osqichlari mavjud bo’lib, ular orasida yuqorida ko’rib o’tganimiz «axborot savodxonligi»dan keyin eng muhimi bu kishilarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdir.

Inernet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog’i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya’ni ongimizga mavhum bo’lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma’lumot beruvchi axborot manbaidir. Tabiyki, hozrgi kunda ushbu omilga bo’lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matinlar, tasvir hamda ovoz hizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo’lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor vertual olamga jalb etib bormoqda. Ayniqsa bu ta’sir doirasidan o’smir yoshlar ham yo’q emas.

Bu borada mutahasislarning so’zlari quydagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog’idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog’liq muhim aniq dalillarga ega bo’lishida har tomonlama qulayligi va tegishli

vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushoxada, taxlil qilish qobilyati va xotiraning o'tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmagan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi m e'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinlidir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda.

Barchamzga ma'lumki, Internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyos. O'zingizga kerakli barcha ma'lumotlarni shu kabi biron bir saytning "izlash" katakchasiga yozib, chiqarilgan ko'pgina ma'lumotlar ichidan o'zingizga keraklisini tanlab olaverasiz yoki ma'lum bir saytning manzili yodingizdan ko'tarildimi, yana o'sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador kalit so'zlarini terasiz va qarabsizki o'sha sayt qarshingizda namayon bo'ladi. Internet tarmog'ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjud. Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiy ta'rif berishda ularni biror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kompaniya internetdagi yetakchi qidiruv tizimli hisoblanadi, dunyo bo'ylab tarmoq foydalanuvchilarining o'ntadan yettitasi u yoki bu ma'lumotlarni topish ilinjida aynan manashu saytga murojat qilishadi.

Tizim har kuni 50 mlionga yaqin so'rovlarni qabul qiladi, sakkiz milyardlab veb-sahifalarni ideksatsiya qiladi. U 101 tildagi axborotni izlab topishi mumkin. Keyingi yillarda butun dunyo internet foydalanuvchilari orasida keng ommalashib borayotgan Google tizimi 1998 – yil sentyabrda ishga tushgan. Hozirda bu kompaniyaning qidiruv tizimlaridan tashqari yana bir qator foydali va qulay hizmatlari mavjud va ular soni ortib bormoqda. Darhaqiqat, hozirda nafaqat

Internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib keayotgan turli – tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomondan quvonarli bo'lsa – da, ikkinchi tomondan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi. Bugungi kunda xarbiy hizmatchilar radio–televideniye, matbuot Internet kabi vositalar orqali rang barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda.

Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda xarbiylarimiz ongini o'rab chirmab, uni o'qima, buni ko'rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan orab olish hech shubhas iz zamonning talabiga ham bizning ezgu maqsad – muddaolarimizga xam to'g'ri kelmaydi. Nega deganda biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vaz ifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagi o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demakratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish inson huquqi va erkinliklarini fikrlar rang-barangligini o'z hayotimizda yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish o'zaro manfaatli xamkorlik qilish tarafdorimiz.Hozirgi axborot tizimi uning juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib ayytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umumiy manfat va umumiy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning moxiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda. Ana shu hayotiy extiyojdan kelib chiqib axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratishning quydagi usullarini qo'llash madaniyatini zarur deb hi soblaymiz:

Birinchidan, sotsiologik yo’nalish. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotining axborotini ijtimoiy voqelik sifatidagi rolidan kelib chiqib, jamiyatda shakillanayotgan ijtimoiy ong yo’nalishlari ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o’rganishni yo’lga qo’yish kerak. Aholi turli qatlamlari, qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikirlash tarzini a niqlab borish zarur. Ikkinchidan, statistik yo’nalish. Ko’p millatli mamlakatda, hususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko’rsatayotgan O’zbekistonda millatlararo va dinlararo mojorolarni turli siyosiy manfaatlar va buzg’unchi g’oyalar tasirida kelib chiqishi mumkin bo’lgan nizolar manbalarini o’rganib borish, bu borada aniq hisob kitoblarga tahliliy yechiml arga ega bo’lish. Uchinchidan, siyosiy konfiktologiya va siyosiy psixologiya. Axboro t psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg’unchi g’oyalar inson ongiva tafakkuriga o’z ta’sirini o’tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojorolar kelib ch iqish mumkin bo’lgan manbalarni o’rganish, omillarini aniqlash hamda siyosiy qarashlari, ruhiyati, ijtimoiy – siyosiy psixologik izchil ravishda o’rganib borilmog’i lozim. To’rtinchidan, mantiqiy tizimiy va funksional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot psixologik ta’sir axborot siyosati tizimi va vositasining muxim qismi sifatida baxolashi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy – taxliliy nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak.

Tig’iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta’sirida shakillanayotgan ijtimoiyfikrfannuqtai nazaridan izchil o’rganilmog’i lozim. Beshinchidan, axborot tizi mida milliy istiqlol g’oyasining ustuvorligi. Har qanday fuqoro axborot bazasidan “m axsulot” tanlash jarayonida uning qalbida, ruxiyatida, kayfiyatida, fe’l atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi hatti – xarakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini ta’minlash. Albatta, O’zbeksiton mustaqillikning o`tgan davri mobaynida ommaviy axborot komunikatsiyasi soxasida jiddiy o’zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo har bir fuqaroning so’z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Ommaviy axborot vositalari to’g’risidagi bir qator qonunlar yaratildivaamaldaqo’llanilmoqda.Mustaqil nashrlar soni keskin ko’paydi. Bularning h ammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o’ziga xos taraqqiyotidan dalolat beradi. Yana shuni takidlash lozimki, Internet vositalaridan o’rin olgan jamiki axborot va ma’lumotlarning hammasi ham real haqqoniy emasligi ayni paytda ayon bo’lmoqda. Bundan kelib chiqib aytish joizki, olinayotgan dalillarning qay darajadato’g’riligini ongli ravishda mushohada etish maqsadga muvofiqdir. Shundagina Internet orqali egallayotgan bilimlarimiz hayotimizda ijobiy samara berishiga ishonch xosil qilish mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, harbiy xizmatchilarimizning ma’naviy olamida bo’shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog’lom hayot tarzi milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat – ehtirom tuyg’usini har doim shakillantirishimiz zarur. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo’naltirilgan bir qarashda arzimas bo’lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi glaballashuv shiddatidan kuch olib, ko’zga ko’rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo’lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta’sir muammolari.
2. Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi.
3. Axborot almashinuvining mexanizmlari v ava ilmiy nazariy asoslari.

## 8-Ma’ruza: Shaxsga yo’naltirilgan axborot: psixologik, diniy madaniy tadbirlar.

Reja:

1. Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi va tasnifi

2. Diniy tahdid va ularning kelib chiqish

3. Ma’naviy tahdid” tushunchasi: yondashuvlar va talqinlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar.

**Tayanch so’z va iboralar:** shaxs, axborot, psixolog, din, madaniy, tadbir, xavfsiz, tushuncha, tasnif, tahdid, yondashuv,

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi va tasnifi Axborotning shaxs va jamiyatga yo‘naltirilganligi. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo‘naltirilgan psixologik, diniy va madaniy taxdidlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar. Axborot tizimida “falsifikatsiya metodi” (feyk)dan foydalanish. Axborot manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatini takomili. Ko‘pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag‘rikenglik g‘oyalariga tajovuz va taxdidlar. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining regulyativ funkцiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, mezo, makro darajalari. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalari.

Xavfsizlik tushunchasi bevosita shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik, biologik tizimlarida normal faoliyat yuritishini kafolatlovchi tushunchadir. Ijtimoiy tuzilmaning, ya’ni, yaxlit jamiyatning xavfsizligi odamlar hayot tarzining sifatini, uning davomiyligini belgilovchi muhim mezondir. Bu o‘rinda fanda bevosita xavfsizlik tushunchasiga yaqin ishlatiladigan bir qator tushunchalarga izoh berish joizdir. Ijtimoiy xavfsizlik – jamiyatda mavjud bo‘lgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni ta’minlash organlari, davlat muassalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istaklari, maqsad-muddaolarini amalga oshirishlariga imkon berish bilan bog‘liq vazifalarini o‘z ichiga oladi. Bunda ayrim-alohida tabaqa yoki aholi qatlamining manfaatlari, ya’ni, ularning yaxshi yashashlari, uzoq umr ko‘rishlari, bir xududdan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishiga aloqador xavfsizlik nazarda tutilmaydi.

Milliy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat, iqtisodiyot va davlatchilikning barqaror taraqqiyot etishi uchun xavf solishi mumkin bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimini bildiradi. Milliy xavfsizlik tashqi va ichki xavflardan yaxlit jamiyatni muhofaza qilishni nazarda tutadi. Tashqi xavfsizlik – ikki bosqichni nazarda tutadi: umuminsoniy yoki global xarakterli va davlatlararo xavfsizlik masalalari. Tashqi xavfsizlik tahlil etilganda avvalo ekologik, harbiy, radiatsion, epidimiologik, kriminal-jinoiy, biologik va madaniy-ahloqiy (ekspansiyalar) turdagi xavflarni oldini olish nazarda tutiladi. Ichki xavfsizlik esa mamlakat doirasida inson konstuitutsion xuquq va kafolatlariga aloqador bo‘lgan iqtisodiy diversiyalarning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslikka bog‘liq bo‘lgan maxsus choralarni, terroristik xurujlarning oldini olish va ularnii vaqtida bartaraf etish, kelib chiqishi bo‘yicha ijtimoiy, tabiiy, biologik hamda texnik asosli tahdidlardan jamiyat a’zolarini himoya qilishni nazarda tutadi.

Oxirgi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining keskin rivojlanib ketayotganligi, Internet tizimning barcha davlatlar, madaniy xududlar, barcha yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib borayotganligi munosabati bilan xavfsizlikning o‘ziga yana bir turi axborot xavfsizligi paydo bo‘ldi. Axborot xavfsizligi – aslida jamiyatning ob’ektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo‘lishi uchun yaratilayotgan shartsharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali aholiga etib keladigan ma’lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo‘lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak.

Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo‘layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bo‘lavermaydi va jamiyat o‘z a’zolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo‘ladi. Axborot xurujlari turlicha bo‘lgani uchun unga nisbatan xavfsizlik choralarini ko‘rish ham turli sohalarda (siyosat, iqtisodiyot, mudofaa) va turli

jabhalarda (davlat miqyosida, xududiy, tashkilish, shaxsiy) amalga oshiriladi. Ya’ni, davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta’minlashga aloqador bo‘lgan ishlar muayyan bir tashkilot doirasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligidan farq qiladi. Birinchisiga gap milliy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risida ketsa, ikkinchi xolatda tashkilotdagi muayyan ijtimoiy guruhlararo axborot almashinuvida bo‘hton, to‘xmat, mish-mishlar tarqatishga bog‘liq bo‘lgan salbiy xolatlar nazarda tutiladi.

Lekin ikkala xolat ham axborot xurujlariga odamlarning normal faoliyatlari uchun xalaqit beruvchi omil sifatida qaraladi. Axborot xurujlari – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo‘naltirilgan ta’sir bo‘lib, uning asl maqsadi o‘sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarning g‘arazli niyatlaridan kelib chiqadi. Tezkor tapaqqiyot odatiy tamoyillar katori vaqt va makonmutanosibligiga xam o‘z ta’sirini ko‘rsatmokda. Barcha faoliyatjarayonlarida yangicha yondashuv va rivojlanish strategiyalariningshakllanishi insonlar va mintaqalarning yakkalikdan yaxlitlikka yuzburishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida "odamlarni ma’lum birmanfaatlarga xizmat kiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan,turli ma’no-mazmundagi axborot bosimlarining doimiy ta’siri ostidayashashga majbur qilmoqda.

Bugungi kunda axborot juda keng tarqalgan bo‘lib, har taraflama rangbarang ma’nolarda tushuniladi. U ishtirok etmagan bilim sohasini topish qiyin. XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho‘kkisiga etgan asr xisoblanadi. Shuning uchun xam XXI asrni axborot asri deb ta’kidlashmokda. Axborotga quyidagicha ta’rif berish mumkin - axborot manbalari va takdim etilish shaklidan kat’i nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, vokealar,xodisalar va jarayonlar to‘g‘pisidagi ma’lumotlar majmuidir. Jahon tajribasidan ma’lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi jamiyat va davlatning xamma jabxalarini, jumladan, odamlarning dunyokarashini va ularning mexnat, ijtimoiy va siyosiy xayotda ishtirok etishi shartlarini uzgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi. Tig‘iz axborotlashgan jamiyatda "shaxs-jamiyat-davlat" alokadorligi, ularning o‘zaro uzviyligi va yaxlitligini ta’minlash bir muncha kiyinlashadi.

Chunki axborot okimi tezlashgan va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyokarashining keskin uzgarishiga sabab bulmoqda. 23 Bugungi kunda, rivojlangan texnika davrida turli xil ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali tez va oson topishmumkin. Jumladan, buzg‘ynchilik, tajovuzkorlik, noaxlokiy xulqni shakllantiruvchi ma’lumotlar ham anchagina. Ayniqsa, bunday manbalar o‘sib kelayotgan yosh avlodlar ongiga ta’sir ko‘rsatayotganligi juda achinarli xoldir. Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot, psixologik xurujdan ishonchli saqlash, qat’iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi. Har bir yangi axborot-psixologik mojaro himoya kilinayotgan jamiyat uchun yangi taxdidlarni keltirib chikarishi xam mumkin.

Demak, taxdid kancha ko‘p bo‘lsa, xadik va ishonchsizlik shuncha ko‘payadi. Ana shunday ma’naviy, ruxiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chikib, jamiyat kayfiyatini muvofiklashtirib, yo‘naltirib, boshkarib turishi muxim axamiyat kasb etadi. Axborot-psixologik xavfsizlik bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o‘zini o‘zi tushunishi va fukarolararo munosabatlarni yuksak ma’naviy-ma’rifiy mezonlar asosida shakllantirish, axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruxini, yaratuvchilik kobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo qiladi. Hozirgi kun jamiyatni boshqarish, zamon me’yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta’minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zaruriyatini paydo qiladi. Jumladan, siyosiy-xykuqiy, tashkiliyiktisodiy, ijtimoiy psixologik va axborot tizimini boshkarish kabi kator, bir-biriga uzviybog‘liq, bulgan yo‘nalishlarda boshkaruvning eng makbul uslubini topish,bevosita xokimiyat va unga ishonch, jamiyat va davlat tarakkiyotinita’minlashda fukarolar yakdilligi, ma’naviy va g‘oyaviy jixatdanbirligini ta’minlashni takozo etadi.

Ommaviy axborot vositalari ta’siridagi buzrynchi yoki ongni zararlovchi g‘oyalarning oldini olish fakat yosh avlodning ta’lim tarbiyasiga e’tiborni kengaytirish va to‘g‘pi tashkil etish xamda sifatlita’sirni kuchaytirishdan iborat.

Bunda, albatta, pedagoglar,psixologlar, jamoatchilik, ota-ona kabi bolaga ma’sul shaxslarningbilim saviyasi va xayotiy tajribalari ayniqsa axamiyatlidir. Ommaviy axborot tizimi ayni paytda ochiq axborot tizimi xisoblanadi. Chunki dunyo miqyosida axborot tarqatishni ma’lumdavlatdan yoki bir joydan turib, nazorat qilib, tartibga solib bo‘lmaydi. Shuning uchun xam bu tizim ochiq ommaviy axborot tizimi debnomlanadi.Ochiq axborot tizimi deganda axborot vositalari va undaberilayotgan axborotlarning oshkoraligi, dunyo axborot maydonida axborot almashinuv jarayonining jamiyat extiyoji sifatida namoyon bo‘lishi va axborotlarning shaxs xayoti-faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borishi jarayoni tushuniladi.

Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bulgan qadriyatga aylanmog‘i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish, jamiyatning psixologik xolatiga salbiy ta’sir etuvchi ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zuravonlik va urushni targ‘ib etuvchi pornografiya, maishiy buzg‘unlik, shaxslar mavqei, obrusi va sha’niga salbiy ta’sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog‘liq bulgan, sog‘lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma’naviy-ruxiy me’yorlarni vujudgakeltirish muxim axamiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng kulamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri, xayotningdeyarli barcha jabxalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jaxon rivojigata’sir kursatgan va kursatayotgan omili sifatida e’tirof etilmoqda.

E’tiborli jixati, mamlakat ichida va tashqi dunyoda faol axborot almashinuviga odamlar extiyoji juda ortib bormoqda. Axborot soxasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potensiali va imkoniyatlarining usishi, jamoatchilik va davlat xayotidagi turli xil yo‘nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi - XXI asrdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muxim omillardan biri bulishiga asosdir. Bugungi kunda kundalik xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot karama-karshiligi", "axborot bosimi" kabi tushunchalar kupishlatilayotganligi axolini axborot

xurujidan ximoyalash bo‘yicha choralar kurish muximligini yanada oshiradi. Ushbu muammoning dolzarbligi yana shundaki, xozirda odamlar (shaxs, ijtimoiy gurux, jamiyat) ongi shakllanishida ma’lum darajada ommaviy axborot voqealarining faoliyati va axborot resurslarining ta’siridadir. Shuning uchun, ayniqsa ochiq axborot tizimi sharoitida shaxs, jamiyat va davlatning axborot, axborotpsixologik xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni xal qilishning axamiyati yanada oshadi.

Ayni vaqdta, axborot tizimi imkoniyatlarini milliy manfaatlarni ximoyalash va 25 rivojlantirish, shuningdek, global axborot makonida davlatning manfaatlarini amalga oshirish uchun kulay sharoit yaratish yulida foydalanish juda muxim xisoblanadi. Axborot-psixologik xavfsizlik deb - individual, guruhiy psixologik va omma psixologiyasiga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, ekologik va boshqa sohalariga qaratilgan turli darajalardagi salbiy ta’sir o‘tkazishlardan himoyalanganlik holatini tushunish lozim.
Bunda axborot-psixologik tahdidlardan himoyalash asosiy maqsad qilib olinishi hamda maqsadga yo‘naltirilganligi bo‘yicha ularni tabaqalashtirish mumkin:
ijtimoiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
iqtisodiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
siyosiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;

- ma’naviy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
fan va texnika sohalaridagi axborot-psixologik tahdidlar;
harbiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
xavfsizlik sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
ekologiya sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
ta’lim-tarbiya sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
tibbiyot sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
madaniyat sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;

- oziq-ovqat sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- boshqaruv sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar va b.

Diniy tahdid va ularning kelib chiqish Din – jamiyatdagi shaxs munosabatlarini tartibga solib turuvchi, inson ichki dunyosini shakllantirishning eng ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda ijtimoiy ong shakli hisoblangan bu tushunchadan turli maqsadlar yo‘lida foydalanish ortib bormoqdaki, natijada inson omiliga qarshi kurashda din birlamchi vosita bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda diniy tahdid bu – diniy g‘oya va mafkuralar bilan niqoblangan yovuz niyatli kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi demakdir. Bu jrayonda asosiy ob’yekt inson ongi hisoblanib, unga ta’sir etish yo‘nalishlari turli tumandir.

Bugungi kunda dunyoda mohiyati va udumlar shakliga ko‘ra turli ko‘rinishdagi diniy qarashlar mavjud bo‘lib, ularning umumiy soni ikki yuzga yaqindir. Ular bir xudoli va ko‘p xudoli, urug‘-qabilaviy, milliy va jahon dinlari bo‘lishi mumkin. Ammo asosiy masala, ularning sonida emas balki e’tiqodiy bo‘linishida bo‘lib qolmoqda. Aynan mana shu bo‘linish sabab turli-xil ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yuzaga kelib, inson ruhiyatiga sokinlik, xotirjamlik, ma’naviy madad berish uchun asrlar osha shakllanib kelgan «din» – azob beruvchi, ma’naviy qashshoqlik sari harakatlantiruvchi vosita bo‘lib qolmoqda.

Savol: insonni ma’naviy kamolot sari etaklovchi, uning qalbida yaxshi va yomon (savob va gunoh, halol va harom) tushunchalarini uyg‘otish uchun asrlar osha shakllanib kelgan bu fenomenga nisbatan bunday (salbiy) tamg‘alarning bosilishiga kim yoki nima sabab bo‘lmoqda?

Albatta javoblar turli tuman bo‘lishi tabiiy, ammo quyida asosiy sabablarni keltirib o‘tamiz:

Birinchidan, diniy qarashlar o‘rtasidagi bo‘linishning kelib chiqishi. Umuman, har qanday dinda bo‘linish sabablari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli jarayonlar ta’sirida paydo bo‘ladi. Masalan, diniy aqidalarning barqarorligi yoki kam o‘zgaruvchanligi sababli diniy aqida va jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot (inson dunyoqarashidagi o‘zgarish) o‘rtasidagi tafovut sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, diniy ta’limotning

turli millatlar va elatlarning madaniyati, urf-odatlari va an’analariga moslashishi natijasida diniy ta’limotga bo‘lgan munosabat jarayonida ham bo‘linish yuzaga keladi. Natijada turli-xil kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi yuzaga kelib, jamiyatning faol sub’yekti hisoblangan inson va uning qalbi zarar ko‘radi.

Ikkinchidan, diniy e’tiqodning siyosiylashuvi. O‘rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimir shunday degan edi: «Din – samoviy ishdir, siyosat – dunyoviy ishdir, din peshvolarining siyosatga aralashishlari kerak emas, ular ta’lim-tarbiya berishlari lozim» Afsuski o‘z vakolati va darajasidan foydalanib, din sofligiga rahna solinishiga sababchi bo‘layotgan «peshvolar» ham topilmoqdaki, ularning faoliyati jamiyat va inson tadrijiyligiga faqat va faqat zarar keltirmoqda. Natijada ular orasidan etishib chiqqan ayrim etakchilar fikricha dinning siyosat va siyosiy hayotga betarafligi butunlay nojoizdir, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan diniy mafkurani ishlab chiqish, ijtimoiy hayotda din ustuvorligini ta’minlash eng to‘g‘ri yo‘ldir. Ming afsuski bunday qarashlar tarafdorlari hozirgi davrda turli yo‘nalishlardan inson ongiga ta’sir etib, nafaqat inson, balki jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy tahdid solmoqda.

Uchinchidan, din bayrog‘i ostida iqtisodiy imkoniyatlarni ochishga harakat qilish. Aslida dinning bo‘linishi ham siyosiylashuvi ham iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, jahon dini hisoblangan buddaviylik ta’limoti jamiyatning kastalarga bo‘linishini inkor etadi. Ammo Hindistondagi ijtimoiy muhit (insonlar o‘rtasidagi tabiiy tabaqalanish) kastalarga bo‘linishni saqlab qoldi, buning natijasida buddaviylik davrida ham tabaqalanish o‘z kuchida qoldi. Mantiqan o‘ylab qarasak, bu jarayonda ham bitta asosiy sabab mavjud edi, ya’ni iqtisodiy manfaatning ustuvorligi.

Hind mutafakkiri M. Gandi ham diniy qoida va an’analarga sodiq qolgan holda diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash olib borgan. Jamiyatning kastalarga bo‘linishini va ular o‘rtasidagi tengsizlikni qoralagan. Xotin-qizlarning tengligi va ularning haq-huquqi uchun kurashgan, ammo jamiyatdagi tabaqalanishni tugata olmadi. Xristianlik dini tarkibida katolik, pravoslav, protestantlik

yo‘nalishlarini paydo bo‘lishida nima sabab bo‘ldi! iqtisodiy manfaat va tafovutdan boshqa sabablar ikkinchi darajali hisoblanadi. Tarixiy fakt: o‘rta asrlarda aholi daromadning o‘ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to‘lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko‘paytirish maqsadida xizmat to‘lovlari miqdorini oshirib borish bilan birga mansabni suiste’mol qilish, tamagirlik, poraxo‘rlik kabi vositalardan foydalanar edilar. Birgina misol, indulgensiyalar (lotincha ihduigehtia – rahm-shafqat degan ma’noni anglatadi) joriy qilib, uni sotishni keng yo‘lga qo‘yish asnosida katta iqtisod qilganlar.

Islom dinidagi ilk bo‘linish ham moddiy manfaatdorlikdan boshqa narsa emas. Xususan, VII asrning o‘rtalarida turli guruhlarning siyosiy hokimiyat uchun o‘zaro kurashlari natijasida paydo bo‘lgan bo‘linish zamirida ma’naviy barkamollikni saqlab qolish emas balki, hukmronlikka erishish asnosida iqtisod qilish yotganligi oddiy haqiqat. To‘rtinchidan, diniy e’tiqoddagi uzilish va sun’iy tarzda yondashuvning avj olishi. Tarixdan bizga ma’lumki, Sharq mamlakatlarida so‘ngi ming yillik mustamlakachilik siyosati ta’sirida o‘tdi. Buning natijasida insonlar e’tiqodida tom ma’nodagi emirilish yuzaga keldi. Xususan, XX asrda dunyoning ikki tizimga bo‘linishi tufayli yuqoridagi muammolar (diniy e’tiqoddagi bo‘linish, turli manfaatlarni siyosiy-iqtisodiy tus olishi) bir oz (vaqtinchalik) ortga surildi.

Ammo XX asrning oxirida kommunistik tuzum va mafkuraning mag‘lubiyati sababli oldingi muammolar yana qalqib chiqa boshladi. Ya’ni industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning avj olishi natijasida mazkur muammolar turli ko‘rinishlarda, xususan din sohasida o‘ta keskin tus oldi. Buning oqibatida hech bir diniy qarashlarga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlar (guruhlar)ni yuzaga kelishida zamin yaratildi.

Bular qatoriga diniy ekstremizm, ekstremistik ruhdagi diniy oqimlar o‘ta jangarilik, murosasizlik g‘oyalari bilan qurollangan, dunyoviy g‘oyalar va dindagi modernistik yo‘nalish tarafdorlarini ta’qib etuvchi, hatto terrorchilik vositasidajismonan yo‘q qilishgacha boruvchi ashaddiy Din – jamiyatdagi shaxs munosabatlarini tartibga solib turuvchi, inson ichki dunyosini shakllantirishning eng

ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda ijtimoiy ong shakli hisoblangan bu tushunchadan turli maqsadlar yo‘lida foydalanish ortib bormoqdaki, natijada inson omiliga qarshi kurashda din birlamchi vosita bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda diniy tahdid bu – diniy g‘oya va mafkuralar bilan niqoblangan yovuz niyatli kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi demakdir. Bu jarayonda asosiy ob’yekt inson ongi hisoblanib, unga ta’sir etish yo‘nalishlari turli tumandir. Bugungi kunda dunyoda mohiyati va udumlar shakliga ko‘ra turli ko‘rinishdagi diniy qarashlar mavjud bo‘lib, ularning umumiy soni ikki yuzga yaqindir.

Ular bir xudoli va ko‘p xudoli, urug‘-qabilaviy, milliy va jahon dinlari bo‘lishi mumkin. Ammo asosiy masala, ularning sonida emas balki e’tiqodiy bo‘linishida bo‘lib qolmoqda. Aynan mana shu bo‘linish sabab turli-xil ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yuzaga kelib, inson ruhiyatiga sokinlik, xotirjamlik, ma’naviy madad berish uchun asrlar osha shakllanib kelgan «din» – azob beruvchi, ma’naviy qashshoqlik sari harakatlantiruvchi vosita bo‘lib qolmoqda. Savol: insonni ma’naviy kamolot sari etaklovchi, uning qalbida yaxshi va yomon (savob va gunoh, halol va harom) tushunchalarini uyg‘otish uchun asrlar osha shakllanib kelgan bu fenomenga nisbatan bunday (salbiy) tamg‘alarning bosilishiga kim yoki nima sabab bo‘lmoqda? Albatta javoblar turli tuman bo‘lishi tabiiy, ammo quyida asosiy sabablarni keltirib o‘tamiz:

Birinchidan, diniy qarashlar o‘rtasidagi bo‘linishning kelib chiqishi. Umuman, har qanday dinda bo‘linish sabablari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli jarayonlar ta’sirida paydo bo‘ladi. Masalan, diniy aqidalarning barqarorligi yoki kam o‘zgaruvchanligi sababli diniy aqida va jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot (inson dunyoqarashidagi o‘zgarish) o‘rtasidagi tafovut sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, diniy ta’limotning turli millatlar va elatlarning madaniyati, urf-odatlari va an’analariga moslashishi natijasida diniy ta’limotga bo‘lgan munosabat jarayonida ham bo‘linish yuzaga keladi. Natijada turli-xil kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi yuzaga kelib, jamiyatning faol sub’yekti hisoblangan insonva uning qalbi zarar ko‘radi.

Ikkinchidan, diniy e’tiqodning siyosiylashuvi. O‘rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimir shunday degan edi: «Din – samoviy ishdir, siyosat – dunyoviy ishdir, din peshvolarining siyosatga aralashishlari kerak emas, ular ta’lim-tarbiya berishlari lozim»1. Afsuski o‘z vakolati va darajasidan foydalanib, din sofligiga rahna solinishiga sababchi bo‘layotgan «peshvolar» ham topilmoqdaki, ularning faoliyati jamiyat va inson tadrijiyligiga faqat va faqat zarar keltirmoqda. Natijada ular orasidan etishib chiqqan ayrim etakchilar fikricha dinning siyosat va siyosiy hayotga betarafligi butunlay nojoizdir, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan diniy mafkurani ishlab chiqish, ijtimoiy hayotda din ustuvorligini ta’minlash eng to‘g‘ri yo‘ldir. Ming afsuski bunday qarashlar tarafdorlari hozirgi davrda turli yo‘nalishlardan inson ongiga ta’sir etib, nafaqat inson, balki jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy tahdid solmoqda.

Uchinchidan, din bayrog‘i ostida iqtisodiy imkoniyatlarni ochishga harakat qilish. Aslida dinning bo‘linishi ham siyosiylashuvi ham iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, jahon dini hisoblangan buddaviylik ta’limoti jamiyatning kastalarga bo‘linishini inkor etadi. Ammo Hindistondagi ijtimoiy muhit (insonlar o‘rtasidagi tabiiy tabaqalanish) kastalarga bo‘linishni saqlab qoldi, buning natijasida buddaviylik davrida ham tabaqalanish o‘z kuchida qoldi. Mantiqan o‘ylab qarasak, bu jarayonda ham bitta asosiy sabab mavjud edi, ya’ni iqtisodiy manfaatning ustuvorligi. Hind mutafakkiri M. Gandi ham diniy qoida va an’analarga sodiq qolgan holda diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash olib borgan. Jamiyatning kastalarga bo‘linishini va ular o‘rtasidagi tengsizlikni qoralagan.

Xotin-qizlarning tengligi va ularning haq-huquqi uchun kurashgan, ammo jamiyatdagi tabaqalanishni tugata olmadi. Xristianlik dini tarkibida katolik, pravoslav, protestantlik yo‘nalishlarini paydo bo‘lishida nima sabab bo‘ldi! iqtisodiy manfaat va tafovutdan boshqa sabablar ikkinchi darajali hisoblanadi. Tarixiy fakt: o‘rta asrlarda aholi daromadning o‘ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to‘lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko‘paytirish maqsadida xizmat to‘lovlari miqdorini oshirib borish bilan birga mansabni suiste’mol qilish, tamagirlik, poraxo‘rlik kabi

vositalardan foydalanar edilar. Birgina misol, indulgensiyalar (lotincha ihduigehtia – rahm-shafqat degan ma’noni anglatadi) joriy qilib, uni sotishni keng yo‘lga qo‘yish asnosida katta iqtisod qilganlar.
Islom dinidagi ilk bo‘linish ham moddiy manfaatdorlikdan boshqa narsa emas. Xususan, VII asrning o‘rtalarida turli guruhlarning siyosiy hokimiyat uchun o‘zaro kurashlari natijasida paydo bo‘lgan bo‘linish zamirida ma’naviy barkamollikni saqlab qolish emas balki, hukmronlikka erishish asnosida iqtisod qilish yotganligi oddiy haqiqat.

To‘rtinchidan, diniy e’tiqoddagi uzilish va sun’iy tarzda yondashuvning avj olishi. Tarixdan bizga ma’lumki, sharq mamlakatlarida so‘ngi ming yillik mustamlakachilik siyosati ta’sirida o‘tdi. Buning natijasida insonlar e’tiqodida tom ma’nodagi emirilish yuzaga keldi. Xususan, XX asrda dunyoning ikki tizimga bo‘linishi tufayli yuqoridagi muammolar (diniy e’tiqoddagi bo‘linish, turli manfaatlarni siyosiy-iqtisodiy tus olishi) bir oz (vaqtinchalik) ortga surildi. Ammo XX asrning oxirida kommunistik tuzum va mafkuraning mag‘lubiyati sababli oldingi muammolar yana qalqib chiqa boshladi. Ya’ni industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning avj olishi natijasida mazkur muammolar turli ko‘rinishlarda, xususan din sohasida o‘ta keskin tus oldi. Buning oqibatida hech bir diniy qarashlarga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlar (guruhlar)ni yuzaga kelishida zamin yaratildi.

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga etdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat etakchi o‘ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki «fikrga qarshi faqat fikr, g‘oyaga qarshi faqat g‘oya» bilan kurashib olg‘a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g‘oyasi kuchli bo‘lsa, o‘sha engib chiqadi. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda. Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va

buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiyiqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar.

Bugungi kunda ularning aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan g‘oya bilan egallashlari ya’ni buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g‘oyalarini singdirish kabi g‘arazli maqsadlari xalqqa ayon bo‘lib bormoqda. DXX rahbari — O‘zbekistonga xavf solayotgan tashqi va ichki tahdidlar haqida Davlat xavfsizlik xizmati rahbari Ixtiyor Abdullayev davlat xavfsizligiga tahdid sifatida siyosiy muxolifat, diniy erkinlikning noto‘g‘ri talqin etilishi, «zararli investitsiyalar» va boshqa omillarni sanab o‘tdi.

O‘zbekiston Davlat xavfsizlik xizmati raisi Ixtiyor Abdullayev davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi tashqi va ichki omillarni sanab o‘tdi. O‘tgan payshanba kuni Oliy Majlis Senati «Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida"gi qonunni ma’qulladi. Hujjatga izoh berar ekan, Ixtiyor Abdullayev mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, davlatni himoya qilish nafaqat tashqi, balki O‘zbekistonni 2022 yilgacha rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan jamiyatning barcha sohalarida olib borilayotgan keng miqyosli islohotlar doirasida ichki tahdidlardan ham himoya qilish zarurligini qayd etdi.

«Birinchidan, qo‘shni mamlakat shimolidagi „Islom davlati“, „Tolibonlar“ harakati, Turkiston islom harakati va boshqa bir qator jangari guruhlarning faollashuvi, jangovar harakatlarda qatnashgan Markaziy Osiyo davlatlaridan chiqqan jangarilarning turli mamlakatlar orqali bizga qaytib kelayotgani masalasi», — dedi u.

«Ikkinchi jiddiy masala, bu — qo‘shni mamlakatlar bilan chegaralarimizning ochilishi, O‘zbekistonga kelayotgan investorlar va turistlar sonining kun sayin ortib borayotgani. shu o‘rinda turli diniy-ekstremistik ruhdagi adabiyotlar, giyohvandlik vositalari va qurol-yarog‘lar olib kirishga urinishlar ehtimoli kuchayib borayotgani

ham ma’lum tahdidlarni yuzaga keltirmoqda», deya davom ettirdi DXX rahbari. Ixtiyor Abdullayev turli separatistik kuchlarning faollashuvi, ularning ba’zi chet el maxsus xizmatlari tomonidan moliyalashtirilayotgani, erkin e’tiqod uchun yaratilgan sharoitlar, diniy sohada berilgan erkinliklarni ayrim fuqarolarimiz tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinayotgani oqibatida diniy aqidaparastlikning kuchayib borayotganini ta’kidlab o‘tdi.
«Xabarlaringiz bor, ayrim hududlarda ayrim fuqarolarimiz tomonidan salafiylik diniy harakati oqimiga kirib qolayotgani, soqol qo‘yishni o‘zga odat qilib olish holatlarining ko‘payishi, shu bilan birga ayrim fuqarolarimiz tomonidan farzandlarini turli xujralarda o‘qitayotganlik holatlari aniqlanayotgani, bundan tashqari, shunday holatlar ham aniqlanayaptiki, ayrim fuqarolarimiz o‘rta ta’lim maktablar, litseylar rahbariyatiga bevosita murojaat qilib, farzandlarini, ya’ni o‘g‘il bolalar va qizlarni alohida o‘qitish uchun sharoit yaratish to‘g‘risida talablar qo‘yayotgani, bu — fuqarolarimizni yaratilayotgan sharoitlarni noto‘g‘ri talqin qilayotgani holatlari vujudga kelayotganidan dalolat beradi», — dedi u.
O‘zini siyosiy muxolifat deb ataydigan buzg‘unchi siyosiy kuchlarning faollashuvi kuzatilmoqda, dedi Davlat xavfsizlik xizmati rahbari.

«Bizda ma’lumotlar bor, internet tarmoqlarida ham „Birlik“, „Erk“ nodavlat siyosiy muxolifat vakillarining partiya tashkil etish bo‘yicha Adliya vazirligiga murojaat etishgan. Ularning eng asosiy rejasi bugun o‘zining faoliyatini qonuniylashtirish, ertaga esa mamlakatimizdagi tinchlikni izdan chiqarish», — dedi Ixtiyor Abdullayev. Davlat xavfsizlik xizmati raisi boshqa respublikalarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbekistonlik mehnat migrantlari, ularning maxsus xizmatlar va diniy ekstremistik guruhlar tomonidan o‘z rejalarini amalga oshirishga jalb etilayotgani masalasiga ham to‘xtalib o‘tdi.
Ixtiyor Abdullayev qator mamlakatlarda «rangli inqiloblar"ni amalga oshirgan xalqaro tashkilotlarning qo‘shni mamlakatlardagi faoliyatining faollashuvi masalasiga diqqat qaratdi.

«Xorijiy hamkorlar tomonidan O‘zbekiston uchun zararli va foydasiz investitsion loyihalarni o‘tkazishga harakatlar ham e’tiborimizdan chetda qolmasligi kerak, chunki bu kelgusida iqtisodiyotimizga juda katta zarar keltirish ehtimoli bor», — dedi u. Shu va yana bir qator jiddiy tahdidlar Davlat xavfsizlik xizmati tizimini tubdan takomillashtirishni talab etdi, deya ta’kidladi Ixtiyor Abdullayev. «25 yil davomida mazkur idora faoliyati qonun darajasida tartibga solinmadi. Bu esa o‘z navbatida yetarli muammolarni keltirib chiqardi», — dedi u. Yangi qonun bilan Davlat xavfsizlik xizmati O‘zbekistonning konstitutsion tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini himoya qiluvchi maxsus vakolatli organ etibbelgilandi. DXX bevosita mamlakat prezidentiga bo‘ysunadi va hisob beradi. 2015 yildan O‘zbekiston bosh prokurori lavozimida ishlab kelgan Ixtiyor Abdullayev yanvar oxirida Davlat xavfsizlik xizmati raisi etibtayinlandi. Mart o‘rtasida prezident Shavkat Mirziyoyev Milliy xavfsizlik xizmatini Davlat xavfsizlik xizmati etib qayta tashkil etish to‘g‘risidagi farmonniimzoladi.

Ma’naviy tahdid” tushunchasi: yondashuvlar va talqinlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar. Mafkuraviy tahdid – jamiyat, davlat, yoki xalq, millat, elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmui. Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o‘z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo‘rqituv, zo‘rlik yo‘li bilan boshqalarga singdirishi. Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo‘lgan turli xil noan’anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy tahdidlar hisoblanadi. Masalan, keyingi yillarda ko‘plab namoyish etilayotgan jangarilik filmlarini olaylik. Bu filmlarni ko‘pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko‘radi, chunki odamzod tabiatan mana shunday to‘polonlarni tomosha qilishga moyil. Aslida, menining nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch- bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o‘zaro kurashadi.

Afsus bilan ta'kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya'ni hatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq. Shuning uchun ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlikni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki ular bunday uydirma talqinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib etmaydi". Darhaqiqat, bugun olimlarimiz tomonidan bunday tahdidlarning millat va jamiyat taraqqiyoti uchun, ma'naviy parokandalikni keltirib chiqarishga qaratilgan zararlari ilmiy asosini topib bormoqda. Prezidentmizning fikri naqadar to'g'ri ekanligi-ni olimlarimiz tomonidan o'rganilgan quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Bundan etti –sakkiz yil ilgari AQShning Kolorado shtatiga qarashli shaharchada ikki nafar o'quvchi sinfdoshini otib o'ldirgani, oxiri o'zlarining joniga qasd qilgani haqidagi shov-shuv dunyoga tarqaladi.

Kompyuterdagi mashhur "DOOM" o'yinidan ta'sirlangan bolalar ana shunday mudhish qotillik sodir etdilar. Bugungi kunda "Ma'naviy tahdid" tushunchasi keng ishlatilmoqda. Ba'zida bu tushunchaning ma'nosini anglash qiyin kechmoqda. Ma'naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg'ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki "Tahdid" so'zi xavfxatar, xuruj va buzish ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda ma'naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi. Yangi jamiyat barpo etish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda turli mazmunda, turli maqsadda, turli shaklda munosabatlar paydo bo'ladi.. O'zbekiston uchun ham shunday rang-barang munosabatlar davom etmoqda. Ayniqsa, chetdan turib ongli va maqsadli ravishda uyushtirilayotgan ma'naviy tahdidlar bunday munosabatlarning asosini tashkil qilmoqda. Bugungi kunda ma'naviy tahdidlar bir necha xil ko'rinishda namoyon bo'lmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, ma'naviy tahdidlar tili, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar har bir insonga qaratilgan.

Bundan maqsad, birinchidan, shaxsning ma'naviy-axloqiy olamini buzish; ikkinchidan, o'z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg'otish; uchinchidan, milliy axloqiy qadriyatlarni aynitish; to'rtinchidan, o'zgalar jamiyatini ideal deb bilish ko'nikmasini hosil qilish; beshinchidan, zararli odatlarga xuruj qo'yish. Diqqat qilsak ma'naviy tahdidlarning barcha turi nosog'lom turmush tarzi bilan bog'liqligiga va u mafkuraviy nuqtai nazardan eng xavfli omil ekanligiga amin bo'lamiz. Chunki uning negizini shaxs tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan zararli g'oya tashkil etadi. S.M. Yo'ldosheva tadqiqotlariga ko'ra, ma'naviy tahdidlar bir necha ko'rinishdan iborat bo'lib, birinchi ko'rinish mafkuraviy xurujlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e'tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozitsiyasini o'zgartirishga qaratiladi. Noto'g'ri fikrlash, mutaassibona dunyoqarash va zararli hayotiy pozitsiya shaxsning mafkuraviy nosog'lomligini anglatadi.
Ma'naviy tahdidning ikkinchi ko'rinish g'oyaviy tahdiddir.

Bu xuruj ham uch ma'noga ega bo'lib, bunda asosiy e'tibor shaxs xulq-atvorini aynitish, shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishga qaratiladi. Zararli xulqatvor, nosog'lom axloqiy munosabat va qo'pol muomala shaxsning xulqi zaifligidan dalolat beradi.
Ma'naviy tahdidning uchinchi ko'rinishi informatsion xujumdir. Bunda asosiy e'tibor shaxsga noto'g'ri ma'lumot berish, shaxs bilimini primitlashtirish va shaxs faoliyatini zaiflashtirishga qaratiladi. Noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lish, sayoz bilimlilik va samarasiz faoliyat shaxsning madaniy oqsoqligidan dalolatdir. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviy tahdidlar jamiyat kishilarini johil kimsalarga aylantiruvchi ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlaridir.
Ma'naviy tahdidlarni o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:
Birinchidan, ma'naviy tahdidlar nosog'lom turmush tarzi asoratidir;
Ikkinchidan, ma'naviy tahdidlar ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini

ifodalaydigan sub'ektiv omillar majmuidir; Uchinchidan, ma'naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongini buzish vositasida jamiyat hayotini izdan chiqarishga, nosog'lom turmush tarzini yoyishga yo'naltirilgan. Nosog'lom turmush tarzi asoratlari natijasida ma'naviy tahdidlar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: Xudpisandlik - bu illat jamoatparvarlik fazilatlariga qarshi o'laroq, shaxs axloqiy ongida noto'g'ri tushuncha va qarashlarni hosil qiladi. Shu sababli xudpisand kimsalarda burch va mas'uliyat tuyg'usi bo'lmaydi.

Bundaylar faqat bugungi kunni o'ylab yashaydi, ertangi kunni o'ylash, ezgulik va haqiqat uchun kurashish fazilatlaridan xoli bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ma'naviy tahdidlar quyidagi illatlarni targ'ib qilayotgani bilan namoyon bo'lmoqda: xudbinlik, nopoklik, nafs qutqusiga uchish, huzur-halovatga berilish, engil-yelpi umr kechirishga da'vat, giyohvandlik, mutaasiblik, tajovvuzkorlik, molu-dunyoga o'chlik, axloqiy buzuqlik, zo'ravonlik, axloqsizlikni madaniyat deb bilish, va aksincha asl ma'naviy qadiryatlarni eskilik sarqiti deb qarash, loqaydlik, mahalliychilik, hasadgo'ylik, baxllik, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik. Bunday ma'naviy axloqiy tubanlik illatlariga qarshi shaxs axloqida eng muhim insoniy sifat va fazilatlarni shakllantirishga diqqat qilinishi kerak. Bunday sifat va fazilatlarning asosiylari quyidagilar: insoniylik, mehr-oqibatlilik, ezgulik, vatanparvarlik, haqgo'ylik, adolatlilik, muruvatlilik, sahovatlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik, hamkorlik, totuvlik, ahillik, inoqlik, tashabbuskorlik, birodarlik va faollik.

Bular shaxsning ongi va qalbida sezgirlik, ogohlik va hushyorlik holatlarini hosil qiladi. Shu ma'noda ma'naviy tahdidlardan shaxs axloqini himoya qilish yo'lining eng samarali usuli shaxsda axloqiy immunitetni hosil qilishdir. Bunday immunitet shaxs axloqida ideal darajadagi sifat va fazilatlarni shakllantirishni taqazo etadi. Xalqimiz ma'naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy leksikonimizda nisbatan yangi kirib kelgan "Ma'naviy tahdid" tushunchasiga turlicha

yondoshuvlar mavjud. Falsafa fanlari doktori G.Tulenovaning «O‘zbekistonda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash muammolari” maqolasida mafkuraviy tahdidlar, jumladan terrorizm, aqidaparastlik va diniy ekstremizm ma’naviy tahdid sifatida qaralgan.

Rossiyalik tadqiqotchilarning “Rossiya ma’naviy xavfsizligi (ma’naviy xavfsizlikning dolzarb nazariy-metodologik va amaliy muammolari) nomli ilmiy – metodik qo‘llanmasida ma’naviy tahdidlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Mazkur qo‘llanmada hozirgi vaqtda ma’naviy xavfsizlikka etarli darajada e’tibor qaratilmayotganligi ta’kidlangan va ma’naviy tahdidlar sifatida demografik va diniy ongga ta’sir etuvchi tahdidlar tahlil qilingan. Ye.A.Boksha ma’naviy tahdidlar sifatida Rossiya oilalari turmush tarziga qaratilgan destruktiv xarakterdagi, ma’naviy qarama-qarshiliklarni kelib chiqishiga sababchi bo‘luvchi jarayonlarni rivojlantiruvchi omillarga e’tibor qaratgan. Shuningdek hozirda oilalarning hayotiga qarshi qaratilgan radikal femenizm mafkurasi, gey – madaniyati – g‘oyasini tarqalishi (ommalashuvi), shahvatparastlikning (erotizm) targ‘iboti, Rossiya oilasida egoistik (xudbinlik) qadriyatlarining majburan qabul qilinishi, bozor ideallarining o‘z navbatida ma’naviy asoslarga salbiy ta’sirini ma’naviy tahdidlar sifatida baholagan.

Ma’naviy tahdidlar keng qamrovli bo‘lib, mazkur yondoshuvlarda ularning u yoki bu jihatlari hisobga olingan. Milliy nizo turlari va taxdidlar. XXI asr bo‘sag‘asida tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, u yoki bu davalatning, millatning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti, uning kelajagi mazkur millatga xavf solayotgan tahdidni angalab etish salohiyati va qobiliyati darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. “Tahdid” deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo‘naltirilgan ijtimoiy strukturani, to‘g‘rirog‘i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, emirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “kirib kelishi” tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim.

“Tahdid” fenomeni, uning siyosiy jihatlari sayyoramizning turli mamlakatlarida ijod qilayotgan zamondosh tahlilchilar hamda siyosiy va jamoat arboblarining e’tiborini ham o‘ziga tortib kelmoqda. Shu jumladan, Reyshauer, Nibur, Xantington, Kissinjer (AQSh), Toynbi (Angliya), Turen (Fransiya), Moiseev (Rossiya), qolaversa “Rim klubi” va Paguosh tinchlik harakati kabi ilmiy-amaliy muassasalar rahbarlari va fidoiylari faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin. “Tahdid” tushunchasi to‘la ma’noda siyosiy leksikonga Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan 1994 yil 22 sentyabrda Oliy Majlis sessiyasida so‘zlagan nutqida birinchi bor kiritildi. Shunday ekan, mamlakatimizda “Tahdid” va uni barataf qilishning ilmiy va amaliy asoslarini ochib berish, ularga chuqur tahlil berish bevosita I.Karimov nomi bilan bog‘langan.

Bugungi kunda bu mavzuga daxldor masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi hamda Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti jamoasi, mamlakatimiz jamiyatshunos olimlari tomonidan chuqur o‘rganilmoqda. Uning mohiyati va funksional jihatlari barqarorlik, xavfsizlik, fuqaroviy hamjihatlik va taraqqiyot kabi global muammolar bilan uyg‘un holda tadqiq etilmoqda. Tahdidlar turli-tuman: ichki va tashqi, katta va kichik, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin bo‘lishi mumkin. Qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularga nisbatan bamaylixotirlikka yo‘l qo‘yish yoki ularni “saralash” bilan ovora bo‘lib vaqtni boy berish hollari uchrab turadi. XX asr voqealari shundan guvohlik berib turibdiki, tahdidlarni toifalashda ularni shartli ravishda iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy – iqlimiy va ma’naviy tahdidlarga ajratib ko‘rish va tahlil etish mumkin. Milliy nizo turlari fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga; -tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq kelib chiqadigan nizolarga; -yakka mehnat nizolariga; -oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga.q

**Nazorat uchun savollar.**

1. Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi va tasnifi

2. Diniy tahdid va ularning kelib chiqish

3. Ma'naviy tahdid" tushunchasi: yondashuvlar va talqinlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar.

## 9-10-Ma'ruza: Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy asoslari.

Reja:

1. Axborot xavfsizligi ishlab chiqish asoslari
2. Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bosqichlari
3. Axborot xavfsizligi siyosatini qayta ko'rib chiqish

**Tayanch so'z va iboralar:** axborot, xavfsizlik, g'oya, asos, siyosat, bosqich, faoliyat, loyiha.

Axborotni himoyalash bugungi kunda har bir korxonaning dolzarb masalasi hisoblanadi. Axborot xavfsizligi hodisalari tufayli keladigan zarar tashkilot taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Axborot xavfsizligini ta'minlashning ko'plab usullari va sohalari mavjud. Bugungi maqolamizda tashkilotlarda axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy hujjati sanalmish axborot xavfsizligi hujjati to'g'risida so'z yuritiladi. Ta'kidlaganimizdek, tashkilotda axborot xavfsizligini ta'minlashni samarali tashkil etish vositalaridan biri bu axborot xavfsizligi siyosatini joriy etishdir.

Xo'sh, axborot xavfsizligi siyosati nima, u qanday joriy etiladi va joriy qilishdan maqsad nimalardan iborat? Axborot xavfsizligi siyosatining ko'plab ta'riflari turli hujjatlarda keltirilgan, shulardan davlat organlari uchun mos keluvchi ta'rif shunday: axborot xavfsizligi siyosati – bu korxona yoki tashkilot xodimlari axborot resurslarini himoya qilish uchun kundalik amaliyotida amal qiladigan chora-tadbirlar, qoidalar va tamoyillar to'plami.

**Axborot xavfsizligi ishlab chiqish asoslari.** Axborot xavfsizligi siyosati, birinchi navbatda, korxonada axborot xavfsizligini ta’minlashning maqsad va vazifalarini faoliyatga singdirish uchun zarurdir. Faoliyat yuritayotgan har bir xodim shuni tushunishi kerakki, xavfsizlik xodimi nafaqat ma’lumotlar chiqib ketishini tekshiruvchi, balki kompaniya xatarlarini minimallashtirish va shu sababli kompaniya rentabelligini oshirishda yordamlashuvchidir. Yurtimizda elektron hukumatni qurish, davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish bilan bog‘liq harakatlar jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Hukumatning tegishli qarorlari va axborot xavfsizligi sohasidagi standartlarga (O‘z DSt ISO/IEC 270XX) muvofiq har bir tashkilotda axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va joriy qilinishi lozimligi yuzasidan talablar keltirilgan.

Xususan, O‘z DSt ISO/IEC 27002 standartining 5-bobida Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha talablar belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarida (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy tamoyillari va tartibini belgilovchi «O‘zbekiston Respublikasi hududida axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar» ham 2013–2020 yilllarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasining 2016-yil 23-fevraldagi 7-bayoni bilan tasdiqlangan.

Uslubiy qo‘llanma tashkilotda xavfsizlikni boshqarish bo‘yicha amaliy choralarni tanlash, shuningdek, tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashishda ularning yaxlitligi, qulayligi va maxfiyligini ta’minlash uchun asosdir.

**Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bosqichlari.** Mavjud uslubiy qo‘llanmaga muvofiq axborot xavfsizligi siyosatini (keyinchalik matnda – Siyosat) ishlab chiqish uch bosqichda amalga oshiriladi. Siyosatni ishlab chiqish uchun ishchi guruh tashkilot rahbarining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi, unda quyidagi shaxslar bo‘lishi kerak:

- tashkilot rahbariyati vakili;
- axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha mas’ul,
- kadrlar bo‘limi boshlig‘i (HR xizmati);
- texnik bo‘linmalar vakillari (axborot xavfsizligi ma’muri, tarmoq ma’muri, ma’lumotlar bazasi ma’muri yoki boshqa vakolatli xodimlar).

Zaruriyatga qarab, tashkilotning boshqa xodimlarini, uchinchi tomon ixtisoslashtirilgan tashkilotlarini yoki mutaxassislarni jalb qilish mumkin.

Siyosatni ishlab chiqish tartibi quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: Birinchi bosqich. Dastlabki xavfsizlik auditi, shu jumladan, axborot xavfsizligi holatini dastlabki o‘rganish va inventarizatsiya qilish, tashkilot xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash, himoya qilinishi lozim resurslarni aniqlash, risklarni aniqlash. Audit jarayonida axborot xavfsizligining hozirgi holatini tahlil qiladi, mavjud zaifliklarni, faoliyatning eng muhim sohalari va tashkilotning xavfsizlikka tahdid jarayonlariga eng sezgir yo‘nalishlari aniqlanadi.

Audit tashkilotning axborot xavfsizligining tahdidlari va zaifliklarini aniqlashga, siyosatni ishlab chiqish uchun dastlabki ma’lumotlarni olishga, shuningdek, tashkilotni axborotlashtirish ob’yektlarini keyingi sertifikatlashga tayyorlashga imkon beradi. Tashkilot auditi davomida quyidagilar amalga oshiriladi: - tashkilotning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari talablariga muvofiqligi o‘rganiladi va tahlil qilinadi, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari toifalarga taqsimlanishi, shuningdek, tashkilotda axborot xavfsizligi masalalarini tartibga soluvchi normativ hujjatlarning ijrosi o‘rganiladi; - tashkilotning kompyuterlari va serverlarini dastlabki tekshirish, ya’ni ishlatilgan operatsion tizimlarning sozlamalari, dastur va tizim dasturlari (dasturiy ta’minot), axborot xavfsizligi vositalari, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga kiritilgan boshqa qo‘shimcha qurilmalar va boshqalar tahlil qilinadi; - axborot xavfsizligining tahdidlari va zaifliklari uchun tashkilot veb-sayti tahlil qilinadi; - tashkilot hududi, perimetri va binolarining jismoniy himoya qilishni ta’minlash

bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi, ya’ni xavfsizlik tizimi, kirishni boshqarish vositalari, yong‘in xavfsizligi tizimlari va boshqalar;

- suhbat orqali tashkilot xodimlarining tashkilotda o‘rnatilgan axborot xavfsizligi qoidalari to‘g‘risida xabardorligi baholanadi;

- tashkilotning axborot va moddiy resurslarini turkumlash va inventarizatsiya qilish tahlili amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich. Tashkilotning axborot xavfsizligi siyosati loyihasini ishlab chiqish. Siyosatni ishlab chiqishda quyidagi asosiy qoidalarga rioya qilish talab etiladi:

- siyosat amaldagi qonunchilikka va davlat standartlari talablariga to‘liq mos bo‘lishi lozim;

- siyosat matnida ikki tomonlama talqin qilishga imkon bermaydigan aniq va bir ma’noli jumlalar bo‘lishi lozim.

Umuman olganda, siyosat axborot tizimlari va axborot xavfsizligi vositalarini amalga oshirishda va ulardan foydalanishda, shuningdek, ma’lumot almashish va axborotni qayta ishlash operatsiyalarini bajarishda foydalanuvchilar, ma’murlar va boshqa mutaxassislarning talab qilinadigan xatti-harakatlari to‘g‘risida aniq tasavvur berishi kerak. Siyosat – bu tashkilotning barcha manfaatdor tomonlariga cheklovlarsiz taqdim etilishi mumkin bo‘lgan ommaviy hujjat. Uchinchi bosqich. Tashkilotning axborot xavfsizligi siyosatini muvofiqlashtirish va amalga oshirish.

Ishlab chiqilgan siyosat loyihasi tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga va vakolatli organlarga tasdiqlash uchun yuboriladi hamda tasdiqlangandan so‘ng tashkilot rahbarining buyrug‘i bilan kuchga kiradi. Shu bilan birga, tasdiqlangan siyosatni to‘liq amalga oshirish uchun aniq sanalar va ijrochilar bilan siyosatni amalga oshirish bo‘yicha tarmoq harakatlar rejasi ishlab chiqilishi lozim.

Ushbu reja Xodimlarning lavozim tavsiflari, bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizom, tashkilotning shartnomaviy (kontrakt) majburiyatlari axborot xavfsizligini ta’minlash uchun mas’uliyat va majburiyatlarni o‘z ichiga olishi kerak. Tashkilotning barcha

xodimlarini tasdiqlangan siyosat talablari va qoidalari bilan tanishtirish, shuningdek, axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha muntazam tushuntirish tadbirlarini o‘tkazish tartibini ta’minlash kerak. Agar siyosat talablari tashkilotdan tashqariga chiqsa, axborot xavfsizligi talablari uchinchi tomon tashkilotlari bilan shartnoma majburiyatlariga kiritilishi kerak.

**Axborot xavfsizligi siyosatini qayta ko‘rib chiqish** O‘z DSt ISO/IEC 27002 standartiga muvofiq tashkilotda axborot xavfsizligining siyosatini ishlab chiqish, qayta ko‘rib chiqish va baholash uchun javobgar mansabdor shaxslar tayinlangan bo‘lishi lozim. Shuningdek, uslubiy qo‘llanmaga muvofiq siyosat yiliga kamida bir marta, shuningdek, quyidagi hollarda ko‘rib chiqilishi kerak:

- axborot xavfsizligiga oid yangi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlarni o‘zgartirish va tasdiqlashda;

- konfiguratsiyani o‘zgartirganda, axborot jarayonlari texnologiyasini o‘zgartirmaydigan dasturiy ta’minot va apparat, dasturiy ta’minot va apparatlarni qo‘shish yoki olib tashlanganda;

- ob’yekt ma’lumotlarini himoya qilishning texnik vositalari konfiguratsiyasi va sozlamalarini o‘zgartirganda;

- axborot xavfsizligi uchun mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar – foydalanuvchi va texnik xodimlarning tarkibi va majburiyatlarini o‘zgartirganda.

Bundan tashqari, tashkilotning axborot xavfsizligi faoliyati qabul qilingan siyosatga muvofiqligini muntazam ravishda tekshirib turishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tashkilot tomonidan siyosat talablari va qoidalariga rioya qilinishi yuzasidan tashkilotning axborot infratuzilmasini ichki va tashqi auditini o‘tkazish orqali Siyosatning samaradorligini yangilash va baholash amalga oshiriladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, axborot xavfsizligi bugungi kunda respublikamizning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim elementi darajasiga ko‘tarilmoqda. Axborot xavfsizligi madaniyatini mamlakatning tijorat tashkilotlari va davlat tuzilmalari faoliyatining barcha sohalariga chuqur singdirmasdan bozor

ishtirokchilarining elektron hamkorligini kengaytirish va yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin emas.

Tashkilotlarda axborot xavfsizligi madaniyatini oshirishning eng samarali vositasi bo‘lgan axborot xavfsizligi siyosati zamonaviy sharoitda muhim omil bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, yurtimizda iqtisodiy faoliyat va davlat boshqaruvi jarayonlarining raqamlashtirilishi kuchayishi bilan axborot xavfsizligi siyosatining roli tobora oshib bormoqda.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Axborot xavfsizligi ishlab chiqish asoslari
2. Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bosqichlari
3. Axborot xavfsizligi siyosatini qayta ko‘rib chiqish

## 11-Ma’ruza: O’zbekistonda axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari.

Reja:

1. Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi.
2. Axborot xizmatining huquqiy asoslari.
3.Axborot xizmatining qonuniy asoslari.

**Tayanch so’z va iboralar:** axborot, xavfsizlik, ma’naviy, huquq, elektiron hukumat, resurus.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 16 sentyabrdagi 250-son Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzuridagi Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi tashkil etilganMarkazning asosiy vazifalari:"Elektron hukumat" tizimi axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta’minlash; amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq "Elektron hukumat" tizimini joriy etish doirasida axborotlashtirish ob’ektlarini attestatsiyadan o‘tkazish; davlat organlarining axborot

tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi sièsatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashish; axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash,

"Elektron hukumat" tizimi axborot tizimi, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minlaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik echimlarni samarali qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish; "Elektron hukumat" tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining, shuningdek Internet tarmog‘i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish; telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo‘yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog‘i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo‘laètgan tahdidlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo‘yicha konsultatsiya xizmatlari ko‘rsatish; qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz èxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish; Tashkilotda axborot xizmatini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yishda uning huquqiy asoslari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xizmatining huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari tashkil etadi.

Aytish joizki, mamlakatimizda jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish va shu maqsadda tashkilotlarda axborot xizmatlarini tashkil etishda dastlab Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 22 sentyabrda qabul qilingan “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 203-qarori muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgandi. Qarorda, davlat

va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatining oshkoraligini ta’minlash, keng jamoatchilik va aholining O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning borishi to‘g‘risida muntazam xabardor qilish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashning, oshkora fuqarolik jamiyati qurishning muhim yo‘nalishi hisoblanishi qayd etilgan holda, “Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xo‘jalik boshqaruvi organlari (keyingi o‘rinlarida idoralar deb yuritiladi) tarkibida xodimlarning umumiy soni doirasida axborot xizmatlari tashkil etilsin” deb belgilangan. Aytish joizki, o‘tgan yillar mobaynida mazkur qarorda belgilangan qator vazifalar ijrosi ta’minlandi. Chunonchi, barcha vazirlik, tashkilot, muassasa va boshqa idoralarda axborot xizmatlari tashkil etildi va ular faoliyati yo‘lga qo‘yildi, internet tarmog‘ida vebresurslari tashkil etildi. Shu tariqa bugungi kunga qadar axborot xizmatlari muayyan vazifalarni amalga oshirib kelayotir. Biror huquqiy asosga ega bo‘lmasdan bunday muhim vazifalarni amalga oshirish mushkul edi, albatta.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevral kuni e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori sohani yanada takomillashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Qarorda qayd etilganidek, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda axborot va bilim eng muhim milliy resurslarga, ularni yaratish va tarqatishni ta’minlovchi tizimlar esa – barqaror rivojlanishning strategik omillariga aylanmoqda. Ushbu sharoitlarda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni va ochiq adolatli fuqarolik jamiyatini qurish, shuningdek, insonning huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta’minlashdek strategik maqsadga erishish, davlat boshqaruvining sifati davlatning axborot, bilim va innovatsiyalarga asoslangan modeliga o‘tishini ta’minlaydigan axborotni va bilimni yaratish, qabul qilish va tarqatish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan davlat va xo‘jalik boshqaruvi sohasida ochiqlik va shaffoflikka asoslangan

samarali qarorlar qabul qilish tizimini joriy etish, axborot olishda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorligi, ochiqligi va mas'uliyatini ta'minlash zarur.

Bu davlat va xo'jalik boshqaruvi apparatining samarali faoliyat yuritishi hamda jamiyatda adolatni qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi. Bunda jamiyatni davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatidan keng xabardor qilish, ularning aholi oldidagi hisobdorligini ta'minlash «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir» degan konstitutsiyaviy normani amalga oshirishning, «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ezgu g'oyani ro'yobga chiqarishning muhim sharti hisoblanadi. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot jihatidan ochiqligini yanada oshirish, jamoatchilikka amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning maqsadlari, vazifalari, borishi hamda natijalari, mamlakatning global axborot jamiyatiga uyg'un integratsiyalashuvi haqida o'z vaqtida, xolisona va to'laqonli axborotni tezkorlik bilan etkazish, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari axborot xizmatlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining mazkur qarorida quyidagi huquqiy normalar hamda vazifalar belgilangan:

«Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidabelgilangan aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning samarali mexanizmlari va usullarini joriy etishga, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini ta'minlashga qaratilgan normalari ijrosini so'zsiz va sifatli ta'minlash barcha darajalardagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining eng ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblansin. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organi rahbari ushbu vazifalar amalga oshirilishi uchun shaxsan mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin. Belgilab qo'yilsinki, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari (matbuot xizmatlari, jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlari) (keyingi o'rinlarda axborot xizmati deb yuritiladi) davlat va

xo‘jalik boshqaruvi organi xodimlarining umumiy soni doirasida tashkil etiladi hamda shu organ rahbariga bevosita bo‘ysunadigan alohida mustaqil bo‘linma hisoblanadi.

Quyidagilar axborot xizmatining asosiy vazifalari etib belgilansin: davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyati tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish; axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati, davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikni ta’minlash; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyati, uning faoliyat sohasiga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida keng jamoatchilikni xolisona, sifatli va tezkor xabardor qilish; ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish, axborot xizmati bilan doimiy hamkorlikda ishlaydigan jurnalistlar doirasini shakllantirish, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatish, ommaviy tadbirlarni tashkil etish; axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rasmiy veb-saytida tezkor joylashtirish va o‘z vaqtida yangilab borish, Internet tarmog‘idagi veb-resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy va mobil tarmoqlarni rivojlantirish; axborot maydoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, ularga munosabat bildirishning turlari, usullari va darajasi bo‘yicha ekspertlar bilan birgalikda takliflar tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet tarmog‘ida materiallar tarqatish bo‘yicha kompleks ishlarni tashkil etish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan birgalikda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida tarqatish uchun xabar, axborot-ma’lumot tusidagi materiallar, sharhlar va axborot-tahliliy materiallar tayyorlash; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (kino, foto, audio va videomateriallar, bosma mahsulotlar va shu kabilar) bilan ta’minlash; idora faoliyatiga nisbatan jamoatchilik

fikrining holatini hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini tahlil qilish va ular to‘g‘risida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador matnli, foto, audio va videomateriallardan iborat ma’lumotlar bankini shakllantirish va yuritish.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Shuningdek qarorda, axborot xizmatlari kadrlarining malakasini oshirish va Xizmatlarni jurnalist kadrlar, jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish va boshqa sohalardagi yuqori malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash, shuningdek, axborot xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur zamonaviy moddiy-texnik bazani shakllantirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqish; axborot xizmatlari tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan, shu jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari ishtirokida muntazam ravishda (bir oyda kamida bir marta) matbuot anjumanlari, brifinglar o‘tkazilishini hamda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan ishlashning boshqa zamonaviy shakllarini amaliyotga joriy etish vazifalari ham belgilangan.

Har bir tashkilotning Nizomi uning huquqlari, vazifalari, burchlarini kafolatlovchi asosiy huquqiy hujjati hisoblanadi. Axborot xizmati aslida tashkilot markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblansa-da u ham alohida Nizomiga ega bo‘ladi. Axborot xizmati xodimlari Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 125-son qarorigailova tarzida berilgan quydagi hujjatga ham alohida e’tibor qaratishlari zarur: Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to‘g‘risida.

## NAMUNAVIY NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar Axborot xizmati (matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar xizmati) (keyingi o‘rinlarda Xizmat deb ataladi) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda bevosita uning rahbariga bo‘ysunadi. Xizmat o‘z faoliyatida O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasiga, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunigava O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda ushbu Nizomga amal qiladi. Xizmat o‘z faoliyatini davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hamda boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tegishli xizmatlari bilan o‘zaro yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

2-bob. Xizmatning asosiy vazifalari va funksiyalari Quyidagilar Xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi: davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyati tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish; axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati, davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikni ta’minlash; keng jamoatchilikni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyati, uning sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlari to‘g‘risida xolisona, sifatli va tezkor xabardor qilish; ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda OAV deb ataladi) bilan o‘zaro hamkorlik qilish, Xizmat bilan doimiy hamkorlikda ishlaydigan jurnalistlar doirasini shakllantirish, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatish, ommaviy tadbirlarni tashkil etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rasmiy veb-saytida axborotni tezkorlik bilan joylashtirish va o‘z vaqtida yangilab borish,

Internet tarmog‘idagi veb-resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy va mobil tarmoqlarni rivojlantirish; axborot maydoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, ularga munosabat bildirishning turlari, usullari va darajasi bo‘yicha ekspertlar bilan birgalikda takliflar tayyorlash, OAV, shu jumladan, Internet tarmog‘ida materiallar tarqatish bo‘yicha kompleks ishlarni tashkil etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan birgalikda

milliy va xorijiy OAVda tarqatish uchun xabar, axborot-ma'lumot materiallar, sharhlar va axborot-tahliliy materiallar tayyorlash; davlat va xo'jalik boshqaruvi organi faoliyatini xorijiy OAVda sifatli yoritish maqsadida

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonlarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (foto, audio va videomateriallar, bosma mahsulotlar va shu kabilar) bilan ta'minlash; idora faoliyatiga nisbatan jamoatchilik fikrining holati hamda milliy va xorijiy OAV pozitsiyasini tahlil qilish va ular to'g'risida davlat hokimiyati va boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish; davlat va xo'jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador matnli, foto, audio va videomateriallar ma'lumotlar bankini shakllantirish va yuritish.

Xizmat yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi: OAVda, shu jumladan, Internet tarmog'ida axborot e'lon qiladi (chop etadi), shuningdek, ularni rasmiy veb-saytlarda, hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalar va joylarga joylashtirish va yangilab borishni ta'minlaydi; ommaviy tadbirlarni, shu jumladan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organining rahbarlari ishtirokidagi tadbirlar (majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar)ni tashkil etadi va o'tkazadi; OAV va jurnalistlarning so'rovi asosida ularga og'zaki va yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etadi; qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik muhim dasturlar hamda O'zbekiston Respublikasi hududida huquqni qo'llash amaliyoti holati monitoringini olib boradi va keng jamoatchilikni xabardor qilib boradi;

Xizmat oldida turgan vazifalarni samarali hal etish uchun zarur bo'lgan axborotni davlat va xo'jalik boshqaruvi organining boshqa bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikda to'playdi va ularni puxta ishlaydi; davlat va xo'jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir masalalar bo'yicha bosma materiallarni tayyorlaydi hamda milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qiladi, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etadi, tegishli sohada davlat siyosatini

amalga oshiradi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini o‘rganishga doir tahliliy ishlarni amalga oshiradi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish uchun e’lon qilingan dolzarb materiallar sharhlarini tayyorlaydi;

OAV bilan axborot-ma’lumotnoma ishlarini amalga oshirish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tahliliy, statistik va boshqa materiallarning tizimlashtirilgan ma’lumotlar banki tashkil etilishi va yuritilishini ta’minlaydi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatini eng to‘liq va xolisona yoritish maqsadida milliy va xorijiy OAV hamda jurnalistlar bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining veb-sayti tashkil etilishini va uni zamonaviy darajada yuritishni ta’minlaydi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi tomonidan tashkil etiladigan rasmiy tadbirlardan teledasturlar, roliklar va lavhalar tayyorlashda va ularni montaj qilishda ishtirok etadi hamda ushbu materiallarni belgilangan tartibda saqlash uchun ularning arxivlashtirilishini ta’minlaydi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir foto, audio va videomateriallarni tayyorlaydi hamda ularni tayyorlash jarayonida davlat va nodavlat OAV bilan o‘zaro hamkorlik qiladi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador foto, audio va videomateriallar ma’lumotlar banki shakllantirilishi va yuritilishini ta’minlaydi.

Xizmat o‘z vakolatlari doirasida milliy va xorijiy axborot agentliklari hamda OAVning davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyati to‘g‘risidagi materiallarni tayyorlashda ko‘maklashish to‘g‘risidagi buyurtmanomalari va so‘rovlarini ko‘rib chiqadi.

3-bob. Xizmatning huquqlari va javobgarligi Xizmat o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega: Xizmatning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalaridan, idoraviy mansub tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rab olish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining

yig‘ilishlarida, majlislarida va boshqa tadbirlarida qatnashish; qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari bilan kelishgan holda idoraning boshqa bo‘linmalari xodimlarini jalb etish, shuningdek, boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, shartnoma asosida jalb etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan belgilangan tartibda o‘zaro hamkorlik qilish; rahbariyatning topshirig‘iga ko‘ra davlat organlarida respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarda

Xizmat vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi nomidan vakillik qilish; o‘z vakolatlari doirasida bosma nashrlarni nashr etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining axborot siyosatini takomillashtirishga doir takliflarni, Xizmat faoliyati masalalari bo‘yicha normativ hujjatlar loyihalarini rahbariyatning ko‘rib chiqishi uchun kiritish. Xizmat: o‘ziga yuklangan vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi;
davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatining milliy va xorijiy OAVda xolisona, sifatli va tezkor yoritilishini ta’minlash uchun javob beradi.

4-bob. Xizmat faoliyatini tashkil etish Xizmat xodimlari soni u amalga oshiradigan vazifalarning murakkabligi va hajmiga ko‘ra davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan, xodimlarning tasdiqlangan umumiy soni doirasida belgilanadi. Xizmat faoliyati davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan tasdiqlanadigan ish rejasi asosida tashkil etiladi. Xizmatga davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan rahbar boshchilik qiladi. Xizmat rahbari bevosita davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbariga bo‘ysunadi va ayni vaqtda uning matbuot kotibi hisoblanadi.

Xizmat rahbari: Xizmat faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda Xizmatga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi; Xizmat faoliyatini tashkil etadi, rejalashtiradi va nazorat qiladi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi;

Xizmatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishni ta'minlaydi, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi; Xizmat xodimlarining malakasini va kasbiy saviyasini oshirish uchun shartsharoitlar yaratadi. Xizmat xodimlari Xizmat rahbarining taqdimnomasiga ko'ra belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Xizmat faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik va transport bilan ta'minlash, shuningdek, uning xodimlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish davlat va xo'jalik boshqaruvi organining tarkibiy bo'linmalari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi1. Shu asosda respublikamizdagi barcha tashkilotlarning axborot xizmati Nizomi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Demak, axborot xizmati shu Nizom asosida faoliyat ko'rsatishi uning huquqiy asoslari qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Axborot xizmati qaysi idora yoki tashkilotga tegishli bo'lishidan qat'i nazar u asosan axborot to'plash va tarqatish bilan shug'ullanadi.

Modomiki, tashkilotning axborot xizmati axborot to'plash va tarqatish bilan ham shug'ullanar ekan, demak, O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni ham uning huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur qonunning 6-moddasi "Axborotning ochiqligi va oshkoraligi" deb nomlanib, unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyat manfaatlariga taalluqli voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga xabar berishi shart, deb belgilab qo'yilgan.

Qonunning "Axborot erkinligi kafolatlari" deb nomlangan 8moddasida esa, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va

majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta’minlashga majburdirlar, deb belgilangan.

Xo‘sh, bu vazifalarni kim va qanday yo‘sinda amalga oshiradi? Jahon tajribasiga ko‘ra, rivojlangan davlatlarda tashkilotlar tomonidan asosiy axborotlar aynan axborot xizmati tomonidan tarqatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Axborot xizmati avvalo jurnalistlar kabi axborot to‘plashi, qayta ishlashi (ommabop janrda yozishi yoki teleko‘rsatuv, radioeshittirish tayyorlashi) talab etiladi. So‘ng, o‘sha axborotini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishi mumkin. Demak, bu o‘ta mas’uliyatli ishlarni amalga oshirishida axborot xizmati uchun o‘sha qonun g‘oyat muhim asosdir. Axborot xizmat xizmati xodimi axborot to‘plash va tarqatish borasida jurnalistlar kabi faoliyat ko‘rsatar ekan, O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni ham uning huquqiy asoslaridan hisoblanadi. U ham jurnalistning majburiyatlarini bilishi va unga amal qilishi zarur. Qonunning 6-moddasi “Jurnalistning majburiyatlari” deb nomlanib, unda bajarishi shart bo‘lgan majburiyatlar ham belgilab qo‘yilgan.

Ya’ni, o‘z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog‘ida jurnalist: qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari talablariga rioya etishi; o‘zi tayyorlayotgan materiallarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi; aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi; shaxsning huquqlari va erkinliklarini, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart. Jurnalist o‘z kasbiga doir axborotdan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi, axborot manbai yoki muallif roziligisiz jismoniy shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli ma’lumotlarni e’lon qilishi, shuningdek audio va video yozish vositalaridan foydalanishi mumkin emas.
Jurnalist qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajarishi shart.

Bu talablarning barchasi doimo axborot to‘plash va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi axborot xizmati xodimlari uchun ham birdek taalluqlidir.

Axborot xizmatlarining huquqiy asoslarini belgilovchi navbatdagi qonun – O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni bo‘lganini alohida qayd etish lozim. Qonunning 10moddasi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmati” (2014 yil 5 may) deb nomlanadi. Unda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni tayyorlash hamda tarqatish vazifalarini bajaruvchi, shuningdek ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan hamkorlikni ta’minlovchi tarkibiy bo‘linmasi yoxud ushbu vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmatidir, deb belgilab qo‘yilgan.

Ushbu moddaga binoan Axborot xizmati ommaviy tadbirlarni tashkil etish, axborot xabarlarini (press-relizlar, byulletenlar va hokazolarni) tarqatish, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytida ularning faoliyati to‘g‘risidagi axborotni joylashtirish va yangilab borish yo‘li bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish choratadbirlarini ko‘radi. Axborot xizmati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatishning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa usullaridan ham foydalanishi mumkin. Qonunda axborot xizmatining faoliyatini tashkil etish tartibi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan belgilanishi ham qayd etilgan.

Aytish joizki, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunning nomlanishidan ham ko‘rish mumkinki, qonun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur Qonun ham sodda va tushunarli tilda yozilganligi bilan barcha uchun birdek tushunarlidir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Yangi Qonun ushbu normani to‘la-to‘kis amalga oshirishni ta’minlaydi. Mazkur qonun aholining davlat tuzilmalari faoliyati haqida axborot olishida, ularning

bu boradagi mas’uliyatini oshirishda, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ishlarimizni yaxshilashda va albatta, aholi farovonligini yuksaltirishda katta imkoniyatlarni ochadi. Bu huquqiy hujjat fuqarolar xabardorligini ta’minlashning turli usullari nazarda tutilishi bilan ham biz uchun muhim ahamiyatga ega. Bu davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning mohiyati va ahamiyatini, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning borishi haqidagi axborotlarni har bir hudud, har bir mahalla aholisiga etkazish imkonini beradi.

Ma’lumki, bizning vazifalarimizdan biri – bandlikni ta’minlashga ko‘maklashishdir. Bugun bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi axborotlar respublika tashkilotlaridan totib viloyatlar hokimliklari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari veb-saytlarida, ommaviy axborot vositalarida muntazam e’lon qilinmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘sha idora va tashkilotlar faoliyati ochiqligini ta’minlashda katta o‘rin tutadi. Ochiqlik va davlat organlari rasmiy manbalari axborotlarining to‘la-to‘kis mavjud bo‘lishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan tortib barcha-barchani ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratishini izohlashga hojat bo‘lmasa kerak. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari alohida o‘rin tutadi.

Chunki aynan ommaviy axborot vositalari globallashuv sharoitida yurtimizda kechayotgan eng muhim voqealar, amalga oshirilayotgan yangilanishlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni keng yoritish orqali davlat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajarmoqda. Demak, ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yana bir muhim qadam bo‘ldi. Ommaviy axborot vositalari sohasida yurtimizda mustahkam qonunchilik asosi shakllantirilgan bo‘lib, u izchil takomillashtirib borilmoqda, jurnalistlik faoliyatining erkinligi va kafolatlari ta’minlanmoqda. Mazkur qonun axborotdan foydalanish erkinligini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslarining jurnalistga zarur axborotni, qonunda belgilanganidek, 7 kunlik muddatda taqdim etish majburiyatini ta’minlash orqali ushbu kafolatlarni yanada mustahkamlaydi.

Bunday yangilik faoliyatimizda uchrab turadigan axborot olishdagi ba’zi paysalga solish holatlarini bartaraf qiladi, shuningdek, jurnalist materialining tezkorligini, ishonchliligini hamda sifatli bo‘lishini ta’minlaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari vakillariga davlat organlari faoliyatiga oid axborotlarni to‘siqsiz olishning mustahkam kafolati zarur. Bu borada mazkur qonunning asosiy prinsiplari – axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o‘z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi, oshkoralik, shaffoflik, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi. Qonunda mamlakatimizda oxirgi yillarda shakllangan jamoatchilikni davlat organlari faoliyati haqida boxabar qilish mexanizmlari belgilab qo‘yilgan.
Ular orasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot olishga doir so‘rovga javoblar, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay’at yig‘ilishlarida ishtirok etishiga oid tartiblar muhim ahamiyatga egadir.

**Nazorat uchun savollar**

1. Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi.
2. Axborot xizmatining huquqiy asoslari.
3. Axborot xizmatining qonuniy asoslari.

## 12-13--Ma’ruza: Virtual o’yinlarning yoshlar ongiga ta’siri.

Reja:

1. Virtual borliq o’zi nima?
2. Virtual o’yinlarning zararli va foydali jihatlari.
3. Kompyuterlashtirish psixologiyasi nima?
4. Bu boradagi rus pedagoglar tadqiqotlari va xulosalari.
5. Kibersotsializatsiya.

**Tayanch so’z va iboralar:** virtual, o’yin, ong, ta’sir, jihat, kompyutr, psixologiya, pedagog.

Biz yashab turgan yangi dunyoda texnologiyalar misli ko’rilmagan darajada rivojlanmoqda va kompyuterlar oddiy, hatto zarur narsalarga aylandi. Internetning afzalliklari haqida hamma biladi, aksariyat odamlar undan nafaqat ma’lumot qidirish, balki virtual olamga haqiqatdan qochish uchun ham foydalanadilar. Virtual borliq bu – inson tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan dunyo. Virtual reallikning so’ngi texnologiyalari sizga xayoliy dunyoga to’liq sho’ng’ish uchun ko’zoynak yaratishga imkon beradi. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi. Yangi texnologiyalar haqida bilib, odamlar virtual olamga shoshilmoqdalar, ammo ular virtual haqiqatning psixologik ta’siri xavfli bo’lishi mumkinligini unutishadi. Bugungi kunda hayot muammolaridan qochib, boshqa dunyoga tushib ketishingizga yordam beradigan ko’plab qurilmalar mavjud.

Virtual haqiqat tizimining rivojlanishi shu darajaga yetdiki, odam tom ma’noda ikkinchi dunyoda yashaydi, o’zini virtual olamga to’liq singdiradi. Virtual borliq bizga boshqa dunyoga tashrif buyurgan holda dam olish va muammolardan tanaffus qilish , yangi hissiyotlarni olish imkoniyatini berad, ammo uning ham salbiy tomonlari mavjud. Virtual olamga tez-tez sho’ng’ish bilan, odam o’z qahramonining roliga juda odatlanib qolishi mumkin va bu uning hayotdagi xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Shuningdek, inson vaqt boshqaruvini yo’qotishi va antisotsial bo’lishi mumkin. So'nggi o'n yillik ma’lumotlariga nazar soladigan bo’lsak axborot-kommunikatsiya, kompyuter, elektron, raqamli va Internet texnologiyalarining faol rivojlanishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga joriy etilmoqda, natijada jamiyatimiz, ishlab chiqarishimiz va hayotimizni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda deyarli har bir uyda kompyuter, noutbuk, planshet yoki hech bo'lmaganda Internetga ulangan mobil telefon mavjud. Mediascope ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yil oktyabr — 2017 yil mart oylarida internetning oylik auditoriyasi 12-64 yoshda 87 million kishiga yetdi, bu mamlakat aholisining 71 foizini tashkil etdi. Zamonaviy o'spirinlar - "raqamli avlod" ning bir turi bo'lib,

ularning o'sishi texnologiyadan uzviy bog'liqdir: ularning aksariyati hatto maktabgacha yoshda ham gadjetlarga va eng muhimi, Internetga kirish imkoniyatiga ega. Ular o'zlarining ko'p vaqtlarini internetda o'tkazadilar, odatda virtual dunyo va muloqotni afzal ko'rishadi.

Shu munosabat bilan ushbu jarayonni o'rganish zarurati tug'iladi: uning vositalari va mexanizmlari, kiber kosmosdagi o'spirinlarning haqiqiy harakatlari va xatti-harakatlari, paydo bo'layotgan tendensiyalar va ularning yosh avlodga ta'siri, mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy oqibatlar va boshqalar. Farzand sog‘lom o‘sishi va rivojlanishida uning taomlanishi, do‘stlari, bilim olishi bilan bir qatorda qiziqishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda ko‘pchilik bolalarning qizishi bu kompyuter o‘yinlari bo‘lib, uning zarar ekanligi ko‘p takrorlanadi. Virtual o’yinlarning zararli tomonlari: - o’yin, kompyuter yoki telefondan ajrata olmaslik; -pulli o’yinlar uchun mablag’ sarflash; -odamovilashish; -to’yib uxlamaslik; -ko’zning quruqlashishi, bosh va bel og’rig’lari paydo bo’lishi; -qo’rquv, depressiya va jahldorlikning ortishi. 10-18 yosh oralig‘idagi bolalarda kompyuter o‘yinlariga o‘ta darajada berilib ketish holatlari kuzatiladi. Bu eng avvalo vaqtni behuda sarflashga sabab bo‘ladi. Xuddiki barchasi bir necha daqiqada yuz bergandek tuyuladi.

Tanganing ikki tarafi bo‘lgani kabi, ushbu o‘yinlarning ham zarari bilan bir qatorda foydali jihatlari ham bor. Birinchi o‘rinda u yangi bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Xotirani yaxshilaydi – o‘yin o‘ynash jarayonida buyumlar va odamlarning holatiga diqqat qilishni o’rganadi. Kompyuterdagi o‘yinlarni klaviatura va sichqoncha yordamida o‘ynagani uchun qo‘lning mayda motorikalari yaxshi rivojlanadi. O‘yin orqali biror sohani o‘rganish – bu aynan shunga mo‘ljallangan o‘yinlarga nisbatan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, har bir narsaning ijobiy va salbiy tarafi bor. Bola uchun asosiy qoida me’yor hamda vaqt chegarasini bilishdir. Aynan shu odat foyda va zararni ajratib turadi. Kompyuter texnologiyalarining odamlarga ta'siri muammosiga murojaat qilgan birinchi rus olimlardan biri psixologiya fanlari doktori O. K. Tixomirov edi.

Inson va kompyuterning o'zaro ta'sirini o'rganishni boshladi va yangi yo'nalish — kompyuterlashtirish psixologiyasini rivojlantirish uchun asos yaratdi. Shu asosda u bir qator muhim xulosalar chiqardi, ammo eng muhimi, kompyuterlashtirish jarayoni va uning oqibatlarini psixologik baholash zarurati oqlandi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning insonga ta'siri muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib, sotsiologiya doirasida ham, psixologiya va pedagogikada ham ko'plab asarlar unga bag'ishlangan. Ushbu muammo bugungi kunda ko'plab olimlar o'rtasida munozaralarga sabab bo’luvchi quyidagi savollarni keltirib chiqarmoqda:

ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri qanday?

kompyuter va ommaviy multiplayer onlayn o'yinlar qanchalik xavfli?

Internet haqiqatan ham ta'lim manbai va vositasimi?

2013 yilda o'smirlar va o'smir bolalarning ota-onalarining raqamli kompetentsiyasi bo'yicha birinchi Butun Rossiya ilmiy tadqiqoti o'tkazildi. Tadqiqot Internetni rivojlantirish jamg'armasi, M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining psixologiya fakulteti va Google tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Tadqiqotda jami 1203 o'spirin so'roq qilindi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, Rossiyada 12-17 yoshdagi o'smirlarning 89 foizi har kuni internetdan foydalanadi (2010 yilda — 82%), voyaga yetmaganlar esa ularni qiziqtirgan har qanday saytlarga kirishadi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot doirasida ota-onalardan bolalarning Internet faoliyatini baholash so'ralgan. Umuman olganda, ota-onalar farzandlari Internetda nima qilishni afzal ko'rishlari haqida nisbatan real fikrlarga ega.

Shu bilan birga, kattalar bolalarning qiziqarli ma'lumotlarni topish va ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar lentalarini o'qish, shuningdek, umuman onlayn muloqot qilishdagi faolligini va bolalarning onlayn o'yinlarga bo'lgan ishtiyoqini past baholaydilar. Pedagogika sohasidagi rus olimi A. V. Mudrik Global Internet tarmog'ini kosmos, sayyora, dunyo bilan bir qatorda ijtimoiylashuv megafaktorlari qatoriga kiritadi; ammo shu bilan birga, Internetni ommaviy kommunikatsiyalarning bir qismi sifatida, ya'ni inson sotsializatsiyasining mezofaktorlaridan biri sifatida qabul qilish kerakligini ta'kidlaydi (etnik guruh va turar-joy turi bilan bir guruhda).

Ijtimoiylashuvning bunday omili ma'lum bir ikkilik bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, ijobiy tomonlar mavjud: katta erkinlik darajasi, ta'lim va o'zini o'zi anglash uchun ulkan resurslar.

Boshqa tomondan, salbiy potentsial ham juda katta: kiber makon giyohvandlikka olib kelishi mumkin, insonning voqelikni idrok etishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, birlamchi sotsializatsiyaning ba'zi jihatlari buzilishi mumkin: aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni cheklash; yosh geymerlar va Internet foydalanuvchilari ko'pincha o'zlarining virtual qahramonlari bilan tanishadilar, barcha yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklarni hayotda jiddiy va o'ta muhim narsa sifatida qabul qilishlari, ya'ni qiymat yo'nalishlarining o'zgarishi va atrofdagi voqelikni noto'g'ri idrok etish holatlari mavjud, bu esa o'z navbatida ijtimoiy me'yorlarning buzilishi, rad etilishiga va shunga o'xshash narsalarga olib keladi.Shu bilan birga, A. V. Mudrik S. Shapkinning tadqiqotlariga asoslanib, kompyuter o'yinlari o'spirinlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini, xususan, bolalarga atrofdagi dunyoni yaxshiroq boshqarishni o'rganishga, ularni rivojlanish faoliyatiga jalb qilishga, madaniy jihatdan tasdiqlangan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga imkon berishini aytadi.

O limlarning yana bir qismi kiber makonning barcha ko'rinishlarida salbiy ta'siri haqida gapiradi. Shunday qilib, Reprintseva E. A. o'z maqolalarida zamonaviy o'yin madaniyati rivojlanishidagi salbiy tendentsiyalarni tahlil qiladi, ya'ni: ijtimoiy begonalashtirish, ongni virtualizatsiya qilish, gedonizatsiya, egoizm va o'yin jarayonini individualizatsiya qilish, o'yin mazmunini "vahshiylik" bilan bog’lash. Ushbu tendentsiyalarning har biri yoshlarning ijtimoiy xulq-atvorining xarakterli xususiyatlarida va ular o'rtasidagi munosabatlarda, ular uchun hayotiy ma'no va qadriyatlar to'plamida namoyon bo'ladigan ma'lum oqibatlarga olib keladi. 2005-yilda kiber-sotsializatsiya nazariyasi paydo bo'ldi: ushbu atamani xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining muxbir a'zosi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent V. A. Pleshakov taklif qildi. Kiber-sotsializatsiya-bu shaxsning o'z-o'zini anglash tuzilishidagi va shaxsning ehtiyoj-motivatsion sohasidagi sifatli o'zgarishlar jarayoni

bo'lib, inson tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya, raqamli va kompyuter texnologiyalaridan shaxsiy hayot doirasida madaniyatni o'zlashtirish va ko'paytirish sharoitida foydalanish ta'siri ostida va natijada yuzaga keladi.

Pleshakov kiber sotsializatsiyani sotsializatsiyaning o'ziga xos turi deb biladi. O'zining «Киберсоциализация человека: от Homo Sapiens'а до Homo Cyberus'а» kitobida u "sotsializatsiya" tushunchasi va uning mexanizmining zamonaviy talqiniga asoslanib, ushbu jarayonning batafsil ta'rifini beradi. A. V. Mudrikning sotsializatsiya omillari tasnifiga asoslanib, nazariya muallifi insonning kiber sotsializatsiyasining asosiy omillarini quyidagicha aniqlaydi va tavsiflaydi:

1) Megafaktorlar - kiber makon, Internet, WWW, mobil aloqa;

2) Makrofaktorlar - milliy domen zonasi, ijtimoiy tarmoqlar, Internet portallari va saytlari, blogosfera, ommaviy multiplayer onlayn o'yinlar va boshqalar;

3) Mezofaktorlar - wiki loyihalari va Internet lug'atlari, Internet televideniyasi va Internet radiosi, IP-telefoniya va video qo'ng'iroqlar, Internet- forumlari, messenjerlar, Internet-do'konlar, kompyuter o'yinlari;

4) Mikrofaktorlar — shaxsiy kompyuter uskunalari va uyali (mobil) telefonlarning dasturiy ta'minoti, shaxsiy kiber maydon, kompyuter o'yinidagi personajlar.

Bugungi kunda "internetga qaramlik" fenomeni juda ko'p tortishuvlarga sabab bo'lmoqda: bu kasallikmi yoki shunchaki uydirma muammomi? "Internetga qaramlik" atamasi I. Goldberg tomonidan taklif qilingan: bu Internet va kompyuterdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan xatti-harakatlarning buzilishi, bu inson faoliyatining kundalik, o'quv, ijtimoiy, ish, oilaviy, moliyaviy yoki psixologik sohalariga zararli ta'sir ko'rsatishidir. Amerikalik psixiatr Kimberli Yang 1994 yilda internetga qaramlik testini yaratdi. Tadqiqot davomida u giyohvandlikning beshta asosiy turini aniqladi:

1) virtual tanishishga qaramlik-tarmoqdagi tanishlar va do'stlarning ortiqcha bo'lishi.

2) kiber — jinsiy qaramlik-pornografik saytlarga tashrif buyurish va kiber-jinsiy aloqada bo'lish uchun juda katta qiziqish.

3) tarmoqqa majburiy ehtiyoj — onlayn qimor o'ynash, doimiy xarid qilish yoki kim oshdi savdosida qatnashish.

4) axborotning haddan tashqari yuklanishi (intruziv veb-bemaqsad) — tarmoq orqali cheksiz sayohatlar, ma'lumotlar bazalari va qidiruv saytlari orqali ma'lumot qidirish.

5) kompyuterga qaramlik — kompyuter o'yinlarining intruziv o'yini (tortishish o'yinlari — Doom, Quake, Unreal va boshqalar, Star Craft kabi strategiyalar, kvestlar). K. Yangning so'zlariga ko'ra, har kim kasallar guruhiga kirishi mumkin.

Afsuski, bugungi kunda ushbu qaramlikka ega bo'lgan bolalarning aniq sonini bilish mumkin emas: internetga qaramlik kasalliklarning zamonaviy tasniflagichiga kiritilmagan, shuning uchun ushbu "kasallik" bo'yicha rasmiy statistika saqlanmaydi. Ammo 2013 yilda ВЦИОМ (Всероссийский центр изучения общественного мнения) tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ruslarning 22 foizi internetda juda ko'p vaqt sarflashlarini tan olishgan . Shuni unutmangki, bu foydalanuvchilarning eng kam himoyalangan qismi bo'lgan bolalar va o'spirinlar: hozirda minglab gigabayt har xil tarkib mavjud; ijtimoiy tarmoqlarda yuzlab va minglab "do'stlar" ga ega bo'lish modaga aylanmoqda; internetda qimor o'yinlari va oddiy "otishmalar" ning juda ko'p turlari mavjud — va bu vaqtda Qonunchilik darajasida virtual haqiqatda bolalarni himoya qilish strategiyasi va algoritmlarini ishlab chiqish ishlari endigina boshlanmoqda, maktablarda xavfsizlik darslari hali joriy etilmagan. tarmoq maydoni va ota-onalar, qoida tariqasida, har doim ham bolalar nima bilan bandligini ko'rmaydilar.

Bugungi kunda xususiy kompaniyalar allaqachon internetda bolalarni nazorat qilish bo'yicha pullik xizmatlarni taklif qila boshladilar: u kim bilan muloqot qiladi, qaysi guruhlarda o'tiradi, qanday t arkibni ko'radi. "Moviy kit" o'lim guruhlari haqidagi ma'lumotlar fonida ushbu turdagi xizmat juda foydali va dolzarb bo'lishi mumkin. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarining

odamlarga ta'sirini o'rganish tobora kuchayib bormoqda. Muammoni sotsiologlar, deviantologlar, psixologlar, o'qituvchilar, hatto psixiatrlar faol o'rganmoqdalar. Ilmiy doiralarda berilgan ko'plab qoidalar ham ma'qullash, ham tanqidni keltirib chiqaradi. Vaqt o'tishi bilan amaliy tasdiqga ega bo'lgan ma'lum bir nazariya quriladi. Bir narsa shubhasizdir: yaratilgan va yaratilayotgan texnologiyalar insoniyatga bevosita ta'sir o'tkazadi. Endi ushbu hodisaning mexanizmini tushunish, voqeani rivojlantirishning barcha variantlarini ishlab chiqish va ushbu harakatni to'g'ri, eng samarali yo'nalishga yo'naltirish vaqti keldi.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Virtual borliq o'zi nima?
2. Virtual o'yinlarning zararli va foydali jihatlari.
3. Kompyuterlashtirish psixologiyasi nima?
4. Bu boradagi rus pedagoglar tadqiqotlari va xulosalari.
5. Kibersotsializatsiya.

## 12-13--Ma'ruza: Virtual o'yinlarning yoshlar ongiga ta'siri.

Reja:

1. Virtual borliq o'zi nima?
2. Virtual o'yinlarning zararli va foydali jihatlari.
3. Kompyuterlashtirish psixologiyasi nima?
4. Bu boradagi rus pedagoglar tadqiqotlari va xulosalari.
5. Kibersotsializatsiya.

**Tayanch so'z va iboralar:** virtual, o'yin, ong, ta'sir, jihat, kompyutr, psixologiya, pedagog.

Biz yashab turgan yangi dunyoda texnologiyalar misli ko'rilmagan darajada rivojlanmoqda va kompyuterlar oddiy, hatto zarur narsalarga aylandi. Internetning afzalliklari haqida hamma biladi, aksariyat odamlar undan nafaqat ma'lumot qidirish, balki virtual olamga haqiqatdan qochish uchun ham foydalanadilar. Virtual borliq bu – inson tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan

dunyo. Virtual reallikning so'ngi texnologiyalari sizga xayoliy dunyoga to'liq sho'ng'ish uchun ko'zoynak yaratishga imkon beradi. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi. Yangi texnologiyalar haqida bilib, odamlar virtual olamga shoshilmoqdalar, ammo ular virtual haqiqatning psixologik ta'siri xavfli bo'lishi mumkinligini unutishadi. Bugungi kunda hayot muammolaridan qochib, boshqa dunyoga tushib ketishingizga yordam beradigan ko'plab qurilmalar mavjud.

Virtual haqiqat tizimining rivojlanishi shu darajaga yetdiki, odam tom ma'noda ikkinchi dunyoda yashaydi, o'zini virtual olamga to'liq singdiradi. Virtual borliq bizga boshqa dunyoga tashrif buyurgan holda dam olish va muammolardan tanaffus qilish , yangi hissiyotlarni olish imkoniyatini berad, ammo uning ham salbiy tomonlari mavjud. Virtual olamga tez-tez sho'ng'ish bilan, odam o'z qahramonining roliga juda odatlanib qolishi mumkin va bu uning hayotdagi xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Shuningdek, inson vaqt boshqaruvini yo'qotishi va antisotsial bo'lishi mumkin. So'nggi o'n yillik ma'lumotlariga nazar soladigan bo'lsak axborot-kommunikatsiya, kompyuter, elektron, raqamli va Internet texnologiyalarining faol rivojlanishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga joriy etilmoqda, natijada jamiyatimiz, ishlab chiqarishimiz va hayotimizni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda deyarli har bir uyda kompyuter, noutbuk, planshet yoki hech bo'lmaganda Internetga ulangan mobil telefon mavjud. Mediascope ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yil oktyabr — 2017 yil mart oylarida internetning oylik auditoriyasi 12-64 yoshda 87 million kishiga yetdi, bu mamlakat aholisining 71 foizini tashkil etdi. Zamonaviy o'spirinlar - "raqamli avlod" ning bir turi bo'lib, ularning o'sishi texnologiyadan uzviy bog'liqdir: ularning aksariyati hatto maktabgacha yoshda ham gadjetlarga va eng muhimi, Internetga kirish imkoniyatiga ega. Ular o'zlarining ko'p vaqtlarini internetda o'tkazadilar, odatda virtual dunyo va muloqotni afzal ko'rishadi.

Shu munosabat bilan ushbu jarayonni o'rganish zarurati tug'iladi: uning vositalari va mexanizmlari, kiber kosmosdagi o'spirinlarning haqiqiy harakatlari va xatti-harakatlari, paydo bo'layotgan tendensiyalar va ularning yosh avlodga ta'siri, mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy oqibatlar va boshqalar. Farzand sog‘lom o‘sishi va rivojlanishida uning taomlanishi, do‘stlari, bilim olishi bilan bir qatorda qiziqishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda ko‘pchilik bolalarning qizishi bu kompyuter o‘yinlari bo‘lib, uning zarar ekanligi ko‘p takrorlanadi. Virtual o’yinlarning zararli tomonlari: - o’yin, kompyuter yoki telefondan ajrata olmaslik; - pulli o’yinlar uchun mablag’ sarflash; -odamovilashish; -to’yib uxlamaslik; -ko’zning quruqlashishi, bosh va bel og’rig’lari paydo bo’lishi; -qo’rquv, depressiya va jahldorlikning ortishi. 10-18 yosh oralig‘idagi bolalarda kompyuter o‘yinlariga o‘ta darajada berilib ketish holatlari kuzatiladi. Bu eng avvalo vaqtni behuda sarflashga sabab bo‘ladi. Xuddiki barchasi bir necha daqiqada yuz bergandek tuyuladi.

Tanganing ikki tarafi bo‘lgani kabi, ushbu o‘yinlarning ham zarari bilan bir qatorda foydali jihatlari ham bor. Birinchi o‘rinda u yangi bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Xotirani yaxshilaydi – o‘yin o‘ynash jarayonida buyumlar va odamlarning holatiga diqqat qilishni o’rganadi. Kompyuterdagi o‘yinlarni klaviatura va sichqoncha yordamida o‘ynagani uchun qo‘lning mayda motorikalari yaxshi rivojlanadi. O‘yin orqali biror sohani o‘rganish – bu aynan shunga mo‘ljallangan o‘yinlarga nisbatan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, har bir narsaning ijobiy va salbiy tarafi bor. Bola uchun asosiy qoida me’yor hamda vaqt chegarasini bilishdir. Aynan shu odat foyda va zararni ajratib turadi. Kompyuter texnologiyalarining odamlarga ta'siri muammosiga murojaat qilgan birinchi rus olimlardan biri psixologiya fanlari doktori O. K. Tixomirov edi.

Inson va kompyuterning o'zaro ta'sirini o'rganishni boshladi va yangi yo'nalish — kompyuterlashtirish psixologiyasini rivojlantirish uchun asos yaratdi. Shu asosda u bir qator muhim xulosalar chiqardi, ammo eng muhimi, kompyuterlashtirish jarayoni va uning oqibatlarini psixologik baholash zarurati oqlandi. Bugungi kunda

zamonaviy texnologiyalarning insonga ta'siri muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib, sotsiologiya doirasida ham, psixologiya va pedagogikada ham ko'plab asarlar unga bag'ishlangan. Ushbu muammo bugungi kunda ko'plab olimlar o'rtasida munozaralarga sabab bo’luvchi quyidagi savollarni keltirib chiqarmoqda:

ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri qanday?

kompyuter va ommaviy multiplayer onlayn o'yinlar qanchalik xavfli?

Internet haqiqatan ham ta'lim manbai va vositasimi?

2013 yilda o'smirlar va o'smir bolalarning ota-onalarining raqamli kompetentsiyasi bo'yicha birinchi Butun Rossiya ilmiy tadqiqoti o'tkazildi. Tadqiqot Internetni rivojlantirish jamg'armasi, M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining psixologiya fakulteti va Google tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Tadqiqotda jami 1203 o'spirin so'roq qilindi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, Rossiyada 12-17 yoshdagi o'smirlarning 89 foizi har kuni internetdan foydalanadi (2010 yilda — 82%), voyaga yetmaganlar esa ularni qiziqtirgan har qanday saytlarga kirishadi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot doirasida ota-onalardan bolalarning Internet faoliyatini baholash so'ralgan. Umuman olganda, ota-onalar farzandlari Internetda nima qilishni afzal ko'rishlari haqida nisbatan real fikrlarga ega.

axborot tartibi” har qanday davlat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko‘ndalang qo‘ydi. Qolaversa, ushbu holatga moslashish mustaqil davlatning xalqaro imiji shakllanishida hal etuvchi ahamiyat kasb eta boshladi. Shunday ekan, xalqaro jurnalistika nima? Jahon media makoni qanday tushuniladi? Ulardagi yo‘nalishlar, manfaatlar, qonuniyatlar nimalardan kelib chiqadi? Global axboriy qarama-qarshiliklar hamda g‘oyaviy-siyosiy texnologiyalarning ta’siri mamlakatimiz jurnalistlari oldiga qanday talab va vazifalarni qo‘ymoqda? Xalqaro jurnalistika dunyosiga O‘zbekistonning integratsiyasi jurnalistlarimiz oldiga qanday yangidan-yangi talablarni qo‘ymoqda? Bu kabi savollarga ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazarlardan javob topa bilish jamiyatning, davlatning zamonaviyligidan, zamon talablari darajasida taraqqiy topayotganligidan, pirovardida esa xalq va davlat imiji nechog‘li mukammal yaratilayotganligidan dalolat beruvchi mezon bo‘lib qolmoqda.

Axborot globallashayotgan hozirgi zamonda dunyo mamlakatlaridagi matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyati bir tizim sifatida tasavvur qilib bo‘lmas, aql bovar qilmas oqimga aylanib bormoqda. Inson aql-idrokining, sivilizatsiyasining bemisl ixtirolaridan bo‘lgan mazkur oqim “jahon jurnalistikasi”, “xalqaro jurnalistika” deb atalmoqda. Insoniyat “globallashuv” deb atalgan yangicha hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan va bu aloqalar jadal sur’atlarda kengayib, chuqurlashib borayotgan yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Buning natijasida “globallashuv” so‘zi iqtisodiygina emas, ijtimoiysiyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va boshqa qariyb barcha sohalardagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylanib ulgurdi. Axborot globallashuvi dunyo mamlakatlaridagi shart-sharoit va ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi umumiylikni, o‘xshashliklarni keltirib chiqardi. Buning oqibati o‘laroq: birinchidan, dunyoda oliy darajadagi ilg‘or jamiyat barpo etishning birdan-bir oqilona yo‘li demokratik-huquqiy davlat qurish ekanligini e’tirof etish kuchaydi; ikkinchidan, demokratik-huquqiy jamiyatning bosh belgisi va shartlaridan biri – ommaviy axborot vositalarining

erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo‘lmay qoldi; uchinchidan, biror taraqqiy etgan mamlakat matbuotini erkinlashtirish sohasida erishilgan ilg‘or tajribalarni uzoq-yaqin davlatlarga tarqatish imkoniyatlari ko‘paydi; to‘rtinchidan, xalqaro jurnalistika maktablarini qamrab olishga qodir ko‘plab muhim xalqaro hujjatlar yaratildi va hayotga tatbiq etildi ; beshinchidan, dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi ahvolini xalqaro miqyoslarda kuzatish, ular haqida fikr-mulohaza yuritish, bahosini berish va shu asosda muayyan mamlakatdagi ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odati birmuncha ommalashdi. Sanab o‘tilgan holatlar, tabiiyki, dunyoni yaxlit axborot maydoniga aylantirib ulgurmoqda.

E’tirof etish kerak, endilikda davlatlarning qudrati, salohiyati nechog‘li ko‘p axborotga egaligi bilan o‘lchanmoqda. Eng muhimi, axborotga egalik qilish tevaragida raqobat har qachongidan kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonning o‘zi xalqaro jurnalistikaning qaror topishini, rivojlanishini, pirovard natijada butunjahon jurnalistikasi xususiyatlarining umumiylashuvini jadallashtirmoqda. Filologiya fanlari doktori X.Do‘stmuhamedovning fikriga ko‘ra, bu hol milliy jurnalistikani jahon jurnalistikasi nuqtai nazaridan, ayni chog‘da jahon jurnalistikasini milliy jurnalistika nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil qilish zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda. To‘g‘ri va aniq belgilab olingan vazifalar qatorida, fikrimizcha, jahon media makoni, unda xalqaro jurnalistikaning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati, shuningdek, milliy jurnalistikaning jahon media makonida tutgan o‘rni kabi mavzular ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

“Xalqaro jurnalistika”, “xorijiy jurnalistika”, yanada kengroq ma’noda qo‘llanadigan “jahon jurnalistikasi” atamalarining har biri o‘ziga xos baho, ma’no bo‘yoqlari va yo‘nalishlarga ega bo‘lish bilan birga, umuman olganda bir tushunchani ifodalaydi. Xalqaro jurnalistika diplomatiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy me’yorlaridan keng foydalanilish zaruratiga alohida e’tibor qaratadi.

Shuningdek, milliy-madaniy o‘ziga xosliklar, qadriyatlar, mentalitet va axloqiy-tarbiyaviy me’yorlar, an’ana va aqidalar ham xalqaro jurnalistikaning tarkibiy unsurlaridandir. Darhaqiqat, demokratiya va inson xuquqlari, urush va tinchlik, giyohvandlik, terrorizm, ekologik muammolar, shuningdek Yevropa davlatlarining dunyo hamjamiyatiga integratsiyasi masalalarini jahondagi deyarli barcha yirik OAV sahifalarida ko‘rish, kuzatish mumkin.

Dunyo mamlakatlaridagi milliy jurnalistika maktablariga xos bo‘lgan umumiy o‘xshashliklar haqida so‘z yuritganda, ayni vaqtda har bir davlat jurnalistikasida muayyan tafovutlar ham mavjudligini e’tibordan soqit qilmaslik kerak. Qayd etish joiz, jurnalistika sohasi jadal o‘zgarib borayotgan hamda OAV murakkab jarayonlarni boshidan kechirayotgan mamlakatlarning asosiy guruhini sobiq sotsialistik davlatlar tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar davriy matbuot, radio va televideniening faoliyat yo‘nalishini belgilab bermoqda. Shu sababdan yosh mustaqil mamlakatlardagi rivojlanish tendensiyalari milliy jurnalistikadagi tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Aslida ham madaniy kelib chiqishi bir-biriga o‘xshash – “G‘arb”ga mansubligidan qat’i nazar, Yevropa va Amerika mamlakatlari jurnalistikasi bir-biridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladi. Umuman, Yevropa qit’asi jurnalistikasida muallif nuqtai nazarini ifodalovchi “fikr”ni berish (ya’ni, “Fikrlar jurnalistikasi”) ustun mavqeni egallagan bo‘lsa, Amerika va Britaniya jurnalistikasida aniq dalil va faktlarga ko‘proq tayanilgan, boshqacha aytganda, matbuot vakillari tomonidan ijtimoiy ahamiyatli yangilik sifatida baholanib tarqatilgan xabarlar tobora ko‘proq qadrlana boshlagan.

**AQSh va Buyuk Britaniyadagi hayot va turmush tarzining tezkorligi, shiddati fakt** va dalillarni qanday bo‘lmasin, zudlik bilan qo‘lga kiritishni zarur shart darajasiga ko‘tardi. Pirovardida axborot materiallarini yozishning o‘ziga xos “to‘nkarilgan ehrom” usuli vujudga keldi va bu odat aksariyat gazetalarda reportyorlar nomini anonim saqlash an’anasini shakllantirdi.

Oʻzbekiston jurnalistikasi, maʼlumki, rus jurnalistikasi taʼsirida paydo boʻlgan va rivojlangan. Shu bilan birga biz uchun Yevropa qitʼasi jurnalistikasining taraqqiyot modeli ham begona emas.

XX asrda xalqaro jurnalistika, asosan, "ikki qutb" oʻrtasidagi oʻziga xos qurol vazifasini oʻtadi. Jurnalistikaning gʻoyaviy, tarafkash, qizgʻin siyosiy xarakteri yigirmanchi yuz yillikning 90-yillariga qadar saqlanib turdi. SSSRning parchalanishi hamda "sovuq urush" munosabatlarining barham topishi xalqaro jurnalistikaning ham mohiyatini butunlay oʻzgartirib yubordi. Ammo, nazdimizda, yana bir muammodan koʻz yumib boʻlmaydi. "Rivojlanmagan davlatlarning etakchi siyosatchilari, – deb yozadi "YuNESKOning matbuot erkinligi ishlari boʻyicha maslahatchilar guruhi" raisi Mia Dornert, – koʻpincha xalqaro axborot oqimi ichida notenglik mavjudligidan, unda badavlat gʻarb mamlakatlari etakchilik qilishidan nolishadi. Ularning fikricha, teng huquqlilik taʼminlanmagan erkin axborot oqimida ishtirok etishga murosa qilib boʻlmaydi. Shundan kelib chiqib, YuNESKO axborot borasida "badavlat" va "nochor" davlatlar oʻrtasidagi jarlikni yoʻqotish masalasi bilan shugʻullanmogʻi kerak degan talablarni qoʻyishmoqda".

1978 yilda ilk bor "Yangi jahon axborot tartibi" tushunchasi huquqiy jihatdan xalqaro miqyosda eʼtirof etilgan. Hujjat BMT Bosh Assambleyasi va YuNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan rasman qabul qilingan. YuNESKOning Ommaviy axborot kommunikatsiyalarining xalqlar oʻrtasidagi tinchlik va oʻzaro tushunishni mustahkamlashga qoʻshadigan hissasi bilan bogʻliq asosiy prinsiplar haqida qabul qilingan deklaratsiyasida xususan, shunday deyiladi: "rivojlanayotgan mamlakatlar uchun va ulardan chiqayotgan xabarlar tarqatilishida tengsizlikka yoʻl qoʻyilmasligi kerak. Shu oʻrinda Oʻzbekistondan tarqatilayotgan xabarlarga keng yoʻl ochilishini taʼminlamoq zarur". 1980 yilda YuNESKO tomonidan xalqaro maydonda yangiliklar hamda turli madaniy mahsulotlar oqimini nazorat qilish (yoki litsenziyalash) boʻyicha alohida rezolyusiya qabul qilingan. Shu yili YuNESKO tashabbusi bilan

“Kommunikatsiyalarni rivojlantirish xalqaro dasturi” nomini olgan yangi tashkilot faoliyat yurita boshladi.

Nufuzli xalqaro tashkilot tomonidan amalga kiritilayotgan bu kabi yangiliklar bir qator rivojlangan davlatlarga ma’qul kelmadi. Ushbu mamlakatlar vakillarining fikriga ko‘ra, go‘yoki, YuNESKO joriy etayotgan tizim bu boradagi faoliyat turlarining nazorat etilishi, G‘arb matbuotining demokratik an’analariga zid va umuman dunyoda axborotning erkin tarqatilishiga halaqit berar ekan. Sir emaski, ayni davrda Internetdan faqat o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish G‘arb mamlakatlarining asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda kiber xavfsizlikni mustahkamlash masalasiga, shuningdek, Internetdan harbiy-psixologik ta’sir o‘tkazish maqsadida foydalanishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ba’zi bir davlatlar Internetni o‘z maqsad-rejalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysundirishni ma’qul ko‘rsalar, ayrimlari uni cheklash, chegaralash orqali himoyalanish chorasini ishlab chiqmoqdalar.

Bunga juda ko‘p misollar keltirish mumkin. Chunonchi, Eron Islom Respublikasida mamlakatni tashqi Internetdan uzib, mutlaqo milliy ichki “o‘rgimchak to‘ri”ni yaratish ustida ish olib borilmoqda. Xitoy esa xorijiy ijtimoiy tarmoqlarni batamom yopib tashlash hamda matnni filtrlash borasida texnik choralarni ko‘rmoqda. AQSh ma’muriyati 2012 yilda dunyoda birinchi bo‘lib Kibermakon uchun xalqaro strategiyani e’lon qildi. Ushbu hujjat asosida kiber texnologiyalardan samarali foydalanish orqali mamlakat ichkarisida xayrixoh media muhitini yaratish ko‘zda tutilmoqda. Ta’kidlash joizki, mutaxassislar buni AQSh tomonidan global miqyosda odamlarning ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatishga bo‘lgan urinish sifatida baholamoqdalar. “Rossiyskaya gazeta”da “AQSh davlat departamenti Rossiya bilan yangi urush boshlash ishlarini yakunlamoqda, – degan sensatsion xabar bosildi. – Bu urushda asosiy bosqinchilik quroli siftida kompyuter, jang maydoni uchun esa Internet tanlandi”. Belgilangan rejaga ko‘ra, rus tilida faoliyat yuritadigan

barcha saytlar, blog va chatlar qattiq taz'yiq va bosim ostida qoldiriladi. Mazkur vazifa yuklangan xizmat ("Tashqi raqamli aloqalar jamoasi" deb ataladi – B.A.) mutasaddilaridan biri tarqatgan ma'lumotga koʻra, Internet toʻlqinlaridagi bunday axborot jangi arab, fors va urdu tillarida ham olib boriladi. Axborot jangida tugʻilayotgan jiddiy muammolardan biri hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻygan davlatlarning rivojlanganlik darajasiga borib taqalmoqda. Deylik, qudratli davlat hali rivojlanmagan yosh mustaqil davlat bilan hamkorlik borasida ahdlashuvga kelishdi. Va qudratli davlat yosh mustaqil hamkor davlatni istalgan tarzda nazorat qilishdan toymaydi, hali bunday imkoniyati boʻlmagan davlat esa passiv holatda qolaveradi. Xoʻsh, bu holda hamkorlikdagi teng huquqlilik saqlanishi mumkinmi? "AQShda yaratilgan oʻta qudratli AKT-imkoniyati shu kabi xavotirni keltirib chiqaradi, – deb yozadi Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vazirligining maxsus xodimi, professor A.Krutskix. – Hamkor tomonlardan biri ikkinchi tomon maqsadlarini nazorat ostiga olish imkoni boʻlsa, ikkinchi tomon bunday imkoniyatdan mahrum boʻlsa, bunday hamkorlikni teng huquqli deya olamizmi?"

Bir soʻz bilan aytganda, kibermakondagi AQShning xalqaro strategiyasi tobora mukammallashmoqda. Bu bahonada, goʻyoki soʻz va uyushish erkinligini ta'minlash uchun "ishonchli, xavfsiz hamda himoyalangan platformalar" yaratish boʻyicha AQSh zimmasiga majburiyat olishini koʻpchilik, ayniqsa, AQSh gegemonligiga qarshi chiqadigan davlatlar mutaxassislari shubha ostiga oladilar. Azal-azaldan dunyo sahnida bir-birlariga turli koʻrinishda – goh oshkora, goh pinhona qarama-qarshi kayfiyatida boʻlib kelgan davlatlar Internet va axborot moʻjizasidan mutlaqo yangi jang maydonlarini bunyod etmoqdalar. Eng achinarlisi, ezgulik uchun xizmat qiladigan jurnalistikani, ommaviy axborot vositalarini oʻsha jang maydonlarining jangchilariga aylantirmoqdalar. Koʻplab davlatlar axborot urushiga hozirlikni boshlab yuborishgan. Shu maqsadda behisob mablagʻlar safarbar etilmoqda. Axborot urushi uchun an'anaviy chegaralarni buzib oʻtish shart emas, qolaversa, bu urushda odamlarga qirgʻin

keltirilmaydi, balki telekommunikatsiya, OAV tizimlari “hamkorligi”da keng ommaning dunyoqarashlariga zug‘um o‘tkaziladi.

E’tiborli tomoni shundaki, bu singari tizimlarni qudratli davlatlardan tashqari hech bir davlat yoki markazlar cheklash yoki nazorat qilish imkoniga ega bo‘lmaydi. “Aslida, – deb yozadi o‘zbek publitsisti J.Meliqulov, – buning ortida G‘arb qadriyatlari va qoliplariga moslangan g‘oyalarni butun dunyoga joriy etish va shu orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirish istagi yotadi. Maqsad esa ongni eksport qilish”. Jahon media makoni – xalqaro jurnalistikaning hozirgi tarixiy palladagi insoniyat, jumladan, davlatlar, xalqlar, millatlar taqdiridagi o‘rni, ahamiyati shu qadar ulkanki, bir so‘z bilan aytganda, “Shuni alohida ta’kidlash joizki, butun dunyo yagona axborot makoniga aylangan bugungi kunda insonni kamolotga chorlaydigan ezgu ta’limotlar bilan yovuz g‘oyalar o‘rtasidagi kurash tobora keskinlashmoqda”. Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, jahon jurnalistikasini tahlil etishda unda ro‘y berayotgan barcha jarayonlar, yangi tendensiyalarni to‘la-to‘kis qamrab olishning imkoni yo‘q, albatta. Lekin ayni paytda saqlanib kelayotgan milliy o‘ziga xosliklarni milliy manfaatlarga putur etkazmagan holda ko‘rib chiqish va axborot jamiyati sari intilish jarayonida asqotadigan birmuncha samarali bo‘lgan tamoyillarni belgilab olish bugungi milliy jurnalistikamiz uchun zaruriy vazifalardandir.

Globallashuv va hozirgi turmush jarayonining keskin sur’ati, ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi axborot texnologiyalari hayotimizni, umuman jamiyatni jadal ravishda o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda kishilik jamiyatining jurnalistlar oldiga qo‘yadigan talablari ham o‘zgarmoqda. Darhaqiqat, bugungi rivojlangan davrda barcha sohalar singari OAV sohasida ham tub burilishlar yasaldi. Yadro poligonlaridan ham qudratli bo‘lgan axboriy xurujlarga, yangi tamaddun – globallashuv jarayonining “xurmacha qiliq”lariga dosh berish uchun esa professional jangchilar – jurnalistlar tarbiyalanmoqliklari darkor. Global axboriy makonda esa jurnalistlar ham siyosatchi, ham davlat arbobi, ham millat himoyachisi sifatida faoliyat yuritmog‘i joiz. Matbuotda, mutaxassislar

tomonidan e’lon qilinayotgan suhbatlar, tadqiqot va tahlillarda takror-takror ta’kidlanayotganidek, “Bugun axborot texnologiyalari orqali boshqa bir mamlakatdagi haqqoniy vaziyatni ongli ravishda buzib ko‘rsatish, u erdagi siyosiy rahbariyat va fuqarolar kayfiyatiga maqsadli ta’sir qilish amaliyoti borgan sari keng ko‘lam kasb etmoqda. Bu esa jahon hamjamiyati uchun katta muammo bo‘lib qolayotir”. Ushbu maqolada bayon etilgan fikr-mulohazalar, tahlillar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

– globallashuv jarayonlari juda ko‘plab o‘zgarishlar qatori mutlaqo yangi jahon axborot tartibini vujudga keltirdi, bu tartib katta-kichik davlatlarda deyarli barcha sohani, jumladan, axborot va OAV sohasini tubdan isloh etishni taqozo qildi;

– yangi jahon axborot tartibi sharoitida dunyodagi barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlar shakllandi, bu hol xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro tajriba almashishni osonlashtirdi;

– jahon jurnalistikasida ikki xil tendensiya kuzatildi: birinchisi – deyarli barcha davlatlar o‘xshash islohotlar jarayonlarini boshdan kechirdilar, ikkinchisi – ayni vaqtda har bir davlat o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘ldan bordi. Xususan, yosh mustaqil davlatlar mazkur ikki yo‘l orasida muvozanatni saqlash, uyg‘unlikni ta’minlashga harakat qildilar. Ushbu holat ham davlatlarning xalqaro imijini oshirish va mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etdi;

– globallashuv sharoitida dunyo axborot makonini egallashga urinishlar, unga mutlaq egalikka intilish kayfiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu xalqaro mediamakonda axborotning monopollashuviga yo‘l ochmoqda, ayrim hollarda esa qudratli davlatlarning endigina rivojlanayotgan, endigina mustaqillik yo‘lini tanlagan yosh davlatlar manfaatlari bilan hisoblashmagan holda ish tutishlarida o‘z aksini topmoqda;

– jahon mediamakonidagi real shart-sharoit va tinimsiz yuz berayotgan o‘zgarishlar milliy jurnalistikamizda keng ma’nodagi professionallashuv masalasiga alohida e’tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televidenie va internet jurnalistikasida
o‘zaro raqobat muhiti.
2. Matbuotda so‘z va axborot olish erkinligi. Matbuot va ommaviy nashrlarda raqobat.
3. Bloger va vaynerda kasbiy etiket.
4. Axborotning inson ongiga ta’sir muammolari. Kasb etikasi.

## 7-Seminar

## Mavzu: Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makondagi o‘rni (2 soat)

Reja:

1. Bosma nashr: “The Times”, “New Times”, “Bloomberg”, “Sabah”, Radio: “Exa Moskvy”, “TRT” va “Amerika ovozi” teleradiokompaniyalarining axborotlari tahlili.
2. “Olomoncha madaniyat” oqibatlari.
3. Hozirgi globallashuv integratsiyalashuv, axborotlashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatining iison
omiliga ta’siri muammolari.
4. Jahon axborot tarmog‘ida fitna va ma’naviy xurujlar va ularning oqibatlari.

The Times (ing. The Times; tarjimasi “Times”) — Buyuk Britaniyadagi kundalik gazeta, dunyodagi eng mashhur gazetalardan biri. U 1785 yildan beri chop etilgan. The Times hozirda Times Newspapers Limited tomonidan nashr etiladi va to'liq News Corporation, Rupert Merdok boshchiligidagi media korporatsiyasiga tegishli. Gazetaning yakshanba kungi versiyasi The Sunday Times“New Times” (sobiq “Новая время”, 2007 yilda o‘zgartirilgan) haftalik ijtimoiy-siyosiy jurnal bo‘lib, 1943 yildan 2017 yilgacha bosma nashrlarda chop etilib, internetda chop etilishi davom etmoqda. Jurnalning hajmi 64 bet. Chiqarish chastotasi: haftalik dushanba kunlari.

Ko'pgina gazetalar o'z nomlarini Amerikaning The New York Times, Hindistonning The Times of India va Janubiy Koreyaning The Korea Times kabi The Times gazetasidan olgan. The Times 1785 yilda Jon Uolter tomonidan The Daily

Universal Register sifatida asos solingan, Valterning o'zi esa muharrir. 1788-yil 1-yanvarda 940 ta nashrdan so‘ng nom The Timesga o‘zgartirildi. Kirill Kobrin Timesni asosiy metropoliten (London) gazetalari orasida to'g'ri siyosiy qanot vakili deb ataydi Bloomberg L.P. moliyaviy bozorlarda professional ishtirokchilar uchun moliyaviy ma'lumotlarning ikki yetakchi amerikalik provayderlaridan biri hisoblanadi. Asosiy mahsulot Bloomberg Terminal bo'lib, u orqali deyarli barcha jahon birjalari va ko'plab birjadan tashqari bozorlardagi joriy va tarixiy narxlar, Bloomberg yangiliklar tasmasi va boshqa yetakchi ommaviy axborot vositalari, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha elektron savdo tizimidan foydalanish mumkin. Bloomberg Terminaliga qo'shimcha ravishda BloombergTV ixtisoslashgan telekanallar oilasi (barcha yirik bozorlar uchun alohida kanalda), Bloomberg Markets jurnallari, Bloomberg BusinessWeek, Bloomberg.com va BusinessWeek.com veb-saytlari, BloombergRadio mobil ilovalari va radiosi muhim mahsulotdir.

Bloomberg 1981 yilda Maykl Blumberg tomonidan asos solingan. Bu xususiy kompaniya: Maykl Bloomberg 2008 yil iyul oyida Merrill Lynchdan kompaniyaning 20 foizini sotib oldi va hozirda uning asoschisi 88 foiz aktsiyalarga egalik qiladi. Hozirda uning bosh qarorgohi Nyu-Yorkdagi Bloomberg minorasida joylashgan. Kompaniya direktorlar kengashi raisi - Piter Graver
Sabah (gastrol. Sabah - “Tong, tong (gazeta)”) Turkiyaning kundalik gazetasi. U 1985-yil 22-aprelda Izmirda turk tadbirkori Dinch Bilgin tomonidan tashkil etilgan. Shiori "Türkiye'nin en iyi gazetesi" (tur. "Turkiyaning eng yaxshi gazetasi"). 1997-yil yanvar oyida Internetda veb-sayt ochildi. 2007-yilda Turkiya Bosh vaziri Rajab Toyyib Erdo‘g‘an gazetaning 2001-yilda noqonuniy sotilganini bahona qilib, nashr etilishini to‘xtatib qo‘ygan va “Sabah” gazetasini Turkiya jamg‘arma depozitlarini sug‘urtalash jamg‘armasiga topshirgan.2008 yilda gazetaning bir qator xodimlari ishdan bo'shatilgandan so'ng Ciner Group gazetani 1,1 milliard dollarga Turkuvaz Medya Grubu mediaxoldingi bo'lgan Çalık Holding tarkibiga kiruvchi mediaxoldingga sotdi, uning bosh direktori turkiyalik tadbirkor Berat Albayrak. va

Rejep Tayyip Erdo‘g‘anning kuyovi, egasi esa Erdo‘g‘anning yaqin hamkori deb atalgan Ahmet Chaliq. Sabah gazetasining Anqaradagi sobiq byurosi rahbari Asli Aydintashbashning so‘zlariga ko‘ra, sotilgandan so‘ng gazeta “qayta hukumat tarafdori” yo‘nalishini egallagan.

Amerikaning The New York Times gazetasi, The New York Times International Weekly gazetasidan turkchaga tarjima qilingan maqolalarni chop etish uchun Sabah gazetasini tanladi. 2014 yilda maqolalarni nashr etish to'xtatildi. Sabah gazetasi Germaniyada Sabah Deutsch nomi bilan nemis tilida, Turkiyada Sabah Yevropa nomi bilan, Yevropa Ittifoqida ingliz, nemis va arab tillarida Daily Sabah nomi bilan nashr etiladi. "Exo Moskvy" - 1990 yildan 2022 yilgacha tunu-kun efirga uzatiladigan sovet va rus axborot va so'zlashuv radiostansiyasi. "Exo" birinchi marta 1990 yil 22 avgustda Moskvada "Radio-M" ("Radio-FM", "Exo of Moscow") nomi bilan 1206 kHz (SV) chastotasida efirga uzatildi. Stansiya 1991 yil 19-21 avgust kunlari bo'lib o'tgan avgust to'ntarishi paytida shuhrat qozondi - dastlabki kunlarda Davlat Favqulodda vaziyatlar qo'mitasiga qarshilik ko'rsatgan kam sonlilardan biri edi.

Favqulodda vaziyatlar davlat qo‘mitasining 3-sonli radiostansiya faoliyatini to‘xtatish haqidagi qarori “Exo” rahbariyati tomonidan yuksak davlat mukofoti sifatida baholandi. Bosh muharrir Aleksey Venediktovning so‘zlariga ko‘ra, xavfsizlik xizmatlari radiostansiyani efirdan olib tashlashga bir necha bor urinishgan, biroq uning xodimlari studiyani telefon liniyasi orqali uzatuvchiga ulab, eshittirishni davom ettirishga muvaffaq bo‘lgan."Exo Moskvi" o'zining birinchi kunidan boshlab bitta qoidaga amal qildi: "Voqealar bo'yicha barcha muhim nuqtai nazarlar taqdim etilishi kerak". Jurnalistlar hazil bilan "Moskva aks-sadosi" - "Moskva qulog'i", tuhmatchilar - "Moskva exosi" Moskvadagi radiostansiyaning haftalik auditoriyasi taxminan 2,2 million kishini, umuman Rossiya hududlarida esa 7 millionga yaqin kishini tashkil qiladi. 2012 yil aprel oyidagi Medialogy ma'lumotlariga ko'ra, "Exo Moskvi" eng ko'p iqtibos keltiriladigan radiostansiya bo'lib, barcha telekanallar va

barcha jurnallardan oldinda bo'lgan va bir qator gazetalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Kundalik auditoriya hajmi bo'yicha (Comcon ma'lumotlariga ko'ra, 2012 yil mart oyidagi ma'lumotlarga ko'ra) "Exo Moskvy" Moskvadagi eng mashhur radiostansiya bo'lib, Avtoradio va Rossiya radiosidan oldinda edi.TNS Global ma'lumotlariga ko'ra, 2012 yil fevral-aprel oylari uchun "Exo Moskvy" radiosi Rossiya va Radio Chanson dan oldinda ham yetakchi bo'lgan. O'sha paytda Rossiyadagi sayt auditoriyasi 2,918 million kishini (rus foydalanuvchilarining 8,6%) va Moskvada 898 mingni (15,3%) tashkil etdi. Rossiya Bosh prokuraturasining talabiga binoan, 2022-yil 1-martda Roskomnadzor radiostansiyaning axborot resurslariga kirishni cheklab qo‘ydi va “Exo Moskvi”ni eshittirishni o‘chirib qo‘ydi. 2022-yil 3-martda “Exo Moskvi” YoAJ direktorlar kengashi “Exo Moskvi” radiokanalini va shu nomdagi elektron jurnalni[15] tugatish to‘g‘risida qaror qabul qildi, ammo minoritar aksiyadorlar ushbu qaror ustidan shikoyat qilish niyatlarini e’lon qilishdi.

4 mart kuni stansiyaning onlayn translyatsiyasi to‘xtatildi, barcha korporativ ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari o‘chirildi, veb-sayt o‘chirildi, ommaviy axborot vositalari faoliyati to‘xtatildi. Radiostantsiyaning kelajakdagi taqdiri bilan bog'liq ish bo'lib o'tayotgan paytda, IIV "Rossiya Segodnya" davlat tarkibiga kiruvchi Sputnik radiostansiyasi o'zining Moskva chastotasida efirga uzata boshladi. 2022-yil 22-mart kuni Moskvaning Taganskiy tuman sudi “Exo”ning Bosh prokuratura va Roskomnadzorga axborot resursiga kirish cheklanganligi sababli da’vosi bo‘yicha dastlabki sud majlisi bo‘lib o‘tdi, ishni mohiyatan ko‘rib chiqish belgilandi. 2022 yil 20 aprel uchun. Ayni paytda sobiq Ekho Moskvy jamoasining asosiy YouTube kanali bu Living Nail. Shuningdek, Apple Podcasts[21] da Ekho Moskvy dasturlarining tanlangan epizodlarini tinglashingiz mumkin.
2022-yil 3-oktabrda radioeshittirish “Echo” nomli onlayn nashr sifatida tiklandi Turkiya radio va televideniye kompaniyasi yoki Turkiya radio va televideniye fondi (Türkiye Radyo Televizyon Kurumu), TRT nomi bilan ham tanilgan, Turkiya davlat

teleradiokompaniyasi. Turkiyada radioeshittirish boshqa davlatlardagi kabi bir vaqtda, ammo u o'zining dastlabki rivojlanishini 1925 yilda Anqarada yirik radiostansiyani ishga tushirish orqali butun mamlakat bo'ylab radio tarmog'ini qaratishni qaratishni nazarda tutuvchi oldi. 1927-yil 6-mayda Turkiya radiosi tarixida ilk rasmiy eshittirish amalga oshirildi. Bir yil o'tgach, Anqara radiosi o'z ishini boshlagan.

1960-yillardan boshlab Turkiya radio eshittirishlarini texnik va konseptual jihatdan modernizatsiya qilish zarurligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, davlatning barcha radiostansiyalarini o'z ichiga olgan va mamlakatda teleko'rsatuvlar yo'lga qo'yadigan, o'z shtatlari va byudjetiga ega bo'lgan, siyosiy hokimiyatdan mustaqil yangi apparat yaratish zarurati ham yaqqol ko'rinib turardi. TRTni tashkil etish qonuni 1964-yil 1-mayda qabul qilingan. Amerika ovozi —AQSh hukumatining chet ellarga radioeshittirish xizmati. Faoliyatini 1942-yildan boshlagan. „Amerika ovozi“ eshittirishlari qariyb 50 tilda, shu jumladan, o'zbek tilida ham (so'nggi xabarlar) beriladi. Qabul qilib, qayta eshittirish radiostansiyalari AQShning o'zidan tashqari BuyukBritaniya, GFR, Gretsiya hududida, Osiyo va Afrikaning bir qator mamlakatlarida joylashgan.“Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes rev`yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo`llangan.

T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan. Mazkur ta`rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e`tibor berilgan. O`z davrida frantsuz faylasufi Rene Dekart “Tushunchalar ma`nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi” - deb yozgan edi. Ayni shu ma`noda dastlab biz “globallashuv” tushunchasining istilohiy ma`nosini izohlashga harakat qilamiz. Bu so'zga quyidagicha tarif berish mumkin: Globallashuv – Jahon xo'jaligi rivojlanishining ob'ektiv jarayoni bo'lib, juda ko'p ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo'jaligining o'zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish,

ilm – fan texnika texnalogiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko‘maklashuv bilan tasdiqlanadi.

Globallashuv — butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurlarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo‘shilish va yaqinlashuvidir. Bu ob’ektiv jarayon bo‘lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega.[4] Globallashuvga qarshi harakatlar ham mavjud bo‘lib, ular globallashuv natijasida yuzaga keladigan va kelayotgan muammolarni oqibati salbiy deb e’tirof etishadi. Bunday tashkilot, uyushma, harakatlarga Green, AntiDaos kabi bir necha antiglobilistlarni kiritish mumkin. Bilimlar taraqqiyoti kelajakda qanday bo`ladi? Globallashuv jarayonlari fan taraqqiyotiga qanday ta`sir qilishi mumkin? Mutaxassislarning fikriga qaraganda, globallashuv jarayonlari fanda ham global o`zgarishlarni keltirib chiqardi. Bular eng avvalo fanning mohiyati, strukturasi, funktsiyalaridagi – transformatsiya jarayonlari, ya`ni chuqur, yangi sifatiy o`zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bularni eng avvalo fanning tobora global, internatsional mazmun kasb etib, globallashib borayotganida ko`ramiz. Bu jarayon ikki yo`nalishda rivojlanayotganligi ta`kidlanmoqda. Bulardan birinchisi, fanning notijorat globallashuv yo`nalishi bo`lib, unda olimlar va turli o`quv yurtlari birgalikda ilmiy tadqiqot olib boradilar, o`zaro bilim almashish sodir bo`ladi. Ikkinchisi tijorat yo`nalishidagi fandagi globallashuv hisoblanadi.

Bu yo`nalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi o`n yillarda dadil o`sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yo`nalishdagi fan globallashuvi obyektiv asosga ega bo`lib, uning omillari bo`lib global moliyaviy va fond bozorlarining vujudga kelishi; halqaro raqobatning kuchayib global tus olishi; transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy faoliyat ko`lamining o`sishi; aloqa vositalari, shuningdek global “INTERNET” tarmog`ining rivojlanishi, erning maxsus sun`iy yo`ldoshlarining uchirilishi hizmat qiladi. Tijorat yo`nalishidagi fan globallashuvida transmilliy

korporatsiyalar va davlatlar chet eldagi ilmiy ishlanmalarni moliyalaydi. va bu holat bugungi kunda o`sib bormoqda. Shuni ham aytib o`tish kerakki, bunday fandagi globallashuv jarayonlari ijobiy tomonlari bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ya`ni xalqaro al`yanslarning faoliyatida faqatgina iqtisodiy maqsadlarni ko`zlab, ilmiy tadqiqotlarni olib borish keng tus oladi, bu esa fundamental bilimlar taraqqiyotini susaytiradi. SHuningdek, halqaro al`yanslar mahaliy ilmiy xodimlar o`rtasidagi qo`nimsizlik, ilmiy salohiyatning pasayishi, axborotlarning qo`ldan boy berilishi kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin. SHunga qaramasdan, fandagi globallashuv ham obyektiv jarayon bo`lib, uning salbiy tomonlarini bartaraf etish uchun ilm - fan va har bir davlat o`rtasida mustahkam hamkorlik talab etiladi. Demak, aytish mumkinki, globalashuv jamiyat hayotining barcha sohalariga o`z ta`sirini o`tkazuvchi jarayondir. Global jarayonlar insoniyat oldidagi global muammolarni global – evolyutsionizm, sinergetik paradigmaga asoslangan fanni yanada rivojlantirish, bilim va texnologiyalarni innovatsion ishlab chiqarishga joriy etish asosidagina hal qilish mumkinligini ko`rsatmoqda.

Zamonaviy globallashuv postnoklassik fannining mazmuni, funktsiya, strukturasi, obyektiga ta`sir etdi. Murakkab, o`z-o`zini tashkil etadigan, sinergetik xarakterga ega bo`lgan tizimlar zamonaviy jahon fanninig obyektiga aylandi. Fanda integratsiya, differentsiatsiya, globallashuv jarayonlari kuchaydi. Fanning borgan sari qadriyatlar bilan uzviy holda rivojlanishi, uning gumanizatsiyalashuvi, uning ekologik muvozanatni saqlashdagi roli ortdi. SHuningdek, globallashuv paradigmasida “moddiy” resurslar emas, “nomoddiy” resurslar, ya`ni bilim, nou-xau, axborot tizimi va patentlarni,ilmiy axborotni boshqarish ahamiyatli bo`lib borayotganligi sababli kelgusida ham jamiyat taraqqiyoti fan, bilimlar bilan uzviy bog`liqlikda rivojlanishi e`tirof etilmoqda.

Ayniqsa, jamiyatning kelajagi asosan genetika, materialshunoslik, energetika, sun`iy intellekt, inson miyasini o`rganish, bilimlar dinamikasi, bilimlarni boshqarish, globallashuv davrida qanday bilimlarni translyatsiya qilish, ekologiya sohalaridagi

yutuqlarning amaliyotga qo`llanish darajasiga bog`liq bo`ladi. Natijada olimlarning halqaro ilmiy hamkorligiga talab yanada kuchayadi.
SHu bois, globallashuv davrida ilmiy bilim va fan taraqqiyotining hal qiluvchi ahamiyati har bir davlat doirasida ilmiy siyosat tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan va Yevropa hamkorligiga a`zo davlatlar va O`zbekiston ilmiy siyosatiining asosini butun dunyo ilmiy imkoniyat va salohiyatini integratsiya qilish tashkil etadi. CHunki globallashuv davrida yuzaga kelgan global muammolar faqatgina butun jahon olimlarining birgalikdagi ilmiy izlanishlari natijasidagina o`z echimini topishi mumkin.

Bu o`z navbatida ilm-fanning yanada taraqqiy etishini taqozo etadi. “Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlantirish salohiyati raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan bir paytda aholining yuqori bilim darajasi mamlakatga o`zini jamiyatga daxldor deb hisoblash imkonini beradigan obro` emas, balki yashovchanlik va iqtisodiy ta`minot, pirovardida siysiy mustaqillik omiliga aylanadi”[1][88]. Ma`lumki globallashuvning fundamental omillaridan biri axborotlashuv jarayonlari hisoblanadi[2][89]. SHu bois globallashuv davrida fanning, madaniyat sohasida ham axborotlashuv jarayonlari sodir bo`ladi va bu o`z navbatida fanning ham axbortlashuvini talab etadi. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo`lgani singari, globallashuv jarayonlari ham bundan mustasno emas.

Uning keng qamrovli va g`oyat o`tkir ta`siri natijasida u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning quroliga ham aylanib bormoqda. Prezidentimiz ta`kidlaganidek “bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko`proq kuchga ega.”.[3][90] Bunday vaziyat odamning o`z mustaqil fikriga, bilimga, keng dunyoqarash va boy ma`naviyatga ega bo`lishini talab etadi. Biz istiqbolimizni ma`rifatli dunyo, rivojlangan mamlakat qurmoqchi ekanmiz, xalqimiz, avvalambor yosh avlodimiz ma`naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerakligi muhimdir.

Buning uchun mamlakatimizda fan va bilimlarni translyatsiya qilish vositasi bo`lgan ta`lim tizimini jahon fani va ta`lim tizimi bilan integratsiyasini ta`minlash, globallashuv davrida sodir bo`layotgan fan va ta`limdagi global tendentsiyalarni falsafiy-metodologik tahlil qilish o`zbekiston olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu sababli zamonaviy modernizatsiya jarayonlarining muvafaqqiyatini ta`lim tizimini modernizatsiya qilmasdan amalga oshirib bo`lmaydi. Ijtimoiy subyektlarning faol faoliyatining zamirida bilim yotadi. Ta`lim shaxs, davlat va jamiyatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor ijtimoiy taraqqiyot sohasi deb e`tirof etilgan.[4][91] Ta`lim bu tizimlashgan bilim, mahorat, va malakalarni shaxs tomonidan o`zlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanar edi.

Bugungi kunda ta`lim ijtimoiy institut sifatida tsivilizatsiyaviy (iqtisodiy, gumanitar, madaniy) funktsiyani bajaradi va insoniyat to`plagan ilmiy bilimlarni, malaka, ko`nikmalarni o`zlashtirish va ijodiy shaxsni tarbiyalashi lozim.[5][92].Ma`lumki bilimlarni uzatishning sinxron (kommunikatsiya) va diaxron (ta`lim) turlari farqlanadi. Ta`lim tizimi bilimlarni diaxron uzatish turi bo`lib, eng avvalo bilimlarni avdloddan avlodga uzatish vositasi hisoblanadi. Ta`lim tizimi insonni savodxonlik-ta`lim-kasbiy malaka-madaniyat-mentalitet bilan ta`minlaydi[6][93]. Buni falsafiy izohlaydigan bo`lsak, jamiyat murakkab tizim sifatida yangilanar ekan, o`zini –o`zi tashkil etuvchi tizimning asosiy omili-inson ham yangi muhitga moslashishi, uning talablariga javob berishi uchun majburiy funktsiyalarni bajara olishi lozim.Jamiyatning rivojlanishiga qarab bilim olish usullari va bilmni uzatish vositalari o`zgarib boradi.

Adabiyotlarda ta`limning mifologik, sxolastik, dunyoviy va zamonaviy turlari farqlanadi.[7][94] Mifologik ta`lim turi ertak, mif va qo`shiqlar asosida olib borilgan. Sxolastik ta`limda matnlarni o`rganish, ritorika, gramatika, inson mohiyatini anglashga qaratilgan. Dunyoviy ta`lim turi XX asr boshlarida vujudga keldi.Zamonaviy ta`lim insonda nafaqat bilim, balki sifatli bilim va ta`lim, ma`naviy qadriyatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, bilim olishning agrar, industrial,

axborot jamiyatidagi hisoblash texnikasini qo`llashga asoslangan bilim olish turlarini tasniflash mumkin[8][95]. Rivojlanishning agrar usulida kuzatuv bilim manbai hisoblangan va u asosida mehnatga oid samarali hatti-harakatlar va tabiiy resurslarning o`sishi ta`minlangan. Industrial rivojlanish usulida esa kuzatuv, eksperiment, nazariyalar bilim manbai edi. Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qo`llashga asoslanadi. Har bir fan taraqqiyotining ma`lum davrida yangi ta`lim paradigmasi vujudga keladi. Masalan, klassik fanda ta`lim insonning hayot va mehnatga zarur bo`lgan bilim, malaka, ko`nikmalarni o`zlashtirish jarayoni va natijasi sifatida e`tirof etilgan edi.

Bu davrda ta`lim klassik ratsionalizmga asoslangan bo`lib, ta`lim natijasida shaxsda mexanistik va deteterministik olam manzarasi shakllanar edi.Ta`lim jarayonida bilimlar va muammolarni echish usullari to`g`ridan - to`g`ri uzatilar edi.Murakkab tizimlarni o`rganish, o`zini-o`zi tashkil etuvchi, o`zini-o`zi rivojlantiruvchi tabiatni o`rganishga o`tilishi tizimlarning yopiqligi to`g`risidagi mexanistik tasavvurlarning radikal transformatsiyasiga olib keldi.[9][96] Postnoklassik fanning vujudga kelishi natijasida ta`lim tizimida ham modernizatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ta`limdagi modernizatsiya jarayonlari serqirra jarayondir. U taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o`tayotgan mamlakatimiz ijtimoiy o`zgarishlarning tarkibiy qismi, mustabid tuzum mafkuraviy asoratlaridan xalos bo`lish jarayoni hamdir.

Shu sababli XXI asrda jahon hamjamiyati ta`lim roli va ahamiyatini qayta ko`rib chiqa boshladi. Dastlab ta`limni isloh qilish ilmiy texnik inqilobning “ijtimoiy natijalari”dan biri sifatida ko`rila boshlandi. Ammo keyinchalik ta`lim iqtisodiy va ilmiy –texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili va muhim sharti jamiyat ijtimoiy tuzilmalarini shakllantirishning, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi sifatida tan olindi. Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, ta`lim-tarbiya tizimidagi islohotlarni «muvafaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma`nodagi «portlash effekti»ga, ya`ni yangi ta`lim modelining kuchli samarasiga erishamiz …»[10][97]. Respublikamizda ham ta`limni modernizatsiya

qilish maqsadida “Ta`lim to`g`risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” qabul qilindi va ular asosida taa`lim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqqiyot kafolatlari” asarida inson salohiyatini eng faol, eng bunyodkor, mamlakatimizdagi islohot va tub o`zgarishlarning muvafaqqiyatini ta`minlovchi muhim omil sifatida e`tirof etgan edi[11][98]. Bilimlardagi transformatsiya jarayonlariga ijtimoiy-madaniy omillar katta ta`sir etadi. Buni islohotlar natijasida respublikamiz fani va ta`lim tizimidagi o`zgarishlarda ko`rishimiz mumkin. Mustaqillikka qadar O`zbekiston ta`lim tizimi qat`iy markazlashtirilgan dasturlar, darsliklar, o`qitish uslublari asosida faoliyat olib borar edi. Ta`lim jarayoni bilim darajasi o`rtacha bo`lganlarga mo`ljallangan bo`lib, qobiliyatli va iste`dodli bolalar uchun mo`ljallangan individual ta`lim dasturlari bo`yicha o`qitish mexanizmlaridan etarlicha foydalanilmas Chunki bunday tafakkur uslubi tizimda bo`ladigan beqarorlik va xaotik holatlarni inkor etadi.

Vaholanki bilim ilmiy ijod mahsuli bo`lib, u o`zida ratsional va irratsional holatlarni mujassam etadi. Ta`lim jarayoni asosan monoloka asoslangan edi. Ta`limdagi chiziqli tafakkurning ustunligi postnoklassik fan asoslariga muvofiq kelmay qoldi. Natijada bilimlarni uzatish jarayoni, bilimlarni generatsiya qilish samaradorligi, bilish subyektlari ijodkorligining susayishiga sodir bo`ldi.Bu ta`lim falsafasida “ta`limning inqirozi” sifatida baholandi. 1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilatgan Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, “Ta`lim to`g`risidagi” Qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon andozalariga javob bera oladigan mutaxassis- kadrlar tayyorlash vazifasini qo`ydi. “Hozirda respublikamiz aholisining yalpi savodxonlik muammosi to`la hal qilingan.Zero, aholining savodxonligi 1991 yildagi 97,7 % dan 2003 yilda 99,3% ga etdi.

O`rta maxsus, kasb- hunar yoki oliy ma`lumotga ega katta yoshli aholi hissasi 75% dan oshadi. Boshlang`ich va o`rta ta`lim darajasida qamrab olingan qiz va o`g`il bolalar soni orasida amalda farq yo`q.”[12][99] SHuningdek, O`zbekiston umumiy

boshlang`ich ta`limni ta`minlab, global Mingyillik Rivojlanish Maqsadlaridan birini muvaffaqiyat bilan ro`yobga chiqarganini qayd etish lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq nisbatan qisqa davr ichida o`rta kasb- hunar o`quv yurtlarining yangi tiplari tarmog`i yaratildi, ta`lim dasturlarining rangbarangligini ta`minlashga, ta`lim tizimini moliyalashtirish ko`p tomonlama bo`lishiga erishildi. 2004 yil may oyida Prezident Farmoni bilan maktablar moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va uzluksiz ta`limning yagona yaxlit tizimini shakllantirish bilan bog`liq maktab ta`limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi qabul qilindi.

Mustaqillik tufayli xalqimizning ko`p asrlik tarixga ega bo`lgan ma`naviy-intelllektual merosini o`rganish imkoniyati yaratildi.Mamlakatimiz ta`lim tizimida jahon ta`lim tizimining ilg`or tajribasini qo`llash, ta`limni axborotlashtirish, gumanizatsiyalashtirish, elektron darsliklar bilan ta`minlash, masofaviy ta`limni rivojlantirish keng ko`lamda olib borilmoqda. Respublikamizda aalga oshirilayotgan ta`lim sohasidagi islohotlar xalq ma`naviyatining yuksalishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajak avlodga etkazish, umuminsoniy merosdan bahramand bo`lish, global o`zgarishlar sodir bo`layotgan jamiyatda faol, ma`naviy etuk insonlarni shakllantirishning asosidir. Ta`lim tizimining ijtimoiy taraqqiyotdagi, jamiyatni modernizatsiya qilishdagi roli mutaxassislar tomonidan keng yoritilmoqda. Masalan, Fukuyama o`zining “Velikiy razriv” asarida zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy kapitalning asosiy manbalaridan biri- ijtimoiy qadriyat sifatida ta`minlanadigan-ta`lim tizimidir”-deb yozadi. Subetto esa jamiyat progressiv evolyutsiyasining assosiy omili “tizim intelektinining” sifati, moslashuvchanligi, kelajakni yaratuvchanligi va kelajakni boshqara olish qobiliyatlarining o`sishida deb ta`kidlaydi.

Uning fikricha, har qanday progressiv evolyutsiya doirasida bu qonun amal qiladi. Har qanday ijtimoiy taraqqiyot, umumjahon tarixiy qonuniyati ijtimoiy intellekt bilan bog`liq. bo`lib, olim fikriga ko`ra u quyidagi funktsiyalarni bajaradi: ijod, loyihalashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, dasturlash. Olim XX va XXI asrda insoniyatning Ulkan Portlash davriga qadam qo`yganligini, bu davr noosfera

evolyutsiyasidagi sakrash bo`lib, bu jamiyat intellekt va ta`lim jamiyati asosida boshqarilishini e`tirof etadi. Olim ijtimoiy intellekning substantsiyasi bilim, ta`lim esa – ijtimoiy va individual intellektni qayta ishlab chiqarishning asosiy mexanizmi deb hisoblaydi.Ammo bu jarayonlarning amalga oshishi uchun ta`lim tizimini intellektuallashtirish lozimligini ta`kidlaydi.

Zamonaviy ta`limni modernizatsiya qilish butun XXI asrni o`z ichiga olishini va ta`limni fundamentallashtirish, noosferizatsiyalash, gumanizatsiyalashtirish, kreativlashtirish, intellektullashtirish, axborotlashtirish, ta`lim va tadqiqot jarayonlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Bugungi kundagi modernizatsiya jarayonlari davrida ta`limni modernizatsiya qilish jamiyatdagi integrativ mexanizm bo`lib, modernizatsiya jarayonlarining kuchaytirishga olib keladi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan ta`limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o`zgartirishda aniq yo`nalishlar belgilandi. Ularning birinchisi - ta`limni tubdan demokratlashtirishdir. Ikkinchisi - uzluksiz ta`lim g`oyasi, so`ngra esa “ta`lim bir umrga”g`oyasini “ta`lim butun umr davomida” g`oyasiga almashtirishdir. Uchinchisi - bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki balki jamiyatga ongli, insonlarni etkazib berishdir[15][102]. Uchinchisi ta`limni globallashuviga erishish.To`rtinchisi-ta`limni axborotlashtirish. Ta`limni modernizatsiya qilishni ta`lim zamonaviy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish va rivojlanish, raqobatbardoshlik asosi va jahon hamjamiyatining rivojlanish kabi omillar ta`qazo etadi.

Zamonaviy ijtimoiy o`zgarishlarning murakkabligi ta`limga ham sinergetik yondoshuv zarurligini talab etadi. Bunda zamonaviy ta`lim paradigmasi yopiq tizimlarni o`rganishdan, evolyutsion ochiq tizimlarni o`rganishga o`tish zarurligini e`tirof etadi.[16][103] Ta`lim tizimi ochiq tizim sifatida tasniflanmoqda. Ochiq ta`lim[17][104] – bu o`z-o`zini tashkillashtiruvchi tizim bo`lib, ijodiy shaxsni rivojlantirish jarayonidir.Bu zamonaviy axborotlashgan jamiyat ta`lim tizimi falsafasining asosiy jihatidir. Sinergetik yondoshuvda o`qitish, o`quvchi va o`qituvchi o`rtasidagi munosabat - bilimlarni to`g`ridan-to`g`ri uzatish emas, balki bilimlarni uzatishdagi ochiq dialog, hamkorlikdagi ta`lim maydoniga asoslanadi. Ochiq ta`lim

tizimi uzluksiz, innovatsion, masofaviy o`qitish orqali moslashuvchan, faol, ijodiy shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.Bunda bilimlar subyekt keyinchalik ulardan yangi bilimlarni hosil qila olish qobiliyatini shakllantirish uchun uzatiladi.Bunda o`quvchidagi yashirin qobiliyatlarni uyg`otish, o`zini namoyon etishga, imkon yaratiladi. Bilish yangi mazmun kasb etadi. Bilish subyekti faol bo`lib, ta`limda uzatilayotgan bilimlar absolyut haqiqat sifatida e`tirof etilmaydi.

Ta`lim jarayonining nochiziqli tafakkurga asoslanishi e`tirof etiladi. Nochiziqli tafakkur rivojlanishning ko`p variantliligini, bilish jarayonida tizim tabiatini yagona qonunlarda aks ettirib bo`lmasligini. e`tirof etadi. Nochiziqli tafakkur tadrijiy (evolyutsion) yo`nalishlarning ko`p variantliligi va muqobilliligi g`oyasi hamda bu muqobillardan birining tanlanishi, muhitdagi jarayonlarning taraqqiyot (darajasida) sur`ati, tadrijiylikning orqaga qaytarilmasligi g`oyalari sifatida tushuniladi[18][105]. Bunday tafakkur tamoyillariga ko`ra ta`lim rivojlanishining ko`p variantliligini tan olinmoqda. Bu ta`lim jarayonida bir yoqlama yo`nalganlik, tafakkur jarayonining inertsiyasiga barham beradi. Bilish jarayonida “subyekt-subyekt” munosabatlari amal qiladi. Bilish jarayonining beqaror, xaotik holatlarga ega ekanligi e`tirof etiladi.Natijada shaxs faolligining o`sishiga, bilimlar generatsiyasining samaradorligining ortishiga erishiladi. Sinergetik tamoyillarni ta`limning barcha pog`onalariga kiritish uchun olamning yaxlitligini anglatuvchi integrativ kurslarni tashkil etish, har bir fan sohasiga sinergetika tamoyillarini yorituvchi materiallarni kiritish zarurdir Sinergetikaning ta`lim tizimida amal qilishi fanlararo dialogni ta`minlash imkonini beradi, natijada fan va madaniyat birligiga erishish mumkin bo`ladi. Bolon`ya jarayoni bir tomondan yaqinlashuv va muvofiqlashtiruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bo`lsa, boshqa tomondan Yevropa madaniyati va ma`naviyatini asrab qolishga qaratilgan.

Bular Bolon`ya bayonotining asosiy tamoyillarida aks ettirilgan: ishga joylashish imkoniyati bilan grajdanlar mobilligining asosiy yo`nalishi sifatida oliy ta`lim Yevropa zonasini qo`rish; Yevropaning intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy va texnikaviy salohiyatini mustahkamlash, Yevropa oliy ta`limining dunyodagi

obro`ini oshirish; talabalar, mablag`, ta`sir borasidagi Yevropa oliy o`quv yurtlarining raqobatbardoshligini ta`minlash; universitetlar Yevropa ongining tashuvchilari sifatida qaraladigan Yevropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning markaziy o`rnini oshirish; oliy ta`limda Yevropacha qarashlarga ko`maklashish, ta`lim va tadqiqot sohalarida hamkorlikni rag`batlantirish. Bolon`ya tamoyillari metodologik ahamiyat kasb etadi: Mamlakatlar orasidagi tavofutlarga qaramay, Yevropa tashki dunyo qarshisida yagonalikka intiladi.

Globallashuv, ta`bir joiz bo`lsa, davr talabi bilan uzluksiz ta`lim, masofadan ta`lim g`oyalari Markaziy Osiyo, xususan O`zbekistonda ham rivojlana boshladi. Davlat tomonidan AKT rivojiga e`tibor berilib huquqiy zamin yaratildi. Boshqa tomondan Yevropa Ittifoqi dasturlari asosida Markaziy Osiyoda oliy ta`lim sohasida AKTni qo`llash ko`lami oshirib borildi.[20][137] Bunday rivojlanish natijasida, umuman olganda, O`zbekiston grajdanlari masofadan ta`lim orqali chet el universitetlarida tahsil olishlari mumkin. Shu o`rinda muayyan masalalarni ko`rib chiqish kerak bo`lur. Birinchidan, ta`lim tili masalasi. Bolon`ya jarayonida til masalalari ochiq ko`rib chiqilmagan. Implitsit ravishda jarayon G`arbiy Yevropaning yirik millatlari tili foydasiga amal qiladi. Markaziy Osiyolik talabalar shunda asosan ingliz tili orqari ta`lim oladilar.

Chet el universitetlar ta`lim mundarijasida Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlari aks ettirilmagan. YA`ni, milliy qadriyatlarga zarar etadi. Taqiq yo`li bilan bu imkoniyatni bekor qilib bo`lmaydi. Ta`lim globallashuvining salbiy oqibatlariga qarish turish uchun Markaziy Osiyo "bolon`ya" jarayonini yo`lga qo`yish lozim, Markaziy Osiyo ongini shakllantirish va rivojlantirish kerak. Universitetlar esa bu jarayonda, Yevropada mo`ljallangandek, markaziy o`rinda turishi kerak. Ta`lim sifati orqali raqobatbardoshlikni ta`minlash mumkin. Paradoksdek tuyulsa ham, yuqoridagi maqsadga erishish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va elektron o`quv muhitini Markaziy Osiyo miqyosida rivojlantirib, ta`lim tizimlarini yaqinlashtirib borish zarur. Elektron o`quv muhitini to`la ko`lamda rivojlantirish kerak.

YA`ni Internetdan referatlar izlash, elektron shakldagi darsliklardan foydalanish va shu kabilardan to`la ko`lamli interaktiv usullar va bilimni tekshishish tizimiga o`tish lozim. Globallashuv atamasi o`tgan asrning 80 yillaridan keng qo`llanila boshlandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlari to`g`risida xilma-xil fikrlar shunchalik ko`pki, natijada har bir muallif o`zining mafkuraviy qarashlariga ko`ra va o`z fanining predmetidan kelib chiqib, o`z qarashini, tushunchasini ifoda qiladi. Globallashuv tushunchasiga berilgan ta`riflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib ko`rsatsak uning, qonuniy, obektiv jarayon ekanligi hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikatsiya, axborot vositalari va texnologiyalarini qo`llash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, ma`lum maqsadlarini amalga oshirish uchun jug`rofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benixoyat tezlashganligini qayd qilish zarur.

Globallashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum e`tirof etilgan fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol namoyon bo`lmoqda. Ammo iqtisodiy globallashuvning tahdidlari va uni xal qilish yo`llari to`g`risida o`zaro tafovutli, hatto qarama-qarshi fikrlar talaygina. Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o`z iqtisodiy manfaatlari yo`lida foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida qaror topgan iqtisodiy tartibot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o`rtasidagi tafovutni, nomutanosiblikni kuchaytirib bormoqda. SHu munosabat bilan istiqbolda jamiyatni, tsivilizatsiyalarni nima kutayotganligi xaqida turli farazlar aytilmoqda. TSivilizatsiyalar to`qnashuvi, iqtisodiy, texnologik va axborot neokolonealizmi, diniy va etnik konfliktlar xaqidagi taxminlar shular jumlasidandir.

O`zbekiston 1-Prezidenti I.Karimov o`zining “YUksak ma`naviyat-engilmas kuch” asarida globallashuv jarayonining mohiyati, oqibatlari haqida to`xtalar ekan, uni “...hayot jarayonlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[21][138] deb baho bergan edi. SHunday ekan, o`zgarib borayotgan hayot talablariga moslashish,

shu bilan bir qatorda har bir inson, millat o`zligini saqlab qolish uchun o`zining mustahkam e`tiqodiga, nuqtai nazariga ega bo`lmog`i, boshqalarning e`tiqodi va nuqtai nazarini hurmat qilmog`i lozim. Mabodo turli e`tiqodlar va nuqtai nazarlar birdek qadrlanmas ekan, birini kuchsizlantirish hisobiga ikkinchisi kuchayadi, hayotning mohiyati, go`zalligining o`ziga xos ifoda shakli bo`lgan rang-baranglik, takrorlanmaslik inkor qilinishga olib keladi. Rivojlangan g`arb davlatlari tomonidan dunyoni ekspansiya qilish boshlanganidan beri ana shunday nuqtai nazar, tamoyil ustuvor bo`lib kelgan. Buning qanday oqibatlarga olib kelganligini jamiyatning barcha sohalarida yaqqol ko`rishimiz mumkin. Bugun biz yashayotgan asr fan, texnika, axborot rivojlanganligi va shu bilan birga globallashuv jarayonlari o`sayotgan davr hisoblanadi.

XXI asrda insoniyat katta yutuqlarga erishdi va erishmoqda ham. Ammo shu bilan birga bugungi kunda insoniyatning er yuzida uzoq yashashi va faoliyatini chegaralayotgan muammolar doirasi ham borgan sari ko`payib bormoqda. Bugun insoniyat va atrof muhitga havf solayotgan bir nechta muammolarni global muammolar deyish mumkin. Ekologiyaning buzilishi, SPID, narkobiznes, yadroviy qurollar, va odam savdosi hamda ochlik kabi muammolar hozirda faqatgina bir davlat bir millat doirasidagina emas, balki er yuzida mavjud bo`lgan barcha millatlar qolaversa, butun insoniyatga havf solmoqda. Umuman globalizatsiya va global jarayonlar XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib kuchaya boshladi. Globalizm atamasi oxirgi yuz yillikda tobora katta ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan «global» tushunchasining lug`aviy ma`nosiga e`tibor qaratadigan bo`lsak «umumiy», «globus», «er shari» kabi tushunchalarga duch kelamiz.

Demak, globalizm tushunchasi ana shu har ikki ma`noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog`liq bo`lgan katta muammolarni, «sayyoraviy», «umumsayyoraviy», «umuminsoniy», «dunyoviy» muammolarni, «umumplanetar ahamiyatga ega bo`lgan masalalar» va global taraqqiyot istiqbollarini o`ziga qamrab oladi. Ijtimoiy fanlarda ushbu masalalarni yoritish va tadqiq etish esa afsuski ancha kech boshlandi. CHunki yuqorida aytib o`tilgan muammolar faqatgina ayrim millat

va davlatlarga tegishli degan dunyoqarash mavjud edi. Va shuning uchun ham bu kabi masalalar hammani qiziqtirmas edi. Keyinchalik esa global muammolar echimi dolzarb va butun dunyo uchun havfli ekanligi anglana boshlandi. Hozirgi zamonda mutaffakkirlar va olimlar er sayyorasi miqyosida yagona tsivilizatsiya qaror topayotganligi xususida tobora ko`proq gapirmoqdalar. Fan va amaliyotda bu g`oyaning mustahkam o`rin olishi bilan «globalizatsiya» atamasi qo`llanila boshlandi.

Globalizatsiya sotsiumning barcha sohalarini qamrab olib, ijobiy jihatlari bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tug`dirdi[22][139]. Hozirda ularning muayyan qismini «hozirgi davrning global muammolari» deb atash mumkin. Er yuzida tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o`rnatish; atrof muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo); aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma`naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo); ochlik, qashshoqlik hamda qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar o`rtasidagi keskin farqni bartaraf etish; xavfli kasalliklarni tugatish; inson ma`naviy muhiti sofligini ta`minlash (etikologiya muammosi) va hokozolar.SHuningdek global muammolarni kelib chiqishi mavjudligi va hal etilishiga ko`ra quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin: birinchisi – bu kishilar uyushgan jamiyatning tabiati turli mintaqalar davlatlarining (masalan SHarq, G`arb, Janub–Shimol rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) xilma-xil manfaatlari majmui bilan bog`langan, boshqacha aytganda, baynal ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy o`zaro munosabatlar tug`dirgan muammolardir. Ikkinchi guruxga inson va u mansub bo`lgan jamiyat tizimida yuzaga kelgan munosabatlarni ifodalaydigan muammolar kiradi.

Uchinchisi o`z ichiga «jamiyat – tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlar tug`dirgan muammolarni oladi. Global muammolarning bu guruhlari o`zaro bir-biridan farq qilsa-da, inson, uning hayoti, shart-sharoitlari va kelgusi rivoji jihatidan yaxlitlik, umumiylik kasb etadi.Ikkinchi umumiylik u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili – fan-texnika taraqqiyoti bilan aloqadorlikda ko`rinadi.Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnologiya yaratishni ta`minlasa, o`z navbatida

texnika rivojlanishi ham fanda yangi o`zgarishlarni sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Eng achinarlisi shuki erishilgan kashfiyotlarni kim qanday maqsadlarni ko`zlasa, o`shalarga tatbiq etilmoqda. SHuning bilan birga hozirgi paytda insoniyat ma`naviyati, uning sofligini asrash ijtimoiy rivojlanishning ichki jarayonlari tug`dirgan yana bir global muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Bunga misol qilib zo`ravonlik va nafratning kishilar o`rtasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, ma`naviy muhitni zaharlayotgani hamda insoniyatni axloqiy falokat sari etaklayotganligini keltirish mumkin. Ma`naviy muhitini bulg`ashda keyingi vaqtlarda ayniqsa ichkilikbozlik va bangilikning o`rni katta bo`lmoqda.

Ko`pgina mamlakatlar bu xil moddalarni tarqatganlik uchun og`ir jazo belgilanganligiga qaramay, er yuzi aholisining muayyan qismida bangilikka ruju qo`yish avj olgan. SHuningdek bugun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalib, bularning qatoriga hozirda insoniyat va uning hayotiga nuqta qo`yayotgan SPID ham qo`shilmoqda. Kasalliklarning global muammo bo`lib qolganligi yana shunda ko`rinadiki, canoati yuksak rivojlangan mamlakatlarda yurak-tomir, asab-ruhiy, rak va boshqa xastaliklar ko`payib bormoqda. Demak global muammolarni yuzaga kelishida inson va uning ehtiyojlari asosiy sabab bo`lib qolmoqda. Global muammolarning eng asosiylari tafsiflaridan ham ko`rinib turibdiki,bunday bo`hronlarni bartaraf etish nafaqat murakkab, balki bir xil echimga ham ega emas. Shu bilan birga insoniyat bularni hal etish choralarini tinimsiz izlamog`i lozim. Shuningdek insoniyat global bo`hronlarni bartaraf etish uchun avvalo yuqori darajadagi tafakkurga ega bo`lishi shartdir.

Ya`ni, ma`naviy yuksaklik va chuqur gumanizmga ega bo`lish. Zamonaviy insonparvarlik esa eng kamida uchta asosga: globallashuvni anglashga, zo`ravonlikdan voz kechishga hamda adolatlilikka tayanadi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki globalizatsiya va global muammolar kabi jarayonlarning yechimi butun insoniyatning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishiga bog`liqdir. Zero global muammolarga echim topish har bir davlatning vazifasi bo`lib, dunyo davlatlarining o`zaro hamkorlikda ish tutishini taqozo etadi. Ta’riflardan birida globallashuv Er

kurrasi bo‘ylab yoyilayotgan kommunikatsiya va ayirboshlash tarmoqlar orqali va ular tufayli mintaqaviy xo‘jaliklar, jamiyatlar va madaniyatlar bir biri bilan yaqinlashib, bir biriga singib ketganligini ifoda etadi, deyiladi. F.Tolipovning “global taraqqiyot deganda biz kishilar hamjamiyatlarining hayotiy faoliyati natijasida jahon miqyosida sodir bo‘layotgan va butun insoniyat taraqqiyoti uchun tizimiy ahamiyatga ega siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik o‘zgarishlar majmuini tushunamiz”[24], degan ta’rifi globallashuvning asosiy jihatlarini qamrab oladi, deb hisoblaymiz. Globallashuv alomatlari qadim zamonlardan beri kuzatiladi.

Qadimgi va o‘rta asrlar imperiyalari tarix qatlarida qolib qetgan bo‘lsa-da, o‘sha davrlardagi globallashuv tamoniga bo‘lgan siljishlar saqlanib qoldi. Bunga bir misol Ipak yo‘li bo‘lsa, boshqa misol sifatida CHingizxon imperiyasida barpo etgan pochta xizmatini ko‘rsatish mumkin. Ammo xususiy, tor ma’noda globallashuv, deb eng oxirgi davr yuritiladi. Globalizatsiya 19-asrining 60-yilaridan boshlab yonqin namoyon bo‘ldi. Boshqa fikrlarga ko‘ra globalizatsiya 19-asrning oxirida boshlanib, o‘tgan asrning oxirgi choragida jadallashdi.[25] Globallashuv transmamlakat korporatsiyalarining tez sur’atlar bilan kengayishi ortidan xo‘jaliklarning “o‘sish-yo-o‘lish” dinamikasini ifoda etuvchi sistemik tendensiyaning natijasidir, degan fikr bildirilgan.

O‘z navbatida bu tendensiya trasmamlakat korporatsiyalarning jadal o‘sib borishi bilan bog‘liqdir. Iqtisodiy kontekstda globallashuv tovarlar, sarmoya, xizmatlar va ishchi kuchi oqimini osonlashritish maqsadida davlatlar chegaralaridagi to‘siqlarni bartaraf qilish yoki sezilarli darajada pasaytirishni anglatadi. Tor ma’nodagi globallashuv savdo-sodiq, bevosita chet el investitsiyalari, kapital oqimi, migratsiya orqali mamlakatlar xo‘jaligining bir internatsional xo‘jalikka intregrallashuvni anglatadi. Keng ma’nodagi globallashuvga g‘oyalar, tillar va ommabop madaniyatning mamlakatlararo almashinuvi hamroh bo‘ladi. O‘zbekiston globallashuv jarayonidan chetda qolmadi. Ipak yo‘lining bir necha marshruti hozirgi O‘zbekiston eridan o‘tgan, Samarqand va Buxoro Ipak yo‘lidagi yirik savdo markazlari sifatida jahonga tanildi. Hozirgi O‘zbekiston eri xalqaro tijorat

yo‘llarining chorrahasi sifatida o‘z ahamiyatini kech o‘rta aslargacha saqlab keldi. Ushbu globallashuv natijasi o‘laroq Markaziy Osiyo erlarida ma’naviy sohada diniy tolerantlik, ilm-fanga charqoqlik vujudga kelgan, islom diniy tafakkuri va grek falsafasi kirib kelgan bo‘lsa, xo‘jalikda ipakchilik va paxtachilik rivojlandi, muayyan mahsulot ekport qilindi. Salbiy oqibatlar ham yo‘q emas edi – “miyalar sizib ketishining” ilk ko‘rinishlari, yalpi ichki mahsulotning bir qismi markazga to‘lov sifatida olib ketilishi, masalan. Rossiya istilosi bilan globallashuv jadallalashdi va boshqa yo‘nalish oldi. Turkiston oykumenasi deformatsiyaga uchradi.

Iqtisodda paxtachilik va ipakchilik ko‘lami oshgan, temir yo‘llar va shular asosida paxtaga dastlabki ishlov berish, mexanik ishlab chiqarish paydo bo‘lgan bo‘lsa, turmush tarziga evropacha unsurlar kira boshladi va ko‘payib bordi. Ma’naviy sohada ta’lim tizimini isloh qilish g‘oyalari, yangi usul maktablari, dramaturgiya janri, teatr yuzaga keldi. Siyosiy sohada konstitutsiyaviy monarxiya, imperiya tabaalarining millati, dinidan qat’i nazar tenghuquqligi g‘oyalari muhokama qilina boshladi.[27] Mustaqillik O‘zbekiston uchun oykumenani kengaytirib xalqaro munosabatlarning to‘laqonli qatnashchisiga aylanishga imkon yaratdi, respublika BMTga, ko‘pchilik xalqaro shartnoma, konvensiya, ularga qo‘shimcha protokollar va hokazolarga a’zo bo‘ldi. Barcha globallashuv jarayonlarida iqtisodiy globallashuv etakchi ahamiyatga ega.

U ta’lim sohasidagi globallashuvni ham belgilaydi. Bir tomondan ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarida bir xil bilim, qo‘nikma va usullar talab qilinadi. Boshqa tomondan ta’lim sohasining o‘zi ham global bozor va raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatishi kerak. YUzaga kelgan muammolarga javoban masofadan ta’lim, umr davomida ta’lim va Bolonya jarayoni, deb yuritiladigan choralar vujudga keldi. Globallashgan xo‘jalik va transmamlakat korporatsiyalar bir mamlakatda ta’lim olib boshqa mamlakatda, undan yana uchinchisiga o‘tib ishlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi. YUqoridagilarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari turli miqyosda bo‘lsa-da, katta ahamiyat qasb etadi.[28] Bolonya jarayoni bir tomondan yaqinlashuv va muvofiqlashtiruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bo‘lsa, boshqa

tomondan Evropa madaniyati va ma’naviyatini asrab qolishga qaratilgan. Bular Bolonya bayonotining asosiy tamoyillarida aks ettirilgan: ishga joylashish imkoniyati bilan grajdanlar mobilligining asosiy yo‘nalishi sifatida oliy ta’lim Evropa zonasini qo‘rish; Evropaning intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy va texnikaviy salohiyatini mustahkamlash, Evropa oliy ta’limining dunyodagi obro‘ini oshirish; talabalar, mablag‘, ta’sir borasidagi Evropa oliy o‘quv yurtlarining raqobatbardoshligini ta’minlash; universitetlar Evropa ongining tashuvchilari sifatida qaraladigan Evropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning markaziy o‘rnini oshirish; oliy ta’limda Evropacha qarashlarga ko‘maklashish, ta’lim va tadqiqot sohalarida hamkorlikni rag‘batlantirish.

Bolonya tamoyillari metodologik ahamiyat kasb etadi: Mamlakatlar orasidagi tavofutlarga qaramay, Evropa tashki dunyo qarshisida yagonalikka intiladi. Globallashuv, ta’bir joiz bo‘lsa, davr talabi bilan uzluksiz ta’lim, masofadan ta’lim g‘oyalari Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistonda ham rivojlana boshladi. Davlat tomonidan AKT rivojiga e’tibor berilib huquqiy zamin yaratildi. Boshqa tomondan Evropa Ittifoqi dasturlari asosida Markaziy Osiyoda oliy ta’lim sohasida AKTni qo‘llash ko‘lami oshirib borildi. Bunday rivojlanish natijasida, umuman olganda, O‘zbekiston grajdanlari masofadan ta’lim orqali chet el universitetlarida tahsil olishlari mumkin. Shu o‘rinda muayyan masalalarni ko‘rib chiqish kerak bo‘lur. Birinchidan, ta’lim tili masalasi.

Bolonya jarayonida til masalalari ochiq ko‘rib chiqilmagan. Implitsit ravishda jarayon G‘arbiy Evropaning yirik millatlari tili foydasiga amal qiladi. Markaziy Osiyolik talabalar shunda asosan ingliz tili orqari ta’lim oladilar. CHet el universitetlar ta’lim mundarijasida Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlari aks ettirilmagan. YA’ni, milliy qadriyatlarga zarar etadi. Taqiq yo‘li bilan bu imkoniyatni bekor qilib bo‘lmaydi. Ta’lim globallashuvining salbiy oqibatlariga qarish turish uchun Markaziy Osiyo “bolonya” jarayonini yo‘lga qo‘yish lozim, Markaziy Osiyo ongini shakllantirish va rivojlantirish kerak. Universitetlar esa bu jarayonda, Evropada mo‘ljallangandek, markaziy o‘rinda turishi kerak. Ta’lim sifati orqali

raqobatbardoshlikni ta’minlash mumkin. Paradoksdek tuyulsa ham, yuqoridagi maqsadga erishish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va elektron o‘quv muhitini Markaziy Osiyo miqyosida rivojlantirib, ta’lim tizimlarini yaqinlashtirib borish zarur.

Elektron o‘quv muhitini to‘la ko‘lamda rivojlantirish kerak. YA’ni Internetdan referatlar izlash, elektron shakldagi darsliklardan foydalanish va shu kabilardan to‘la ko‘lamli interaktiv usullar va bilimni tekshishish tizimiga o‘tish lozim. Globallashuv atamasi o‘tgan asrning 80 yillaridan keng qo‘llanila boshlandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlari to‘g‘risida xilma- xil fikrlar shunchalik ko‘pki, natijada har bir muallif o‘zining mafkuraviy qarashlariga ko‘ra va o‘z fanining predmetidan kelib chiqib, o‘z qarashini, tushunchasini ifoda qiladi. Globallashuv tushunchasiga berilgan ta’riflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatsak uning, qonuniy, obektiv jarayon ekanligi hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikatsiya, axborot vositalari va texnologiyalarini qo‘llash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, ma’lum maqsadlarini amalga oshirish uchun jug‘rofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benixoyat tezlashganligini qayd qilish zarur. Globallashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum e’tirof etilgan fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Ammo iqtisodiy globallashuvning tahdidlari va uni xal qilish yo‘llari to‘g‘risida o‘zaro tafovutli, hatto qarama-qarshi fikrlar talaygina. Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o‘z iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida qaror topgan iqtisodiy tartibot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutni, nomutanosiblikni kuchaytirib bormoqda. SHu munosabat bilan istiqbolda jamiyatni, sivilizatsiyalarni nima kutayotganligi xaqida turli farazlar aytilmoqda. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, iqtisodiy, texnologik va axborot neokolonealizmi, diniy va etnik konfliktlar xaqidagi

taxminlar shular jumlasidandir. O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov o‘zining “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida globallashuv jarayonining mohiyati, oqibatlari haqida to‘xtalar ekan, uni “...hayot jarayonlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[31] deb baho bergan edi. SHunday ekan, o‘zgarib borayotgan hayot talablariga moslashish, shu bilan bir qatorda har bir inson, millat o‘zligini saqlab qolish uchun o‘zining mustahkam e’tiqodiga, nuqtai nazariga ega bo‘lmog‘i, boshqalarning e’tiqodi va nuqtai nazarini hurmat qilmog‘i lozim. Mabodo turli e’tiqodlar va nuqtai nazarlar birdek qadrlanmas ekan, birini kuchsizlantirish hisobiga ikkinchisi kuchayadi, hayotning mohiyati, go‘zalligining o‘ziga xos ifoda shakli bo‘lgan rang-baranglik, takrorlanmaslik inkor qilinishga olib keladi.

Rivojlangan g‘arb davlatlari tomonidan dunyoni ekspansiya qilish boshlanganidan beri ana shunday nuqtai nazar, tamoyil ustuvor bo‘lib kelgan. Buning qanday oqibatlarga olib kelganligini jamiyatning barcha sohalarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.Bugun biz yashayotgan asr fan, texnika, axborot rivojlanganligi va shu bilan birga globallashuv jarayonlari o‘sayotgan davr hisoblanadi. XXI asrda insoniyat katta yutuqlarga erishdi va erishmoqda ham. Ammo shu bilan birga bugungi kunda insoniyatning er yuzida uzoq yashashi va faoliyatini chegaralayotgan muammolar doirasi ham borgan sari ko‘payib bormoqda.Bugun insoniyat va atrof muhitga havf solayotgan bir nechta muammolarni global muammolar deyish mumkin. Ekologiyaning buzilishi, SPID, narkobiznes, yadroviy qurollar, va odam savdosi hamda ochlik kabi muammolar hozirda faqatgina bir davlat bir millat doirasidagina emas, balki er yuzida mavjud bo‘lgan barcha millatlar qolaversa, butun insoniyatga havf solmoqda. Umuman globalizatsiya va global jarayonlar XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib kuchaya boshladi. Globalizm atamasi oxirgi yuz yillikda tobora katta ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan «global» tushunchasining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak «umumiy», «globus», «er shari» kabi tushunchalarga duch kelamiz.

Demak, globalizm tushunchasi ana shu har ikki ma’noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, «sayyoraviy»,

«umumsayyoraviy», «umuminsoniy», «dunyoviy» muammolarni, «umumplanetar ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar» va global taraqqiyot istiqbollarini o‘ziga qamrab oladi. Ijtimoiy fanlarda ushbu masalalarni yoritish va tadqiq etish esa afsuski ancha kech boshlandi. Chunki yuqorida aytib o‘tilgan muammolar faqatgina ayrim millat va davlatlarga tegishli degan dunyoqarash mavjud edi. Va shuning uchun ham bu kabi masalalar hammani qiziqtirmas edi. Keyinchalik esa global muammolar echimi dolzarb va butun dunyo uchun havfli ekanligi anglana boshlandi. Hozirgi zamonda mutaffakkirlar va olimlar er sayyorasi miqyosida yagona sivilizatsiya qaror topayotganligi xususida tobora ko‘proq gapirmoqdalar. Fan va amaliyotda bu g‘oyaning mustahkam o‘rin olishi bilan «globalizatsiya» atamasi qo‘llanila boshlandi. Globalizatsiya sotsiumning barcha sohalarini qamrab olib, ijobiy jihatlari bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tug‘dirdi.

Hozirda ularning muayyan qismini «hozirgi davrning global muammolari» deb atash mumkin. Yer yuzida tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o‘rnatish; atrof muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo); aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo); ochlik, qashshoqlik hamda qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar o‘rtasidagi keskin farqni bartaraf etish; xavfli kasalliklarni tugatish; inson ma’naviy muhiti sofligini ta’minlash (etikologiya muammosi) va hokozolar.SHuningdek global muammolarni kelib chiqishi mavjudligi va hal etilishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: birinchisi – bu kishilar uyushgan jamiyatning tabiati turli mintaqalar davlatlarining (masalan SHarq, G‘arb, Janub–SHimol rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) xilma-xil manfaatlari majmui bilan bog‘langan, boshqacha aytganda, baynal ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy o‘zaro munosabatlar tug‘dirgan muammolardir. Ikkinchi guruxga inson va u mansub bo‘lgan jamiyat tizimida yuzaga kelgan munosabatlarni ifodalaydigan muammolar kiradi.Uchinchisi o‘z ichiga «jamiyat – tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlar tug‘dirgan muammolarni oladi. Global muammolarning bu guruhlari o‘zaro bir-

biridan farq qilsa-da, inson, uning hayoti, shart-sharoitlari va kelgusi rivoji jihatidan yaxlitlik, umumiylik kasb etadi.Ikkinchi umumiylik u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili – fan-texnika taraqqiyoti bilan aloqadorlikda ko‘rinadi.

Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnologiya yaratishni ta’minlasa, o‘z navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi o‘zgarishlarni sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Eng achinarlisi shuki erishilgan kashfiyotlarni kim qanday maqsadlarni ko‘zlasa, o‘shalarga tatbiq etilmoqda. SHuning bilan birga hozirgi paytda insoniyat ma’naviyati, uning sofligini asrash ijtimoiy rivojlanishning ichki jarayonlari tug‘dirgan yana bir global muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Bunga misol qilib zo‘ravonlik va nafratning kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, ma’naviy muhitni zaharlayotgani hamda insoniyatni axloqiy falokat sari etaklayotganligini keltirish mumkin. Ma’naviy muhitini bulg‘ashda keyingi vaqtlarda ayniqsa ichkilikbozlik va bangilikning o‘rni katta bo‘lmoqda.Ko‘pgina mamlakatlar bu xil moddalarni tarqatganlik uchun og‘ir jazo belgilanganligiga qaramay, er yuzi aholisining muayyan qismida bangilikka ruju qo‘yish avj olgan. SHuningdek bugun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalib, bularning qatoriga hozirda insoniyat va uning hayotiga nuqta qo‘yayotgan SPID ham qo‘shilmoqda. Kasalliklarning global muammo bo‘lib qolganligi yana shunda ko‘rinadiki, canoati yuksak rivojlangan mamlakatlarda yurak-tomir, asab-ruhiy, rak va boshqa xastaliklar ko‘payib bormoqda.

Demak global muammolarni yuzaga kelishida inson va uning ehtiyojlari asosiy sabab bo‘lib qolmoqda. Global muammolarning eng asosiylari tafsiflaridan ham ko‘rinib turibdiki,bunday bo‘hronlarni bartaraf etish nafaqat murakkab, balki bir xil echimga ham ega emas. SHu bilan birga insoniyat bularni hal etish choralarini tinimsiz izlamog‘i lozim. SHuningdek insoniyat global bo‘hronlarni bartaraf etish uchun avvalo yuqori darajadagi tafakkurga ega bo‘lishi shartdir. YAni, ma’naviy yuksaklik va chuqur gumanizmga ega bo‘lish. Zamonaviy insonparvarlik esa eng kamida uchta asosga: globallashuvni anglashga, zo‘ravonlikdan voz kechishga hamda adolatlilikka tayanadi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki globalizatsiya va global

muammolar kabi jarayonlarning echimi butun insoniyatning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishiga bog‘liqdir. Zero global muammolarga echim topish har bir davlatning vazifasi bo‘lib, dunyo davlatlarining o‘zaro hamkorlikda ish tutishini taqozo etadi.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Bosma nashr: “The Times”, “New Times”, “Bloomberg”, “Sabah”, Radio: “Exa Moskvy”, “TRT” va “Amerika ovozi” teleradiokompaniyalarining axborotlari tahlili.
2. “Olomoncha madaniyat” oqibatlari.
3. Hozirgi globallashuv integratsiyalashuv, axborotlashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatining iison
omiliga ta’siri muammolari.
4. Jahon axborot tarmog‘ida fitna va ma’naviy xurujlar va ularning oqibatlari.

## 8-Seminar

**Mavzu: Media maydon tuzilishi va ta’siri (2 soat)**

Reja:

1. Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati.
3. Internet tarmoqlarining vujudga kelishi va maqsadi: “Odnoklassniki”, “Telegram” “Facebook”, “Instagram”, “Whatsapp”, “Tik tok”, “Youtube”, “Twitter”, “go-gulf.com”, “Linkedn”.

**Axborotga odamlarning ehtiyoji .** Zamonaviy jamiyatning bosma ommaviy axborot vositalariga bo'lgan talabi ular jamiyatda ommaviy muloqot vositasi sifatida qanchalik muvaffaqiyatli ishlayotgani, shaxslar, guruhlar va boshqa ijtimoiy sub'ektlarning kognitiv, ta'lim, aksiologik, tashkiliy, ijtimoiy va ijtimoiy faol ishtirok etishga yordam beradigan bunday axborot munosabatlarini shakllantirish bilan belgilanadi. Bugungi kunda bosma ommaviy axborot vositalarini o'rab turgan muhitda ro'y berayotgan global o'zgarishlar ularning xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, texnologik qatlamlaridagi o'zgarishlar

bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalari tizimining jamiyat hayotining barcha sohalari bilan o'zaro ta'sirining integral natijasi sifatida oshkoralikni belgilab, biz Rossiya bosma ommaviy axborot vositalarining rivojlantirishda ishtirok etgan zamonaviy resurslarini ana shunday pozitsiyalardan ko'rib chiqmoqchimiz.

Ularni ochib berish postsovet davridagi mahalliy matbuot faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ular orasida ommaviy axborot makonining transformatsiyasi bor. Mamlakatda boshlangan jamiyat hayotining eng muhim sohalarini modernizatsiya qilish amaldagi aloqa tizimlarini, birinchi navbatda, ommaviy axborot vositalari tizimini tubdan qayta qurishni taqozo etadi. Ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy o‘zaro aloqalar yangi kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti tufayli tobora kengayib borayotgan imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, O‘zbekiston media tizimi ulardan jamiyatni modernizatsiyalash muammolarini hal etishda yetarlicha foydalanmayapti. Axborotga bo'lgan ehtiyojning mohiyati. Biz darslik falsafiy kategoriyalariga amal qilamiz.

«Mohiyat - bu ob'ektning barcha xilma-xil va qarama-qarshi shakllarining barqaror birligida ifodalangan ichki mazmuni; ob'ektning u yoki bu kashfiyoti hodisasi, uning mavjudligining tashqi shakllari. Tafakkurda bu kategoriyalar ob'ektning turli xil o'zgaruvchan shakllaridan uning ichki mazmuni va birligiga - tushunchaga o'tishni ifodalaydi. O'quvchilar sonining jadal o'sishi, raqamli texnologiyalarning faol rivojlanishi, tarmoqqa kirishning kengayishi, Internet segmentida ichki reklama bozorining rivojlanishi va jahon reklama bozori bilan integratsiyalashuvi tufayli onlayn medianing jadal rivojlanishi. onlayn media segmenti sanoatida xorijiy kapitalning ortib borayotgan roli media korxonalari o'rtasida raqobatning kuchayishiga olib keldi. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy bozorda raqobat muhiti o'ziga xos tarmoq xususiyatlariga ega va raqobatbardosh ustunliklarni shakllantirish va rivojlantirishning strategik jarayoni, shuning uchun ham sanoatning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu umuman ommaviy

axborot vositalari bozorining xo'jalik yurituvchi sub'ektlari uchun ham, Internet tarmog'ida faoliyat yurituvchi media-korxonalar uchun ham, xususan, ularning mahsulotining o'ziga xosligi, foydalanuvchi auditoriyasining xususiyatlari, globallashuv va axborotning mintaqaviylashuvining hozirgi tendentsiyalari tufayli xarakterlidir. reklama bozorlari.

Bularning barchasi birgalikda ommaviy axborot tizimidagi siljishlarni oldindan belgilab berdi: o'zgarishlar ularning tipologik tuzilishiga ta'sir qildi. Ommaviy axborot vositalari turlarini raqobat muhitida muloqotning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirish boshlandi. Tipologik xususiyatlarni qisman o'zgartirish yordamida katta tijoriy muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yaratildi. Ushbu jarayonni media turini formatlash sifatida aniqlash mumkin.Bosma nashrning formati o'ziga xos "tipologik yangi shakllanish" bo'lib, uning paydo bo'lishi ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy barqarorligini izlash bilan bog'liq bo'lib, yuqori ixtisoslashgan, yuqori darajadagi nashrlarni yaratish orqali ularning tipologik tuzilishini differentsiatsiyasini oshirishga olib keladi. ixtisoslashtirilgan ommaviy axborot vositalari. Bosma ommaviy axborot vositalari formatlari media muhitining zamonaviy voqeliklariga moslashtirilgan va zamonaviy kommunikatsiya strategiyalari va texnologiyalari bilan boyitilgan ularning tipologik modellari majmuidir.

Media turi uning tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirining integral natijasi bilan tavsiflanadi. Bunday natija ijtimoiy faoliyatning ma'lum bir turi ishtirokchilari o'rtasida yaratadigan aloqa va u tomonidan yaratilgan tegishli ijtimoiy munosabatlar: mafkuraviy, siyosiy, axloqiy, tashkiliy va boshqalar. Bu aloqa va tegishli ijtimoiy munosabatlar birgalikdagi harakatlarni tashkil etishga yordam beradi. ushbu ijtimoiy guruh - bu guruhning real hayotiy sharoitlariga mos keladigan xatti-harakatlar. Uning ishtirokchilari va ma'naviy ishlab chiqarishning boshqa sohalari ishtirokchilarining kuchlari orqali bunday aloqa ushbu ijtimoiy guruhning ham, butun jamiyatning ham ma'naviy salohiyatini boyitishni ta'minlaydi. Jamiyat taraqqiyotining turli murakkablikdagi ziddiyatli

ko‘rinishlari xorijlik olimlar D.Bell, T.Parsons, J.Gelbreyt, P.Draker, M.Kastels, U.Rostou, A.Toffler, F.Uebsterlar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, ularning asarlarida axborot, axborotlashgan jamiyat va axborot almashinuvi jarayonlariga oid muammolarini tadqiq etishga qaratilgan.

Axborotning yuzaga kelishi, qimmati, axborot va axborotlashtirish masalalarining ijtimoiy tizimdagi murakkab o‘zgarishlar strategiyasidagi o‘rni kabi muammolar R.Abdeev, V.Inozemsev, I.Melyuxin, N.Moiseev, I.Novik, V.Styopin, V.Goroxov, M.Rozov, D.Chernavskiy, A.Chernov, kabi MDH olimlari tomonidan o‘rganilgan. Axborot hamda axborotlashtirish jarayonining alohida falsafiy va iqtisodiy jihatlari bo‘yicha J.Abdullaev, M.Yoqubova, O.Kostrina, O.Lanseva, M.Usmonova, Sh.Qo‘shoqovkabi ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

**Matbuotda so‘z va axborot erkinligi.** Rudolf fon Jering yakkalanishni xalqlarning halokatli gunohi deb e'lon qiladi, chunki tarixning eng oliy qonuni birlashishdir. Globallashuv jarayoni tabiiydir, chunki muloqotning o‘zi tabiiy va bu jarayon tobora kuchayib, jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, xalqlar muloqotini ta'minlovchi ommaviy axborot jarayonlarida o'z ifodasini topadi. Ommaviy axborot vositalari muloqot qilish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratadi. L.V Mrochkoning so'zlariga ko'ra, ular og'zaki muloqot (ma'ruza, konferentsiya, uchrashuv va suhbat), madaniyat va san'at (teatr, adabiyot va kino) va ommaviy axborot vositalari (davriy matbuot, televidenie va radioeshittirish) larni o'z ichiga olishi mumkin. Muloqot - bu ma'lumot uzatishni o'z ichiga olgan jarayon. So'nggi yillarda axborot uzatishning ikkita modeli mavjudligi nazariyasi ishlab chiqildi - "vertikal" (rasmiy, davlat yoki xususiy ommaviy axborot vositalaridan aholiga) va "gorizontal" (fuqarodan fuqaroga, masalan, Internet orqali).

Ommaviy axborot vositalari faoliyati jiddiy va mas’uliyatli jamoat va davlat vazifasidir. Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalarida so‘z erkinligini ta’minlash, bu erkinlik chegaralarini belgilashga yo‘l qo‘yilishi

masalasi bilan belgilanadi. So‘z erkinligi uchun va unga qarshi kurash asrlar davomida davom etib kelmoqda. XXI asr boshlarida jahon hamjamiyati inson huquqlarini, jumladan, so‘z erkinligini himoya qiluvchi va ta’minlaydigan keng qamrovli qonunchilikni yaratdi. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlangan matbuotga oid davlat siyosati tahririyatlar va jurnalistlarning kasbiy mustaqilligini, ommaviy axborotni olish va tarqatish erkinligini kafolatladi. Milliy matbuot bozori shakllandi, u umumiy tovar bozorining segmentiga aylandi. Haqiqiy so'z erkinligi ikkita muhim shart - shaxsga ma'lumot to'plash, tahlil qilish va uning asosida shaxsiy fikrni shakllantirish imkonini beradigan oshkoralik rejimi va xizmatda bo'lgan matbuot erkinligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi jamiyatning fikri va shaxsiy fikrini bildirishni xohlovchilar uchun imkoniyat yaratadi. Jamoatchilik fikrini ochib berish va namoyon qilish kontekstida oshkoralik va matbuot erkinligi jamiyatni demokratlashtirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq, ommaviy so'rovlar, siyosiy teledebatlar va ko'cha namoyishlari amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, agar biror narsada muvaffaqiyatga erishilgan bo'lsa, bu ijtimoiy texnologiyalarning tobora takomillashib borayotganidadir. Ularning maqsadi xalqni gapirish imkoniyati berilganiga ishontirishdir. Ta’kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari kommunikatsiya tizimining bir bo‘lagi sifatida jamiyatning mustaqil siyosiy instituti sifatida faoliyat yuritadi. Bu institut demokratik plyuralistik tizim doirasida faoliyat yuritib, jamoatchilik ongida mavjud bo‘lgan turli fikr va mulohazalarni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu ma'lumotlar, ichki, yopiq aloqa orqali keladigan ma'lumotlarga nisbatan, ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalari elektoratni boshqarish, siyosiy tarbiya va safarbarlik vazifalarini bajaradi. Xuddi shu funksiyalar siyosatchining ommaviy kommunikatsiyaga qo'shilish motivatsiyasini aniqlaydi, bu esa qarorlarni nashr etish va tushuntirish, ijtimoiy hayotdagi kutilmagan vaziyatlarni izohlash,

aholini siyosiy qo'llab-quvvatlash uchun murojaat qilish va ko'z oldida o'zining jozibali qiyofasini yaratish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, saylovoldi tashviqoti, saylovchilar oldiga hisobot berish, nutqning xalqaro rezonans kuchayishi davrida kuzatilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari jamiyat ommaviy kommunikatsiyasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, bir butun sifatida qabul qilingan holda turli ijtimoiy-siyosiy rollarni bajaradi, ularning u yoki bu qismi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qarab alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Bular jamiyatni birlashtiruvchi, uning tarbiyachisi, tashkilotchisi rollari bo'lishi mumkin. Tarixiy taraqqiyotning inqirozli davrlarida ommaviy axborot vositalari turli kuchlar, hokimiyat va xalq o‘rtasidagi muloqotda vositachi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ommaviy axborot vositalarining o‘zining asosiy ijtimoiy funksiyalarini bajarishi, jamiyatni birlashtirishga hissa qo‘shishi, mamlakat siyosatining asosini tashkil etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash lozim.

Davlat esa, o‘z navbatida, axborot sohasida fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratib berishi, davlat va moliyaviy-tijorat tuzilmalarining matbuotga ta’siri kamayishi, matbuot, eng avvalo, fuqarolik nazorati ostiga o‘tishi kerak. jamiyat. Axborotni daromad manbaiga aylantirish “Ayni vaqtda barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz zarur: axborot maydonidagi turli bahs va tortishuvlar, avvalo, haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun va odob qoidalari doirasida bo‘lishi, shaxsiy g‘araz va xusumatga, soxta obro‘ orttirish usuliga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va sha’nini tahqirlashdan yiroq bo‘lishi, bunday salbiy holatlarga bizning media maydonimizda mutlaqo o‘rin bo‘lmasligi kerak”[1] deydi Sh.Mirziyoyev.

**Axborotlarni yig’ish usullari**. Axborot atamasi lotincha information axborot so‘zidan olingan bo'lib, tushuntirish, xabardorlik, taqdim etish degan ma'noni anglatadi. Keng ma'noda axborot - bu odamlar o'rtasida axborot

[1] https://adu.uz/uz/news/article/941

almashish, jonli va jonsiz tabiat, odamlar va qurilmalar o'rtasidagi signal almashishni o'z ichiga olgan umumiy ilmiy tushuncha. Axborot - bu atrof-muhit ob'ektlari va hodisalari, ularning parametrlari, xususiyatlari va holati to'g'risidagi ma'lumotlar, ular haqidagi bilimlarning noaniqligi va to'liq emasligi darajasini kamaytiradi. Informatika fanida axborot bilan bir qatorda ma'lumotlar tushunchasi ham tez-tez ishlatiladi. Ma'lumotlar qandaydir sabablarga ko'ra ishlatilmaydigan, faqat saqlanadigan belgilar yoki qayd etilgan kuzatuvlar sifatida qaralishi mumkin. Agar biror narsaga nisbatan noaniqlikni kamaytirish uchun ushbu ma'lumotlardan foydalanish mumkin bo'lsa, ma'lumotlar ma'lumotga aylanadi. Shu sababli, ma'lumot foydalanilgan ma'lumotlar deb ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda bloggerlik butun bir professional yo'nalishdir, garchi bu kasb hali universitetda o'rgatilmagan.

O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi 560—II-sonli Qonuniga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu o‘zgartirishlar blogerlarning faoliyatini tartibga solish maqsadida kiritildi. Bu haqda “Xalq so‘zi” gazetasining rasmiy sayti xabar beradi. Unga ko‘ra: Bloger — Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan axborotdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs. O‘zbekistonda blogerlik faoliyati "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi qonun doirasida tartibga solinadi. Qonunga "blogerlik" iborasi ilk bor 2014 yilda kiritilgan. ochiq manbalardan qo‘lga kiritilgan axborotni tarqatayotgan shaxsning mas’uliyati belgilab berilgan. «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunda «bloger» tushunchasini quyidagi tarzda kengaytirilgan: xabar va materiallarni to‘plash, tahlil qilish, tahrirlash, tayyorlash va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi hamda ularni axborotdan foydalanuvchilar tomonidan, shu jumladan, muhokama qilishi uchun Internet

jahon axborot tarmog‘idagi o‘z vebsaytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga joylashtiruvchi jismoniy shaxs.

Hozirda bloger – jamoatchilik-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa tusdagi axborotlarni ulardan foydalanuvchilar tomonidan, shu jumladan, muhokama qilishi uchun Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytiga va (yoki) vebsayt sahifasiga joylashtiruvchi jismoniy shaxs. O‘zbekiston Respublikasining 30.03.2021 yildagi O‘RQ-679-son yangi tahrirdagi Qonuninida bilogerlik faoliyatiga quyidagicha o‘zgartirishlar kiritilgan. «12-modda. Hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborotni Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish. Veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan yoxud boshqa axborot resursidan: O‘zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da’vat etish; ommaviy tartibsizliklarga, fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga, shuningdek belgilangan tartibni buzgan holda o‘tkaziladigan yig‘ilishlar, mitinglarda, ko‘cha yurishlarida va namoyishlarda ishtirok etishga da’vat qilish, shuningdek mazkur noqonuniy harakatlarni muvofiqlashtirish;

Jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborot tarqatish; urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g‘oyalarini targ‘ib qilish; davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni oshkor etish; milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi, shuningdek fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘yuvchi axborotni tarqatish; jamiyatga, davlatga, davlat ramzlariga hurmatsizlikni namoyon etuvchi, shu jumladan beodoblik bilan ifodalangan axborotni tarqatish; giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va prekursorlarni targ‘ib qilish;

pornografiyani, zo‘ravonlikni va shafqatsizlikni targ‘ib qilish, shuningdek o‘z joniga qasd qilishga da’vat etish; fuqarolarni, shu jumladan voyaga yetmagan shaxslarni ularning hayotiga va (yoki) sog‘lig‘iga yoxud o‘zga shaxslarning hayotiga va (yoki) sog‘lig‘iga tahdid soluvchi g‘ayrihuquqiy harakatlarni sodir etishga undashga yoki boshqa tarzda jalb qilishga qaratilgan axborotni tarqatish; qonunga muvofiq jinoiy va boshqa javobgarlikka sabab bo‘ladigan o‘zga harakatlarni sodir etish maqsadlarida foydalanilishiga yo‘l qo‘ymasligi shart.

Veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger: hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga yoxud boshqa axborot resursiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtirilguniga qadar uning to‘g‘riligini tekshirishi, shuningdek joylashtirilgan axborotning noto‘g‘riligi aniqlangan taqdirda, uni darhol o‘chirib tashlashi; hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-sayti va (yoki) veb-sayt sahifalari yoxud boshqa axborot resursining, shu jumladan tezkor xabarlar almashish tizimlarining monitoringini ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan axborot va materiallarni aniqlash maqsadida amalga oshirishi; ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan axborot aniqlangan taqdirda, darhol mazkur axborotni o‘chirib tashlash choralarini ko‘rishi shart.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan majburiyatlar veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger tomonidan bajarilmagan taqdirda, mazkur veb-saytdan va (yoki) veb-sayt sahifasidan yoxud boshqa axborot resursidan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda maxsus vakolatli organ tomonidan cheklanishi mumkin. Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan talablarni buzganlik qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Ushbu

moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan talablar vebsaytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger tomonidan bajarilmaganligi natijasida huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan shaxslar oʻz huquqlarini, sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obroʻsini himoya qilish uchun, shu jumladan zararning oʻrnini qoplash, ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish toʻgʻrisidagi da’volar bilan belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli».

Har bir bloger faqat oʻz manfaatini, shon-shuxratini yoki daromadini oʻylab emas, ularni muntazam kuzatayotgan xalq oldidagi mas’uliyatini ham te’ran anglagan xolda faoliyat yuritishlari shart. 2019 yil 14 iyun Xalqaro blogerlar kuni 2019 yildan boshlab har yili 14 iyun kuni butun jahon boʻylab Xalqaro blogerlar kuni nishonlanadi. Bu kunni bayram qilish gʻoyasi ilk bor 2004 yilda tugʻilgan edi. Bir kunning oʻzida 40 mamlakatda faoliyat olib boruvchi 500 bloger oʻz bayramlarini, oʻz kunlarini nishonlashga qaror qilishgan va aynan shu kunni blogerlar kuni, deya e’lon qilingan. Bu kun turli tillarda blog yurituvchi kishilarni oʻzaro birlashtiradi, ular oʻrtasida doʻstona munosabat shakllantiradi, butun Internet foydalanuvchilari bilan aloqalarini mustahkamlaydi. Oʻzbekistonda ham har yili mana shu kun Xalqaro blogerlar kuni sifatida nishonlanadi. Shu bilan bir qatorda, mamlakatda blogerlar oʻrtasida chempionatlar ham oʻtkazib kelinadi.

Xalqaro bogerlar kunidan tashqari 31 avgust kuni Blog kuni (original atalishi — Blog Day) ham oʻtkaziladi. Aynan shu kuni har bir bloger oʻz sahifasida turli mavzularga oid beshta kundalik e’lon qiladi. Blog kuni nega aynan 31 avgust kuni oʻtkaziladi? Bu gʻoya 2005 yilda tashkil etilgan. Oʻshanda «blog» soʻzi raqamlashtirilganda 3108 raqamlari kelib chiqqan.

**Vine nima?** O'z tarixini 2012 yil iyun oyida boshlagan Vine 2012 yil oktyabr oyida Twitter tomonidan 30 million dollarga sotib olindi. Ilovaning rasmiy ishga tushirilishi 2013-yil yanvarida boʻlib oʻtdi, bir necha oy oʻtib Vine eng mashhur video almashish ilovasiga aylandi va 2015-yil oxiriga kelib

dasturning 200 milliondan ortiq faol foydalanuvchilari bo‘lgan. Vayner Media - Nyu-York, Los-Anjeles, London, Singapur va Mexikoda ofislari bo'lgan global ijodiy va media agentlik.

**"Vine"** so'zining o'zi ingliz Vine so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u o'z navbatida qisqa videolarni joylashtirish xizmatining nomi bo'lib, u Twitter tomonidan sotib olingan. Oddiy qilib aytganda, tok - bu odamlar baham ko'radigan video turitning bir turi. Aslida, hamma narsa oddiy. Tvitlar singari, uzumlarning davomiyligi cheklangan va masalan, u erda YouTube kabi uzoq videolarni yuklay olmaydi. Ularning ma'nosi shundan iboratki, uzum uzunligi ikki soniyadan yigirma soniyagacha bo'lgan, kulgili yoki kulgili narsa sodir bo'ladigan va boshqa uzun yozuvlardan farqli o'laroq darhol tushunarli bo'lgan hazil xarakteriga ega qisqa videodir. Ko'p odamlar bog'langan Instagram misolida bo'lgani kabi, tok qahramonlari ko'pincha mualliflarning o'zlari bo'lib, bunday videolarning harakatlari sahnalashtirilgan. Biroq, hech kim ulardan haqiqatni talab qilmaydi, asosiysi, bu kulgili va kulgili bo'lishidir

**Vayner kim**? Xuddi shu nomdagi ilovada qisqa videolarni suratga olgan odam vainer (viner) deb ataladi. Har kim bitta bo'lishi mumkin. Buning uchun smartfon yoki boshqa mos qurilmaga dastur o'rnatiladi va kulgili stsenariy o'ylab topiladi. Videodagi aktyor prodyuser / rejissyorning o'zi yoki boshqa odamlar, hayvonlar, narsalar ishlatiladi. Hikoyalar qiziq va qiziqarli bo'lishi kerak.

**Vayner** ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanishni biladigan har bir kishi uzum muallifi bo'lishi mumkin. Suratga olish professional uskunalar va yoritishni talab qilmaydi. Vaynerlar videoni o'zlari suratga oladi va tahrirlaydi va boshqalar bilan baham ko'radi. Ular motivatsion, reklama, ta'lim va boshqa videolarni suratga olishi mumkin. Video formatining vazifasi eng qisqa vaqt ichida fikrni etkazish va tomoshabinni qiziqtirishdan iborat. Mashhurlik, ular turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlarni qiziqtirganligi bilan izohlanadi. Vaynerlar videoni o'zlari suratga oladi va tahrirlaydi va boshqalar bilan baham ko'radi. Ular tomonidan tayyorlangan mavzular hayotiy dolzarb va kulgili bo‘lishi mumkin.

Video mualliflari vaziyatga o'z qarashlarini bildirishdan qo'rqmaydilar va mashhur filmlar va dasturlarga parodiya qilishlari mumkin. Vaynnerlar har bir mavzuga oson va hazil bilan munosabatda bo'lishadi.

Masofaviy ta’lim tobora ommalashib bormoqda. Onlayn darslarni qulay vaqtda ko'rish mumkin, yo'lda vaqtni behuda sarflashning hojati yo'q, yozuvda mavjud bo'lgan kurslarni qayta-qayta ko'rib chiqish mumkin. Media-biznesning asosi - odamlardan ma'lumot etishmasligi va reklama beruvchilardan auditoriyaga kirish imkoniyati yo'qolganligi sababli, kontentni ham, auditoriyani ham sotish qiyinlashdi. Kontent va auditoriyadan tashqari, boshqa savdo mahsulotlarini qidirishingiz kerak. Shu sababli, ommaviy axborot vositalari hozirda saytda ba'zi tovarlarni sotishni rivojlantirmoqda. Jahon amaliyotida bosma nashrlar (yoki onlayn-do'konlar - ommaviy axborot vositalari tomonidan ishga tushirilgan mustaqil saytlar) saytlarida onlayn-do'konlar yaratish bo'yicha ko'plab misollar mavjud.

Ommaviy axborot vositalari auditoriyasiga sotish uchun yangi tovarlar va xizmatlarni izlashning yuqoridagi misollari gazeta biznesi uchun yangi biznes modellarini topish masalasi dolzarbligicha qolmoqda degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bosma ommaviy axborot vositalarining tiraj va reklama ko'rinishidagi hozirgi modeli hali ham yo'qolib borayotgani yo'q, ammo bu gazeta biznesi uchun endi aksioma emasligi aniq.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati.
3. Internet tarmoqlarining vujudga kelishi va maqsadi: “Odnoklassniki”, “Telegram” “Facebook”, “Instagram”, “Whatsapp”, “Tik tok”, “Youtube”, “Twitter”, “go-gulf.com”, “Linkedn”.

**9-Seminar**

## Mavzu: Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar (4 soat)

Reja:

1. Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi.
2. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar. Oila kushandasi.
3. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta’sir muammolari.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davlatimiz ravnaqi uchun tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday jarayon, tabiiyki, xalqimizning ong-u tafakkurining shakllanishiga, dunyoqarashimizning o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. 2021-yil 26-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning navbatdagi qadami, desak adashmaymiz. Mazkur qaror negizida ilgari surilgan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar hamda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda olib borilayotgan faoliyatning uzviy davomi sanaladi.

Buyuk mutafakkir ajdodimiz Mahmud Az-Zamaxshariyning: “Bamisoli tumov kishi gulning hidini sezmaganidek, ahmoq kishi hikmat lazzatini bilmaydi” degan purma’no iboralarini har bir inson aql muroqabasidan o‘tkazishi kerak bo‘ladi. Shu bois har birimiz havoi nafsga berilmasdan, aql kuchi bilan o‘z farzandlarimiz, o‘z kelajagimiz yo‘lida birlashishimiz, kurashishimiz zarur. Shu bilan birga, siyosiy islohotlar xalqaro munosabatlar tizimida yangi jahon tartibotini shakllantirish uchun olib borilayotgan bir davrda kechmoqda. Globallashuv jarayonining shiddat bilan kechishi natijasida jahon xalqaro munosabatlar tizimida keskin o‘zgarishlar yuz bermoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Uchinchi Rennesans” davri nafaqat yoshlarda, balki har bir shaxs, har bir fuqaroda mas’uliyat hissini yuzaga keltirmay qolmaydi.

Bu esa, o‘z navbatida, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tizimini takomillashtirishni, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etadi. Bizningcha, oldimizga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda yuzaga kelgan siyosiy voqelikni atroflicha ilmiy tahlil etish, milliy, iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash bilan bir qatorda axborot-mafkuraviy xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur bo‘ladi. Bu borada, Yevrosiyo makonida vaziyat va kuchlar nisbatining o‘zgarib borishi, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar negizida muntazam ravishda kuzatib borish, bu borada yangicha yondashuvlarni izlab topishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik tizimining shakllanish jarayoni yakuniga yetmaganligi, mintaqada turli ekstremistik guruhlarning bosh ko‘tarib chiqishlari ehtimolining mavjudligi, jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasini o‘z “ta’sir doiralari”ga tortishga intilishlari milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik masalalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Bugungi kunda o‘z geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga erishish, xalqaro maydonda yetakchilik uchun raqobat olib borayotgan kuchlar tarafidan yurtimizga nisbatan “axborot hujumi” uyushtirilayotganligini kuzatish mumkin. Bunday chiqishlar nafaqat xorijiy ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda, balki yurtimiz radio va teledasturlarida, reklama roliklarida ham bo‘lib turibdi. Siyosatshunoslik fanidan ma’lumki, siyosat bu – kurash, manfaatlar kurashi. Qadimgi davrda davlatlararo nizolar jangga olib kelgan va ular o‘rtasidagi muammolar yechimi jang natijasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Biroq, davrlar o‘tib, “harbiy yechim” S.Xantingtonning “madaniy raqobat”iga aylangan bo‘lsa, bugungi kunda esa bu muammo F.Fukuyamaning “g‘oyaviy-mafkuraviy qobiq”qa o‘ralgan “axborot urushi” doirasida olib borilmoqda.

Miloddan avvalgi II asrda xitoylik sarkarda Sun Szi tomonidan aytilgan: “Yuz marotaba jang qilib, yuz marotaba g‘alaba qozonish g‘alabaning a’losi emas, g‘alabaning a’losi jangga kirmasdan turib dushmanni mahv etishdir” g‘oyasi

davrning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Axborot urushi globallashuv jarayonining mahsuli bo‘lib, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, turfa xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini aytish o‘rinli. Albatta, bugungi kun uchun bu holat yangi emas. Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan qudratli shaxslar harbiy aslahalardan ming chandon ustun turgan “axborot quroli”dan samarali foydalanib kelganlar.

Ta’kidlash joizki, mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar xorijiy mamlakatlarning qator aqliy markazlarida XX asrning 60-yillaridayoq boshlangan. Birlashgan Qirollik Bosh vaziri Uinston Cherchillning: “Haqiqat o‘z shippagini kiyguniga qadar, yolg‘on butun dunyoni kezib chiqishga ulguradi” iborasi aynan axborot urushining mazmunini belgilab beradi. Bugungi kunda mintaqa va yurtimizga qarshi qaratilgan “axborot quroli”dan foydalanish ko‘lami tobora ortib bormoqda. Ma’lumki, “Axborot urushi” harbiy xatti-harakatlarga nisbatan juda arzon bo‘lib, u yadro qurolidan ham qudratliroq kuchga ega. Ya’ni, axborotga ega shaxs har qanday jarayonni nazorat qila olishi va undan o‘z maqsad va manfaati yo‘lida samarali foydalana olishi imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Bu kurashning ob’yekti ham, sub’yekti ham Inson sanaladi.

Ayrim davlatlar tomonidan ilgari surilayotgan konsepsiya va doktrinalarda “insonlardagi ijtimoiylashuv g‘oyalarini yo‘qotish zarur”ligi ochiqdan-ochiq aytiladi. Siyosatshunoslarining fikrlariga ko‘ra axborot urushining vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Sof mafkuraviy ta’sir o‘tkazish; 2. Mamlakat aholisiga noto‘g‘ri ma’lumot berish (davlat va hukumat rahbarlariga ishonchsizlik uyg‘otish, davlat siyosatining ayrim yo‘nalishlariga norozilik kayfiyatlarini tug‘dirish, rasmiy targ‘ibot va axborot manbalari va kanallariga ishonchni yo‘qotish); 3. Fuqarolarga psixologik bosim o‘tkazishga urinish (mish-mishlarni tarqatish, nosog‘lom kayfiyat tug‘dirish, turli ijtimoiy guruhlar orasida dushmanona kayfiyatlarni – millatchilik, ratsizm, diniy ekstremizm va fanatizmni yuzaga keltirish). Shu bois, davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan farmonda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizimning

mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilmayotganligi, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi ta’kidlab o‘tiladi.

Bugun atrofimizda madaniyat sohasida kechayotgan voqealarni tahlil qilib ko‘rsak, individualizm – shaxsiyatparastlik g‘oyalarining targ‘ibotini ko‘ramiz. Aksariyat badiiy film, reklama, jumladan ko‘chalardagi bannerlarda, musiqa va kliplarda faqat pul, boylik va ma’naviyatsizlik targ‘ibotiga ko‘zimiz tushadi. Ayrim hollarda mutlaqo milliy ma’naviyatimizga zid ko‘rinishlar, sahnalar namoyish etiladi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarida bunday “badiiy asarlar” yaratilishida faqat ayrim “sarmoyadorlar” homiylik qilishi ham hech kimga sir emas. Abu Rayxon Beruniy “Inson zoti barcha hayvonlardan ustun yaratilgan, zero unga yuksak sharaf – aql kuch berilgan” degan fikrni bildiradi. O‘z fikrini davom ettirar ekan “Inson o‘z ehtiyojlarining ko‘pligi va himoya vositalaridan cheklanganligi hamda dushmanlarning ko‘pligi oqibatida o‘z yaqinlari bilan o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va muayyan vazifalarni bajarish orqali mavjudligini ta’minlash maqsadida jamoalarga birlashishlariga zaruriyat sezdi”, deb aytadi.

Milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga xuruj kecha yoki yaqin o‘n yilliklar oldin emas, balki bir necha asr avval boshlangan. “Demokratik nur” olib kelishga intilgan qator yozuvchi-shoirlar, kinorejissyorlar, san’at arboblari ajdodlarimiz naqadar qoloq, madaniyatsiz bo‘lganliklarini ifoda etuvchi asarlar ijod etganlar. Afsuski ular orasida xalqimizning manqurtlashgan “farzandlari” ham bo‘lib, ularning bu boradagi jonbozliklarini hali-xanuz ko‘rish mumkin. Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egosentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi. Yurtimizda shaxsiyatparastlikni kuchaytirish, jamiyatni parokanda qilish,

madaniyatimizni yo‘qotishga qaratilgan axborot xuruji tizimli asosda olib borilmoqda.

Mazkur jarayonlar xorijiy aqliy va tahliliy markazlar doirasida ishlab chiqilishi bilan birga, ushbu jarayonga yurtdoshlarimizning ham jalb etilishi, afsuski kuzatilmoqda. To‘g‘ri, insonlarda bir xil qadriyat va bir xil ehtiyojlar bo‘lmaydi. Forobiy fikriga quloq tutsak, “insonda majburiyat va mas’uliyat bo‘lishi fozil shahar”ga, aksi bo‘lsa johil shaharga olib kelishini aytadi. Insonlar esa qaysi jamiyatda yashashni afzal ko‘rishlarini tanlashi zarur bo‘ladi. Aynan shu sababli ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi voqealarni shishirib ko‘rsatishga urinishlar orqali muntazam axborot xuruji olib borilishi kuzatiladi. Bugungi voqelikni ilmiy tahlil qilish asosida quyidagi yo‘nalishlarda “axborot xuruji” olib borilayotganini ko‘rish mumkin: Birinchi yo‘nalish, davlat rahbari, deputatlar, hukumat a’zolari sha’ni va faoliyatiga nisbatan xuruj; Ikkinchi yo‘nalish, olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar mohiyatini tushirish, xalqning ishonchini yo‘qotishga qaratilgan intilish; Uchinchi yo‘nalish, jamiyatni turli guruhlarga ajratish orqali defragmentatsiyalash, ularni bir-birlariga qarshi qo‘yish; To‘rtinchi yo‘nalish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni barbod qilish, “ommaviy madaniyat”ga asoslangan soxta qadriyatlarni singdirish.

Beshinchi yo‘nalish, huquqni muxofaza etuvchi organlar – ichki ishlar, mudofaa, xavfsizlik idoralari faoliyatiga nisbatan salbiy kayfiyatni tug‘dirish; Oltinchi yo‘nalish, kelgusida muayyan maqsadlarni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan shaxslarni ommalashtirish, ularni “xalq qahramonlari”ga aylantirish. Demak, axborot xurujini bartaraf etish maqsadida axborot xavfsizligini ta’minlash borasida huquqiy, tuzilmaviy va g‘oyaviy asoslarni o‘zida mujassam etgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ilgan. Bu borada, axborot xavfsizligini ta’minlash, tashqi xurujlar manbalarini aniqlash, baholash va bashorat qilish, davlat hokimiyati organlari va axborot-matbuot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, mamlakat milliy manfaatlarining axborot sohasidagi milliy manfaatlarini kafolatli ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, davlat siyosati milliy manfaatlar hamda tashqi

siyosatga javob tariqasida olib borilishi bilan birga, “aqliy markazlar”ning ilmiy konsepsiya va nazariyalariga tayangan tavsiyalari asosiga ham tayaniladi. Mamlakatimizda ham shunday tahliliy ilmiy-amaliy markazlar boʻlishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Globallashuv jarayonida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yoʻnalishlardagi ilmiy-tadqiqot markazlari oʻrni va roli tobora ortib bormoqda. Shuningdek, tegishli muassasalar mazkur yoʻnalishlarda doimo izlanishda boʻlishni, ustuvor yoʻnalishlarni muntazam ravishda korreksiyalash, ularni amalga oshirishda keng oʻlchamli va chuqur oʻylangan faoliyat olib borishni, geosiyosiy va geostrategik tendensiyalarni (“geostrategik ishtirokchilar” yondashuvini) kuzatib borishni tala Turk yozuvchisi, shoir va publisist Nihal Atsizning “Millat va Vatan xoini boʻlish uchun dushmanlarga harbiy sirlarni oʻgʻirlab, sotishi shart emas. Dushmanlarni alqash, ularning maqsadlarini hayotga tatbiq etish, oʻz madaniyati va tarixini inkor etish – bu ham xiyonat sanaladi”, degan fikrini eslash oʻrinli. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ushbu qarori fuqarolarning, qolaversa yoshlarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi, odamlar bilan munosabatida yangi qarashlarni paydo qilishda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Zero, ma’naviyatli jamiyat hech qachon tanazzulga yuz tutmaydi.b etadi.

Yuqorida sanab oʻtilgan muammolarni bartaraf etishda, birinchidan, targʻibot-tashviqot tizimini shakllantirish, ikkinchidan, tashqi va ichki siyosiy holatni milliy mafkura bilan bogʻlagan holda milliy manfaatlar negizida koʻrib chiqish va baho berish, uchinchidan, milliy mafkura negizlarini aniqlash va aniq siyosiy maqsadlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish kerak boʻladi.

### Nazorat uchun savollar.

1. Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi.
2. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar. Oila kushandasi.

3. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta'sir muammolari.

## 10-seminar

## MAVZU: MEDIA MAYDONDA AXBOROT TARQATISH MADANIYATI.

**Reja:**

1. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta`sir muammolari.
2. Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi.
3. Axborot almashinuvining mexanizmlari v ava ilmiy nazariy asoslari.
4. Muloqot olamida muloqot, sevgi va nikoh munosabatlari.

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining o'zi, ko'pincha, sof texnologik jarayon sifatida baholanishiga qaramay, mazmun-mohiyatiga ko'ra chuqur ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. Chunki axborotlashtirish jamiyatning bir shakldan boshqa, ijtimoiy taraqqiyotning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo'lgan shakliga o'tishni anglatadi hamda jamiyatning istiqboldagi xususiyatlarini belgilab beradi. Tashviqot, feyk axboroti, pranking, raqamli tajovuz, trolling va h.k. hodisalar oqibatida mediamakondagi buzilishlar tufayli jurnalistika sohasida hozirgi paytda inqiroz kuchayib bormoqda. "Ortiqcha axborot" "axborot mavhumligi"ni keltirib chiqarmoqda. Ushbu vositalar yordamida ong bilan manipulyatsiya qilish shunga olib keladiki, auditoriyaning "tanqidiy avtonomiyasi" mavjud emasligi tufayli dunyoda har qanday ma'lumotlarni "yutib yuborish" kuchaymoqda.

1982 yilda YUNESKO Xalqaro Simpoziumida qabul qilingan Mediata'lim bo'yicha Gryunvald Deklaratsiyasida 19 ta a'zo mamlakat vakillari shunday deb ta'kidladi: "Axborot vositalarining muqarrar kuchini muhokama qilish yoki ma'qullash o'rniga biz uning hayotning barcha jabhalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi va singib borishini mavjud fakt sifatida tan olishimiz, shuningdek, ularning zamonaviy 31 madaniyatning ajralmas elementi sifatidagi ahamiyatini hisobga olishimiz zarur. Siyosiy va ta'limiy dasturlar shuni tan olishi kerakki, fuqarolar tomonidan

kommunikatsiya hodisasini tanqidiy anglashga ko'maklashish ularning majburiyatini tashkil etadi... mediata'lim bo'yicha dalillar ongli fuqarolikni tayyorlash vositasi sifatida hozir muayyan ikkilanishlarga sabab bo'lsa, eng yaqin kelajakda, kommunikatsion texnologiyalarda sakrash ro'y bergach, ushbu dalillar muqarrar bo'lib qoladi". Mediasavodxonlik konsepsiyalari rivojlanishi va zarurati munosabati bilan OAV vajurnalistikaning mediata'lim funksiyasi faol rivojlanmoqda. Bu ommaviy auditoriyaning mediakompetentligini oshirish, uning OAVdagi ma'lumotlarni mos ravishda qabul qilish, uni tahlil etish hamda axborot madaniyati me'yorlari va tamoyillariga mos keladigan ijtimoiy ahamiyatga ega mediamatnlarni yaratish layoqatini rivojlantirishdan iborat.

Shu narsa oydinki, faqat boshqalar tomonidan yaratilgan ma'lumotlar va axborotlarni topish, tahlil qilish, ushbu ma'lumotlar va axborotlardan voqealar yaratish ko'nikmalariga ega jurnalistlargina

o'z funksiyalarini bajara oladi. Ijtimoiy voqealar nimani anglatishini va o'quvchilar bunga tayyor bo'lish uchun nimalar qila olishini tahlil etadigan va bundan so'ng nimalar bo'lishini tushuntira oladigan jurnalistlargina auditoriyaga bilimli, hammaga tushunarli bo'lgan ma'lumotlarni yetkazishi mumkin. Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo'lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Xususan, axborotlashtirish va istiqbolli axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat tejamkorligini oshirishni, ilmiy bilimlar va ilg'or texnologiyalar jamiyatda jadal tarqalishini, jamiyat intellektuallashuvi umumiy darajasini oshirishni ta'minlashi kabi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda axborot makoni uchun kurash va insonga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishning avj olishi kabi alohida xavfni ham yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda shaxs axborot psixologik xavfsizlikni ta'minlanganlik darajasini sotsiologik o'rganish, yangi konsepsiyalar bilan boyitish bugungi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi uchun o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini

asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni ta'qiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Ma'lumki, hozirgi zamon yoshlarining hayotiy tushuncha va tasavvurlarini, asosan, internet shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'ymoqda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigan axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qa- ratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi. SHuning uchun ham mazkur muammo faqatgina ma'lum bir davlat chegaralaridan chiqib, global xarakterga ega bo'ldi. Axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog'liq.

Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa, o'z navbatida, borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan mutanosib bo'lishi darkor. SHuning uchun, birinchi navbatda, axborot olayotgan kishi uni mutlaqlashtirmasdan, o'z shuuri darajasida tahlil qilib, so'ng qabul qilishi lozim. Zamonaviy jamiyatning farqli belgilaridan biri – bu o'sib kelayotgan yosh avlodni tevarak atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga doimiy moslashtirib borish hisoblanadi. sivilizatsiyaning rivojlanishida uning asl mohiyatini oldin qanday bo'lganligi bilan taqqoslaymiz. Uning o'ziga xoslik belgilari uzluksizlik, shiddatlilik, global xarakterlilikdir. Axborotlashtirish asrida axborot xurujining avj olishi, ayniqsa, yoshlarda axborot olish madaniyati, o'qish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha,1 bugun axborot shiddat bilan yangilanib, hajmi oshib bormoqda. Natijada, bilimning o'sish sur'ati ilgarilab ketmoqda. Amerikalik muhandis, matematik va birinchilardan bo'lib axborot nazariyasini yaratgan olim Klod Shennon axborotni «oydinlashtirilgan mavhumlik», – deya ta'riflagan. Buning ma'nosi shundan iboratki, axborotni qabul qilib inson yangi bilimlar bilan tanishadi, ilgari mavhum bo'lgan narsalarni anglaydi, savollariga javob topadi. Bu tugamas va doimiy jarayondir.

Bugun kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, ulkan hajmdagi axborot resurslaridan oqilona foydalanishda jamiyat va inson uchun axborot madaniyati fenomenining global ahamiyatini anglash talab etiladi. Axborot madaniyati fenomenining paydo bo'lishining asosiy faktorlari bu axborotlashtirish asriga o'tishning universal ijtimoiy muhim kategoriyalari, ya'ni axborot hajmining o'sishi, jamiyatni axborotlashtirish, texnika va texnologiyaning rivojlanishi, axborot jamiyatiningshakllanishi kabilar. Axborot olish madaniyatiga ega bo'lish – bu har bir inson o'zligini anglashida o'z o'rni va vazifasini bilishida katta ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini keng ko'lamda ochib berishdagi jarayondir. Axborotlashgan jamiyatda kishilarning, xususan, yoshlarning axborot madaniyatiga, demakki, axborot almashinuvi madaniyatiga erishuvida axborot savodxonligi bosqichi borligini ham nazardan qochirmaslik zarur. Axborot savodxonligi «Axborotga bo'lgan ehtiyojni his qilish, uni topish, unga baho berish va undan samarali tarzda foydalanish» uchun kerak bo'ladigan malakalar to'plami sifatida ta'riflanadi. «Axborot savodxonligi» tushunchasini birinchi marta P.Zurkovskiy XX asrning 70-yillarida ish va kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishda axborot resurslaridan to'g'ri foydalana olgan insonga nisbatan ishlatgan. «Axborot resurslarini o'z hayot faoliyatida to'g'ri tatbiq qila olgan odamlarni axboriy- savodxon deb atash mumkin» deydi.

Keyingi o'n yilliklar davomida axborot savodxonligi AQSHning kundalik hayotida, maktabda, ish joylarida eng faol tushunchaga aylandi. Ushbu tushuncha evolyutsiyasiga rasmiy asos AQSH Prezidenti ma'muriyatining axborot savodxonligi to'g'risidagi hisoboti bo'ldi. Unga ko'ra «axboriy-savodxon inson deb axborotga talabni his qilgan, axborotni qidirish, baholash va to'g'ri qo'llay olishni bilgan shaxsni atash mumkin. Hozirgi kunda optimal qaror qila oladigan va demokratik jamiyatda to'liq qatnasha oladigan har qanday zamonaviy shaxs axboriy-savodxon inson bo'lishi kerak»5 deyilgan. Axborot savodxonligi bo'yicha xorij mamlakatlariga nazar solinsa, AQSH kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga 1989 yildan buyon jiddiy etibor qaratib kelinadi. Bu

yo'lda AQSH prezidenti huzurida maxsus ishchi guruh tuzilgan bo'lib, «Axborot savodxonligi» atamasi aynan mana shu ishchi guruh faoliyati natijasida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, guruh axborot savodxonligi bo'yicha milliy forumning yaratilishiga sabab bo'lib, u o'z ichiga yigirma beshtadan ziyod turli tashkilot va muassasalarni birlashtirgan. Oxirgi bir necha yillar mobaynida umumiy axborot savodxonligini rivojlantirish lozimligi jamiyatimizda yoshlar bilan ishlashning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kelmoqda. Fikr yuritish va axborotni baholash yangi mazmundagi axborot savodxonligining markazidan o'rin olgan.

Axborot savodxonligi bo'yicha xorijiy mamlakatlarda standartlar ishlab chiqilgan. Ushbu standartlarni 1998 yili Amerika maktab kutubxonalari uyushmasi va Ta'limiy kommunikatsiya vositalari va texnologiyalari uyushmasi joriy etilgan. Bular jumlasiga «Talabalarning ta'lim olishdagi axborot savodxonligi standartlari»ni kiritish mumkin. Unda 12 yillik ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilar uchun o'rnatilgan axborot savodxonligi standartlari belgilab berilgan. Mazkur standartlar o'rniga «O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash: maktab kutubxonalari dasturlari uchun yo'riqnomalar» deb nomlangan hujjat amalga kiritilgan bo'lib, unda kutubxonaning texnologiyalar, amaliy o'rganish va bilim olish dargohi sifatidagi ahamiyatiga alohida urg'u berilgan. Amerika Qo'shma SHtatlarida qabul qilingan «XXI asr talabasi uchun standartlar» deb nomlangan yo'riqnomada esa, talabalar malaka, manba va bilim olish vositalarini quyidagi maqsadlarga yo'naltirishi lozimligi belgilgan. Bular: ma'lumot izlash, tanqidiy o'ylash, bilim olish, xulosalar yasash, tegishli ma'lumotga asoslangan holda qaror qabulqilish, bilimni yangi vaziyatlarga yo'naltirish, yangi bilimlarni yaratish, bilim almashish va shaxsiy kamolot hamda estetik jihatdan o'sishga intilishdir.

Mazkur standartlar oliy ta'lim sohasidagi axborot savodxonligi masalalariga bag'ishlangan bahs-munozalarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Mazkur standartlar axborot savodxonligiga ega bo'lgan insonni quyidagicha ta'riflaydi:

• kerak bo'lgan axborot ko'lamini belgilay oladigan;

• axborot va uning manbalarini tanqidiy baholay oladigan va saralangan

axborotni o’z bilim bazasi bilan uyg’unlashtira oladigan;

• axborotdan foydalanish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy masalalarni tushunadigan, shuningdek axborotdan qonuniy tarzda hamda axloq me’yorlari doirasida foydalana biladigan;

• mahsulot va jarayonga baho bera oladigan kishidir.

Shunday qilib, «axborot savodxonligi» atamasi ishlatilganda ko’plab amerikalik tadqiqotchilar har qanday ziyoli kishi axborotlashgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun faqat bir yoki bir necha ko’nikmalar emas, balki katta bilimlar kombinatsiyasi va mukammal qobiliyatlarga ega bo’lishni nazarda tutishadi. Axborot savodxonligini murakkab tushuncha sifatida ta’riflagan holda, rusmutaxassislari uning tarkibiga axborotlarni qidirish (topish), tahlil qilish, an’anaviy muhit(kutubxona, kitob)da va yangi, elektron muhitda kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyatini kiritganlar. Ko’pgina rus mutaxassislari axborot savodxonligi tushunchasini kengroq, ya’ni shaxsning axborot madaniyatining bir qismi sifatida tavsiflashadi. SHaxsning axborot madaniyati, axborot savodxonligidan tashqari, o’ziga axborot dunyoqarashini, axborot bilimlari va ko’nikmalarini egallash zarurligiga ishonchni, axborotlashgan jamiyatda yashovchi shaxs tomonidan qanday maqsadlarga erishish lozimligini anglash; ma’lumotlardan to’g’ri foydalanish uchun mas’uliyatni his etish kabilarni ham qamrab oladi. Yuqoridagi fikrlarga yaqin nuqtai nazar o’zbekistonlik olimlar ishlarida ham mavjud.

Xususan, sotsiolog A.Umarov e’tiroficha, «Oldingi an’anaviy jamiyatlarda, shuningdek industrial jamiyatda ham mutolaa madaniyati axborot madaniyatiga nisbatan ustun mavqeda edi. Lekin postindustrial jamiyatning hosilasi bo’lgan axborotlashgan jamiyatga o’tilishi bilan axborot jamiyat va inson hayotining hamma sohalarida asosiy resursga aylangach, axborot madaniyatining ko’lami va mavqei ortgani aniq bo’lib qoldi. Endi axborot madaniyati tizim yasovchi kategoriya maqomiga ko’tarildi, mutolaa madaniyati esa shu tizimning ajralmas qismi sifatida jamiyat va inson hayotida o’rin tuta boshladi». Bugungi kunda

axborot madaniyatini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki, axborot oqimining jadal o’sib borishi, taqdim etilayotganaxborotlar orasidan kerakli, zaruriy va foydalilarini ajratib olish murakkab jarayondir. Buning uchun har bir shaxs mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng, axborotlar ummonidan o’zi uchun kerakligini ajratib olish salohiyatiga ega bo’lishi lozim. Axborot madaniyatini shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud bo’lib, ular orasida yuqorida ko’rib o’tganimiz «axborot savodxonligi»dan keyin eng muhimi bu kishilarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdir.

Inernet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog’i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya’ni ongimizga mavhum bo’lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma’lumot beruvchi axborot manbaidir. Tabiyki, hozrgi kunda ushbu omilga bo’lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matinlar, tasvir hamda ovoz hizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo’lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor vertual olamga jalb etib bormoqda. Ayniqsa bu ta’sir doirasidan o’smir yoshlar ham yo’q emas. Bu borada mutahasislarning so’zlari quydagi natijalar isbotlamoqda: internet tarmog’idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog’liq muhim aniq dalillarga ega bo’lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma’lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushoxada, taxlil qilish qobilyati va xotiraning o’tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo’lmoqda. Ma’lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo’lmagan va insonning o’z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo’lishi kerakligi hamda undagi me’yor talablari, ya’ni Internet tarmog’idan axborotlarni to’g’ri tanlash har jihatdan o’rinlidir. Bundan ko’rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o’z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko’p ekanligi gohida

o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda. Barchamzga ma'lumki, Internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyos.

O'zingizga kerakli barcha ma'lumotlarni shu kabi biron bir saytning "izlash" katakchasiga yozib, chiqarilgan ko'pgina ma'lumotlar ichidan o'zingizga keraklisini tanlab olaverasiz yoki ma'lum bir saytning manzili yodingizdan ko'tarildimi, yana o'sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador kalit so'zlarini terasiz va qarabsizki o'sha sayt qarshingizda namayon bo'ladi.

Internet tarmog'ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruvtizimlari mavjud. Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiy ta'rif berishda ularnibiror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.Bu kompaniya Internetdagi yetakchi qidiruv tizimi hisoblanadi, dunyo bo'ylab tarmoq foydalanuvchilarning o'ntadan yettitasi u yoki bu ma'lumotlarni topish ilinjida aynan manashu saytga murojat qilishadi. Tizim har kuni 50 mlionga yaqin so'rovlarni qabul qiladi, sakkiz milyardlab veb-sahifalarni ideksatsiya qiladi. U 101 tildagi axborotni izlab topishi mumkin. Keyingi yillarda butun dunyo internet foydalanuvchilari orasida keng ommalashibborayotgan Google tizimi 1998 – yil sentyabrda ishga tushgan. Hozirda bu kompaniyaningqidiruv tizimlaridan tashqari yana bir qator foydali va qulay hizmatlari mavjud va ular soni ortibbormoqda.

Darhaqiqat, hozirda nafaqat Internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shukabi jahonaro rivojlanib keayotgan turli – tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobiyta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomondan quvonarli bo'lsa – da, ikkinchi tomondan ularniturli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi. Bugungikunda xarbiy hizmatchilar radio–televideniye, matbuot Internet kabi vositalar orqali rang barangaxborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jaxon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shundaybir sharoitda xarbiylarimiz ongini o'rab – chirmab, uni o'qima, buni ko'rma deb bir tomonlamatarbiya berish, ularning atrofini temir

devor bilan orab olish hech shubhasiz zamonning talabigaham bizningezgu maqsad muddaolarimizga xam to'g'ri kelmaydi. Nega deganda biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.Binobarin, biz davlatimiz kelajagi o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balkiumumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Bizistiqbolimiznitaraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish inson huquqi va erkinliklarini fikrlar rang – barangligini o'zhayotimizda yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli xalqaro hamjamiyatbilan tinch – totuv, erkin va farovon hayot kechirish o'zaro manfaatli xamkorlik qilishtarafdorimiz.

Xozirgi zamon axborottizimi uning, juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytishmumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umumiy manfaatva umumiy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini

yaratish, uning moxiyati vaunsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda. Ana shu hayotiy extiyojdan kelib chiqibaxborot sohasida milliy xavfsizliknita'minlash tizimini yaratishning quydagi usullarini qo'llash madaniyatini zarur deb hisoblaymiz:

**Birinchidan,** sotsiologik yo'nalish. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotining axborotini ijtimoiy voqelik sifatidagi rolidan kelib chiqib, jamiyatda shakillanayotgan ijtimoiy ong yo'nalishlari ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o'rganishni yo'lga qo'yish kerak. Aholi turli qatlamlari, qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikirlash tarzini aniqlab borish zarur.

**Ikkinchidan,** statistik yo'nalish. Ko'p millatli mamlakatda, hususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonda millatlararo va dinlararo mojorolarni turli siyosiy

manfaatlar va buzg'unchi g'oyalar tasirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar manbalarini o'rganib borish, bu borada aniq hisob – kitoblarga tahliliy yechimlarga ega bo'lish.

**Uchinchidan,** siyosiy konfiktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg'unchi g'oyalar inson ongi va tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojorolar kelib chiqish mumkin bo'lgan manbalarni o'rganish, omillarini aniqlash hamda siyosiy qarashlari, ruhiyati, ijtimoiy – siyosiy psixologik izchil ravishda o'rganib borilmog'i lozim.

**To'rtinchidan,** mantiqiy tizimiy va funksional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot psixologik ta'sir axborot siyosati tizimi va vositasining muxim qismi sifatida baxolashi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy – taxliliy nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta'sirida shakillanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtai nazaridan izchil o'rganilmog'i lozim. Beshinchidan, axborot tizimida milliy istiqlol g'oyasining ustuvorligi. Har qanday fuqoro axborot bazasidan "maxsulot" tanlash jarayonida uning qalbida, ruxiyatida, kayfiyatida, fe'l atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi hatti – xarakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini ta'minlash. Albatta, O'zbeksiton mustaqillikning o`tgan davri mobaynida ommaviy axborot komunikatsiyasi soxasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo har bir fuqaroning so'z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlangan. Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi bir qator qonunlar yaratildi va amalda qo'llanilmoqda. Mustaqil nashrlar soni keskin ko'paydi. Bularning hammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o'ziga xos taraqqiyotidan dalolat beradi.

Yana shuni takidlash lozimki, Internet vositalaridan o'rin olgan jamiki axborot va ma'lumotlarning hammasi ham real haqqoniy emasligi ayni paytda ayon bo'lmoqda. Bundan kelib chiqib aytish joizki, olinayotgan dalillarning qay darajada to'g'riligini ongli ravishda mushohada etish maqsadga muvofiqdir.

Shundagina Internet orqali egallayotgan bilimlarimiz hayotimizda ijobiy samara berishiga ishonch xosil qilish mumkin.Muxtasarqilib aytganda, harbiy xizmatchilarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat – ehtirom tuyg'usini har doim shakillantirishimiz zarur. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi glaballashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

**Nazorat savollari.**

1. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta`sir muammolari.
2. Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi.
3. Axborot almashinuvining mexanizmlari v ava ilmiy nazariy asoslari.
4. Muloqot olamida muloqot, sevgi va nikoh munosabatlari.

## 11-Mavzu. Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy taxdidlar

Reja:

1. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo'naltirilgan psixologik, diniy va madaniy tahdidlar.
2. Axborot tizimida "falsifikatsiya metodi" (feyk)dan foydalanish.
3. Ko'pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglik g'oyalariga tajovuz va tahdidlar.
4. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash.

**Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi va tasnifi.** Axborotning shaxs va jamiyatga yo'naltirilganligi. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo'naltirilgan psixologik, diniy va madaniy taxdidlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar. Axborot tizimida "falsifikatsiya metodi" (feyk)dan foydalanish. Axborot

manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatini takomili. Koʻpmillatli jamiyatda tolerantlik, bagʻrikenglik gʻoyalariga tajovuz va taxdidlar. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining regulyativ funkцiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, mezo, makro darajalari. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalari. Xavfsizlik tushunchasi bevosita shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik, biologik tizimlarida normal faoliyat yuritishini kafolatlovchi tushunchadir. Ijtimoiy tuzilmaning, ya’ni, yaxlit jamiyatning xavfsizligi odamlar hayot tarzining sifatini, uning davomiyligini belgilovchi muhim mezondir.

Bu oʻrinda fanda bevosita xavfsizlik tushunchasiga yaqin ishlatiladigan bir qator tushunchalarga izoh berish joizdir. Ijtimoiy xavfsizlik – jamiyatda mavjud boʻlgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni ta’minlash organlari, davlat muassalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istaklari, maqsad-muddaolarini amalga oshirishlariga imkon berish bilan bogʻliq vazifalarini oʻz ichiga oladi. Bunda ayrim-alohida tabaqa yoki aholi qatlamining manfaatlari, ya’ni, ularning yaxshi yashashlari, uzoq umr koʻrishlari, bir xududdan ikkinchisiga koʻchib oʻtishiga aloqador xavfsizlik nazarda tutilmaydi. Milliy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat, iqtisodiyot va davlatchilikning barqaror taraqqiyot etishi uchun xavf solishi mumkin boʻlgan har qanday tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar tizimini bildiradi. Milliy xavfsizlik tashqi va ichki xavflardan yaxlit jamiyatni muhofaza qilishni nazarda tutadi. Tashqi xavfsizlik – ikki bosqichni nazarda tutadi: umuminsoniy yoki global xarakterli va davlatlararo xavfsizlik masalalari. Tashqi xavfsizlik tahlil etilganda avvalo ekologik, harbiy, radiatsion, epidimiologik, kriminal-jinoiy, biologik va madaniy-ahloqiy (ekspansiyalar) turdagi xavflarni oldini olish nazarda tutiladi.

Ichki xavfsizlik esa mamlakat doirasida inson konstuitutsion xuquq va kafolatlariga aloqador boʻlgan iqtisodiy diversiyalarning oldini olish va ularga yoʻl

qo‘ymaslikka bog‘liq bo‘lgan maxsus choralarni, terroristik xurujlarning oldini olish va ularnii vaqtida bartaraf etish, kelib chiqishi bo‘yicha ijtimoiy, tabiiy, biologik hamda texnik asosli tahdidlardan jamiyat a’zolarini himoya qilishni nazarda tutadi. Oxirgi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining keskin rivojlanib ketayotganligi, Internet tizimning barcha davlatlar, madaniy xududlar, barcha yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib borayotganligi munosabati bilan xavfsizlikning o‘ziga yana bir turi axborot xavfsizligi paydo bo‘ldi. Axborot xavfsizligi – aslida jamiyatning ob’ektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo‘lishi uchun yaratilayotgan shartsharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali aholiga etib keladigan ma’lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo‘lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak.. Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo‘layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bo‘lavermaydi va jamiyat o‘z a’zolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo‘ladi.

**Axborot xavfsizligining vazifalari:**

1) shaxs va jamiyatning axborot qabul qilish va undan foydalanishga bo‘lgan huquqini ta’minlash;

2) xolis axborotlar makonini ta’minlash (mustaqil OAV tizimini yaratish orqali);

3) informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni bartaraf etish yo‘li bilan ushbu yo‘nalishda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan terroristik tahdidlar, jumladan, telefon orqali, kompyuter tizimi orqali ro‘y beradigan xavflarni, shu orqali noqonuniy mablag‘larning bir manbadan ikkinchisiga oqim ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;

4) shaxsni, tashkilot va yaxlit jamiyatni axborot-psixologik tahdidlardan himoya

qilish;

5) imidjni shakllantirish, turli bo‘hton, mish-mishlar va noo‘rin xabarlarga qarshi kurashish.

Axborot xurujlari turlicha bo‘lgani uchun unga nisbatan xavfsizlik choralarini ko‘rish ham turli sohalarda (siyosat, iqtisodiyot, mudofaa) va turli jabhalarda (davlat miqyosida, xududiy, tashkilish, shaxsiy) amalga oshiriladi. Ya’ni, davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta’minlashga aloqador bo‘lgan ishlar muayyan bir tashkilot doirasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligidan farq qiladi. Birinchisiga gap milliy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risida ketsa, ikkinchi xolatda tashkilotdagi muayyan ijtimoiy guruhlararo axborot almashinuvida bo‘hton, to‘xmat, mish-mishlar tarqatishga bog‘liq bo‘lgan salbiy xolatlar nazarda tutiladi. Lekin ikkala xolat ham axborot xurujlariga odamlarning normal faoliyatlari uchun xalaqit beruvchi omil sifatida qaraladi.

**Axborot xurujlari** – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo‘naltirilgan ta’sir bo‘lib, uning asl maqsadi o‘sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarning g‘arazli niyatlaridan kelib chiqadi. Tezkor tapaqqiyot odatiy tamoyillar katori vaqt va makonmutanosibligiga xam o‘z ta’sirini ko‘rsatmokda. Barcha faoliyatjarayonlarida yangicha yondashuv va rivojlanish strategiyalariningshakllanishi insonlar va mintaqalarning yakkalikdan yaxlitlikka yuzburishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida "odamlarni ma’lum birmanfaatlarga xizmat kiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan,turli ma’no-mazmundagi axborot bosimlarining doimiy ta’siri ostidayashashga majbur qilmoqda. Bugungi kunda axborot juda keng tarqalgan bo‘lib, har taraflama rangbarang ma’nolarda tushuniladi. U ishtirok etmagan bilim sohasini topish qiyin.

XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho‘kkisiga etgan asr xisoblanadi. Shuning uchun xam XXI asrni axborot asri deb ta’kidlashmokda.

Axborotga quyidagicha ta’rif berish mumkin - axborot manbalari va takdim etilish shaklidan kat’i nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, vokealar,xodisalar va jarayonlar to‘g‘pisidagi ma’lumotlar majmuidir. Jahon tajribasidan ma’lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi jamiyat va davlatning xamma jabxalarini, jumladan, odamlarning dunyokarashini va ularning mexnat, ijtimoiy va siyosiy xayotda ishtirok etishi shartlarini uzgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi. Tig‘iz axborotlashgan jamiyatda "shaxs-jamiyat-davlat" alokadorligi, ularning o‘zaro uzviyligi va yaxlitligini ta’minlash bir muncha kiyinlashadi. Chunki axborot okimi tezlashgan va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyokarashining keskin uzgarishiga sabab bulmoqda. 23 Bugungi kunda, rivojlangan texnika davrida turli xil ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali tez va oson topishmumkin.

Jumladan, buzg‘ynchilik, tajovuzkorlik, noaxlokiy xulqni shakllantiruvchi ma’lumotlar ham anchagina. Ayniqsa, bunday manbalar o‘sib kelayotgan yosh avlodlar ongiga ta’sir ko‘rsatayotganligi juda achinarli xoldir. Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot, psixologik xurujdan ishonchli saqlash, qat’iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi. Har bir yangi axborot-psixologik mojaro himoya kilinayotgan jamiyat uchun yangi taxdidlarni keltirib chikarishi xam mumkin. Demak, taxdid kancha ko‘p bo‘lsa, xadik va ishonchsizlik shuncha ko‘payadi. Ana shunday ma’naviy, ruxiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chikib, jamiyat kayfiyatini muvofiklashtirib, yo‘naltirib, boshkarib turishi muxim axamiyat kasb etadi. Axborot-psixologik xavfsizlik bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o‘zini o‘zi tushunishi va fukarolararo munosabatlarni yuksak ma’naviy-ma’rifiy mezonlar asosida shakllantirish, axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruxini, yaratuvchilik kobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo qiladi. Hozirgi kun jamiyatni boshqarish, zamon

me’yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta’minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zaruriyatini paydo qiladi.

Jumladan, siyosiy-xykuqiy, tashkiliyiktisodiy, ijtimoiy psixologik va axborot tizimini boshkarish kabi kator, bir-biriga uzviybog‘liq, bulgan yo‘nalishlarda boshkaruvning eng makbul uslubini topish,bevosita xokimiyat va unga ishonch, jamiyat va davlat tarakkiyotinita’minlashda fukarolar yakdilligi, ma’naviy va g‘oyaviy jixatdanbirligini ta’minlashni takozo etadi. Ommaviy axborot vositalari ta’siridagi buzrynchi yoki ongni zararlovchi g‘oyalarning oldini olish fakat yosh avlodning ta’lim tarbiyasiga e’tiborni kengaytirish va to‘g‘pi tashkil etish xamda sifatlita’sirni kuchaytirishdan iborat. Bunda, albatta, pedagoglar,psixologlar, jamoatchilik, ota-ona kabi bolaga ma’sul shaxslarningbilim saviyasi va xayotiy tajribalari ayniqsa axamiyatlidir. Ommaviy axborot tizimi ayni paytda ochiq axborot tizimi xisoblanadi. Chunki dunyo miqyosida axborot tarqatishni ma’lumdavlatdan yoki bir joydan turib, nazorat qilib, tartibga solib bo‘lmaydi. Shuning uchun xam bu tizim ochiq ommaviy axborot tizimi debnomlanadi. Ochiq axborot tizimi deganda axborot vositalari va undaberilayotgan axborotlarning oshkoraligi, dunyo axborot maydonida axborot almashinuv jarayonining jamiyat extiyoji sifatida namoyon bo‘lishi va axborotlarning shaxs xayoti-faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borishi jarayoni tushuniladi.

Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bulgan qadriyatga aylanmog‘i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish, jamiyatning psixologik xolatiga salbiy ta’sir etuvchi ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zuravonlik va urushni targ‘ib etuvchi pornografiya, maishiy buzg‘unlik, shaxslar mavqei, obrusi va sha’niga salbiy ta’sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog‘liq bulgan, sog‘lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma’naviy-ruxiy me’yorlarni vujudgakeltirish muxim axamiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmi tezkor,

keng kulamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri, xayotningdeyarli barcha jabxalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jaxon rivojigata’sir kursatgan va kursatayotgan omili sifatida e’tirof etilmoqda. E’tiborli jixati, mamlakat ichida va tashqi dunyoda faol axborot almashinuviga odamlar extiyoji juda ortib bormoqda.

Axborot soxasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potensiali va imkoniyatlarining usishi, jamoatchilik va davlat xayotidagi turli xil yo‘nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi - XXI asrdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muxim omillardan biri bulishiga asosdir. Bugungi kunda kundalik xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot karama-karshiligi", "axborot bosimi" kabi tushunchalar kupishlatilayotganligi axolini axborot xurujidan ximoyalash bo‘yicha choralar kurish muximligini yanada oshiradi. Ushbu muammoning dolzarbligi yana shundaki, xozirda odamlar (shaxs, ijtimoiy gurux, jamiyat) ongi shakllanishida ma’lum darajada ommaviy axborot voqealarining faoliyati va axborot resurslarining ta’siridadir. Shuning uchun, ayniqsa ochiq axborot tizimi sharoitida shaxs, jamiyat va davlatning axborot, axborotpsixologik xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni xal qilishning axamiyati yanada oshadi. Ayni vaqdta, axborot tizimi imkoniyatlarini milliy manfaatlarni ximoyalash va 25 rivojlantirish, shuningdek, global axborot makonida davlatning manfaatlarini amalga oshirish uchun kulay sharoit yaratish yulida foydalanish juda muxim xisoblanadi.

Axborot-psixologik xavfsizlik deb - individual, guruhiy psixologik va omma psixologiyasiga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, ekologik va boshqa sohalariga qaratilgan turli darajalardagi salbiy ta’sir o‘tkazishlardan himoyalanganlik holatini tushunish lozim. Bunda axborot-psixologik tahdidlardan himoyalash asosiy maqsad qilib olinishi hamda maqsadga yo‘naltirilganligi bo‘yicha ularni tabaqalashtirish mumkin:

- ijtimoiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;

- iqtisodiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- siyosiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- ma’naviy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- fan va texnika sohalaridagi axborot-psixologik tahdidlar;
- harbiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- xavfsizlik sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- ekologiya sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- ta’lim-tarbiya sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- tibbiyot sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- madaniyat sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- oziq-ovqat sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- boshqaruv sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar va b.

**Diniy tahdid va ularning kelib chiqish.** Din – jamiyatdagi shaxs munosabatlarini tartibga solib turuvchi, inson ichki dunyosini shakllantirishning eng ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda ijtimoiy ong shakli hisoblangan bu tushunchadan turli maqsadlar yo‘lida foydalanish ortib bormoqdaki, natijada inson omiliga qarshi kurashda din birlamchi vosita bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda diniy tahdid bu – diniy g‘oya va mafkuralar bilan niqoblangan yovuz niyatli kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi demakdir. Bu jrayonda asosiy ob’yekt inson ongi hisoblanib, unga ta’sir etish yo‘nalishlari turli tumandir. Bugungi kunda dunyoda mohiyati va udumlar shakliga ko‘ra turli ko‘rinishdagi diniy qarashlar mavjud bo‘lib, ularning umumiy soni ikki yuzga yaqindir. Ular bir xudoli va ko‘p xudoli, urug‘-qabilaviy, milliy va jahon dinlari bo‘lishi mumkin.

Ammo asosiy masala, ularning sonida emas balki e’tiqodiy bo‘linishida bo‘lib qolmoqda. Aynan mana shu bo‘linish sabab turli-xil ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yuzaga kelib, inson ruhiyatiga sokinlik, xotirjamlik, ma’naviy madad berish uchun asrlar osha shakllanib kelgan «din» – azob beruvchi, ma’naviy qashshoqlik sari

harakatlantiruvchi vosita bo‘lib qolmoqda. Savol: insonni ma’naviy kamolot sari etaklovchi, uning qalbida yaxshi va yomon (savob va gunoh, halol va harom) tushunchalarini uyg‘otish uchun asrlar osha shakllanib kelgan bu fenomenga nisbatan bunday (salbiy) tamg‘alarning bosilishiga kim yoki nima sabab bo‘lmoqda? Albatta javoblar turli tuman bo‘lishi tabiiy, ammo quyida asosiy sabablarni keltirib o‘tamiz:

**Birinchidan,** diniy qarashlar o‘rtasidagi bo‘linishning kelib chiqishi. Umuman, har qanday dinda bo‘linish sabablari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli jarayonlar ta’sirida paydo bo‘ladi. Masalan, diniy aqidalarning barqarorligi yoki kam o‘zgaruvchanligi sababli diniy aqida va jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot (inson dunyoqarashidagi o‘zgarish) o‘rtasidagi tafovut sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, diniy ta’limotning turli millatlar va elatlarning madaniyati, urf-odatlari va an’analariga moslashishi natijasida diniy ta’limotga bo‘lgan munosabat jarayonida ham bo‘linish yuzaga keladi. Natijada turli-xil kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi yuzaga kelib, jamiyatning faol sub’yekti hisoblangan inson va uning qalbi zarar ko‘radi.

**Ikkinchidan,** diniy e’tiqodning siyosiylashuvi. O‘rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimir shunday degan edi: «Din – samoviy ishdir, siyosat – dunyoviy ishdir, din peshvolarining siyosatga aralashishlari kerak emas, ular ta’lim-tarbiya berishlari lozim» Afsuski o‘z vakolati va darajasidan foydalanib, din sofligiga rahna solinishiga sababchi bo‘layotgan «peshvolar» ham topilmoqdaki, ularning faoliyati jamiyat va inson tadrijiyligiga faqat va faqat zarar keltirmoqda. Natijada ular orasidan etishib chiqqan ayrim etakchilar fikricha dinning siyosat va siyosiy hayotga betarafligi butunlay nojoizdir, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan diniy mafkurani ishlab chiqish, ijtimoiy hayotda din ustuvorligini ta’minlash eng to‘g‘ri yo‘ldir. Ming afsuski bunday qarashlar tarafdorlari hozirgi davrda turli yo‘nalishlardan inson ongiga ta’sir etib, nafaqat inson, balki jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy tahdid solmoqda.

**Uchinchidan**, din bayrog‘i ostida iqtisodiy imkoniyatlarni ochishga harakat qilish. Aslida dinning bo‘linishi ham siyosiylashuvi ham iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, jahon dini hisoblangan buddaviylik ta’limoti jamiyatning kastalarga bo‘linishini inkor etadi. Ammo Hindistondagi ijtimoiy muhit (insonlar o‘rtasidagi tabiiy tabaqalanish) kastalarga bo‘linishni saqlab qoldi, buning natijasida buddaviylik davrida ham tabaqalanish o‘z kuchida qoldi. Mantiqan o‘ylab qarasak, bu jarayonda ham bitta asosiy sabab mavjud edi, ya’ni iqtisodiy manfaatning ustuvorligi. Hind mutafakkiri M. Gandi ham diniy qoida va an’analarga sodiq qolgan holda diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash olib borgan. Jamiyatning kastalarga bo‘linishini va ular o‘rtasidagi tengsizlikni qoralagan. Xotin-qizlarning tengligi va ularning haq-huquqi uchun kurashgan, ammo jamiyatdagi tabaqalanishni tugata olmadi. Xristianlik dini tarkibida katolik, pravoslav, protestantlik yo‘nalishlarini paydo bo‘lishida nima sabab bo‘ldi! iqtisodiy manfaat va tafovutdan boshqa sabablar ikkinchi darajali hisoblanadi.

Tarixiy fakt: o‘rta asrlarda aholi daromadning o‘ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to‘lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko‘paytirish maqsadida xizmat to‘lovlari miqdorini oshirib borish bilan birga mansabni suiste’mol qilish, tamagirlik, poraxo‘rlik kabi vositalardan foydalanar edilar. Birgina misol, indulgensiyalar (lotincha ihduigehtia – rahm-shafqat degan ma’noni anglatadi) joriy qilib, uni sotishni keng yo‘lga qo‘yish asnosida katta iqtisod qilganlar. Islom dinidagi ilk bo‘linish ham moddiy manfaatdorlikdan boshqa narsa emas. Xususan, VII asrning o‘rtalarida turli guruhlarning siyosiy hokimiyat uchun o‘zaro kurashlari natijasida paydo bo‘lgan bo‘linish zamirida ma’naviy barkamollikni saqlab qolish emas balki, hukmronlikka erishish asnosida iqtisod qilish yotganligi oddiy haqiqat. To‘rtinchidan, diniy e’tiqoddagi uzilish va sun’iy tarzda yondashuvning avj olishi. Tarixdan bizga ma’lumki, Sharq mamlakatlarida so‘ngi ming yillik mustamlakachilik siyosati ta’sirida o‘tdi. Buning natijasida insonlar e’tiqodida tom ma’nodagi emirilish yuzaga keldi. Xususan, XX asrda dunyoning ikki tizimga bo‘linishi tufayli yuqoridagi muammolar (diniy e’tiqoddagi bo‘linish, turli

manfaatlarni siyosiy-iqtisodiy tus olishi) bir oz (vaqtinchalik) ortga surildi. Ammo XX asrning oxirida kommunistik tuzum va mafkuraning mag‘lubiyati sababli oldingi muammolar yana qalqib chiqa boshladi.

Ya’ni industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning avj olishi natijasida mazkur muammolar turli ko‘rinishlarda, xususan din sohasida o‘ta keskin tus oldi. Buning oqibatida hech bir diniy qarashlarga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlar (guruhlar)ni yuzaga kelishida zamin yaratildi. Bular qatoriga diniy ekstremizm, ekstremistik ruhdagi diniy oqimlar o‘ta jangarilik, murosasizlik g‘oyalari bilan qurollangan, dunyoviy g‘oyalar va dindagi modernistik yo‘nalish tarafdorlarini ta’qib etuvchi, hatto terrorchilik vositasida jismonan yo‘q qilishgacha boruvchi ashaddiy Din – jamiyatdagi shaxs munosabatlarini tartibga solib turuvchi, inson ichki dunyosini shakllantirishning eng ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda ijtimoiy ong shakli hisoblangan bu tushunchadan turli maqsadlar yo‘lida foydalanish ortib bormoqdaki, natijada inson omiliga qarshi kurashda din birlamchi vosita bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda diniy tahdid bu – diniy g‘oya va mafkuralar bilan niqoblangan yovuz niyatli kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi demakdir. Bu jarayonda asosiy ob’yekt inson ongi hisoblanib, unga ta’sir etish yo‘nalishlari turli tumandir. Bugungi kunda dunyoda mohiyati va udumlar shakliga ko‘ra turli ko‘rinishdagi diniy qarashlar mavjud bo‘lib, ularning umumiy soni ikki yuzga yaqindir. Ular bir xudoli va ko‘p xudoli, urug‘-qabilaviy, milliy va jahon dinlari bo‘lishi mumkin.

Ammo asosiy masala, ularning sonida emas balki e’tiqodiy bo‘linishida bo‘lib qolmoqda. Aynan mana shu bo‘linish sabab turli-xil ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yuzaga kelib, inson ruhiyatiga sokinlik, xotirjamlik, ma’naviy madad berish uchun asrlar osha shakllanib kelgan «din» – azob beruvchi, ma’naviy qashshoqlik sari harakatlantiruvchi vosita bo‘lib qolmoqda. Savol: insonni ma’naviy kamolot sari etaklovchi, uning qalbida yaxshi va yomon (savob va gunoh, halol va harom) tushunchalarini uyg‘otish uchun asrlar osha shakllanib kelgan bu fenomenga nisbatan

bunday (salbiy) tamg‘alarning bosilishiga kim yoki nima sabab bo‘lmoqda? Albatta javoblar turli tuman bo‘lishi tabiiy, ammo quyida asosiy sabablarni keltirib o‘tamiz:

**Birinchidan,** diniy qarashlar o‘rtasidagi bo‘linishning kelib chiqishi. Umuman, har qanday dinda bo‘linish sabablari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli jarayonlar ta’sirida paydo bo‘ladi. Masalan, diniy aqidalarning barqarorligi yoki kam o‘zgaruvchanligi sababli diniy aqida va jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot (inson dunyoqarashidagi o‘zgarish) o‘rtasidagi tafovut sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, diniy ta’limotning turli millatlar va elatlarning madaniyati, urf-odatlari va an’analariga moslashishi natijasida diniy ta’limotga bo‘lgan munosabat jarayonida ham bo‘linish yuzaga keladi. Natijada turli-xil kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi yuzaga kelib, jamiyatning faol sub’yekti hisoblangan inson va uning qalbi zarar ko‘radi.

**Ikkinchidan,** diniy e’tiqodning siyosiylashuvi. O‘rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimir shunday degan edi: «Din – samoviy ishdir, siyosat – dunyoviy ishdir, din peshvolarining siyosatga aralashishlari kerak emas, ular ta’lim-tarbiya berishlari lozim»1. Afsuski o‘z vakolati va darajasidan foydalanib, din sofligiga rahna solinishiga sababchi bo‘layotgan «peshvolar» ham topilmoqdaki, ularning faoliyati jamiyat va inson tadrijiyligiga faqat va faqat zarar keltirmoqda. Natijada ular orasidan etishib chiqqan ayrim etakchilar fikricha dinning siyosat va siyosiy hayotga betarafligi butunlay nojoizdir, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan diniy mafkurani ishlab chiqish, ijtimoiy hayotda din ustuvorligini ta’minlash eng to‘g‘ri yo‘ldir. Ming afsuski bunday qarashlar tarafdorlari hozirgi davrda turli yo‘nalishlardan inson ongiga ta’sir etib, nafaqat inson, balki jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy tahdid solmoqda.

**Uchinchidan,** din bayrog‘i ostida iqtisodiy imkoniyatlarni ochishga harakat qilish. Aslida dinning bo‘linishi ham siyosiylashuvi ham iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

**Masalan,** jahon dini hisoblangan buddaviylik ta’limoti jamiyatning kastalarga bo‘linishini inkor etadi. Ammo Hindistondagi ijtimoiy muhit (insonlar o‘rtasidagi tabiiy tabaqalanish) kastalarga bo‘linishni saqlab qoldi, buning natijasida buddaviylik

davrida ham tabaqalanish o‘z kuchida qoldi. Mantiqan o‘ylab qarasak, bu jarayonda ham bitta asosiy sabab mavjud edi, ya’ni iqtisodiy manfaatning ustuvorligi.

**Hind mutafakkiri M. Gandi** ham diniy qoida va an’analarga sodiq qolgan holda diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash olib borgan. Jamiyatning kastalarga bo‘linishini va ular o‘rtasidagi tengsizlikni qoralagan. Xotin-qizlarning tengligi va ularning haq-huquqi uchun kurashgan, ammo jamiyatdagi tabaqalanishni tugata olmadi.

**Xristianlik dini** tarkibida katolik, pravoslav, protestantlik yo‘nalishlarini paydo bo‘lishida nima sabab bo‘ldi! iqtisodiy manfaat va tafovutdan boshqa sabablar ikkinchi darajali hisoblanadi. Tarixiy fakt: o‘rta asrlarda aholi daromadning o‘ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to‘lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko‘paytirish maqsadida xizmat to‘lovlari miqdorini oshirib borish bilan birga mansabni suiste’mol qilish, tamagirlik, poraxo‘rlik kabi vositalardan foydalanar edilar. Birgina misol, indulgensiyalar (lotincha ihduigehtia – rahm-shafqat degan ma’noni anglatadi) joriy qilib, uni sotishni keng yo‘lga qo‘yish asnosida katta iqtisod qilganlar.

**Islom dinidagi** ilk bo‘linish ham moddiy manfaatdorlikdan boshqa narsa emas. Xususan, VII asrning o‘rtalarida turli guruhlarning siyosiy hokimiyat uchun o‘zaro kurashlari natijasida paydo bo‘lgan bo‘linish zamirida ma’naviy barkamollikni saqlab qolish emas balki, hukmronlikka erishish asnosida iqtisod qilish yotganligi oddiy haqiqat. To‘rtinchidan, diniy e’tiqoddagi uzilish va sun’iy tarzda yondashuvning avj olishi. Tarixdan bizga ma’lumki, sharq mamlakatlarida so‘ngi ming yillik mustamlakachilik siyosati ta’sirida o‘tdi. Buning natijasida insonlar e’tiqodida tom ma’nodagi emirilish yuzaga keldi. Xususan, XX asrda dunyoning ikki tizimga bo‘linishi tufayli yuqoridagi muammolar (diniy e’tiqoddagi bo‘linish, turli manfaatlarni siyosiy-iqtisodiy tus olishi) bir oz (vaqtinchalik) ortga surildi. Ammo XX asrning oxirida kommunistik tuzum va mafkuraning mag‘lubiyati sababli oldingi muammolar yana qalqib chiqa boshladi. Ya’ni industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning avj olishi natijasida mazkur muammolar turli ko‘rinishlarda, xususan din sohasida o‘ta keskin tus oldi.

Buning oqibatida hech bir diniy qarashlarga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlar (guruhlar)ni yuzaga kelishida zamin yaratildi. Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga etdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat etakchi o‘ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki «fikrga qarshi faqat fikr, g‘oyaga qarshi faqat g‘oya» bilan kurashib olg‘a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g‘oyasi kuchli bo‘lsa, o‘sha engib chiqadi.

Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda. Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiyiqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan g‘oya bilan egallashlari ya’ni buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g‘oyalarini singdirish kabi g‘arazli maqsadlari xalqqa ayon bo‘lib bormoqda.

DXX rahbari — O‘zbekistonga xavf solayotgan tashqi va ichki tahdidlar haqida Davlat xavfsizlik xizmati rahbari Ixtiyor Abdullayev davlat xavfsizligiga tahdid sifatida siyosiy muxolifat, diniy erkinlikning noto‘g‘ri talqin etilishi, «zararli investitsiyalar» va boshqa omillarni sanab o‘tdi. O‘zbekiston Davlat xavfsizlik xizmati raisi Ixtiyor Abdullayev davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi tashqi va ichki omillarni sanab o‘tdi. O‘tgan payshanba kuni Oliy Majlis Senati «Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida"gi qonunni ma’qulladi. Hujjatga izoh berar ekan, Ixtiyor Abdullayev mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, davlatni himoya qilish nafaqat tashqi, balki O‘zbekistonni 2022 yilgacha rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar

strategiyasida belgilangan jamiyatning barcha sohalarida olib borilayotgan keng miqyosli islohotlar doirasida ichki tahdidlardan ham himoya qilish zarurligini qayd etdi. «Birinchidan, qo‘shni mamlakat shimolidagi „Islom davlati“, „Tolibonlar“ harakati, Turkiston islom harakati va boshqa bir qator jangari guruhlarning faollashuvi, jangovar harakatlarda qatnashgan Markaziy Osiyo davlatlaridan chiqqan jangarilarning turli mamlakatlar orqali bizga qaytib kelayotgani masalasi», — dedi u. «Ikkinchi jiddiy masala, bu — qo‘shni mamlakatlar bilan chegaralarimizning ochilishi, O‘zbekistonga kelayotgan investorlar va turistlar sonining kun sayin ortib borayotgani. shu o‘rinda turli diniy-ekstremistik ruhdagi adabiyotlar, giyohvandlik vositalari va qurol-yarog‘lar olib kirishga urinishlar ehtimoli kuchayib borayotgani ham ma’lum tahdidlarni yuzaga keltirmoqda», — deya davom ettirdi DXX rahbari.

Ixtiyor Abdullayev turli separatistik kuchlarning faollashuvi, ularning ba’zi chet el maxsus xizmatlari tomonidan moliyalashtirilayotgani, erkin e’tiqod uchun yaratilgan sharoitlar, diniy sohada berilgan erkinliklarni ayrim fuqarolarimiz tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinayotgani oqibatida diniy aqidaparastlikning kuchayib borayotganini ta’kidlab o‘tdi. «Xabarlaringiz bor, ayrim hududlarda ayrim fuqarolarimiz tomonidan salafiylik diniy harakati oqimiga kirib qolayotgani, soqol qo‘yishni o‘zga odat qilib olish holatlarining ko‘payishi, shu bilan birga ayrim fuqarolarimiz tomonidan farzandlarini turli xujralarda o‘qitayotganlik holatlari aniqlanayotgani, bundan tashqari, shunday holatlar ham aniqlanayaptiki, ayrim fuqarolarimiz o‘rta ta’lim maktablar, litseylar rahbariyatiga bevosita murojaat qilib, farzandlarini, ya’ni o‘g‘il bolalar va qizlarni alohida o‘qitish uchun sharoit yaratish to‘g‘risida talablar qo‘yayotgani, bu — fuqarolarimizni yaratilayotgan sharoitlarni noto‘g‘ri talqin qilayotgani holatlari vujudga kelayotganidan dalolat beradi», — dedi u. O‘zini siyosiy muxolifat deb ataydigan buzg‘unchi siyosiy kuchlarning faollashuvi kuzatilmoqda, dedi Davlat xavfsizlik xizmati rahbari. «Bizda ma’lumotlar bor, internet tarmoqlarida ham „Birlik“, „Erk“ nodavlat siyosiy muxolifat vakillarining partiya tashkil etish bo‘yicha Adliya vazirligiga murojaat etishgan.

Ularning eng asosiy rejasi bugun o‘zining faoliyatini qonuniylashtirish, ertaga esa mamlakatimizdagi tinchlikni izdan chiqarish», — dedi Ixtiyor Abdullayev. Davlat xavfsizlik xizmati raisi boshqa respublikalarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbekistonlik mehnat migrantlari, ularning maxsus xizmatlar va diniy ekstremistik guruhlar tomonidan o‘z rejalarini amalga oshirishga jalb etilayotgani masalasiga ham to‘xtalib o‘tdi. Ixtiyor Abdullayev qator mamlakatlarda «rangli inqiloblar"ni amalga oshirgan xalqaro tashkilotlarning qo‘shni mamlakatlardagi faoliyatining faollashuvi masalasiga diqqat qaratdi. «Xorijiy hamkorlar tomonidan O‘zbekiston uchun zararli va foydasiz investitsion loyihalarni o‘tkazishga harakatlar ham e’tiborimizdan chetda qolmasligi kerak, chunki bu kelgusida iqtisodiyotimizga juda katta zarar keltirish ehtimoli bor», — dedi u. Shu va yana bir qator jiddiy tahdidlar Davlat xavfsizlik xizmati tizimini tubdan takomillashtirishni talab etdi, deya ta’kidladi Ixtiyor Abdullayev. «25 yil davomida mazkur idora faoliyati qonun darajasida tartibga solinmadi. Bu esa o‘z navbatida yetarli muammolarni keltirib chiqardi», — dedi u.

Yangi qonun bilan Davlat xavfsizlik xizmati O‘zbekistonning konstitutsion tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini himoya qiluvchi maxsus vakolatli organ etib belgilandi. DXX bevosita mamlakat prezidentiga bo‘ysunadi va hisob beradi. 2015 yildan O‘zbekiston bosh prokurori lavozimida ishlab kelgan Ixtiyor Abdullayev yanvar oxirida Davlat xavfsizlik xizmati raisi etib tayinlandi. Mart o‘rtasida prezident Shavkat Mirziyoyev Milliy xavfsizlik xizmatini Davlat xavfsizlik xizmati etib qayta tashkil etish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi.

## Ma’naviy tahdid” tushunchasi: yondashuvlar va talqinlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar.

Mafkuraviy tahdid – jamiyat, davlat, yoki xalq, millat, elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmui. Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o‘z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo‘rqituv, zo‘rlik yo‘li bilan boshqalarga singdirishi. Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo‘lgan turli xil noan’anaviy tahdidlar yuzaga

kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy tahdidlar hisoblanadi. Masalan, keyingi yillarda ko‘plab namoyish etilayotgan jangarilik filmlarini olaylik. Bu filmlarni ko‘pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko‘radi, chunki odamzod tabiatan mana shunday to‘polonlarni tomosha qilishga moyil. Aslida, menining nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch- bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o‘zaro kurashadi.

Afsus bilan ta’kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko‘ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya’ni hatti-harakatlarini qo‘zg‘atib yuborish osonroq. Shuning uchun ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko‘pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlikni o‘rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag‘irlik, zo‘ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o‘zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki ular bunday uydirma talqinlar ta’sirida qo‘l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib etmaydi”. Darhaqiqat, bugun olimlarimiz tomonidan bunday tahdidlarning millat va jamiyat taraqqiyoti uchun, ma’naviy parokandalikni keltirib chiqarishga qaratilgan zararlari ilmiy asosini topib bormoqda. Prezidentmizning fikri naqadar to‘g‘ri ekanligi-ni olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan quyidagi ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Bundan etti – sakkiz yil ilgari AQShning Kolorado shtatiga qarashli shaharchada ikki nafar o‘quvchi sinfdoshini otib o‘ldirgani, oxiri o‘zlarining joniga qasd qilgani haqidagi shov-shuv dunyoga tarqaladi.

Kompyuterdagi mashhur “DOOM” o‘yinidan ta’sirlangan bolalar ana shunday mudhish qotillik sodir etdilar. Bugungi kunda “Ma’naviy tahdid” tushunchasi keng ishlatilmoqda. Ba’zida bu tushunchaning ma’nosini anglash qiyin kechmoqda. Ma’naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar,

tuyg‘ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki “Tahdid” so‘zi xavfxatar, xuruj va buzish ma’nolarini anglatadi. Shu ma’noda ma’naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi. Yangi jamiyat barpo etish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda turli mazmunda, turli maqsadda, turli shaklda munosabatlar paydo bo‘ladi.. O‘zbekiston uchun ham shunday rang-barang munosabatlar davom etmoqda. Ayniqsa, chetdan turib ongli va maqsadli ravishda uyushtirilayotgan ma’naviy tahdidlar bunday munosabatlarning asosini tashkil qilmoqda. Bugungi kunda ma’naviy tahdidlar bir necha xil ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, ma’naviy tahdidlar tili, dini va e’tiqodidan qat’iy nazar har bir insonga qaratilgan. Bundan maqsad, birinchidan, shaxsning ma’naviy-axloqiy olamini buzish; ikkinchidan, o‘z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg‘otish; uchinchidan, milliy axloqiy qadriyatlarni aynitish; to‘rtinchidan, o‘zgalar jamiyatini ideal deb bilish ko‘nikmasini hosil qilish; beshinchidan, zararli odatlarga xuruj qo‘yish.

Diqqat qilsak ma’naviy tahdidlarning barcha turi nosog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liqligiga va u mafkuraviy nuqtai nazardan eng xavfli omil ekanligiga amin bo‘lamiz. Chunki uning negizini shaxs tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan zararli g‘oya tashkil etadi. S.M. Yo‘ldosheva tadqiqotlariga ko‘ra, ma’naviy tahdidlar bir necha ko‘rinishdan iborat bo‘lib, birinchi ko‘rinish mafkuraviy xurujlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e’tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozitsiyasini o‘zgartirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri fikrlash, mutaassibona dunyoqarash va zararli hayotiy pozitsiya shaxsning mafkuraviy nosog‘lomligini anglatadi. Ma’naviy tahdidning ikkinchi ko‘rinish g‘oyaviy tahdiddir. Bu xuruj ham uch ma’noga ega bo‘lib, bunda asosiy e’tibor shaxs xulq-atvorini aynitish, shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishga qaratiladi.

Zararli xulqatvor, nosog‘lom axloqiy munosabat va qo‘pol muomala shaxsning xulqi zaifligidan dalolat beradi. Ma’naviy tahdidning uchinchi

ko‘rinishi informatsion xujumdir. Bunda asosiy e’tibor shaxsga noto‘g‘ri ma’lumot berish, shaxs bilimini primitlashtirish va shaxs faoliyatini zaiflashtirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lish, sayoz bilimlilik va samarasiz faoliyat shaxsning madaniy oqsoqligidan dalolatdir. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tahdidlar jamiyat kishilarini johil kimsalarga aylantiruvchi ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlaridir. Ma’naviy tahdidlarni o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: Birinchidan, ma’naviy tahdidlar nosog‘lom turmush tarzi asoratidir; Ikkinchidan, ma’naviy tahdidlar ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini ifodalaydigan sub’ektiv omillar majmuidir; Uchinchidan, ma’naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongini buzish vositasida jamiyat hayotini izdan chiqarishga, nosog‘lom turmush tarzini yoyishga yo‘naltirilgan. Nosog‘lom turmush tarzi asoratlari natijasida ma’naviy tahdidlar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: Xudpisandlik - bu illat jamoatparvarlik fazilatlariga qarshi o‘laroq, shaxs axloqiy ongida noto‘g‘ri tushuncha va qarashlarni hosil qiladi. Shu sababli xudpisand kimsalarda burch va mas’uliyat tuyg‘usi bo‘lmaydi. Bundaylar faqat bugungi kunni o‘ylab yashaydi, ertangi kunni o‘ylash, ezgulik va haqiqat uchun kurashish fazilatlaridan xoli bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ma’naviy tahdidlar quyidagi illatlarni targ‘ib qilayotgani bilan namoyon bo‘lmoqda: xudbinlik, nopoklik, nafs qutqusiga uchish, huzur-halovatga berilish, engil-yelpi umr kechirishga da’vat, giyohvandlik, mutaasiblik, tajovvuzkorlik, molu-dunyoga o‘chlik, axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, axloqsizlikni madaniyat deb bilish, va aksincha asl ma’naviy qadiryatlarni eskilik sarqiti deb qarash, loqaydlik, mahalliychilik, hasadgo‘ylik, baxllik, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik.

Bunday ma’naviy axloqiy tubanlik illatlariga qarshi shaxs axloqida eng muhim insoniy sifat va fazilatlarni shakllantirishga diqqat qilinishi kerak. Bunday sifat va fazilatlarning asosiylari quyidagilar: insoniylik, mehr-oqibatlilik, ezgulik, vatanparvarlik, haqgo‘ylik, adolatlilik, muruvatlilik, sahovatlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik, hamkorlik, totuvlik, ahillik, inoqlik, tashabbuskorlik, birodarlik va

faollik. Bular shaxsning ongi va qalbida sezgirlik, ogohlik va hushyorlik holatlarini hosil qiladi. Shu ma'noda ma'naviy tahdidlardan shaxs axloqini himoya qilish yo'lining eng samarali usuli shaxsda axloqiy immunitetni hosil qilishdir. Bunday immunitet shaxs axloqida ideal darajadagi sifat va fazilatlarni shakllantirishni taqazo etadi. Xalqimiz ma'naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy leksikonimizda nisbatan yangi kirib kelgan "Ma'naviy tahdid" tushunchasiga turlicha yondoshuvlar mavjud. Falsafa fanlari doktori G.Tulenovaning «O'zbekistonda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari" maqolasida mafkuraviy tahdidlar, jumladan terrorizm, aqidaparastlik va diniy ekstremizm ma'naviy tahdid sifatida qaralgan.

Rossiyalik tadqiqotchilarning "Rossiya ma'naviy xavfsizligi (ma'naviy xavfsizlikning dolzarb nazariy-metodologik va amaliy muammolari) nomli ilmiy – metodik qo'llanmasida ma'naviy tahdidlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Mazkur qo'llanmada hozirgi vaqtda ma'naviy xavfsizlikka etarli darajada e'tibor qaratilmayotganligi ta'kidlangan va ma'naviy tahdidlar sifatida demografik va diniy ongga ta'sir etuvchi tahdidlar tahlil qilingan. Ye.A.Boksha ma'naviy tahdidlar sifatida Rossiya oilalari turmush tarziga qaratilgan destruktiv xarakterdagi, ma'naviy qarama-qarshiliklarni kelib chiqishiga sababchi bo'luvchi jarayonlarni rivojlantiruvchi omillarga e'tibor qaratgan. Shuningdek hozirda oilalarning hayotiga qarshi qaratilgan radikal femenizm mafkurasi, gey – madaniyati – g'oyasini tarqalishi (ommalashuvi), shahvatparastlikning (erotizm) targ'iboti, Rossiya oilasida egoistik (xudbinlik) qadriyatlarining majburan qabul qilinishi, bozor ideallarining o'z navbatida ma'naviy asoslarga salbiy ta'sirini ma'naviy tahdidlar sifatida baholagan. Ma'naviy tahdidlar keng qamrovli bo'lib, mazkur yondoshuvlarda ularning u yoki bu jihatlari hisobga olingan.

**Milliy nizo turlari va taxdidlar.** XXI asr bo'sag'asida tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, u yoki bu davalatning, millatning xavfsizligi,

barqarorligi va taraqqiyoti, uning kelajagi mazkur millatga xavf solayotgan tahdidni angalab etish salohiyati va qobiliyati darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

**“Tahdid”** deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo‘naltirilgan ijtimoiy strukturani, to‘g‘rirog‘i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, emirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “kirib kelishi” tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim.

**“Tahdid”** fenomeni, uning siyosiy jihatlari sayyoramizning turli mamlakatlarida ijod qilayotgan zamondosh tahlilchilar hamda siyosiy va jamoat arboblarining e’tiborini ham o‘ziga tortib kelmoqda. Shu jumladan, Reyshauer, Nibur, Xantington, Kissinjer (AQSh), Toynbi (Angliya), Turen (Fransiya), Moiseev (Rossiya), qolaversa “Rim klubi” va Paguosh tinchlik harakati kabi ilmiy-amaliy muassasalar rahbarlari va fidoiylari faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin.

**“Tahdid” tushunchasi** to‘la ma’noda siyosiy leksikonga Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan 1994 yil 22 sentyabrda Oliy Majlis sessiyasida so‘zlagan nutqida birinchi bor kiritildi. Shunday ekan, mamlakatimizda “Tahdid” va uni barataf qilishning ilmiy va amaliy asoslarini ochib berish, ularga chuqur tahlil berish bevosita I.Karimov nomi bilan bog‘langan. Bugungi kunda bu mavzuga daxldor masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi hamda Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti jamoasi, mamlakatimiz jamiyatshunos olimlari tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

Uning mohiyati va funksional jihatlari barqarorlik, xavfsizlik, fuqaroviy hamjihatlik va taraqqiyot kabi global muammolar bilan uyg‘un holda tadqiq etilmoqda. Tahdidlar turli-tuman: ichki va tashqi, katta va kichik, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin bo‘lishi mumkin. Qanday bo‘lishidan qat’iy nazar

ularga nisbatan bamaylixotirlikka yo‘l qo‘yish yoki ularni “saralash” bilan ovora bo‘lib vaqtni boy berish hollari uchrab turadi. XX asr voqealari shundan guvohlik berib turibdiki, tahdidlarni toifalashda ularni shartli ravishda iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy – iqlimiy va ma’naviy tahdidlarga ajratib ko‘rish va tahlil etish mumkin.

**Milliy nizo turlari**

fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga;

-tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq kelib chiqadigan nizolarga;

-yakka mehnat nizolariga;

-oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga.q

**Nazorat uchun savollar.**

1. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo‘naltirilgan psixologik, diniy va madaniy tahdidlar.
2. Axborot tizimida “falsifikatsiya metodi” (feyk)dan foydalanish.
3. Ko‘pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag‘rikenglik g‘oyalariga tajovuz va tahdidlar.
4. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash.

## 12-seminar

## Mavzu:Axborot xavfsizligini ta’minlashning g‘oyaviy-nazariy asoslari (2 soat)

Reja:

1. Yoshlarda media maydon, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish.
2. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv.
3. Inkorni inkor qonuni media savodxonlik va axborot madaniyatida namoyon bo‘lishi.

4. Internet tarmog‘idagi milliy segmentlar va axborot xavfsizligining nazariy-metodologik asoslari.

Inson va jamiyat hayoti faqat tabiat qo’ynida emas, ayni paytda odamlarning o’zlari yaratgan sun’iy muhitda ham kechadi. Bu muhit esa texnika va texnologiyalardan tashkil topgan texnosfera va axborot muhitini o’z ichiga oladi. O’z navbatida, texnosfera ham, axborot muhiti ham bir qator qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi. Kishilik jamiyatining paydo bo’lishi ayni paytda axborot muhitining vujudga kelganligini ham anglatar edi. Jamiyat taraqqiyoti va axborot muhitining rivoji bir- biriga bog’lik ravishda davom etdi. XX asr boshlarida, ayniqsa, uning so’nggi choragida axborot muhitining ravnaqi shiddatli tus oldi. Bunday jadal sur’at axborot texnologiyalarida yuz bergan inqilobiy o’zgarishlar bilan bog’liq bo’ldi. Kompyuter texnologiyalarining vujudga kelishi va rivojlanishi jamiyatda aylanib yurgan axborot hajmining keskin o’sishiga olib keldi.

Taassuf bilan ta’kidlash joizki, axborot hajmining o’sishi uning tarkibidagi ijobiy, taraqqiyotga xizmat qiladigan axborotlar bilan bir katorda rivojlanishga g’ov bo’ladigan, odamlarning ongi va dunyoqarashiga buzg’unchi ta’sir o’tkazadigan axborotlar hajmi kengayishiga ham olib keldi. Jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayok vayronkor g’oyalar, mafkuraviy xurujlardan himoyalanish ehtiyoji paydo bo’ldi. Biroq XX asrning so’nggi choragi va XXI asr boshlarida bunday g’oya va axborotlarning har bir shaxs va umuman, insoniyat hayoti uchun xavfi keskin ortgani bois ulardan himoyalanish zaruriyati ham ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Buzg’unchi axborotlarning manbalari turlicha. Lekin ular orasida alohida shaxslar va guruhlar tomonidan o’zlarining g’arazli maqsadlariga erishish niyatida voqelikning buzib ko’rsatilishi asosiy o’rinni egallaydi. Bunday axborotlardan himoya tizimini yaratishda mana shu holatni hisobga olish zarur bo’ladi.

Hozirgi kunda jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va harbiy sohalari singari axborot sohasi ham birinchi darajali ahamiyatini tobora namoyon qilib bormoqda. Bunday holat quyidagi sabablar bilan bog’liq: birinchidan, kompyuter texnologiyalari vujudga kelgach, axborotning qimmati keskin oshdi va u jamiyatning

muhim iqtisodiy resursiga aylandi. Bir qator mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar aholining axborotga bo'lgan ehtiyoji jiddiy tarzda yuksalib borayotganini ko'rsatmoqda. Bunday ehtiyojga mutanosib tarzda axborot tovarlarini ishlab chiqish va axborot xizmatlarini taklif etish ham keskin ortib borayotir. Yangicha axborot mahsulotlari, yangi axborot xizmatlari, axborot sohalari, yangi-yangi ixtisosliklar va ish o'rinlari vujudga kelmoqda. Buning oqibatida, axborot yaratish va tarqatish, uni yangilash va tatbiq etish sur'atlari boshqa sohalarga nisbatan ildamroq rivojlanayapti.

Axborot bozori (kompyuterlar, telekommunikatsiyalar, dasturiy mahsulotlar, axborot xizmatlari ko'rsatish bozori) borgan sari iqtisodiyotda tobora salmoqli o'rinni egallamoqda. 2005 yilda mana shu bozordagi oldi-sotdilar hajmi uch trillion AQSh dollaridan ortib ketdi. Bu bozorning rivojlanish sur'ati tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning boshqa har qanday turi bozoridan ko'ra shiddatliroqdir. Ikkinchidan, axborot real ijtimoiy resursga aylanmoqda. U insonning tinimsiz o'zgarib borayotgan ijtimoiy sharoitga moslashuvida, jamiyatda vujudga kelayotgan yangi-yangi tahdidlarga javob berishda borgan sari muhim rol o'ynayapti. Hozirgi davrda insonlar uzluksiz ravishda yangidan-yangi narsa-hodisalarga ro'baro' kelmoqda. Bunday sharoitga va o'zgarishlarga moslashish bobida faqatgina axborot yordam berishi mumkin. Uchinchidan, jamiyat hayotining turli sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi jamiyat, shuningdek har bir fuqaro xavfsizligini axborot infratuzilmasi faoliyatining ishonchililigiga bog'lab qo'ydi. Ana shu infratuzilma faoliyatiga g'ayriqonuniy tarzda aralashish, bu tuzilmada yuz berishi mumkin bo'lgan halokatlar qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

Alohida shaxslar, ijtimoiy guruh va birlashmalar axborot-psixologik xavfsizligini ularning irodasi va hohishiga zid ravishda psixik holati va xususiyatlariga ta'sir o'tkazish, ularning xulq-atvorini, erkini cheklash va modifiktsiya qilish sifatida tushunish muloqot, kommunikatsiya, axborotning o'zaro ta'sirini, shuningdek hozirgi jamiyatdagi turli ijtimoiy-psixologik jarayonlar va hodisalarni anglashga yangicha

yondashuv zaruriyatini keltirib chiqardi. Ming yilliklar ayrilishida jamiyatda muomalada bo'lgan axborot hajmining o'sishi shiddatli tus oldi. Shunga mos ravishda ommaviy axborot vositalari ham miqdoriy va sifat o'zgarishlariga duch keldi. Axborot hajmining keskin o'sishi odamlar kamolotiga, ularning birgalikdagi faoliyati takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina ijobiy hodisalarda bo'lgani singari bu hodisaning ham salbiy jihatlari mavjud. Odamlar axborot almashinuvisiz hayot kechirishlari juda mushkul. Biroq o'sha ayirboshlashning shunday salbiy jihatlari ham mavjudki, ular jamiyat va shaxs rivojini jiddiy xavf ostiga qo'yadi. O'zbekistonda o'tkazilayotgan tub iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar odamlarning turmushi yaxshilanishi, demokratiya sari ildam siljish uchun zamin yaratdi.

Shu bilan birga, mamlakatda bozor munosabatlarining qaror topa borishi odamlar o'rtasida musobaqalashuv, raqobat va ijtimoiy munosabatlarda etakchilik uchun kurash omilini ham keltirib chiqardi. Bunday bahslashuvning stixiyali tarzda jadallashib borishi ba'zi ko'ngilsiz hodisalarga ham olib keldi. O'zaro bellashuv kayfiyatining avj olishi faqat iqtisodiy sohada emas, ijtimoiy hayotda ham ba'zi noxushliklarni namoyon etayotir. Masalan, odamlar endi bilim olish, kasb egallash, ishlab chiqarish sohalarida yuqori ko'rsatkichlarga erishish borasida emas, oilaviy tadbirlarni, hatto motam marosimlarini ko'proq dabdababozlik bilan o'tkazishda bir-birlaridan o'zish mayllariga berildilar. Oqibatda, ba'zi motam marosimlari marhumlar xotirasi va hurmati uchun emas, tiriklar boyligini, amalini ko'z- ko'z qilish uchun o'tkaziladigan tadbirlarga aylanib qoldi. Bu holatni ham axborot almashinuvi kuchayishining salbiy oqibatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Zamonaviy aloqa va axborotni qayta ishlash vositalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi insoniyat turmush tarzining o'zgarishiga, milliy axborot va telekommunikatsiya tizimlarining yagona axborot infratuzilmasiga birlashuviga olib keldi.

Bu yangi infratuzilma sayyoramizdagi insonlarning qaerda turishi va istiqomat qilishidan qat'i nazar, real vaqt sharoitida o'zaro muloqot qilishlari uchun imkon

yaratib, jamiyat taraqqiyotiga kuchli turtki berdi. Aytish mumkinki, insoniyat hozirgi kunda yangi jahon axborot hamjamiyatini tuzish bo'sag'asida turibdi. Afsus bilan qayd etish mumkinki, axborotlashuvning ana shunday ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham ko'rinish bermoqda. Ulkan axborot makonida ijobiy ma'nodagi axborot tizimlari bilan yonma-yon inson ruhiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi, uning ongini emirishga yo'naltirilgan axborotlar ham aylanib yuribdi. Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayotning turli jabhalariga: iqtisodiyot, transport, aloqa tizimiga, madaniyat, qishloq xo'jaligi, ilm-fan sohasiga tatbiq qilinishi butun jamiyatni va har bir shaxsni ana shu axborot infratuzilmasining faoliyat tarziga bog'lab qo'ydi. Aloqa, aviatsiya, transport va energetika singari sohalarda axborot-telekommunikatsiya tizimlarining ishdan chiqishi qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, insoniyat o'zi yaratgan axborot texnologiyalarining va ulardan xavfsiz foydalanishning muayyan darajada garoviga aylanib qoldi, deyish xato bo'lmaydi.

O'zbekistonning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini belgilovchi asosiy huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ekanligini nazarda tutish zarur. Mazkur masala bo'yicha darslikning birinchi bobida qayd etilgan va shaxs, jamiyat hamda davlat xavfsizligiga bag'ishlangan"Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 2002 yilning 12 dekabrida qabul qilingan 439-II sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13, 14 va 15- moddalardan tashqari ushbu holat boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20, 24, 29, 31, 43, 57 va67 moddalarida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tegishla fikrlar bor. Jumladan, Konstitutsiyaning 20-moddasida so'z fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlariva erkinliklariga putur etkazmasliklari shartligi haqida yuritiladi. 29-moddada esa har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan

belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir, deb qayd etilgan. Shu bilan birga aytilganki, fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin. 31-modda esa vijdon erkinligiga bag'ishlangan. Moddada keltirilganidek, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Davlat va fuqaroliar munosabatlari 43-moddada tartiblashtirilgan. Bu erda yozilganidek, davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan 2007 yil 15 yanvar kuni qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahririda ham bir qator moddalar bor.

Masalan, Qonunning 5-moddasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi kafolatlangan, 7-moddasida esa "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini tsenzura qilishga yo'l qo'yilmaydi", deb qayd etilgan. 1997 yilning 24 aprelida qabul qilingan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi 400-I sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining barcha moddalarida axborot olishni ta'minlash kafolatlari keltirilgan. Masalan, Qonunning 3- moddasi "Axborot olish kafolatlari" deb nomlangan va unda shunday deyilgan: "Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi". 4-modda esa "Axborot olish erkinligining asosiy printsiplari haqida. Unda "Axborot olish erkinligining asosiy printsiplari axborotning oshkoraligi, hamma olishi mumkinligi, ochiqligi va haqqoniyligidan iboratdir" deb aks ettirilgan. Konstitutsiyamiz "har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi hukuqiga, har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega" ekanligini alohida ta'kidlaydi (29-modda).

Shu bilan birga bu huquqlarga muayyan cheklovlar ham belgilangan bo'lib, ular amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonunda belgilangan boshqa holatlar bilan bog'liq: "Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri

va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin". Aslini olganda, Konstitutsiyada belgilangan bu cheklovlar jamiyat va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Insonning atrofdagi voqelikni adekvat idrok etish qobiliyati, dunyodagi o'z o'rnini anglashi, shunga muvofiq tarzda muayyan e'tiqodlarga ega bo'lishi, shu e'tiqodlar asosida qarorlar qabul qilish erkinligi alohida shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash ob'ekti hisoblanadi. Shaxs xavfsizligiga tahdid tug'diradigan holatlar bildirmasdan va shaxs roziligisiz uning ongiga yoki beixtiyoriy-ostki ongiga ta'sir o'tkazish usullari va vositalari bo'lishi mumkin. Bunday tahdidlar chet odamlar tomonidan maqsadga yo'naltirilgan tarzda shaxsning psixikasi tuzilmalariga, ostki ongiga ta'sir o'tkazish (masalan, "25-kadr") tarzida amalga oshiriladi. Bunday ta'sir uning psixik reaktsiyalari va xulq-atvori o'zgarishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, shaxslar xavfsizligiga mamlakatda yashirin faoliyat yuritayotgan "Hizbut-tahrir", "Akromiylar", "Tavba", "Quyosh ota" singari diniy sekta va mazhablar tahdid tug'diradi. Bu sektalardagi yashirin rasm-rusumlar, marosimlar shaxs ustanovkalariga va xulq-atvor stereotiplariga jiddiy ta'sir o'tkazish orqali uning, ayni paytda, jamiyatning ham xavfsizligiga tahdid tug'diradi. Bu mazhab va sektalarning faoliyati qanchalik "samarador" bo'lganini ko'rsatuvchi ba'zi misollarga murojaat qilaylik. "Hizbut-tahrir"chilar mamlakatimizda o'nlab va yuzlab fuqarolarni o'zlarining g'ayriqonuniy faoliyatlariga jalb etdilar. Ular ta'siriga tushgan fuqarolarning asosiy ko'pchiligi (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 80 foizdan ortig'i) yoshlardan iborat. Faqat aqlga, ongga murojaat qilishni shior qilib olganliklariningo'ziyoq bu harakat naqadar xavfli ekanligidan dalolatdir.

Xususan, "Akromiylar" harakatining qay darajada "samarali" bo'lganini 2005 yilda yuz bergan Andijon voqealari yaqqol ko'rsatadi. Bu reaktsion diniy oqimning g'ayriqonuniy faoliyati nafaqat Andijon shahri va viloyati osoyishtaligini buzdi, balki butun mamlakat miqyosida ma'lum bir notinchliklar keltirib chiqardi, o'nlab odamlarning hayotdan ko'z yumishiga sabab bo'ldi. Mamlakat ichkarisida g'ayriqonuniy faoliyat yuritadigan guruhlar, sektalar va tashqaridan muayyan

maqsadga yo’naltirilgan axborot-psixologik tajovuzlar jamiyatning axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid tug’diradigan manbalar bo’lishi mumkin. Bunda jamiyatda shakllangan ijtimoiy ong asosan ikki qismdan – konservativ va dinamik qismlardan iborat ekanligini nazarda tutish lozim. Konservativ qism fuqarolarning (ijtimoiy guruhlar va sinflar, millatlar, xalqlar, elatlar, umuman, mamlakat aholisining) mushtarak manfaatlaridan tashkil topadi. Bu qism, shuningdek, o’sha ijtimoiy guruhlar va xalqlar tomonidan e’tirof etiladigan madaniy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni, mavjud odob-axloq me’yorlarini ham qamrab oladi.

Mana shu tarkibiy qismga tahdid asosan unga yot bo’lgan manfaatlar, qadriyatlarva xulq-atvor ko’rinishlarini kuch yordamida, lekin yashirin ravishda olib kirishdan iborat bo’lishi mumkin. Bunday tazyiqlar oqibatida millat yoki guruhning ma’naviy-axloqiy salomatligiga shikast etishi, mavjud ijtimoiy munosabatlar buzilishi va emirilishi hech gap emas. Ijtimoiy ongning dinamik qismi esa ijtimoiy jihatdan muhim bo’lgan axborotning konservativ qismda aks etishi va u yuzaga keltiradigan jo’shqin his-tuyg’ular bilan bog’liq. Ijtimoiy ongning dinamik qismiga nisbatan tahdid tug’diradigan hodisalarni buzib ko’rsatish axborot yordamida manipulyatsiyalar kilish shaklida namoyon bo’lishi mumkin. Bunday tahdidlar oqibatida ijtimoiy ong atrof-voqelikni adekvat idrok eta olmay qolishidan yuz beradigan bunday o’zgarishlar ijtimoiy apatiya, loqaydlik, nigilizm, yoki bo’lmasa, tashqi dunyoga agressiv munosabat shaklida namoyon bo’ladi.Axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlar. Yuqoridagi bobda aytilganidek, XX asr oxiriga qadar axborot xavfsizligi deganda, davlat, iqtisodiy va huquqiy tuzilmalar xavfsizligi tushunilgan. Shaxs xavfsizligi degan ibora deyarli ishlatilmagan. Aslida esa shaxs kamoloti, uning ijodiy salohiyati ro’yobga chiqishi taraqqiyotning oliy maqsadi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan shaxsning axboriy-psixologik xavfsizligi tahdidlardan himoya qilishning birinchi maqsadi bo’lishi lozim.

Shaxs ongiga, ayniqsa, uning ostki ongiga axborot-psixologik ta’sir o’tkazish xavfi kundan-kunga ortib bormoqda. Shaxsga o’tkazilishi mumkin bo’lgan bunday ta’sirning bir necha turlari mavjud:

- axborot tuzilmalari faoliyatining texnologik ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lgan beixtiyoriy ta'sir (masalan, kompyuter yoki videotexnikaning ish faoliyati va jarayonidaelektromagnit nurlanishi xavfi mavjudligi);

- shaxs ongi va ostki ongiga uni muayyan xatti-harakatlarni bajarish yoki bajarmaslikka undash maqsadida oldindan o'ylab va rejalashtirib o'tkaziladigan ta'sir (psixotrop ta'sir; axborot-targ'ibot ta'siri; psixoanalitik ta'sir; neyrolingvistik ta'sir; psixotron ta'sir).

Psixotrop ta'sir odamlar psixikasiga farmakologik preparatlar, narkologik vositalar yordamida o'tkaziladi. Bu vositalar inson asab tizimidagi bioximik jarayonlarga va uning uyqusiga, uyg'oqlik davriga, faolligiga, atrof-muhitni idrok qilish sifatiga ta'sir o'tkazadi.

Psixoanalitik ta'sir insonning ostki ongiga uyg'oqlik paytida, uyqusida yoki gipnoz holatida o'tkaziladigan ta'sirdir. Shaxs psixikasiga uning diqqatini chetlab o'tib ta'sir o'tkazish jarayoni shaxsning nazoratidan tashqarida bo'ladi.

Neyrolingvistik ta'sir odamlar ongiga maxsus lingvistik dasturlarni kiritish yo'li bilan ularning e'tiqodlari, qarashlari va tasavvurlarini tegishli yo'nalishda o'zgartirishni ko'zda tutadi.

Psixotron ta'sir - odamlar psixikasiga sezgidan tashqari, anglanmaydigan ta'sir o'tkazish.

Axborot-targ'ibot ta'siri so'zni, axborot yordamida muayyan qarashlar, e'tiqodlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborot-psixologik ta'sir o'tkazishning sanab o'tilgan turlariga oddiy odamlar qarshilik ko'rsatishlari qiyin. Ularning biri bo'lmasa ikkinchisi, ikkinchi bo'lmasa uchinchisi odamlar ongida muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mana shu bayon qilinganlardan kelib chiqib, shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi - bu uning irodasiga va hohishiga qarshi ongini o'zgartirishni ko'zlaydigan axborot-psixologik ta'sirlardan himoyalanganligi deyish mumkin.

Axborot-psixologik ta'sirlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda psixikaning rivojlanishi qonuniyatlaridan hech bo'lmaganda asosiylarini bilish umumiy

madaniyatning tarkibiy qismi bo’libgina qolmasdan, balki xavfsizlik va yashash uchun kurashning ham muhim shartiga aylanib bormokda.

Psixologiyadan hech bo’lmaganda tayanch bilimlarga ega bo’lgan odamlar o’z onglariga o’tkaziladigan tashqi ta’sirdan himoyalanish bobida dastlabki psixologik to’siqni qo’yish imkoniga ega bo’ladilar.

Axborot-psixologik ta’siri ikki xil darajada: nazariy-mafkuraviy va kundalik-psixologik darajalarda namoyon bo’ladi. Nazariy-mafkuraviy darajada dunyoqarashlar, ilmiy kontseptsiyalar, madaniy qadriyatlar o’rtasida kurash yuz beradi va bunda ta’sir shaxsning intellektual salohiyatiga targ’ibot, mantiqiy dalillar yordamida o’tkaziladi.

Kundalik-psixologik darajada esa kurash odamlarning kayfiyatini tegishli yo’nalishda o’zgartirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda uqtirish usuli asosiy vosita hisoblanadi. Ishontirish usuli asosli dalillar keltirish yordamida shaxs e’tiqodiga ta’sir o’tkazishni maqsad qilib qo’ysa, uqtirish yordamida inson psixikasiga e’tiborni tortmasdan kirib boriladi.

O’tkazilayotgan axborot-psixologik ta’sirni bir necha xil mezonlar asosida tasnif qilish mumkin. Ana shunday mezonlardan biri – ta’sirning ochiq yoki xufyaligi. Buzg’unchi ta’sirlar ko’pincha ob’ektga sezdirmasdan maxsus texnologiyalar (masalan, manipulyativ texnologiyalar, NLP texnologiyalar, suggestiv texnologiyalar va h.k.) yordamida o’tkaziladi. Bunda asosiy e’tibor sub’ektning ongiga emas, ostki ongiga qaratiladi. Bunday ta’sirlardan himoyalanish uchun odamlar psixologiyadan hech bo’lmasa boshlang’ich ma’lumotga ega bo’lishlari zarur.

Ostki ongiga xufya tarzda o’tkazilgan ta’sir shaxsning xarakterini, xulq-atvorini o’zgartirib, aql-zakovati va ijodiy imkoniyatlarini keskin pasaytirish yuborishi mumkin. Bunday ta’sir turli darajadagi rahbarlar ostki ongiga o’tkazilganda, uning vayronkorlik miqyosi yana ham kengroq bo’ladi.

Odamlar psixologik ta’sirga turli darajada beriluvchan bo’ladi. Bu ularning yoshi, hayotiy tajribasi, shaxsiy (individual) psixologik xususiyatlari bilan bog’liq. Shaxsning hayotiy tajribasi va bilimlari ortgani sari psixologik ta’sirga

beriluvchanligi ham kamayib boradi. Biroq, shuni ham nazarda tutish kerakki, barcha odamlar u yoki bu darajada uqtirish ta’siriga moyil bo’ladi. Farq faqatgina birovlarning bu ta’sir girdobigaga tezroq, boshqalarning esa sekinroq tushib qolishida.

## Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash yo’nalishlari

Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash bu sohada muayyan tizim tashkil etishni taqozo qiladi. Bunday tizim asosan uch qismdan iborat bo’ladi: me’yoriy-huquqiy, tashkiliy va texnologik tizimlar. Xavfsizlikning me’yoriy-huquqiy jihatlari axborot-psixologik xavfsizlikka, tahdidga qarshi tegishli kurash vositalarini ishlab chiqishni o’z ichiga oladi. Bu vositalar me’yoriy-huquqiy aktlar, davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligiga tahdid uyg’otuvchi holatlarga qarshi me’yoriy hujjatlar, shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ruyobga chiqarishga xizmat qiladigan qonunlar va qonun osti hujjatlarini ishlab chiqishni ko’zda tutadi. Mazkur hujjatlarning barchasi fuqarolarning ruhiy salomatligini himoya qilishga, jamiyatda ijtimoiy osoyishtalik hukm surishini ta’minlashga qaratilgan bo’ladi.

Mazkur jarayon O’zbekistonda samarali amalga oshirilayotgani hammaga ma’lum. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy qismi tarkibiga mazkur sohadagi huquqiy me’yorlarga amal qilishini ta’minlash bilan shug’ullanuvchi davlat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek alohida fuqarolar kiradi. O’zbekistonda fuqarolik jamiyati tarkib topa borgani sari boshqa sohalarda bo’lgani singari, xavfsizlikni ta’minlash sohasida ham fuqarolik jamiyati tuzilmalarining roli oshib bormoqda. Shu o’rinda O’zbekistondagi fuqarolik jamiyatining o’ziga xos ko’rinishlaridan bo’lgan mahalla institutining rolini alohida ta’kidlab o’tish joiz.

Fuqarolarning o’z-o’zini boshqarish tizimidagi muhim tarkibiy qism sifatida mahalla turar joylardagi ma’naviy-ruhiy iqlimni tartibga solish bilan birga, xavfsizlikni ta’minlashda ham muhim rol o’ynayotir. Fuqarolarni, birinchi navbatda yoshlarni, turli xil g’ayriqonuniy diniy oqimlar ta’siridan asrashda mahalla borgan sari faolroq

ishtirok etmoqda. Aholining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda, ayniqsa, turli xil mish-mishlar oldini olish va g'ayriqonuniy diniy oqimlarning vakillari tomonidan varaqalar tarqatilishini bartaraf etishda mahalla fuqarolar yig'ini muhim vazifalarni bajaradi. Mahalla fuqarolar yig'inlari raislarining ma'naviy-ma'rifiy va diniy-tarbiyaviy ishlar bo'yicha maslahatchilari lavozimining joriy etilishi bu yo'nalishdagi ishlarning yanada jonlanishiga katta turtki berdi.

O'zbekistonda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda tashkiliy masalalarning o'rni ayniqsa, muhim. Dunyodagi ko'pchilik mamlakatlarda o'rnatilgan tartibga ko'ra, xavfsizlik masalalari bilan davlat shug'ullanadi. Bu borada davlatning roli jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolarni bu muhim masala echimidan chetlatishda emas, balki ularni shu jabhaga jalb etish va uyushtirishda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi davlat hokimiyatiqonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati organlari, shuningdek jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolar davlatni boshqarishdek yagona maqsad yo'lida o'z vakolat va huquqlari doirasida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Tashkiliy tuzilmaning muhim tarkibiy qismlaridan biri – kadrlar masalasi bo'lib, davlat tashkilotlari va xususiy sektordagi tashkilotlarning axborot-psixologik xavfsizligiko'p jihatdan ularga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan etarli salohiyatga ega bo'lgan kadrlar tizimini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash davlatning axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi faoliyatida yuksak samaradorlikka erishishda juda muhim omil hisoblanadi. Davlat, jamiyat va alohida shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat. Eng avvalo, bu mazkur sohada davlat siyosati asoslarini ishlab chiqish muammosidirki, uning murakkabligi xavfsizlikni ta'minlash ob'ekti va sub'ektining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Shaxs va jamiyat ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar, avvalo, jamiyatning o'zi tomonidan huquqiy mezonlarni belgilash va qo'llab-quvvatlash, fuqarolar xulq- atvoridagi

ijtimoiy maqbul stereotiplarni qo'llash mexanizmlarini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Ayni paytda davlatning ommaviy huquq yordamida mazkur sohadagi eng xavfli xatti-harakatlar oldini olish borasida muttasil faoliyat ko'rsatishi shu sohadagi eng muhim yo'nalishlardan birini tashkil etadi. Mazkur sohada davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro munosabatlari chegarasini aniq belgilab olish juda zarur bo'lib, uning buzilishi, bir tomondan, hokimiyatni obro'sizlantirib qo'yishi, ikkinchi tomondan, jamoat tashkilotlarining befarqligi va loqaydligiga sabab bo'lishi mumkin. Individual va ijtimoiy ongga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan ommaviy axborot vositalari tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoning murakkabligi avvalo shundaki, fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan jamoat tashkilotlari ommaviy axborot vositalariga ta'sir o'tkazish uchun samarali vositalarga ega emas. Ayni paytda davlat organlarining ommaviy axborot vositalari faoliyatiga bevosita va muntazam aralashuvi bu vositalar faoliyatida biryoqlamalikka olib kelishi mumkin.

Demokratik institutlar taraqqiy topgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda aholining keng qatlamlari uchun xolis va ob'ektiv axborot olish imkoniyatlari yaratildi. Vaziyatni tahlil qilish shundan guvohlik beradiki, bir qator mamlakatlar ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, gazeta va jurnallar, Internet)dan axborot yordamida ta'sir qilish quroli sifatida foydalanmoqdalar.

Axborot qurollari sirasida elektron vositalar (televidenie, radio, Internet) alohida o'rin tutadi. Hozirgi kunda psixotron qurollarning ishlab chiqarilishi va tarqala boshlashi elektron ommaviy axborot vositalaridan xatarli qurol sifatida foydalanishning ehtimoliy xavfini keskin oshirmoqda. Bugungi kunga kelib aytish mumkinki, axborot qurolining xavfi ommaviy qirg'in quroli xavfidan kam bo'lmay qoldi. Hozirgi kundagi mavjud tasavvurlarga ko'ra, individual ong va ijtimoiy ongni buzg'unchi axborot ta'siridan (bunday axborotni insonlar ongiga yoki ostki ongiga kiritish yo'li bilan ularning atrof-voqelikni noadekvat idrok qilishiga olib kelish), shuningdek,

shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi hayotiy muhim manfaatlarini himoyalash zarur. Bunday manfaatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Shaxs manfaatlari: fuqarolarning ob'ektiv axborotni izlash, olish, uzatish va yaratishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini; ularning o'z shaxsiy hayotlari dahlsizligiga bo'lgan huquqini; o'z salomatliklarini zararli axborotdan saqlashga bo'lgan huquqini ta'minlash.

2. Jamiyat manfaatlari: axborot jamiyatini shakllantirish; milliy ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish, milliy madaniy merosni targ'ib qilish, ommaviy ong ustida o'tkaziladigan manipulyatsiyalarga yo'l qo'ymaslik va ularning oldini olish.

3. Davlat manfaatlari: shaxs va jamiyat manfaatlarini himoyalash; davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorat institutlarini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish, huquqiy davlat tuzish.

Tahdidlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- inson salomatligiga zarar etkazish; -shaxs erkini anglab bo'lmaydigan darajada to'sib qo'yish, unga tobelik sindromini singdirish va buning natijasida g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etishga majburlash; insonning axloqiy, madaniy, siyosiy qiyofasini buzish;
- maxsus ta'sir o'tkazish vositalari yordamida ijtimoiy ong ustida manipulyatsiyalar o'tkazish;
- O'zbekistondagi yagona ma'naviyat va axborot makonini parokanda qilib tashlashga urinish;
- ijtimoiy axloq me'yorlari va jamiyatning an'anaviy qadriyatlariga zarar etkazish.

Bu tahdidlar salbiy axborot-psixologik ta'sir o'tkazish, maxsus vosita va usullarni ishlab chiqish, O'zbekiston davlatining ichki siyosatiga chetdan turib maqsadga yo'naltirilgan tarzda aralashish axborot urushiga tayyorlanish va axborot qurolidan foydalanish shakllarida amalga oshiriladi. Bunday tahdidlar oldini olish va ularning

zararli oqibatlarini minimal darajaga tushirish uchun davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- mavjud tahdidlarga mos ravishda xavfsizlik choralarini ko'rish;

- foydalanish faqatgina qonunda ko'rsatilgan holatlarda mumkin bo'lgan axborot- psixologik ta'sir o'tkazishning maxsus vositalarini ishlab chiqish, yaratish va qo'llashga davlat va jamiyat monopoliyasini o'rnatish;

- axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash borasida oshkoralik va fuqarolik nazoratini joriy etish;

- axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi faoliyatda jamoattashkilotlarining faol ishtirokini ta'minlash zarurligi.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning quyidagi vazifa va funktsiyalarni bajarish zarur:

1. O'zbekiston Respublikasining axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga oidqonunchiligini takomillashtirish.

2. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirishi.

3. Davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

5. Fuqarolarning axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi huquqiyongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishi.

6. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida xalqaro hamkorlikni tashkiletish.

7. O'quv muassasalari tomonidan axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashsohasida kadrlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri - shu yo'nalishda o'tkaziladigan ekskpertizalardir. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash buyicha o'tkaziladigan ekspertiza tizimi O'zbekistonda endigina shakllanib kelmoqda. Mamlakatimizda davlat, jamiyat va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi to'g'risida maxsus qonun qabul qilish vaqti

etdi. Bunday qonun mazkur yo'nalishdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Chunonchi, "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi", "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy kodeksi" singari me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ham tegishli o'zgartishlar kiritish zaruriyatini ham keltirib chiqaradi.

Davlat, jamiyat va shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri, shuningdek, xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishdan iborat. Hozirgi kunda mamlakatimizga turli kanallar orqali xorijda tayyorlangan va nashr etilgan gazeta-jurnallar, adabiyotlar, eshittirish va ko'rsatuvlar kirib kelmoqda. Ularning muayyan qismi tarkibida mamlakatimiz aholisi uchun yot bo'lgan stereotiplar, ustanovkalar, qadriyatlar yo'qligiga kafolat berib bo'lmaydi.

Yurtimizga qarshi axborot-psixologik xurujlar imkoniyat vujudga keldi deguncha amalga oshirilmoqda. Mafkuraviy kurash keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda axborot qurollaridan g'animlarimiz foydalanishlarining ehtimoli ortib bormoqda. Shuni ham nazarda tutish lozimki, "kibermakon" degan kenglikda hech qanday chegara yo'q. Bu makonda foydali va zarur axborot bilan bir qatorda yoshlar uchun zararli, umuman aholi uchun xavfli bo'lgan axborot, psixotron qurollar ham bemalol aylanib yuribdi.

Hozirgi kunda fan va texnologiya taraqqiyoti shu qadar tezlashib ketdiki, psixotron qurollarning yangidan-yangi turlari yaratilmoqda. Masalan, ular orasida uzoq masofadan turib odamlar ongi, tafakkuri, xotirasi, his-tuyg'ulariga kuchli ta'sir o'tkaza oladiganlari ham bor. Misol uchun, O'YuCh (o'ta yuqori chastotali) qurollar uzoqmasofadan turib shaxsning psixikasi, xotirasiga, hatto ichki va jinsiy a'zolariga ta'sir qilishi mumkin. Bayon etilganlarning barchasini nazarda tutib, davlat tomonidan xalqaro axborot ayirboshlash jarayoni uchun tegishli me'yorlar, taqiqlar va cheklovlar o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir. Bunga erishish uchun xalqaro hamjamiyatning diqqat-e'tiborini mazkur masalaga qaratish, milliy davlatlar qonunchiligini unifikatsiya qilish talab etiladi.

Mamlakatimizda keng tarmoq otayotgan kompyuter klublaridagi o'yinlar orasida halqimizga yot bo'lgan zo'ravonlik, fahsh va axloqsizliklarni targ'ib etadiganlari tobora ko'payib borayapti. Bunday holat mazkur masalaga nafaqat davlat idoralarining, balki ota-onalar qo'mitalari, mahalla, qishloq fuqarolar yig'inlari va boshqa jamoat tashkilotlarining e'tiborini tortish maqsadga muvofiqligidan guvohlik bermoqda.

Yuqorida bayon qilinganlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– axborot xavfsizligi sohasidagi jarayonlar va munosabatlarning o'sish sur'atlari qonunchilikning takomillashish sur'atlaridan bir oz ildamlab ketdi. Bunday holat davlat, jamiyat va shaxsning axborot- psixologik xavfsizligini ta'minlashga oid qonunlarni ishlab chiqish va qo'llash amaliyotini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi;

– davlat, jamiyat va shaxsning axborot–psixologik xavfsizligini ta'minlash borasida yagona siyosat asoslarini ishlab chiqish va mazkur yo'nalishda tegishli qonun qabul qilish, shuningdek mazkur yo'nalishdagi qonunlarga tegishli o'zgartishlar kiritish muhim ehtiyojga aylandi;

– xalqaro axborot almashuv jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlardan samarali himoyalanish uchun xalqaro hamjamiyatning harakatlarini muvofiqlashtirish hamda milliy davlatlar qonunchiligini unifikatsiyalash, "Axborot urushlari xavfining oldini olish va axborot quroli muomalasini cheklash haqida" xalqaro konventsiya yaratish yo'lidagi faoliyatlarni birlashtirish zaruriyati paydo bo'ldi.

Inson ongi mohiyatan ochik tizimdir. U tashqi dunyo bilan axborot almashish jarayonida rivojlanib boradi. Ongning bunday ochiqligidan buzg'unchi kuchlar ham foydalanib qolishga urinadilar. Zotan, hozirgi kunda global tarmoqning, yangi jihozlar va texnologiyalarning vujudga kelishi bunday kuchlar tomonidan faqat alohida shaxs ongiga emas, millionlab kishilar ongi-shuuriga vayronkor ta'sir o'tkazilishi uchun imkoniyat yaratdi. Axborotni qayta ishlash va aloqa bobidagi zamonaviy vositalar insoniyat mavjudligining printsipial yangi sharoitlarini vujudga

keltirdi. Hozirgi kunda milliy axborot va telekommunikatsiyalar tizimini global axborot infratuzilmasiga birlashtirish singari ulkan loyihalar yuzaga chiqdi. Bu loyihalarning amalga oshirilishi har bir shaxs uchun, u qaysi mamlakat va mintaqada yashamasin, dunyoning xohlagan burchagidagi odamlar bilan axborot almashish imkonini vujudga keltirdi. Bunday infratuzilmaning barpo etilishi insoniyat taraqqiyoti uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayni paytda bu infratuzilma vayronkor kuchlarga ham juda qo'l kelishini unutmaslik kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ijtimoiy hayotning turli jabhalariga kirib kelishi, aytish mumkinki, har bir shaxs va jamiyat xavfsizligini ana shu infratuzilmaning aniq va uzluksiz faoliyat yuritishiga, olinayotgan axborotning ishonchliligiga, bu axborotning xufya tarzda modifikatsiya qilinmasligiga bog'lab qo'ydi. Axborot-telekommunikatsiya tizimlaridagi texnik nosozliklar va avariyalarning kelib chiqishi energiya tizimi, ulkan quvurlar tizimidagi, shuningdek ekologik xavfli ishlab chiqarish, sun'iy yo'ldoshlar va temir yo'l tizimini boshqarishda qanchalik halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Insoniyat, bir tomondan, yangi axborot tuzilmalarining ulkan imkoniyatlaridan foydalansa, ikkinchi tomondan, uning mavjudligi va risoladagiday hayot kechirishi ana shu tuzilmaning to'g'ri va samarali faoliyat yuritishiga bog'lik bo'lib qoldi. Shundan ko'rinadiki, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash uchun alohida shaxs va guruhlar u yoqda tursin, hatto mamlakatlar va mintaqalar o'zaro hamkorlik qilishlarining zaruriyati vujudga keldi.

## Nazorat uchun savollar.

1. Yoshlarda media maydon, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

2. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv.

3. Inkorni inkor qonuni media savodxonlik va axborot madaniyatida namoyon bo‘lishi.

4. Internet tarmog‘idagi milliy segmentlar va axborot xavfsizligining nazariy-metodologik asoslari.

## 13-Seminar

## Mavzu. O‘zbekistonda axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari

Reja:

1. Axborot almashinuvining milliy-mental, yosh, jins va hayotiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari.
2. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik, ma’naviy va ruhiy zo‘ravonlik.
3. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari. Davlat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlar.
4. “Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi” kurash bo‘yicha ShXT konsepsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 16 sentyabrdagi 250-son Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzuridagi Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi tashkil etilgan Markazning asosiy vazifalari:

- "Elektron hukumat" tizimi axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta’minlash;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq "Elektron hukumat" tizimini joriy etish doirasida axborotlashtirish ob’ektlarini attestatsiyadan o‘tkazish;
- davlat organlarining axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi sièsatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashish;
- axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash, "Elektron hukumat" tizimi axborot tizimi, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minlaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik echimlarni samarali qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish;
- "Elektron hukumat" tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining, shuningdek Internet tarmog‘i milliy segmentining

axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo‘yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog‘i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo‘laètgan tahdidlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo‘yicha konsultatsiya xizmatlari ko‘rsatish;
- qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz èxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

Tashkilotda axborot xizmatini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yishda uning huquqiy asoslari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xizmatining huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari tashkil etadi. Aytish joizki, mamlakatimizda jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish va shu maqsadda tashkilotlarda axborot xizmatlarini tashkil etishda dastlab Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 22 sentyabrda qabul qilingan “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 203-qarori muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgandi.

Qarorda, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatining oshkoraligini ta’minlash, keng jamoatchilik va aholining O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning borishi to‘g‘risida muntazam xabardor qilish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashning, oshkora fuqarolik jamiyati qurishning muhim yo‘nalishi hisoblanishi qayd

etilgan holda, “Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xo‘jalik boshqaruvi organlari (keyingi o‘rinlarida idoralar deb yuritiladi) tarkibida xodimlarning umumiy soni doirasida axborot xizmatlari tashkil etilsin” deb belgilangan. Aytish joizki, o‘tgan yillar mobaynida mazkur qarorda belgilangan qator vazifalar ijrosi ta’minlandi.

Chunonchi, barcha vazirlik, tashkilot, muassasa va boshqa idoralarda axborot xizmatlari tashkil etildi va ular faoliyati yo‘lga qo‘yildi, internet tarmog‘ida vebresurslari tashkil etildi. Shu tariqa bugungi kunga qadar axborot xizmatlari muayyan vazifalarni amalga oshirib kelayotir. Biror huquqiy asosga ega bo‘lmasdan bunday muhim vazifalarni amalga oshirish mushkul edi, albatta. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevral kuni e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori sohani yanada takomillashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Qarorda qayd etilganidek, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda axborot va bilim eng muhim milliy resurslarga, ularni yaratish va tarqatishni ta’minlovchi tizimlar esa – barqaror rivojlanishning strategik omillariga aylanmoqda.

Ushbu sharoitlarda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni va ochiq adolatli fuqarolik jamiyatini qurish, shuningdek, insonning huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta’minlashdek strategik maqsadga erishish, davlat boshqaruvining sifati davlatning axborot, bilim va innovatsiyalarga asoslangan modeliga o‘tishini ta’minlaydigan axborotni va bilimni yaratish, qabul qilish va tarqatish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan davlat va xo‘jalik boshqaruvi sohasida ochiqlik va shaffoflikka asoslangan samarali qarorlar qabul qilish tizimini joriy etish, axborot olishda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorligi, ochiqligi va mas’uliyatini ta’minlash zarur. Bu davlat va

xo‘jalik boshqaruvi apparatining samarali faoliyat yuritishi hamda jamiyatda adolatni qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bunda jamiyatni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatidan keng xabardor qilish, ularning aholi oldidagi hisobdorligini ta’minlash «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir» degan konstitutsiyaviy normani amalga oshirishning, «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarishning muhim sharti hisoblanadi. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot jihatidan ochiqligini yanada oshirish, jamoatchilikka amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning maqsadlari, vazifalari, borishi hamda natijalari, mamlakatning global axborot jamiyatiga uyg‘un integratsiyalashuvi haqida o‘z vaqtida, xolisona va to‘laqonli axborotni tezkorlik bilan etkazish, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari axborot xizmatlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining mazkur qarorida quyidagi huquqiy normalar hamda vazifalar belgilangan:

1. «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishning samarali mexanizmlari va usullarini joriy etishga, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotni izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini ta’minlashga qaratilgan normalari ijrosini so‘zsiz va sifatli ta’minlash barcha darajalardagi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining eng ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblansin. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbari ushbu vazifalar amalga oshirilishi uchun shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari (matbuot xizmatlari, jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlari) (keyingi o‘rinlarda axborot xizmati deb yuritiladi) davlat va xo‘jalik boshqaruvi

organi xodimlarining umumiy soni doirasida tashkil etiladi hamda shu organ rahbariga bevosita bo‘ysunadigan alohida mustaqil bo‘linma hisoblanadi.

Quyidagilar axborot xizmatining asosiy vazifalari etib belgilansin:
davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyati tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish; axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati, davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikni ta’minlash; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyati, uning faoliyat sohasiga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida keng jamoatchilikni xolisona, sifatli va tezkor xabardor qilish; ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish, axborot xizmati bilan doimiy hamkorlikda ishlaydigan jurnalistlar doirasini shakllantirish, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatish, ommaviy tadbirlarni tashkil etish; axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rasmiy veb-saytida tezkor joylashtirish va o‘z vaqtida yangilab borish, Internet tarmog‘idagi veb-resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy va mobil tarmoqlarni rivojlantirish; axborot maydoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, ularga munosabat bildirishning turlari, usullari va darajasi bo‘yicha ekspertlar bilan birgalikda takliflar tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet tarmog‘ida materiallar tarqatish bo‘yicha kompleks ishlarni tashkil etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan birgalikda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida tarqatish uchun xabar, axborot-ma’lumot tusidagi materiallar, sharhlar va axborot-tahliliy materiallar tayyorlash; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (kino, foto, audio va videomateriallar, bosma mahsulotlar va shu kabilar) bilan ta’minlash;

idora faoliyatiga nisbatan jamoatchilik fikrining holatini hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini tahlil qilish va ular to‘g‘risida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador matnli, foto, audio va videomateriallardan iborat ma’lumotlar bankini shakllantirish va yuritish.

3. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Shuningdek qarorda, axborot xizmatlari kadrlarining malakasini oshirish va Xizmatlarni jurnalist kadrlar, jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish va boshqa sohalardagi yuqori malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash, shuningdek, axborot xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur zamonaviy moddiy-texnik bazani shakllantirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqish; axborot xizmatlari tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan, shu jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari ishtirokida muntazam ravishda (bir oyda kamida bir marta) matbuot anjumanlari, brifinglar o‘tkazilishini hamda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan ishlashning boshqa zamonaviy shakllarini amaliyotga joriy etish vazifalari ham belgilangan.

4. Har bir tashkilotning Nizomi uning huquqlari, vazifalari, burchlarini kafolatlovchi asosiy huquqiy hujjati hisoblanadi. Axborot xizmati aslida tashkilot markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblansa-da u ham alohida Nizomiga ega bo‘ladi. Axborot xizmati xodimlari Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 125-son qaroriga ilova tarzida berilgan quydagi hujjatga ham alohida e’tibor qaratishlari zarur: Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to‘g‘risida

**NAMUNAVIY NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

Axborot xizmati (matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar xizmati) (keyingi o‘rinlarda Xizmat deb ataladi) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi

markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda bevosita uning rahbariga bo‘ysunadi. Xizmat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda ushbu Nizomga amal qiladi. Xizmat o‘z faoliyatini davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hamda boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tegishli xizmatlari bilan o‘zaro yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

## 2-bob. Xizmatning asosiy vazifalari va funksiyalari

Quyidagilar Xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi: davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyati tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish; axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati, davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikni ta’minlash; keng jamoatchilikni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyati, uning sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlari to‘g‘risida xolisona, sifatli va tezkor xabardor qilish; ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda OAV deb ataladi) bilan o‘zaro hamkorlik qilish, Xizmat bilan doimiy hamkorlikda ishlaydigan jurnalistlar doirasini shakllantirish, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatish, ommaviy tadbirlarni tashkil etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rasmiy veb-saytida axborotni tezkorlik bilan joylashtirish va o‘z vaqtida yangilab borish, Internet tarmog‘idagi veb-resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy va mobil tarmoqlarni rivojlantirish; axborot maydoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, ularga munosabat bildirishning turlari, usullari va darajasi bo‘yicha

ekspertlar bilan birgalikda takliflar tayyorlash, OAV, shu jumladan, Internet tarmog‘ida materiallar tarqatish bo‘yicha kompleks ishlarni tashkil etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan birgalikda milliy va xorijiy OAVda tarqatish uchun xabar, axborot-ma’lumot materiallar, sharhlar va axborot-tahliliy materiallar tayyorlash; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatini xorijiy OAVda sifatli yoritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonlarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (foto, audio va videomateriallar, bosma mahsulotlar va shu kabilar) bilan ta’minlash; idora faoliyatiga nisbatan jamoatchilik fikrining holati hamda milliy va xorijiy OAV pozitsiyasini tahlil qilish va ular to‘g‘risida davlat hokimiyati va boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador matnli, foto, audio va videomateriallar ma’lumotlar bankini shakllantirish va yuritish.

5. Xizmat yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi: OAVda, shu jumladan, Internet tarmog‘ida axborot e’lon qiladi (chop etadi), shuningdek, ularni rasmiy veb-saytlarda, hamma kirishi mumkin bo‘lgan xonalar va joylarga joylashtirish va yangilab borishni ta’minlaydi; ommaviy tadbirlarni, shu jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbarlari ishtirokidagi tadbirlar (majlislar, yig‘ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar)ni tashkil etadi va o‘tkazadi; OAV va jurnalistlarning so‘rovi asosida ularga og‘zaki va yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etadi; qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik muhim dasturlar hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida huquqni qo‘llash amaliyoti holati monitoringini olib boradi va keng jamoatchilikni xabardor qilib boradi; Xizmat oldida turgan vazifalarni samarali hal etish uchun zarur bo‘lgan axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlikda to‘playdi va ularni puxta ishlaydi; davlat

va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha bosma materiallarni tayyorlaydi hamda milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qiladi, teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etadi, tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshiradi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini o‘rganishga doir tahliliy ishlarni amalga oshiradi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish uchun e’lon qilingan dolzarb materiallar sharhlarini tayyorlaydi; OAV bilan axborot-ma’lumotnoma ishlarini amalga oshirish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tahliliy, statistik va boshqa materiallarning tizimlashtirilgan ma’lumotlar banki tashkil etilishi va yuritilishini ta’minlaydi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatini eng to‘liq va xolisona yoritish maqsadida milliy va xorijiy OAV hamda jurnalistlar bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining veb-sayti tashkil etilishini va uni zamonaviy darajada yuritishni ta’minlaydi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi tomonidan tashkil etiladigan rasmiy tadbirlardan teledasturlar, roliklar va lavhalar tayyorlashda va ularni montaj qilishda ishtirok etadi hamda ushbu materiallarni belgilangan tartibda saqlash uchun ularning arxivlashtirilishini ta’minlaydi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir foto, audio va videomateriallarni tayyorlaydi hamda ularni tayyorlash jarayonida davlat va nodavlat OAV bilan o‘zaro hamkorlik qiladi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador foto, audio va videomateriallar ma’lumotlar banki shakllantirilishi va yuritilishini ta’minlaydi.

6. Xizmat o‘z vakolatlari doirasida milliy va xorijiy axborot agentliklari hamda OAVning davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyati to‘g‘risidagi materiallarni tayyorlashda ko‘maklashish to‘g‘risidagi buyurtmanomalari va so‘rovlarini ko‘rib chiqadi.

### 3-bob. Xizmatning huquqlari va javobgarligi

Xizmat o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega: Xizmatning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalaridan, idoraviy mansub tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rab olish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining yig‘ilishlarida, majlislarida va boshqa tadbirlarida qatnashish; qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari bilan kelishgan holda idoraning boshqa bo‘linmalari xodimlarini jalb etish, shuningdek, boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, shartnoma asosida jalb etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan belgilangan tartibda o‘zaro hamkorlik qilish; rahbariyatning topshirig‘iga ko‘ra davlat organlarida respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarda Xizmat vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi nomidan vakillik qilish; o‘z vakolatlari doirasida bosma nashrlarni nashr etish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining axborot siyosatini takomillashtirishga doir takliflarni, Xizmat faoliyati masalalari bo‘yicha normativ hujjatlar loyihalarini rahbariyatning ko‘rib chiqishi uchun kiritish. Xizmat: o‘ziga yuklangan vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatining milliy va xorijiy OAVda xolisona, sifatli va tezkor yoritilishini ta’minlash uchun javob beradi.

## 4-bob. Xizmat faoliyatini tashkil etish

Xizmat xodimlari soni u amalga oshiradigan vazifalarning murakkabligi va hajmiga ko‘ra davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan, xodimlarning tasdiqlangan umumiy soni doirasida belgilanadi. Xizmat faoliyati davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan tasdiqlanadigan ish rejasi asosida tashkil etiladi. Xizmatga davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan

rahbar boshchilik qiladi.  Xizmat rahbari bevosita davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbariga bo‘ysunadi va ayni vaqtda uning matbuot kotibi hisoblanadi. Xizmat rahbari: Xizmat faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda Xizmatga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi; Xizmat faoliyatini tashkil etadi, rejalashtiradi va nazorat qiladi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi; Xizmatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishni ta’minlaydi, xodimlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi; Xizmat xodimlarining malakasini va kasbiy saviyasini oshirish uchun shartsharoitlar yaratadi. Xizmat xodimlari Xizmat rahbarining taqdimnomasiga ko‘ra belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. Xizmat faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik va transport bilan ta’minlash, shuningdek, uning xodimlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko‘rsatish davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining tarkibiy bo‘linmalari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Shu asosda respublikamizdagi barcha tashkilotlarning axborot xizmati Nizomi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Demak, axborot xizmati shu Nizom asosida faoliyat ko‘rsatishi uning huquqiy asoslari qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Axborot xizmati qaysi idora yoki tashkilotga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar u asosan axborot to‘plash va tarqatish bilan shug‘ullanadi. Modomiki, tashkilotning axborot xizmati axborot to‘plash va tarqatish bilan ham shug‘ullanar ekan, demak, O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni ham uning huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur qonunning 6-moddasi “Axborotning ochiqligi va oshkoraligi” deb nomlanib, unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyat manfaatlariga taalluqli voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga xabar berishi shart, deb belgilab qo‘yilgan.

Qonunning “Axborot erkinligi kafolatlari” deb nomlangan 8moddasida esa, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o‘zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta’minlashga majburdirlar, deb belgilangan. Xo‘sh, bu vazifalarni kim va qanday yo‘sinda amalga oshiradi? Jahon tajribasiga ko‘ra, rivojlangan davlatlarda tashkilotlar tomonidan asosiy axborotlar aynan axborot xizmati tomonidan tarqatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Axborot xizmati avvalo jurnalistlar kabi axborot to‘plashi, qayta ishlashi (ommabop janrda yozishi yoki teleko‘rsatuv, radioeshittirish tayyorlashi) talab etiladi. So‘ng, o‘sha axborotini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishi mumkin. Demak, bu o‘ta mas’uliyatli ishlarni amalga oshirishida axborot xizmati uchun o‘sha qonun g‘oyat muhim asosdir. Axborot xizmat xizmati xodimi axborot to‘plash va tarqatish borasida jurnalistlar kabi faoliyat ko‘rsatar ekan, O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni ham uning huquqiy asoslaridan hisoblanadi.

U ham jurnalistning majburiyatlarini bilishi va unga amal qilishi zarur. Qonunning 6-moddasi “Jurnalistning majburiyatlari” deb nomlanib, unda bajarishi shart bo‘lgan majburiyatlar ham belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, o‘z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog‘ida jurnalist: qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari talablariga rioya etishi; o‘zi tayyorlayotgan materiallarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi; aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi; shaxsning huquqlari va erkinliklarini, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart. Jurnalist o‘z kasbiga doir axborotdan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi,

axborot manbai yoki muallif roziligisiz jismoniy shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli ma’lumotlarni e’lon qilishi, shuningdek audio va video yozish vositalaridan foydalanishi mumkin emas. Jurnalist qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajarishi shart. Bu talablarning barchasi doimo axborot to‘plash va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi axborot xizmati xodimlari uchun ham birdek taalluqlidir.

Axborot xizmatlarining huquqiy asoslarini belgilovchi navbatdagi qonun – O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni bo‘lganini alohida qayd etish lozim. Qonunning 10moddasi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmati” (2014 yil 5 may) deb nomlanadi. Unda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni tayyorlash hamda tarqatish vazifalarini bajaruvchi, shuningdek ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan hamkorlikni ta’minlovchi tarkibiy bo‘linmasi yoxud ushbu vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmatidir, deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu moddaga binoan Axborot xizmati ommaviy tadbirlarni tashkil etish, axborot xabarlarini (press-relizlar, byulletenlar va hokazolarni) tarqatish, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytida ularning faoliyati to‘g‘risidagi axborotni joylashtirish va yangilab borish yo‘li bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish choratadbirlarini ko‘radi. Axborot xizmati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatishning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa usullaridan ham foydalanishi mumkin.

Qonunda axborot xizmatining faoliyatini tashkil etish tartibi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan belgilanishi ham qayd etilgan. Aytish joizki, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunning nomlanishidan ham ko‘rish mumkinki, qonun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur Qonun

ham sodda va tushunarli tilda yozilganligi bilan barcha uchun birdek tushunarlidir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilgan. Yangi Qonun ushbu normani to‘la-to‘kis amalga oshirishni ta’minlaydi. Mazkur qonun aholining davlat tuzilmalari faoliyati haqida axborot olishida, ularning bu boradagi mas’uliyatini oshirishda, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ishlarimizni yaxshilashda va albatta, aholi farovonligini yuksaltirishda katta imkoniyatlarni ochadi. Bu huquqiy hujjat fuqarolar xabardorligini ta’minlashning turli usullari nazarda tutilishi bilan ham biz uchun muhim ahamiyatga ega. Bu davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning mohiyati va ahamiyatini, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning borishi haqidagi axborotlarni har bir hudud, har bir mahalla aholisiga etkazish imkonini beradi.

Ma’lumki, bizning vazifalarimizdan biri – bandlikni ta’minlashga ko‘maklashishdir. Bugun bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi axborotlar respublika tashkilotlaridan totib viloyatlar hokimliklari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari veb-saytlarida, ommaviy axborot vositalarida muntazam e’lon qilinmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘sha idora va tashkilotlar faoliyati ochiqligini ta’minlashda katta o‘rin tutadi. Ochiqlik va davlat organlari rasmiy manbalari axborotlarining to‘la-to‘kis mavjud bo‘lishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan tortib barcha-barchani ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratishini izohlashga hojat bo‘lmasa kerak. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari alohida o‘rin tutadi. Chunki aynan ommaviy axborot vositalari globallashuv sharoitida yurtimizda kechayotgan eng muhim voqealar, amalga oshirilayotgan yangilanishlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni keng yoritish orqali davlat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajarmoqda. Demak, ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolik

jamiyatini rivojlantirishda yana bir muhim qadam bo‘ldi. Ommaviy axborot vositalari sohasida yurtimizda mustahkam qonunchilik asosi shakllantirilgan bo‘lib, u izchil takomillashtirib borilmoqda, jurnalistlik faoliyatining erkinligi va kafolatlari ta’minlanmoqda. Mazkur qonun axborotdan foydalanish erkinligini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslarining jurnalistga zarur axborotni, qonunda belgilanganidek, 7 kunlik muddatda taqdim etish majburiyatini ta’minlash orqali ushbu kafolatlarni yanada mustahkamlaydi. Bunday yangilik faoliyatimizda uchrab turadigan axborot olishdagi ba’zi paysalga solish holatlarini bartaraf qiladi, shuningdek, jurnalist materialining tezkorligini, ishonchliligini hamda sifatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari vakillariga davlat organlari faoliyatiga oid axborotlarni to‘siqsiz olishning mustahkam kafolati zarur. Bu borada mazkur qonunning asosiy prinsiplari – axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o‘z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi, oshkoralik, shaffoflik, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi. Qonunda mamlakatimizda oxirgi yillarda shakllangan jamoatchilikni davlat organlari faoliyati haqida boxabar qilish mexanizmlari belgilab qo‘yilgan. Ular orasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot olishga doir so‘rovga javoblar, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay’at yig‘ilishlarida ishtirok etishiga oid tartiblar muhim ahamiyatga egadir.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Axborot almashinuvining milliy-mental, yosh, jins va hayotiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari.
2. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik, ma’naviy va ruhiy zo‘ravonlik.
3. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari. Davlat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlar.

4. “Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi” kurash bo‘yicha ShXT konsepsiyasi.

## 14-seminar

## Mavzu. Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri

Reja:

1. Kompyuterga tobelikning to‘rt bosqichi: moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta’siri, inson hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida.
2. Internet va kompyuter o‘yinlarining paydo bo‘lishi.
3. Virtual tanishuvlar. Virtual o‘yinlarning – yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta’siri.

XXI asrda dunyoning mafkuraviy manzarasi tubdan o‘zgarib, global integratsiya jarayonlarining jadallashuvi yangicha tafakkur uslubini taqozo qilmoqda. Yoshlar, o‘smirlar ongida Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish, mustaqillikning oliy ne’mat ekanligini tushuntirish, millat va xalq manfaati yo‘lida kerak bo‘lsa fidoyilik ko‘rsata oladigan, mustaqilligimizning mohiyatini va qadrini anglaydigan, uni har qanday xavf-xatardan asrashni o‘zining muqaddas burchi deb biladigan, muayyan mutaxassislikni, kasb-hunarni chuqur egallagan, mustaqil, erkin fikrlaydigan, ma’naviy va jismonan barkamol insonni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanib qolmoqda. Bu esa yoshlarda tarixiy voqelikka ob’ektiv baho berish va to‘g‘ri xulosa chiqarish malakalarini shaklantirishni talab qiladi.

Ayni davrda yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli xil vayronkor g‘oyalarning kirib kelishi ayniqsa, internet tarmog‘i orqali ko‘proq ko‘zga tashlanyapti. Bu jarayon farzandlarimizning kompyuter texnologiyalari, turli kompyuter o‘yinlariga qiziqishining ortishi bilan ham bog‘liq. Ularning bu qiziqishlaridan buzg‘unchi g‘oya targ‘ibotchilari o‘z maqsadlari yo‘lida samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Boshqacha aytganda, «o‘yinbozlik»

jamiyatning ma’lum bir qismiga tahdid ekanligini yaxshi biladigan ekstremistlar o‘smirlar, yoshlar ongini shu yo‘l bilan egallashga harakat qilmoqda.

«Olimlar I. P. Korolenko va T. A. Donskix o‘yinbozlik alomatlarini shunday tasniflashgan:

1. O‘smirning o‘yinda o‘tkazayotgan vaqti miqdorining oshib borishi
2. Oldingi odatlar, qiziqishlar doirasi torayib, o‘yin haqida ko‘proq o‘ylashi;
3. Yutsa ham, yutqizsa ham o‘yindan chiqa olmasligi;
4. O‘yin boshlanishini orziqib kutish, o‘yinsiz qolganda bezovta bo‘lib, asabiylashish;
5. Tobora ko‘proq o‘ynash istagi, o‘yinga tobora ko‘proq narsa tika borish
6. O‘yindan o‘zini to‘xtata olmay qolishi. «Bo‘ldi, o‘yinni tashladim», – deydi, biroq oldin birga o‘ynagan sheriklarini ko‘rsa, o‘yin haqida gap ochilsa, o‘yingohning yonidan o‘tayotganda qaroridan tez aynib qoladi;
7. Ota-onasidan o‘yinga pul olish uchun yolg‘on gapirishi, o‘g‘irlik qilishi;
8. Oila a’zolaridan, shifokorlardan va boshqalardan o‘zining o‘ta o‘yinparastligini yashirib, yolg‘on gapirishi kabilar o‘smirning o‘yinparastligidan dalolat beradi».

Ko‘rinib turibdiki, o‘smirlik davrida tarbiyaga jiddiy yondashmaslik, farzandning xatti-haraktlariga nisbatan befarqlik natijasida ko‘pchilik hollarda farzandni qo‘ldan chiqarish mumkin. Zero, «o‘yinbozlik»ning oqibati yoki turli informatsion o‘yinlarga mukkasidan ketish natijasida nafaqat mutaassiblik, balki turli xil kasalliklarning kelib chiqishi ham kuzatilyapti. Ya’ni internet o‘yinlariga ishqibozlik oqibatida miya faoliyati bilan bog‘liq insult, ludomaniya, ruhiy kasalliklar, aksariyat hollarda yuragi yorilib o‘lish kabi salbiy oqibatlar ko‘zga tashlanyapti. Bu esa rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi.

Demak, tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish, farzand tarbiyasini doimiy nazorat qilish g‘oyat muhim. Farzandga internetni butunlay cheklash mumkin emas.

Ta’qiqlangan narsaga nisbatan bolada qiziqishning kuchayishi tabiiy. Turli xil kompyuter o‘yini, ya’ni «aksion», «strategiya» yoki «shuter» kabi bir qator o‘yinlarning qay biri bo‘lishidan qat’iy nazar bolani jazavaga tushish, tajovuzkorlik, ruhiy buzilishlardan asrash uchun internetdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish muhim. Boshqacha aytganda, internet global tarmog‘i insoniyat hayotiga qandaydir o‘yinlarni o‘ynab huzurlanish uchun emas, balki ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilmiy ma’lumot va axborotlarni olish imkonini yaratish maqsadida kirib kelgan.

Darhaqiqat, bolaning fiziologik va aqliy rivojlanishi bevosita tarbiya jarayoniga bog‘liq. Bu jarayonni ota-onalar mas’uliyat bilan sidqidildan amalga oshirishga majburdirlar. Azaldan farzand tarbiyasida muhim o‘rin egallab kelgan, uning dunyoqarashi shakllanishiga xizmat qiladigan, faoliyat mezonini ezgulikka yo‘naltiradigan milliy o‘yinchoqlar o‘rnini qandaydir odam o‘ldirib huzurlanishga yo‘naltirilgan internet o‘yinlari egallab olishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ma’lumki, o‘sib kelayotgan bola beg‘ubor bo‘lgani bois ro‘parasidagi odamdan yomonlikdan kutmaydi. Xuddi shu tariqa bola uchun qiziqarli bo‘lgan o‘yinlarning salbiy oqibatlarga olib kelishi uning xayoliga ham kelmaydi. Ularni hushyorlikka o‘rgatish, tushuntirish ishlarini olib borish, eng asosiysi, ko‘ziga chiroyli ko‘ringan narsalarga mahliyo bo‘lib ketadigan darajada nodonlik botqog‘iga botmasligining oldini olish ota-ona va pedagoglarning jamiyat oldidagi ajralmas burchidir.

N. Komilov ta’kidlaganidek: «Odam qanchalik nodon bo‘lsa, u xurofotga, so‘zlar sehriga, shakllarga mahliyo bo‘ladi, rasm-rusumga, aqidalarga shuncha beriluvchan bo‘ladi. Va, aksincha, odamning ma’rifati, bilimi oshgan sari, u ...mazhabparastlikdan, aqidaparastlikdan yuqori ko‘tarilaveradi.».

Barkamol avlod tarbiyasida oila ilk maktab vazifasini o‘taydi. Bolani yoshligidan yolg‘on gapirmaslikka, to‘g‘ri fikrlashga, har bir narsadan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish dastlab oilada amalga oshiriladi. Farzandlarimizni internet boshqarishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Shunday ekan, farzandlarimizni ko‘zlariga chiroyli ko‘ringan narsaning tashqi tomoniga emas, balki mohiyatiga e’tibor berishga o‘rgatish, “o‘yinbozlik” kasaliga duchor bo‘lishdan asrash uchun barchamiz birdek mas’ulmiz. Internet-bu davr talabidir. Hozirgi kunda internet hayotimizning bir bo‘lagiga aylangan. Internet-bizlar uchun juda ham engilliklar va qulayliklarga egadir.

Uzog‘imizni bizga yaqin qiladi va o‘zimiz uchun kerakli barcha ma’lumotlarni internet orqali izlab topmoqdamiz. Internetdan qanday foydalanish o‘zimizning qo‘limizda. Har bir narsaning o‘ziga yarasha foydasi bo‘lgani kabi, shunga yarasha zarari ham bor. Hozirda internetdan hammaham yaxshi maqsadda foydalanmayapti. Internetdagi vertual video o‘yinlar yoshlariga o‘z ta’sirini o‘tkazyati. Ularning ma’naviy ongiga va ruhiyatiga futur etkazyapti. Bu vertual o‘yinlarni  Amerika tibbiyot uyushmasi videoo‘yinlarga berilib ketishni rasman aqliy zaiflik kasalliklari qatoriga kiritish niyatida. Shifokorlarning fikricha, bu kasallik kuniga ikki soatdan ortiq o‘yin o‘ynaydigan har qanday kishi salomatligiga xavf soladi. Bu internetdan ko‘ngilxushlik izlaydiganlarga ham tegishli.

Kompyuter o‘yinlarining keragidan ortiq mashhur bo‘lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta’siri tibbiyotchilarni ko‘pdan beri tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Hozir dunyodagi juda ko‘p mintaqalar, jumladan, Yevropa mamlakatlarida internetga asirlik xastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar bor. Bunga misol qilib Koreyada va Yevropa davlatlarida bo‘lib o‘tgan voqealarni aytib o‘tishlikni joiz,-deb topdik. Janubiy Koreyada harbiy-strategii o‘yinlar kuliga aylangan 28 yoshli yigit olamdan o‘tdi. Ma’lum bo‘lishicha, u uch kecha-kunduz davomida o‘yinxonadan chiqmagan. Faqat

hojatxonaga chiqish va gohida ozgina mizg‘ib olish uchun o‘yin stolidan nari ketgan, xolos. Bungacha o‘g‘li necha kundan buyon bedarak ketganidan xavotirga tushgan ona yordam so‘rab, bolasining sobis hamkasblariga murojaat qiladi. O‘g‘il o‘yinlarga berilib ketgani otsibatida bir oy oldin ishdan haydalgan edi.

Sobiq hamkasblar “o‘yin bandasi”ni juda oson topishdi. U yaqin oradagi o‘yinxonada edi. O‘yinlar quli darhol uyga etib borishi kerakligi haqidagi iltimoslarga: “O‘yinning shu bos’hichini oxiriga etkazib ko‘yay, albatta boraman”, - deb javob beradi. Birok, bu gapidan bir necha daqiqa o‘tib, u yurak xurujidan vafot etadi. Tashxisga ko‘ra, yurak xuruji qattiq charchoq holatining haddan ortiq cho‘zilib ketishi bois yuzaga kelgan. Kompyuterda soatlab, kunlab o‘tirib, turli vertual mukofotchalarni, yutuqlarni “qo‘lga kiritgan” kishi uchun ular chinakamiga qimmatli ma’no kasb eta boshlaydi. Bunday ball va yutuqlar “sodiq” o‘yinchilar orasida sotiladi, xarid qilinadi. Bunday ishga esa pul ayamay sarflanadi. Masalan, “Rgojest Yentropia ” o‘yiniga mukkasidan ketgan avstraliyalik Devid Stor ismli talaba 35 ming AQSh dollari evaziga virtual orol sotib oldi.

Bu orolda eski qal’a, bir qancha cho‘milish va turli maxluqlarni ovlash uchun maxsus joylar bor. Lekin bu joylar faqat tasavvurda, kompyuter ekranidagina, xolos. Juda ko‘p o‘yinlar odamlarni, hayvonlarni shafqat-sizlarcha o‘ldirish, qon to‘kish sahnalari asosiga qurilgan. Bunday ayanchli lavhalar nafaqat yoshlarning, hatto yoshi kattalarning ongiga ham juda kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “STA”, “Snayper” va “Qotil” kabi o‘yinlarga berilganlarning ba’zilari keyinchalikhaqiqiy qotilga aylanishgani fikrimiz dalilidir.

—2002 yili amerikalik Shon Villi ismli 21 yoshli yigit o‘zini o‘zi peshonasidan otib o‘ldirdi. Aniqlanishicha, u “EverQuest” nomli kompyuter o‘yiniga mukkasidan ketgan ekan. Uning o‘sha o‘yinda yutqazib, yig‘gan ballari

va mukofotlaridan ajralganiga chidayolmay, o‘z joniga qasd qilgani ma’lum bo‘ldi.

—2004 yili Buyuk Britaniyada 17 yoshli Uorren Leblan 14 yoshli Stefan Pakirning joniga qasd qildi. Sud jarayonida ayblanuvchi “MapNipS kompyuter o‘yini ta’siriga tushib qolganini aytadi.

Bu hikoyalarning barchasining tub zamirida bizlar uchun hikmat bordir. Bularning barchasidan ibratlanishimiz kerak. Internetdan ham yaxshi tomonlama foydalanishimiz kerak. Chunki, har birimiz  Qiyomat kunida qilib o‘tgan yaxshi-yu yomon ishlarimizdan  so‘ralurmiz. Yaxshilik ham yomonlik ham o‘zimizning qo‘limizda.

“Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, Illat izlaganga illatdir dunyo”

Hozir vertual o‘yinlar keltirib chiqarayotgn illatlar, yoshlarni halokatga gririftor etayotgani va nobud qilayotgani haqida so‘z yuritmoqchimiz. Shuningdek, Islom dinida bunday ishlarga berilmaslik haqidagi ko‘rsatmalariga ham to‘xtalmoqchimiz.

Hozirgi kunda Amerika tibbiyot uyushmasi videoo‘yinlarga berilib ketishni ham rasman aqliy zaiflik kasalliklari qatoriga kiritish arafasida. Shifokorlarning fikricha, bu kasallik kuniga ikki soatdan ortiq o‘yin o‘ynaydigan har qanday kishi salomatligiga xavf soladi. Bu internetdan ko‘ngilxushlik izlaydiganlarga ham tegishli albatta. Kompyuter o‘yinlarining keragidan ortiq mashhur bo‘lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta’siri tibbiyotchilarni ko‘pdan beri tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Hozir dunyodagi juda ko‘p mintaqalar, jumladan, Yevropa mamlakatlarida internetga qullik hastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar ko‘paymoqda.

Ma’lum qilinishiga ko‘ra, tadqiqotchi Hilmiy Xidir Soriy “internet orqali bog‘lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri” mavzuida 471 kishi o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovlar natijalariga ko‘ra, internetga mutelik oqibatida ijtimoiy va ruhiy yolg‘izlik muammosi ko‘payayotgani aniqlangan. Sarosima, tushkunlik, xavotir, farzandlarning internet bilan mashg‘ulligi sababli yosh oilalardagi

kelishmovchiliklar, yoshlarning oila a’zolari bilan aloqalari beqarorlashuvi ushbu muammoning asosiy alomatlari sifatida ko‘rsatilmoqda. Bunga Ustozimiz Aydarbek Tulepovning “Internetdagi tahdidlardan himoya” asarida keltirilgan voqiani misol qilib keltirish mumkin.

Janubiy Koreyada harbiy-strategik o‘yinlar quliga aylangan 28 yoshli yigit olamdan o‘tadi. Ma’lum qilinishiga ko‘ra, u uch kun davomida o‘yinxonadan chiqmagan ekan. Faqat hojatxonaga chiqish va gohida ozgina mizg‘ib olish uchun o‘yin stolidan nari ketgan, xolos. Bungacha o‘g‘li necha kundan buyon bedarak ketganidan xavotirga tushgan ona yordam so‘rab, bolasining sobiq haskasblariga murojaat qiladi. O‘g‘il o‘yinlarga berilib ketgani oqibatida bir oy oldin ishdan haydalgan edi. Sobiq hamkasblar “o‘yin bandasi”ni juda oson topishadi. U yaqin oradagi o‘yinxonada edi. O‘yinlar quli darhol uyiga etib borishi kerakligi haqidagi iltimoslarga: “O‘yinning shu bosqichini oxiriga etkazib qo‘yay, albatta boraman”, - deb javob beradi. Biroq bu gapidan bir necha daqiqa o‘tib, u yurak xurujidan o‘ladi. Tashxisga ko‘ra, yurak xuruji qattiq charchoq holatining haddan ortiq cho‘zilib ketishi sabab yuzaga kelgan edi.

Kompyuterda soatlab, kunlab o‘tirib, turli vertual qo‘shtirnoq ichidagi mukofotchalarni, yutuqlarni “qo‘lga kiritgan” kishi uchun ular chinakamiga qimmatli ma’no kasb eta boshlaydi. Mana shunday ball va yutuqlar “sodiq” o‘yinchilar orasida sotiladi, xarid qilinadi. Bunday ishga esa ayamay pul sarflanadi. Masalan, “Project Entropia” o‘yiniga mukkasidan ketgan avstraliyalik Devid Stor ismli talaba 35 ming
AQSh dollari evaziga vertual orol sotib oladi. Bu orolda eski qal’a, bir qancha cho‘milish va turli maxluqlarni ovlash uchun maxsus joylar mavjud. Lekin bu joylar faqat tasavvurda, kompyuter ekranidagina, xolos.

Juda ko‘p o‘yinlar odamlarni, hayvonlarni shafqatsizlarcha o‘ldirish, qon to‘kish sahnalari asosiga qurilgan. Bunday ayanchli lavhalar nafaqat yoshlarning, hatto yoshi kattalarning ongiga ham juda kuchli salbiy ta’sir

ko‘rsatmoqda. “GTA”, “Snaypir”, “Qotil”va boshqa ana shular kabi o‘yinlarga berilganlarning ba’zilari keyinchalik haqiqiy qotillarga aylanishgani fikrimizga yaqqol dalil bo‘ladi.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari orqali tez-tez eshitib qolamiz: G‘arb mamlakatlarida maktab o‘quvchilari, o‘smir yigit-qizlar o‘z ota-onalari, o‘qituvchilari, tengdoshlari o‘limiga sabab bo‘lishmoqda. Bunday dahshatli voqealar G‘arb bolalariga vertual olam berayotgan “**tarbiya**”ning zaharli mevasi ekani achchiq haqiqatdir.

Kompyuter o‘yinlari kabi behuda va talofatli ishlarga sho‘ng‘ishni Islom dini qoralaydi. Chunki buning natijasida bolaning imon-e’tiqodi zaiflashib, shaytonning quliga aylanadi va uning nayranglari bo‘yicha ish qiladi. Oqibatda o‘zi ham halok bo‘ladi. Shunday ekan, bu haqda tafakkur qilib, aql yuritishimiz lozim.

## Nazorat uchun savollar.

1. Kompyuterga tobelikning to‘rt bosqichi: moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta’siri, inson hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida.
2. Internet va kompyuter o‘yinlarining paydo bo‘lishi.
3. Virtual tanishuvlar. Virtual o‘yinlarning – yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta’siri.

## 15-seminar

## Mavzu: media maydon va internet imkoniyatlari (2 soat)

Reja:

1. Xozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti.
2. Ijtimoiy tarmoqlar. Forumlar. Blogerlar. Vikilar. Elektron tijorat, auksion, magazin va to‘lovlar.
3. YAngiliklar guruxi (Usenet). Internet-radio, televidenie (IPTV) va telefon (IP). Veb-chatlar (IRC) va reklama.

Axborot bu - insonni, uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlarini, texnik tizimlarni boshqarish vositasidir. Axborot muloqoti shaxsni tarbiyalash, ta’lim berish va shakllantirishning asosini hosil qiladi. Axborot insonga ijtimoiy va texnik me’yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me’yorlarga amal qilmaslikning bo‘lg‘usi salbiy oqibatlari haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi. jahonda sodir bo‘layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda axborot olish va axborot tarqatish maydoni sifatida internetning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Global tarmoq, globallashuv axborot va ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho‘qqisiga yetgan asr.

Shuning uchun ham bugungi kunda XXI asrni axborot asri deb ta’kidlashmoqda. Jahon tajribasidan ma’lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mehnat, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etishi shartlarini o‘zgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi. Har xil axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan sistemalar va ma’lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat mudofaasini boshqarishning ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Bugungi kunda yanada rivojlanib, o’zining yangi yo’nalishlariga ega bo’lib borayotgan internet jurnalistikasi keng qamrovliligi va auditoriyasining chegara bilmasligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy OAV turi hisoblangan internet jurnalistikasi OAV taraqqiyoti, uning vazifalarining kengayishi, ishlab chiqarish va texnika sohasidagi keskin oʻzgarishlar, jurnalistika va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi jurnalistlar oldiga yangi vazifalarni qoʻymoqda.

Bir vaqtning oʻzida yangiliklar yoza oladigan, intervyu olish, rasm va videoga tushirish mahoratini egallay olgan, internet uchun materiallar tayyorlay oladigan universal jurnalistlarni yetishtirish hozirgi kunda muhim. Shu bilan birga ushbu an’anaviy jurnalistik malakaga endilikda yana texnik xarakterdagi matematik va

muhandislik kabi sohalar boʻyicha ham malaka hamda koʻnikmalarni hosil qilishga toʻgʻri kelayapti. Bu, ayniqsa, internetdan foydalanuvchi jurnalistlar uchun juda zarurdir. Shunday qilib, turli sohalarning konvergensiyasi jurnalistlardan ham universallashish, ham ixtisoslashuvni talab etadi. Shu bilan birga universallashuv, toʻgʻrirogʻi, transprofessionallashuv, avvalambor, aynan bir sohani toʻliq oʻzlashtirib olishni taqozo etadi. Universal jurnalist bu muayyan bir sohani toʻliq egallagan mutaxassis ham demakdir. Aynan mana shu narsa bir-biriga yaqin boʻlgan ixtisosliklarni tezlikda oʻzlashtirib olish imkonini beradi. Yuzaki yondashuv, barcha narsani shunchaki bajarish professional vazifani amalga oshirish uchun yetarli emas. Medialarning birlashuvi, ya’ni konvergensiya sharoitida jurnalist ijodi oʻzining koʻp qirraligi, axborotni qisqa, faktlarga asoslangan holda, zamonaviy talablarga mos ravishda tezkor uzatishi bilan ajralib turadi.

Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi sharoitida media va axborot savodxonligiga ega boʻlgan jurnalistlarning ijodiy faoliyati sifat bosqichiga koʻtariladi. Shuningdek, universallashuv jarayoni jurnalistlarni quyidagilarni bajara olishlariga sharoit yaratdi: • dolzarb, ijtimoiy axborotni yaratish; • mavjud ijtimoiy jarayonlarni tankidiy jihatdan tahlil eta olish; • medianing ijtimoiy jarayonlarga ta’sir etish koʻlami va darajasini, unda axborotni namoyish etish shakllarini tushunish; • ularning oʻzlarining faol fuqarolik pozitsiyasini namoyish etishda undan foydalanish va ijodiy jihatdan tushunish;

• har taraflama puxta va mustaqil qarorlar qabul qilish;

• atrof-muhit haqida yangi axborot olish;

• umumiylik hissiyotini shakllantirishga koʻmaklashish;

• jamiyat rivojining dolzarb masalalari boʻyicha ommaviy debatlar va dialoglarni ta’minlash va qoʻllab-qoʻvvatlash;

• hayoti davomida uzluksiz ta’limni qoʻllab-quvvatlash;

• oʻz xavfsizligini ta’minlagan va ijtimoiy mas’uliyatni his qilgan holda mediadan foydalanish;

• fuqarolik jamiyati va global axborot tarmogʻini shakllanishi va rivojini qoʻllabquvvatlash . Yuqorida sanab oʻtilganlarning barchasi kun.uz saytida faoliyat yuritayotgan jurnalistlarda namoyon boʻlmoqda. Saytning “Oʻzbekiston yangiliklari”, “Jahon yangiliklari”, “Iqtisodiyot yangiliklari”, “Jamiyat yangiliklari”, “Fan va texnika yangiliklari”, “Sport yangiliklari” ruknlari ostida berilayotgan materiallar respublikamiz va xorijda sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga oʻzgacha, qolipdan chiqqan holda yondoshuv natijasida juda ham oʻqishlidir. Internet tizimida faoliyat yurituvchi jurnalist radio, televideniye, matbuotda faoliyat yurituvchi jurnalistdan albatta farq qiladi. Internet jurnalisti yuqorida tilga olingan jurnalistlarning barcha xususiyatlarini oʻzida mujassam etgan holda oʻz faoliyatini bajarishi lozim. Internet jurnalistining mahorati yangiliklarni baholay olishida bilinadi. Bu jurnalistdan talab qilinadigan asosiy narsalardan biri hisoblanadi.

Yangiliklarni tanlash va ularni baholash internet jurnalisti kundalik faoliyatidagi eng qiyin yumushlardan biri hisoblanadi. Bu jurnalistning tajribasini ham ko’rsatib beradi. Masalan, “kun.uz” sayti jurnalistlari yangiliklarni baholashda mazkur saytning axborot siyosatiga, voqeaning ijtimoiy ahamiyati va dolzarbligiga e’tibor berishadi. Saytda berilgan “Nazorat qiluvchi idoralar mustaqil bo‘lishi kerak. Davlat boshqaruvidagi muammolardan biri haqida” sarlavhasi ostida chop etilgan xabar 2 soat ichida 13 804 marta o’qilganini kuzatish mumkin, bu ham albatta auditoriyaning qiziquvchanligidan dalolat beradi. “Musulmonlar idorasining yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishga doir fatvosi e’lon qilindi” kabi xabarlar ham foydalanuvchilar diqqat-e’tiborini tortib kelmoqda. Internet jurnalistining mahorat qirralaridan yana biri uning tezkorligidir. Agarda 2-3 yil oldin respublikamizda faoliyat yuritayotgan saytlarning salkam 50 foizi muntazam yangilanmagan boʻlsa, bugungi kunda sifatli axborotga boʻlgan talabning oshishi, saytlarning koʻpayishi va axborot bozori uchun kurash OAV maqomiga ega saytlarning har kuni yangilanib turishini taqozo etmoqda.

Buni “kun.uz”, “daryo.uz”, “gazeta.uz”, “qalampir.uz”, “xalq so’zi” saytlari misolida koʻrishimiz mumkin. Ularda berilayotgan bugungi kunning dolzarb

muammolariga bagʻishlangan materiallar foydalanuvchilar xabardorligining oshishiga olib kelmoqda. Agarda saytlar kontenti bilan tanishish dinamikasini kuzatadigan boʻlsak, www. uz portalining xabariga koʻra, bir kunda daryo.uz saytiga 422 496 mingga yaqin foydalanuvchilar kirsa, reytingning uchinchi oʻrnini egallagan “qalampir.uz” saytiga 106 086 mingga yaqin foydalanuvchi kirib, uning mazmuni bilan tanishar ekan. Bu ko`rsatkichlar ham bugungi kunda insonlarning axborotga qanchalik kuchli ehtiyoji borligini ham ko`rsatib bermoqda. Aslida jurnalistlar, o‘z kasbiy vazifalariga muvofiq, axborot vakuumida yashashlari mumkin emas. Blogerlardan olingan ma’lumotlar jurnalistlar tomonidan rasman e’lon qilinmasa-da, baribir ularni kundalik faoliyatlarida nazardan qochirmaydilar.

Zero, an’anaviy OAVning axborotni yashirish odati ularga bo‘lgan ishonchga putur yetkazadi. Natijada odamlar bloglarga o‘xshagan axborot manbalariga murojaat etishga majbur bo‘ladilar. Bunda auditoriyaning professional jurnalistlarga bo‘lgan ishonchi pasayadi, blogerlar mavqei esa oshib boraveradi. Natijada an’anaviy jurnalistikaning reytingi biroz tushib ketishi mumkin. Internet jurnalistining mahorati avvalo jurnalistika konvergensiyasi jarayonida oʻquvchi uchun qiziq boʻlgan faktlarni zudlik bilan har tomonlama, ya’ni matn, video va audio jamlanmasi koʻrinishida yetkazishdir. Bugungi kunga kelib saytlarda (“kun.uz”, “daryo.uz”, “gazeta.uz”, “human.uz”) muhbir bilan birgalikda fotograf va operator faoliyatini kuzatishimiz mumkin, bu albatta ularda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar matn va surat bilan chegaralanib qolmay, axborotni video va audio shaklida ham aholiga yetkazib berishayotganliklarini ko’rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiya agentligi, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiatsiyasi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyat ko‘rsatayotgani axborot sohasini rivojlantirish uchun zarur barcha sharoitlar yaratilganidan yana bir dalolatdir.

Soha xodimlarini rag‘batlantirish, yangidan-yangi ijodiy parvozlar sari da’vat etish, kasb malakasi va mahoratini yuksaltirish, zamon talabiga uyg‘un mutaxassis

kadrlar tayyorlash borasidagi ishlar koʻlami tobora kengaymoqda. Bu jihatlar jurnalistikamiz rivojiga xizmat qilayotgan turli koʻrik-tanlovlar, ijodiy bellashuvlar, grant-loyihalar, ijtimoiy dasturlarda ham oʻz ifodasini topmoqda. Bu borada jurnalistlar oʻrtasida oʻtkazib kelinayotgan “Oltin qalam” Milliy mukofoti, “Yilning eng faol jurnalisti”, «Eng ulugʻ, eng aziz» singari tanlovlar, ”Jurnalistlar bahori”, “Ijtimoiy media maxsulotlar milliy festivali”, “Ozod yurt toʻlqinlari” kabi mediafestivallar ijod ahlining jamiyatdagi faolligini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirish, iqtidor sohiblarini ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. OAV uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishiga ham katta e’tibor berilmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston Milliy universitetining jurnalistika, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetlarida, shuningdek, Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universitetida soha uchun kadrlar tayyorlanmoqda va hozirgi tez oʻzgarayotgan globallashuv davrida jurnalistikaning oʻziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bogʻliq masalalarni chuqur oʻrganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot va ijodiy ishlar samaradorligini ta’minlash hamda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish yoʻlida ish olib borilmoqda. Milliy ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarish, jahon andozalari talablari darajasida faoliyat koʻrsatishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ijodkorlar mehnatini qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish borasida doimiy e’tibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatilib kelinmoqda. “Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning oʻzi hayotimizga keskin sur’atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari Oʻzbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz boʻlgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yoʻlida gʻoyat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qoʻymoqda. Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, oʻz soʻzi uchun ma’sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma’naviy jasorat ham

talab etiladi”, — degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida.

Davlat rahbarining biz jurnalistlarga yuksak ishonchi, har tomonlama qo`llab quvvatlanishi, sharafli kasb egalari oldiga yuksak va sharafli vazifalarni yuklaydi. “Hamma davrlarda ham jurnalistlarga oson bo‘lmagan. Bu kasbni bilib turib tanlaganmiz. Jurnalistika kurashishni talab qiladigan soha. Matbuot va ommaviy axborot vositalarini to‘rtinchi hokimiyat darajasiga chiqishini istaymiz. Bugun biz shu kuchga to‘laqonli ega bo‘lish uchun harakat qilyapmiz. O‘zbek jurnalistikasining erkinligi, yutuqlari haqida gapirilganda ko‘pchilik avvalgi davr bilan qiyoslashga o‘rganib qoldi. Bunday solishtirish u qadar to‘g‘ri emas, nazarimda. Chunki jurnalistikamizni avvalgi vaziyati bilan qiyoslagandan ko‘ra, “Aslida jurnalistika qanday bo‘lishi kerak?” degan savol nuqtai nazar bilan qarashimiz lozim. Sohamizning bugungi natijalari uchun kimgadir rahmat aytishimiz shart emas. O‘zi shunday bo‘lishi, bundan ham yaxshiroq bo‘lishi kerak-da.

Hamkasblarimga shuni aytgan bo‘lardimki, oldinga yanayam katta maqsadlar qo‘yib, haqiqiy to‘rtinchi hokimiyat bo‘lishga intilaylik. Bilasizmi, demokratiya ancha rivojlangan davlatlarda matbuot va ommaviy axborot vositalariga nisbatan birinchi hokimiyat sifatida ham qarashadi. Bu jurnalistikaning kuchida ko‘rinadi. Shuning uchun kuchli mamlakatlarda kuchli jurnalistika barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida o‘zini ko‘rsatgan. O‘zbek jurnalistikasi ham ana shunday maydonga chiqishi kerak. Buning uchun esa eng avvalo, jamiyatning, iqtisodiyotning rivojlanishida shaffoflik muhim.

Nima uchun aynan 27 iyun – Matbuot va OAV xodimlari kuni sifatida nishonlanishini bilasiz-ku. Chunki bu kunda ilk milliy nashrimiz “Taraqqiy” chop etila boshlangan. Bu kunni bayram sifatida nishonlar ekanmiz, mustamlakachilik zamonidagi o‘sha og‘ir vaziyatlarda milliy matbuotimizning poydevorini qo‘ygan insonlardan shijoatni, jasoratni o‘rganaylik, ulardan ruh olaylik. Ular millat qayg‘usi bilan yashagan.” “Rost24.uz” sayti bosh muharriri Anora Sodiqova o’zining “Hurriyat” gazetasi 2021 yil 27 iyun soniga bergan intervyusida jurnalistika

sohasidagi yutuq va kamchiliklar haqida o`z qarashlarini bayon etgan. Axborot (Informatsiya) termini “information” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, ma’lumot berish, tushuntirish ma’nosini anglatadi2 . Qadimdan bu tushuncha orqali odamlar o‘rtasida og‘zaki, yozma va boshqa usullar vositasida ma’lumot almashinish tushunilgan. “Informasiya” tushunchasiga keng, har tomonlama izohni kibernetika beradi. Uning asoschisi Nobert Viner shunday yozadi: “Informasiya bu tashqi olamdan olingan ma’lumot mohiyatiga bizning moslashuvimiz va bizning xis-tuyg‘ularimiz moslashuvi jarayoni bilan izohlanadi”3 . Ikkinchi tomondan “informasiya” tushunchasi “ma’lumot bilan ta’minlangan, ya’ni axborot uzatish va uni ommaviylashtirish” ma’nosini ham anglatadi.

Axborot - inson va jamiyat hayotidagi o‘ziga xos hodisadir. Bir tomondan, axborot bu inson va jamiyatning mavjudlik sharoitlariga moslashuv imkoniyatini ta’minlovchi, atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni yig‘ish vositasi bo‘lib, ular asosida inson va jamiyat o‘z ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini amalga oshirish maqsadlarida to‘g‘ri keladigan harakat yo‘nalishini tanlashadi. Masalan, “ko‘chada yomg‘ir yog‘yapti” degan axborot sayrga otlangan kishi uchun soyabon olish zarurligi haqida qaror qabul qilishga yordam beradi. Boshqa tomondan, axborot bu - insonni, uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlarini, texnik tizimlarni boshqarish vositasidir. Axborot muloqoti shaxsni tarbiyalash, ta’lim berish va shakllantirishning asosini hosil qiladi. Axborot insonga ijtimoiy va texnik me’yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me’yorlarga amal qilmaslikning bo‘lg‘usi salbiy oqibatlari haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi. Bugungi kun insonlari kundalik hayotini axborot yoki yangiliklarsiz tasavvur eta olmaydi.

Zamonaviy media makonda juda katta hajmdagi axborotlarni auditoriya har kuni qabul qilyapti. “Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o‘z so‘zi uchun ma’sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma’naviy jasorat ham talab etiladi”4 . Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning o‘zi, hayotimizga keskin sur’atlar

bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo‘lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo‘lida go‘yat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo‘ymoqda”.5 Darhaqiqat, jahonda sodir bo‘layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda axborot olish va axborot tarqatish maydoni sifatida internetning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Global tarmoq, globallashuv axborot va ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o‘zgartirib yubordi.

Bu haqida so‘z yuritganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev quyidagi fikrlarni aytadi: “Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko‘rsatayotgani, ushbu yo‘nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e’tiborga sazovordir. Haqiqatdan ham internet jurnalistlar faoliyatida yangi shakl va uslublarni joriy etdi. Bu borada muammoning yana bir jihatini e’tibordan qoldirmaslik kerak eng avvalo, internet aniq va noaniq bo‘lgan axborot manbaidir. Ikkinchidan, bu global tarmoqda auditoriya ham axborot iste’molchisi, ham axborot tarqatuvchisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. U o‘zida juda ko‘p manbalar va manzillarni jamlagan. Bu yil ham internet jurnalistika bo‘yicha "Eng yaxshi jurnalistik material uchun" nominatsiyasi g‘oliblari taqdirlandi. Turkiston” saroyida "Oltin qalam" milliy mukofoti uchun XV tanlov g‘oliblarini taqdirlash marosimi o’tkazildi. (03.05. 2021). "Eng yaxshi jurnalistik material uchun" nominatsiyasi bo‘yicha birinchi o‘ringa "kun.uz" internet sayti muxbiri Abror Zohidov internet tarmog‘ida mamlakatimiz hayotining turli sohalaridagi islohotlar tezkor va tahliliy yoritilgan materiallari uchun loyiq topildi.

Ikkinchi o‘ringa O‘zA bosh muharriri Abdujalol Taypatov ijtimoiy-ma’naviy mavzudagi materiallari uchun munosib ko‘rildi. Uchinchi o‘rin Nuz.uz internet nashri muxbiri Oliya Taishevaga dolzarb mavzudagi tanqidiy-tahliliy materiallari uchun

berildi.Internetning kashf etilishi insoniyat hayotida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Dunyo aholisining soni hozir yetti milliarddan oshgan bo'lsa, shundan uch milliarddan ziyodi internet tarmog'iga ulangan. 2014-yilgi statistikaga ko'ra, O'zbekistonda ham aholining 40 foizdan ortig'i internetdan foydalanadi va bu raqam yildan yilga o'sib bormoqda. Shunday ekan, internetning foyda va salbiy tomonlari haqida batafsilroq ma'lumot olishga ehtiyoj bor. Ayniqsa, o'zbek tilida bu mavzuda manbalar juda kam. Shu bois "Sahar" maktabi orqali sizlarga internetdan xavfsiz foydalanish mavzusida amaliy mashg'ulot o'tishni niyat qildik.

Internet nima uchun kerak va uning qanday foydalari bor? Ko'pchilik internetdan yangiliklar o'qish, musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kabi, asosan, ko'ngilochar maqsadlarda foydalanadi. Ammo internet insonlarga taqdim etadigan qulaylik va foydalar faqat bulardan iborat emas. Oddiy elektron pochta (email) xizmatini olib ko'raylik. Bir necha soniya ichida maktub yozib, uni komputer yoki telefoningizdagi bitta tugmani bosish orqali dunyoning istalgan joyiga bir soniyada jo'natishingiz mumkin. Internetdan oldin bu mumkinmidi? Albatta, yo'q. Buning uchun ilgari an'anaviy pochta yoki telegraf xizmatlaridan foydalanish lozim bo'lgan. Hozir esa bunga hojat yo'q. Yoki internet orqali savdo qilishni olib ko'ring. Hozir uyingizda o'tirib, internet orqali istagan narsangizni sotib olishingiz va uyingizgacha olib kelib berishlarini buyurtma qilishingiz mumkin. O'zbekistonda ham internet orqali savdo asta-sekin rivojlangib boryapti. Asaxiy.uz, Udobno.uz kabi saytlarni shu yo'lda boshlangan dastlabki qadamlar deb aytish mumkin.

Internet nafaqat siz bilan biz kabi oddiy foydalanuvchilar tomonidan, balki xususiy va davlat kompaniyalari tomonidan ham keng qo'llanilmoqda. Hozir deyarli barcha yirik kompaniyalar o'z xodimlari va mijozlari bilan aloqalarni to'liq internet orqali olib boradi. Yangi mahsulotlarini internet orqali ommaga taqdim etadi, sotadi va boshqa turli xizmatlar ko'rsatadi. Internet hukumatlar ishlarini ham osonlashtirgan. Fuqarolarning deyarli barcha murojaatlari ko'p davlatlarda hozir elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Bu qog'ozbozlik, fuqarolarning idoraga borib rasmiylar bilan yuzma-yuz ko'rishishi, navbat kutib uzoq o'tirishi kabi noqulayliklarni kamaytiradi.

O'zbekistonda ham xuddi shu maqsadda my.gov.uz loyihasining boshlanganini ijobiy va quvonarli hol, deb aytishimiz mumkin.Internetning qanday salbiy jihatlari bor?

Bu ommaviy kommunikatsiya turi dastlab paydo bo'lganda, aksariyat ishlarning elektron shaklga o'tishi oqibatida ko'plab ish o'rinlari boy beriladi, degan xavotirlar bo'lgan. Chunki internetdan oldin bu ishlar qog'ozlar orqali yoki ofis-idoralarda ishchi-xodimlar qo'li bilan amalga oshirilardi. Ammo internetning iqtisodiyot uchun, kompaniyalar uchun keltirgan ulkan foydasi bu xavotirlarni yo'qqa chiqardi. Endigi asosiy xavotir va tahdid internetda shaxsiy va biznes ma'lumotlarini almashishning qanchalik xavfsiz ekani haqida bo'lmoqda. Xavotirlar shu darajada oshdiki, hatto hukumatlar internet tahdidlarining oldini olish uchun ko'proq e'tibor va resurslar ajratmoqda. Kiber xuruj va kiber urush degan atamalar paydo bo'ldi. Bugungi muloqotimizda biz shu keng mavzuning oddiy internet foydalanuvchilariga tegishli bo'lgan qismiga, ya'ni internetda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash yo'llariga e'tibor qaratamiz.haxsiy daxlsizlik (Privacy) va internet xavfsizligi nima?

Internetda foydalanuvchilar uchun eng katta tahdid ularning shaxsiy ma'lumotlari boshqalarning qo'liga tushishi yoki oshkor qilinishi xavfi hisoblanadi. Biz onlayn xizmatlardan foydalanganimizda, ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochta orqali muloqot qilganimizda ko'plab shaxsiy ma'lumotlarimizni internetga kiritamiz. Bular shaxsiy suratlar, bank yoki moliya ma'lumotlari, sog'liqqa oid ma'lumotlar, do'stlarimiz bilan o'zaro maxfiy yozishmalarimiz yoki email va ayrim saytlarga kirish uchun ishlatiladigan login va parollar bo'lishi mumkin. Odatda, bu ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishini onlayn xizmatni taqdim etuvchi saytlar ta'minlaydi, ammo shunday holatlar ham bo'ladiki, bu ma'lumotlaringiz istalmagan uchinchi bir tomon qo'liga o'tib qolishi va ular bu ma'lumotlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi mumkin.

Demak, faqat o'zimizgagina tegishli bo'lgan, boshqalarga bizning roziligimizsiz berilmaydigan barcha ma'lumotlar bizning shaxsiy mulkimiz hisoblanadi va ular ustidan shaxsiy daxlsizlik huquqiga egamiz. Shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi o'z aybingiz bilan yoki xakerlar kabi maxsus hujum uyushtiruvchi shaxs yoki shaxslar

xatti-harakati natijasida sodir bo'lishi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi sizga moddiy va ma'naviy zarar keltirishi mumkin. Bitta misol keltiramiz. Masalan, siz ijtimoiy tarmoqdan foydalanish tartibini yaxshi tushunmasdan, faqat do'stimga yuboryapman, degan ishonch bilan ayrim shaxsiy surat yoki ma'lumotlarni hamma ko'radigan joyga joyladingiz. Yoki hech kimga ko'rinmaydi, deb o'ylab, ijtimoiy tarmoqlarda ayrim saytlarga qo'yilgan shubhali havolalar ustiga bosdingiz; bilmasdan uni o'z sahifangizda baham ko'rdingiz yoki ehtiyotsizlik bilan shubhali saytni ochganingiz uchun sizning roziligingizsiz bu sayt haqidagi ma'lumotlar hammaga ko'rinadigan sahifangizda paydo bo'lib qoldi. Shaxsiy hayotingizga taalluqli bo'lgan bunday ma'lumotlarning boshqalarga oshkor bo'lishi sizning obro'ingizga putur yetkazishi yoki siz haqingizda boshqalarda salbiy tasavvur hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bu ma'naviy zarar hisoblanadi. Bundan tashqari, bu kabi ehtiyotsizlik natijasida sizning nomingiz bilan turli taqiqlangan saytlarga tashrif buyurishlari mumkin. Moddiy zararga bir misol. Agar elektron pochtangizga kelgan shubhali maktubdagi havolani bosib, uni ochsangiz va natijada shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashni maqsad qilgan zararli dastur kompyuteringizga o'rnashib olsa, u kompyuteringiz va elektron pochtangizdagi barcha shaxsiy ma'lumotlarni ko'chirib, ushbu dastur ortida turgan shaxslarga jo'natishi mumkin. O'g'irlangan ma'lumotlar orasida bank va kredit karta ma'lumotlari bo'lishi mumkin va ulardan foydalangan holda kiberjinoyatchilar pulingizni o'marishi turgan gap.

Kiber hujumlar ortida kimlar turadi? Oddiy odamlarni nishonga oluvchi internet xurujlari ortida, asosan, moddiy boylik orttirishni maqsad qilgan jinoiy shaxs yoki guruhlar turadi. Ular odamlarning elektron pochtalari, kompyuter yoki boshqa elektron qurilmalariga kirib olib, shaxsiy ma'lumotlarni o'girlashadi va shu orqali ularning bank yoki kredit karta ma'lumotlarini topib, ulardan pul o'marishadi. Shaxsiy ma'lumotlar, surat va videolarni o'g'irlab, ularni tarqatib yuborish tahdidi bilan odamlarni shantaj qilib, pul talab qilishlari ham mumkin.

Hukumat idoralari ham noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni topish uchun internetdan keng foydalanmoqda.

Agar shubhali yoki bahsli sayt va onlayn resurslardan foydalansangiz va ulardan qanday xavfsiz foydalanish yo'llarini bilmasangiz, hech qanday jinoyat sodir qilmagan taqdiringizda ham, xavfsizlik idoralari e'tiboriga tushib qolishingiz mumkin va bu siz uchun istalmagan noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkin.Internet xavfsizligi nima uchun kerak? Yuqorida tilga olingan noxush holatlarning oldini olish uchun internetdan xavfsiz foydalanish yo'l-yo'riqlarini bilish kerak. Virus va zararli dasturlar hujumidan saqlanish uchun, odatda, maxsus himoya dasturlaridan foydalaniladi. Ammo bu kabi tahdidlarga qarshi eng yaxshi himoya vositasi – internet gigienasiga rioya qilishdir. Ya'ni, internetdan to'g'ri foydalanish qoidalarini bilsangiz va shubhali manbalarni ishonchli saytlardan farqlay olsangiz hamda ularga duch kelganda nima qilish lozimligini bilsangiz, kiber xurujlar qurboni bo'lishingiz ehtimoli juda kam. Emaildan xavfsiz foydalanish yo'llari Elektron pochta – internetning eng qulay, eng kerakli va barcha internet foydalanuvchilari ishlatadigan aloqa vositasi hisoblanadi.

Internetning boshqa har qanday xizmatidan foydalanish uchun, masalan, ijtimoiy tarmoqqa a'zo bo'lish, onlayn savdoni amalga oshirish kabi faoliyatlar uchun, avvalo, elektron pochta manziliga ega bo'lishingiz kerak. *Elektron pochta orqali keladigan xavf turlari* Email orqali keladigan tahdidlarni bir necha turga bo'lish mumkin: Spam – Elektron pochtangizga kelgan va siz olishni istamagan har qanday maktubni "spam" deyish mumkin. Odatda, turli yo'llar bilan odamlarning elektron pochta manzillarini yig'gan guruhlar ulkan emaillar jamlanmasiga ommaviy maktublar yuborishadi. Spam shaklida kelgan maktublar zararsiz bo'lishi va ulardagi ma'lumotlar faqat qaysidir mahsulotning oddiy reklamasi bo'lishi ham mumkin. Ammo siz bu kompaniya mahsuloti haqida reklama olishni istamagansiz va sizning roziligingizsiz email manzilingizni qayerdandir olishib, sizga bu ma'lumotlarni yuborishayotganlari bois, bunday maktublar "spam" hisoblanadi.

Masalan, sizga qanaqadir farmatsevtika kompaniyasidan dorilar ro'yxati va ularning narxi ko'rsatilgan maktub keldi. Sizning bu kompaniyaga hech qanday aloqangiz yo'q yoki ularning mijozi emassiz. Demak, email mangizlingizni qayerdandir qo'lga kiritishgan va sizga reklama sifatida o'z mahsulotlarini reklama qilib xat jo'natishgan. Aslida bu xatda hech qanday zararsiz ma'lumot yo'q, lekin istalmagan axborot sifatida bunday xat ham "spam" hisoblanadi. Ko'plab davlatlarda hatto odamlarning roziligisiz bunday maktublarni yuborish taqiqlangan. Lekin internetdek chegarasiz olamda odamlardan bunday qoidalarga rioya qilishini kutmaganingiz ma'qul. Unutmang, "spam" maktublarda shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashni maqsad qilgan dasturlar joylangan bo'lishi ham mumkin. *"Spam"dan himoyalanish yo'llari:*

- Shaxsiy elektron pochta manzilingizni hech qachon hamma ko'radigan joylarga – ijtimoiy tarmoq, sayt va ommaviy forumlarga qo'ymang.
- Internet xizmatlaridan foydalanishda faqat siz uchun kerakli va xavfsiz ekaniga ishonchingiz komil bo'lgan saytlargagina obuna bo'ling. Ya'ni internetda email manzilingizni kiritish so'ralgan har qanday joyga email manzilingizni kiritavermang. Chunki "spam" maktub jo'natish uchun email yig'adigan soxta sayt va xizmatlar ko'p.
- "Spam" maktublardagi internet manzillari biriktirilgan havolalarni ochmang. Ular orqali komputeringizga ma'lumot og'irlovchi dasturlar o'rnashib olishi mumkin. Hatto "Obunani to'xtating" (Unsubscribe) deb yozilgan havolalarni ham bosmang. Ular sizni aldash uchun shunday so'zlarni yozib qo'yadi, ya'ni aslida siz zararli dastur joylashgan manzilning havolasiga kirayotgan bo'lishingiz mumkin.

Phishing – Bunday tahdid turi email orqali keladigan eng katta xavflardan biri bo'lib, odamlarning shaxsiy ma'lumotini o'g'irlashga qaratilgan bo'ladi. "Phishing" maktublar sizga tanish bo'lgan tashkilot yoki muassasa nomidan yuborilgandek tasavvur uyg'otadi. Masalan, siz biror bank yoki moliyaviy tashkilot bilan ishlayotgan bo'lsangiz, sizga shu bank nomidan maktub yozib, shaxsiy bank ma'lumotlaringizni

so'rashlari yoki havola orqali saytlariga kirib qo'shimcha ma'lumot berish yoki olishni iltimos qilishlari mumkin. Agar maktubdagi havolaga bossangiz, kompyuteringizga ma'lumot o'g'irlovchi zararli dastur o'rnatilishi hech gap emas.

Bunday maktublarning professional tarzda yozilishi, ularda haqiqiy tashkilotlarnning logo rasmlari va jismoniy manzillari qo'yilgani sizni aldab qo'ymasligi kerak. *"Phishing"dan himoyalanish yo'llari:* "Phishing" sifatida ko'ringan shubhali maktublardagi havolalarni hech qachon bosmang. Bunday maktublarga javob bermang va ular so'ragan ma'lumotlarni (masalan, bank va kredit karta ma'lumotlari, parol va hokazo) yubormang. Maktubning tuzilish shaklini tekshiring: professional va imloviy xatolarsiz yozilganmi? Mazmuni va shakli siz bilan tashkilot yoki kompaniya uslubiga to'g'ri keladimi? Unutmang, imloviy xatolarsiz yozilgani ularning haqiqiy va ishonarli maktub ekaniga asos bo'la olmaydi.

Maktubning qanchalik haqiqiy ekaniga ishonch hosil qila olmasangiz, unga javob berish yoki undagi havolani ochib ko'rishdan oldin, shu maktubni yu'organ tashkilot yoki kompaniyaga telefon yoki boshqa yo'l bilan bog'lanib, bu maktubning haqiqatdan ham ulardan kelgan yoki kelmaganini tekshiring. Maktub yuborilgan pochta manzili siz bilgan kompaniya saytining nomi va domeni bilan mosligini tekshiring.

Masalan, www.saharschool.org saytiga tegishli haqiqiy electron pochta info@saharschool.org yoki admin@saharschool.org kabi manzillardan keladi. Birinchi qismi istalgan so'z bo'lishi mumkin, ammo elektron pochta belgisidan (@) keyin keladigan qismiga diqqat qarating. "Phishing" maktublarda *saharschol.org* yoki *saharschool.com* kabi asl manzilga yaqin, ammo aynan o'zi bo'lmagan boshqa yasama saytlar asosida olingan elektron manzildan foydalanishlari mumkin. Saytlarning haqiqiyligini tekshirishda ham shunga rioya qilish mumkin.

Maktubda havola biror so'z ostiga yashiringan bo'lsa, uning qaysi manzilga olib borishini bilishni istasangiz, havolani bosmasdan turib sichqoncha belgisini havola yashiringan so'z ustiga olib boring. Shunda brauzer ostida chap tomonda

havola joylashgan manzil ko'rinadi. Sayt manziliga qarab, uning haqiqiy yoki haqiqiy emasligini bilishingiz mumkin. Unutmang, saytning haqiqiy ekaniga to'liq ishonch hosil qilmaguningizcha, uni ochmang.

Spoofing – Siz taniydigan kimdandir kelgan, lekin aslida u odam jo'natmagan maktublar "spoofing" deyiladi. Xakerlar yoki zararli dasturlar tanishingizning elektron manzili ustidan nazorat o'rnatib, uning nomidan sizga zararli maktublar jo'natayotgan bo'lishi mumkin. Yoki aksincha, sizning elektron manzilingiz zararli dasturlar ixtiyoriga o'tib, sizning nomingizdan boshqalarga shunday maktublar ketishi ham mumkin. Bu nafaqat elektron pochta orqali, balki ijtimoiy tarmoqlardagi maktub yuborish yoki xabar chop etish xizmatlari orqali ham yuz berishi mumkin.

"Spoofing"dan himoyalanish yo'llari:

Do'stingiz yoki tanishingiz yuborgan maktub shubhali ko'rinsa, unga javob bermang yoki undagi sayt manzilini ochmang.

Bu xatning qanchalik haqiqiyligini tekshirish uchun do'stingizga telefon yoki boshqa aloqa yo'llari orqali bog'lanib so'rang.

Agar elektron pochtangizdan siz bexabar boshqa odamlarga "spoofing" maktub borganini yoki borayotganini payqasangiz, zudlik bilan elektron pochtangiz parolini o'zgartiring va bu xat ketgan odamlarga qayta bog'lanib, maktubni siz yubormaganingiz haqida ogohlantirib qo'ying.

*Elektron pochta xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar*

Email manzilingizga kuchli parol o'rnating. Parol uchun sodda so'z yoki raqamlardan foydalanmang. "SplashData" firmasi ma'lumotiga ko'ra, o'tgan yili eng ko'p ishlatilgan parollar 12345, 12345678 va qwerty bo'lgan. Bunday parollarni buzish yoki qo'lga kiritish uchun esa xaker bo'lish shart emas. Iloji boricha, parolingizda bosh harflar, raqamlar va maxsus belgilar jamlanmasidan foydalaning. Masalan, "yaxshilik" degan oddiy so'z va harflardan iborat parolni "YaxshiliK1!" shaklida har xil belgilardan iborat murakkab parolga aylantirishingiz mumkin.

Elektron pochta parolidan boshqa sayt yoki onlayn xizmatlarda foydalanmang. Har bir sayt uchun alohida parol tanlashingizni tavsiya qilamiz.

Yodda tutish uchun parollarni kompyuteringizda yoki boshqa onlayn va elektron qurilmalarda saqlamang. Ularni qog'ozga yozib oling va hech kim bilmaydigan joyda saqlang.

Jamoat komputerlaridan foydalanganda har doim ishlatib bo'lgandan so'ng saytdan yoki elektron pochtadan chiqishni unutmang. Buning uchun "Chiqish", Log out" yoki "Vixod" tugmalarini bosishingiz kerak. Tizimdan chiqmasdan turib oynani (brauzerni) yopsangiz, undagi barcha ma'lumotlaringiz saqlab qolinadi va sahifani kimdir qayta ochganda sizning ma'lumotlaringiz chiqib keladi. Jamoat komputerlari deganda kutubxona, internet kafelaridagi yoki birovga tegishli bo'lgan komputerlarni tushunish mumkin.

Bir necha odamga bitta maktubni yuborishni istasangiz, e-mail manzillari hammaga ko'rinishi mumkinligini hisobga oling. Maktub olgan tomon bu maktub yuborilgan boshqa emaillarni ko'rmasligi istasangiz, pochta manzilllarini "Bcc" (Gmail va Yahoo kabi ingliz tilidagi pochta xizmatlarida) yoki "Скрытая копия" (Mail.ru kabi rus tilidagi pochta xizmatlarida) qatoriga kiriting. Shunda bitta maktubni olgan bir necha odam bir-birining elektron pochta manzilini ko'rmaydi. Bu muhim, chunki maktub yuborilgan tomonlar email manzilining o'zi bilmagan boshqa odamlarga ko'rinishini istamasligi mumkin.aa

Internet brauzeridan xavfsiz foydalanish

Bu bo'limda biz internet brauzerlari haqida so'z yuritamiz. Brauzer bu internetga kirish va veb-sahifalarni ko'rish uchun ishlatiladigan dasturdir. Eng mashhur brauzerlar qatorida Internet Explorer, Firefox, Google Chrome, Opera, Safari kabi dasturlarni sanash mumkin. Bu brauzerlarning hammasi bir xil vazifani bajarsa-da, ular bir-biridan internetga ulanish tartibi, qo'shimcha xizmatlari va ko'rinishi bilan farq qiladi. Quyida internet brauzerlari bilan ishlaganda xavfsizlik yuzasidan e'tibor berish lozim bo'lgan ayrim jihatlarni eslatib o'tamiz.

Har bir brauzer u yerda amalga oshirgan ishlaringiz tarixini, tashrif buyurilgan sahifalar va qidirlgan kalit so'zlarni o'zida saqlab qoladi. Siz ochgan har bir sahifa

internet provayderi va brauzer provayderiga ma'lum bo'ladi va ular serverlarda doimiy saqlanib qolishi mumkin.

Demak, saytlarga qilayotgan tashriflaringiz hech qachon shaxsiy va maxfiy bo'lmaydi. Shuning uchun qanday saytlarga kirayotganingiz haqida mas'uliyat bilan ish tutishingiz kerak.

Kompyuteringizga boshqa odam kirganda, brauzeringiz tarixi ularga ko'rinmasligini istasangiz yoki jamoat kompyuterlarida internetdan foydalanganingizda brauzerlarning "Private" (Maxfiy) degan alohida oynasidan foydalanishingiz mumkin. Hozir barcha ommabop brauzerlarda bunday maxfiy oynalarni ochish imkoniyati mavjud. "Private" oynasida ochilgan barcha saytlar, parol va login ma'lumotlari oyna yopilgandan keyin o'chib ketadi. Unutmang, maxfiy oyna ma'lumotlaringizni internet provayderi yoki brauzer provayderidan yashira olmaydi. U faqat ma'lumotlaringiz brauzerda saqlanib qolmasligini kafolatlaydi, xolos.

Emaildan xavfsiz foydalanish bo'limida aytganimizdek, brauzerlar orqali ham viruslar, shaxsiy ma'lumotingizni o'g'irlashga qaratilgan "phishing" va zararli dasturlar joylashgan saytlar kabi tahdidlar bilan yuzlashasiz. Ularga qarshi himoyalanishda quyidagi maslahatlarga amal qiling.

Avvalo, saytning xavfsiz yoki xavfli ekanini aniqlashda oddiy aql bilan yondashib ish tuting. Shubhali saytlarda, odatda, yolg'on ma'lumotlar yoki to'g'ri bo'lishi ehtimoli juda kam bo'lgan gaplar (masalan, lotereya yutib olganingiz haqidagi xabar) bo'ladi. Bunday saytlarga tasodifan kirib qolsangiz, undagi hech bir havolani bosmasdan, saytni darhol yopishingiz kerak. Agar vebsayt biror tashkilot yoki kompaniyaga tegishli ekani da'vo qilingan bo'lsa, uning nomi to'g'ri yozilganmi, farqli yoki imloviy xatolar bilan yozilmaganmi, shuni tekshiring. Qaysidir haqiqiy bir tashkilot nomini o'g'irlab, ular nomidan yaratilgan qalbaki saytlarda, odatda, haqiqiy kompaniya sayti nomidagi ayrim harflar o'zgartirilgan shaklda bo'ladi.

Masalan, saharschool.org sayti haqiqiy bo'lsa, uning soxta ko'rinishi www.saharschol.org yoki www.saharschool.com shaklida bo'lishi mumkin.

Agar sayt http:// belgisi bilan boshlangan bo'lsa, saytning shubhali ekani ehtimoli yanada oshadi. Ishonchli va katta saytlarning deyarli barchasi hozir https:// protokoli bilan ochiladi. https belgisi saytning xavfsizlik sertifikatiga ega ekanini bildiradi.
Biror saytga kirish uchun uning sizga ma'lum manzilini brauzerga yozib kiritganingizda, ENTER tugmasini bosishdan oldin, manzilni to'g'ri yozganingizga yana bir bor ishonch hosil qiling. Agar bir dona so'zni xato yozgan bo'lsangiz, haqiqiy saytga o'xshagan, lekin qalbaki bo'lgan boshqa bir saytga kirib qolishingiz mumkin.
Pul o'tkazish xizmatlari orqali pul yuborishni talab qiladigan saytlar, odatda, soxta bo'ladi. Masalan, sizga xorijdan ish topib berishni va'da qilgan va xizmat haqi uchun Moneygramdan pul yuborishingizni so'ragan saytdan ehtiyot bo'ling.
Brauzeringizni muntazam yangilab turing. Uning yangi versiyasi chiqsa, uni saqlab olib, shu yangisini o'rnating. Komputer qurilmalaridan xavfsiz foydalanish Brauzer orqali internetdan kirib kelgan zararli dasturlar, odatda, kompyuter yoki boshqa elektron qurilmangizga o'rnashib olib, uning xotirasidagi shaxsiy ma'lumotlarni qidirib topishga va ularni jinoiy egalariga jo'natishga urinadi.

Buning oldini olish uchun qurilmalarni qanday himoyalash lozimligi haqida ham ayrim maslahatlarni beramiz.

*Komputer va noutbuklarni himoyalash yo'llari:*

Kompyuter yoki noutbukingizdagi "Firewall" himoya dasturi doim yoniq tursin. U internet va boshqa tarmoqlardan keladigan hujumlarni qaytarishda eng samarali qurol hisoblanadi. Odatda, Windows va Mac operatsion tizimlarida "Firewall" dasturi oldindan o'rnatilgan bo'ladi. Komputer/noutbukingizga antivirus dasturini o'rnating. Windows 7 va undan yuqori versiyadagi operatsion tizimlarga antivirus dasturi (Windows Defender) o'rnatilgan bo'ladi va ular, odatda, deyarli barcha internet tahdidlarini qaytarishga kifoya qiladi (Albatta, internetdan mas'uliyat bilan foydalanganingizda). Mac operatsion tizimida ishlovchi kompyuterlar ham internet tahdidlariga bardoshli ekani bilan taniqli va odatda, ularga ham qo'shimcha antivirus dasturini o'rnatishga hojat bo'lmaydi. Windowsning boshqa, eskiroq

versiyalarini ishlatuvchi foydalanuvchilarga ayrim bepul antivirus dasturlarini tavsiya qilamiz: Internetdan bo'ladigan yangi tahdidlarga qarshi muhim himoya vositalariga ega bo'lish uchun operatsion tizimdagi yangilanishlarni (update) o'z vaqtida ko'chirib olib, tizimni yangilab boring. Shubhali narsalarni, dasturlarni aslo komputer/noutbukingizga ko'chirib olmang va ularni o'rnatmang.

Ular ma'lumot o'g'irlovchi yoki komputeringizni buzuvchi zararli dasturlar yoki viruslar bo'lishi mumkin. Antivirus dasturlari o'rnatilgan taqdirda ham, ayrim viruslar o'tib ketishi mumkin. Ishlatmayotgan paytingiz komputer yoki noutbukingizni o'chirib qo'yishga odatlaning. Birovlarning diski yoki USB-drive xotira fleshkalarini komputer/noutbukingizga ulashda ehtiyot bo'ling. Ular virus bilan zararlangan bo'lishi mumkin. Agar bitta komputerni birdan ortiq odam ishlatsa, har bir foydalanuvchi uchun alohida profil (account) oching. Komputerdagi ma'lumotlarni har doim saqlab (backup) qo'ying. Ularni alohida xotira disklarida yoki onlayn axborot saqlash saytlariga ko'chirib qo'yishingiz mumkin.

Google Drive va Dropbox kabi ma'lumot saqlash xizmatini taqdim etuvchi saytlarda bepul 15-20 Gigabaytgacha joy olishingiz mumkin. *Mobil qurilmalarni himoyalash yo'llari:* Yangi avlod vakillari borgan sari internetga, asosan, mobil qurilmalar orqali kirishga odatlanmoqda. Kompyuterlar orqali bajariladigan barcha ishlarni, masalan, savdo qilish, bank xizmatlaridan foydalanish, ijtimoy tarmoqlarga kirish kabi faoliyatlarning barchasini hozir maxsus dastur-ilovalar yordamida telefon yoki planshet orqali amalga oshirish mumkin. Sunday ekan, ularni ham himoyalashga ehtiyoj borgan sari oshib bormoqda. Quyida mobil qurilmalarni qanday himoya qilish bo'yicha ayrim maslahatlarni beramiz. Telefon yoki planshetingiz ekranini doim parol bilan qulflashga odatlaning. Parolingiz murakkab bo'lishiga diqqat qarating. Ishlatmayotgan paytingiz, qurilma ekrani avtomatik qulflanadigan bo'lsin. Telefoningizni boshqalarga bermang.

Undagi ma'lumotlarni kompyuterga yoki onlayn axborot saqlash saytlariga ko'chirib boring. Masalan, Apple mobil qurilmalarida iCloud xizmati orqali ma'lumotlaringizni onlayn serverlarga ko'chirib o'tkazish va ularni maxsus kodlar

yordamida shifrlab qo'yish (encryption) mumkin. Andoid tizimidagi telefon egalari esa Google Drive yoki boshqa axborot saqlovchi xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Nozik va shaxsiy ma'lumotlar mavjud sms-xatlari yoki elektron maktublarni telefoningizda saqlamang. Ularni o'chirib tashlang. Bunday xat yuborganlarni bloklab qo'yishingiz ham mumkin.

Shubhali bo'lgan dastur-ilovalarni ko'chirib olmang. Shubhali saytlarga kirmang. Maxsus dastur yordamida telefoningizdan o'chib ketgan rasmlar, maktublar, telefon raqamlari kabi ma'lumotlarni maxsus dastur yordamida qayta tiklashingiz mumkin. Telegram, Whatsapp kabi dasturlardan yoki Facebook, Odnoklassniki kabi ijtimoiy tarmoqlardan ro'yxatdan o'tishda faqat o'z telefon raqamingizdan foydalaning. Chunki boshqa birovning raqamidan foydalansangiz, ular shu raqam orqali sizning parolingizni qo'lga kiritishi yoki siz bexabar bu dastur va tarmoqlardagi sizning profilingizga kirib, faoliyatingizni kuzatishi mumkin. *Telefon yo'qolganda nima qilish kerak?* Agar telefon yoki boshqa mobil qurilmangiz yo'qolib qolsa, avvalo, qurilmangiz mana shunday holatlarda ko'rish lozim bo'lgan choralarga tayyor turishi kerak. Ya'ni, oldindan uni yo'qolib qolganda amalga oshirish lozim bo'lgan ishlarga tayyorlab qo'yishingiz kerak.

Apple va Android telefonlari uchun bu borada alohida maslahatlar: Apple:

"Telefonimni top" (Find my iPhone) xizmatini ishga tushiring. Bu xizmat orqali yo'qolgan telefonning qayerdaligini internet orqali topishingiz mumkin. Shuningdek, ekranini avtomatik qulflab, topib olgan odam sizga bog'lanishi uchun ekranda sizning tel. raqamingiz yoki email manzilingiz ko'rinadigan qilish mumkin. Bundan tashqari, internet orqali telefoningiz ichidagi barcha ma'lumotlarni butunlay o'chirib tashlashingiz ham mumkin. iCloud xizmati orqali barcha ma'lumotlaringizni saqlab boring. Telefoningiz yo'qolgan va qayta topilmagan taqdirda, uning ichidagi barcha ma'lumotlarni iCloud orqali boshqa telefoningizga ko'chirib olishingiz mumkin.

Android: "Google"ning "Android Device Manager" xizmati yoki boshqa yo'qolgan telefonni topishga xizmat qiluvchi dasturlar yordamida yo'qolgan telefoningizni topishingiz, uni qulflab qo'yishingiz yoki undagi ma'lumotlarni o'chirib

tashlashingiz mumkin. Android qurilmangizdagi ma'lumotlarni ham vaqti-vaqti bilan boshqa joyga saqlab turishni unutmang. Uni komputeringizga yoki yordamchi dastur-ilovalar yordamida onlayn axborot saqlash saytlariga ko'chirib o'tkazib qo'yishingiz mumkin. Androidning ichki sozlamalar (Settings) paneli orqali ham "Google"da ochilgan profilingiz bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni saqlab qo'yishingiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar xavfsizligi Ijtimoiy tarmoqlar bugun ko'pchilik uchun internetning asosiy qismiga aylanib ulgurdi.

Ya'ni ko'plab foydalanuvchilar bugun internetga, asosan, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazish uchun kiradi: yangiliklarni ham, video va boshqa ko'ngilochar ma'lumotlarni ham shu tarmoqlardan oladi; do'stlari bilan gaplashadi, suhbat quradi va hokazo. Ommaviy ijtimoiy tarmoqlarga misol sifatida Facebook, Twitter, Odnoklassniki, Vkontakte va Muloqot kabi saytlarni keltirish mumkin. Internet foydalanuvchilarining shaxsiy daxlsizligiga eng katta tahdid hozir ana shu tarmoqlardan kelishi mumkin. Chunki eng ko'p shaxsiy ma'lumotlaringiz, suratlaringiz va hatto kredit karta va bank ma'lumotlaringizni shu saytlarga kiritgan bo'lishingiz mumkin.

Demak, bu ma'lumotlar pand bermasligi uchun ijtimoiy tarmoqlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Bu borada sizga bir necha maslahatlarimiz bor:

Ijtimoiy tarmoqlarga, imkoni boricha, shaxsiy ma'lumotlaringizni kamroq joylashtiring. Shuni unutmaslik kerakki, ijtimoiy tarmoqlar xavfsizlik choralarini qanchalik kuchaytirmasin, u yerga joylashtirilgan ma'lumotlaringiz hech qachon to'la xavfsiz bo'la olmaydi. Eng yomon holatda sayt xakerlar hujumiga uchrab, undagi yashirin suratlaringiz, yashirin yozishmalaringiz bir kunda butun dunyoga oshkor bo'lib ketishi hech gap emas.

Bu yerning ommaviy maydon ekanini unutmang. U yerga biror surat yoki gap yozib qoldirdingizmi, u endi internet serverlariga muhrlanib qoladi va bu gap-ma'lumotlarni sahifangizdan o'chirib yuborgan taqdiringizda ham, u server xotiralaridan o'chmasligi mumkin. Shuning uchun har qanday gap-so'zni yozishdan oldin yetti o'lchab bir kesing. Saytda ro'yxatdan o'tishdan oldin tarmoqdan

foydalanish qoidalari bilan tanishib chiqing. Uzundan uzoq bu qoidalarni ko'pchilik o'qimaydi, ammo bunday saytlar, odatda, mas'uliyatni zimmalaridan soqit qilish uchun ko'p masalalarda to'liq mas'uliyatni foydalanuvchi zimmasiga yuklaydi. Masalan, tarmoqqa qo'yilgan har bir surat saytning mulkiga aylanadi, degan shart bo'lishi mumkin. Agar bu kabi shartlarga rozi bo'lmasangiz, saytga a'zo bo'lmang.

Saytning sozlamalar panelidan (Settings) xavfsizlik bo'yicha mavjud imkoniyatlarni o'rganib chiqing. Yozayotganlaringiz yoki sahifangiz kimlarga ko'rinadi, kimlar sizga xat yoza oladi kabi masalalarda shu paneldan o'zingizga mos holatni tanlab olishingiz mumkin. Shubhali havolalarni ochmang. Ular tarmoqdagi profilingizga kirishni ko'zlovchi zararli dasturlar bo'lishi mumkin. Bu esa sizning nomingizdan do'stlaringizga istalmagan xat va havolalar ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Do'slaringiz bilan qiladigan maxfiy chatlaringiz ham, aslida, kuzatuvdan xoli emas. Sayt ma'muriyati yoki hukumat idoralari, xohlasa, bu ma'lumotlarni ochib ko'ra olishlari mumkin.

## Xulosa

Internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Shu bilan birga xavfsizlik borasida ham muammolar kamaygani yo'q.
Barcha kerakli avtiviris va boshqa axborot xavfsizligini ta'minlovchi dasturlarga ega bo'lsangiz ham, sizning internetdagi faoliyatingiz hech qachon 100 foiz xavfsiz bo'lmaydi. Parolni kuchli tanlash yoki zararli saytlarga kirmaslik orqali sizga bo'ladigan xavf darajasini minimumga tushirishingiz mumkin, ammo agar xakerlar shaxsan sizini hujumga olishni qasd qilsa, ular tahdididan omon chiqishingiz ehtimoli juda kam. Albatta, oddiy odamlarning qasddan qilingan xakerlar hujumiga duch kelishi deyarli uchramaydi. Shuning uchun xulosa sifatida sizga internetdan xavfsiz foydalanish bo'yicha so'nggi tavsiyalarimizni taqdim etamiz. *Imkoni boricha shaxsiy ma'lumotlaringizni internet saytlariga va tarmoqlariga kamroq kiriting.*

*Notanish odamlar bilan muloqot qilmang va ulardan kelgan elektron pochta maktublaridagi sayt manzillarini va ilova qilingan fayllarni aslo ochmang.* So'nggi paytlarda hatto o'zbek tilida ham spam va zararli emaillar kelmoqda. *Shaxsiy*

*maktublaringiz va chatdagi muloqotlaringizni siz va siz aloqa qilayotgan odamdan boshqa hech kim bilmaydi, deb o'ylamang*. Har bir yozgan gap-so'zingiz otilgan o'qdek qayergadir borib saqlanib qoladi yoki kimlardir zimdan kuzatayotgan bo'lishi mumkin.

*Internetni mas'uliyat bilan ishlating*. O'z so'zingizning ortida tura olmasangiz, ya'ni internetda yozgan so'zingiz yoki amalga oshirgan xatti-harakatingiz uchun omma oldida ham uyalmasdan, qo'rqmasdan javob bera olishga ko'zingiz yetsagina, internetda shunday faoliyat bilan mashg'ul bo'ling. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar bilan bahslashganingizda, kimlarnidir yoki nimalarnidir tanqid qilganingizda, shunday holatlarga duch kelishingiz mumkin. *Internetda noqonuniy faoliyat turlari bilan shug'ullanmang*. Nimalar noqonuniy faoliyat turiga kirishi mumkin? Masalan, pornografiya tomosha qilish, zo'ravonlikka, diniy ekstremizga targ'ib etuvchi materiallarni o'qish yoki tarqatish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi oqibatlarga olib borishi mumkin. Demak, internetda ham qonunga itoatkor fuqaro bo'ling.

**Nazorat savollari.**

1. Xozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti.
2. Ijtimoiy tarmoqlar. Forumlar. Blogerlar. Vikilar. Elektron tijorat, auksion, magazin va to‘lovlar.
3. YAngiliklar guruxi (Usenet). Internet-radio, televidenie (IPTV) va telefon (IP). Veb-chatlar (IRC) va reklama.

# ILOVALAR

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

«Tasdiqlayman»
Termiz davlat universiteti
rektori________A.R.Maraximov
«___»__________2023-yil

# MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANINING O’QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi: 111000 – Pedagogika
Talim yo‘nalishi: 60112400–Professional ta’lim (60720700 - texnologik mashinalar va jihozlar

**Termiz – 2023**

| **Fan/modul kodi** MSVAX104 | **O'quv yili** 2023-2024 | **Semestr** 1-2 | **ECTS-Kreditlar** 5 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi** Majburiy | **Ta'lim tili** O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari** 6 |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari** (soat) | **Mustaqil ta'lim** (soat) | **Jami yuklama** (soat) |
| **Media savodxonlik va axborot madaniyati** | **24** | **126** | **150** |

## I Fanning mazmuni

Fanni o‘kitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - talabalarga bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo‘lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblangan muloqot, ma’lumot evolyutsiyasi tarixini o‘rgatish. Chunki, axborot tushunchasi, makon va zamonga xos bo‘lib, u davriy hodisa sifatida turli shakl-shamoyilda namoyon bo‘ladi. Jumladan, sobiq sovetlar davrida axborot taqchilligi yuzaga kelgan bo‘lsa, hozirgi kunda esa jamiyatda axborot oqimi ko‘paygani tufayli, axborotdan “bezish”, uni tahlil qilmay, bor holicha iste’mol qilish jarayoni yuzaga keldi. Global axborot makonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baholash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish.

**Fanning vazifasi:** Ommaviy axborot vositalari va media makonga xos: “raqamli”, “kompyuter”, “vizual”, “texnologik”, “kommunikatsion”, “media”, “axborot”, “ommaviy madaniyat” va “texnokratiya” kabi tushunchalarni talaba-yoshlarga mazmuni, maqsad va vazifalarini anglagan holda foydalanish madaniyatini shakllantiradi. Talabalarda fanni o‘qish natijasida: -ma’lumot, muloqot tushunchasi,

evolyutsiya va tarixiyligi; -media va axborot madaniyati savodxonligining asosiy elementlarini belgilash; -axborot manbalari va

ehtiyojlarini aniqlash; -media savodxonlik va axborot madaniyatini baholash; -axborot (matn)ni tahlil qilish savodxonligini oshirish; -axborot xuruji, tahdid va boshqa turdagi xavfsizlikka qarshi media savodxonlikka oid ma’naviy-madaniy immunitetini shakllantirish; -yoshlarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda qaramlik hissi bilan emas, balki, o‘qibo‘rganishni maqsad qilishi lozim; -kelgusi faoliyatda media savodxonlik va axborot madaniyatini pedagogik faoliyatida qo‘llash usullarini aniqlash; . -milliy axborot xavfsizligini ta’minlash va g‘oyaviy immunitetini shakllantirish.

Media savodxonlik va axborot madaniyati sohasida yetakchi mamalakatlarning ilg‘or tajribalarini ommalashtirishga doir nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. “Media savodxonlik va axborot madaniyati” fanining o‘quv dasturi Massachute, Kembridj universiteti va Finlyandiya ta’lim sohasi tajribasi asosida tahlil qilinib, ishlab chiqildi.

## II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashgulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyusiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati.**

Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasi evolyutsiyasi va dialektikasi. Muloqot va ma’lumot tushunchasining uzviylik va o‘ziga xosligi. Muloqot va ma’lumotning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati va ma’naviy ehtiyojga aylanishi. Media savodxonlik va axborot madaniyati kommunikativ voqea sifatida va foydalanish usullari. Xat (maktub) ilk axborot almashuv shakli. Pochta, gazeta, telegraf, jurnal va radio axborot manbai sifatida. Televideniya-davr taqozosi sifatida.

Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Media savodxonlik tushunchasi, mazmun va mohiyati. Axborot madaniyati tushunchasi mazmun va mohiyati. Axborot olish va foydalanish metodlari. Media savodxonlik va axborot

madaniyatnning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati. Xorijiy mamlakatlarning media savodxonlik va axborot madaniyatining qiyosiy tahlili.

**2-mavzu: Axborotni jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati**.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun-mohiyati. Xabar, ma’lumot, bitim va shartnomalar. Ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallar. Axborot-inson hayotining ajralmas qismi. Axborot turlari: ijtimoiy va madaniy turmush, jamiyat siyosiy va iqtisodiy qarashlar bilan uzviyligi. San’at, sport va ma’naviy hayot. Axborotning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendensiyalari. Medialarning qadriyatlarga tayanishi va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

Axborotlarning shaxs his-tuyg‘ulariga ta’sir muammolari. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ta’sir kuchi, Media qadriyatlar. Axborotning ijtimoiy qatlamga ta’siri. Yangi O‘zbekistonda fuqarolarning faollashuvida media va axborotning ahamiyati. Ommaviy axborot vositalarida axborot, ma’lumot (matn)lar bilan ishlash va uning ommaga ta’sirini belgilash. Axborotda adolat va xolislik prinsiplari

**3- mavzu: Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti.**

Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televidenie va internet jurnalistikasida o‘zaro raqobat muhiti. Aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji. Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muhiti. Matbuotda so‘z va axborot olish erkinligi. Matbuot va ommaviy nashrlarda raqobat. Bloger va vaynerda kasbiy etiket. Axborotning daromad manbayiga aylanishi. Axborotning ison ongiga ta’sir muammolari. Kasb etikasi

**4- mavzu: Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makondagi o‘rni.**

Bosma nashr: “The Times”, “New Times”, “Bloomberg”, “Sabah”. Radio: “Exa Moskva”, “TRT” va “Amerika ovozi” teleradiokompaniyalarining axborotlari tahlili. T. Livettning “Garverd biznes rev’yu” maqolasi haqida. Kenichi Omasning “Chegarasiz dunyo” asarining globallashuvdagi ahamiyati. “Olomoncha madaniyat” oqibatlari. Hozirgi globallashuv integratsiyalashuv, axborotlashuv va

ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatining inson omiliga ta’siri muammolari. Jahon axborot tarmog‘ida fitna va ma’naviy xurujlar va ularning oqibatlari

**5-mavzu: Media maydon tuzilishi va ta’siri.**

Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o‘ziga xususiyatlari. Media maydonning shaxs va jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati. Media axborot yaratish va uning tahlili. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati. Media madaniyat. Media ta’lim. Global tarmoqlarning zamonaviy iskanjalari. Internet tarmoqlariniyag vujudga kelishi va maqsadi: “Odnoklassniki”, “Telegram” “Facebook”, “Instagram”, “Whatsapp” “Tik tok”, “Youtube”, “Twitter”, “go.glf.com”, “Linkedn”.

**6-mavzu: Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar.**

Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi. An’anaviy OAV o‘rnini ijtimoiy tarmoqlar egallashi. Ijtimoiy tarmoqlarning jozibadorligi va yoshlarni o‘ziga jalb etishi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar. Oila kushandasi. Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi. “Odnoklassniki”, “Telegram” “Facebook”, “Instagram”, “Whatsapp” “Tik tok”, “Youtube”, “Twitter”, “go-gulf.com”, “Linkedn”. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta’sir muammolari. Ijtimoiy tarmoq - bu ommaviy madaniyatning omili sifatida. Ijtimoiy tarmoqlarda madaniy transformatsiya, integratsiya va diffuziya. Ijtimoiy tarmoqda axborot almashinuvi prinsipini aniqlash va tizimli tadqiq va tahlil etish. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga funksional bog‘liqligi.

**7- mavzu: Media maydon da axborot tarqatish madaniyati.**

Axborot maydonida axloq va shaxs tushunchasi. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta’sir muammolari. Internet, virtual va vizual olamning shaxsga ta’siri. “Kazino”, “sport o‘yinlari”. Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi. Media maydonda vizual jozibadorlikning shaxs tasavvurida namoyon bo‘lishi. Vizual olamda muloqot, sevgi va nikoh munosabatlari. Vizual kontentning ommaviyligi va ta’sir muammolari. Axborot almashinuvining mexanizmlari va ilmiy nazariy asoslari.

Axborot almashinuvining madaniy-sotsial holati va ahamiyati

**8- mavzu: Shaxsga yo‘naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar.**

Axborotning shaxs va jamiyatga yo‘naltirilganligi. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo‘naltirilgan pisixologik, diniy va madaniy tahdidlar. Milliy nizo turlari va tahdidlar. Axborot tizimida “falsifikatsiya metodi” (feyk)dan foydalanish. Axborot manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatini takomili. Ko‘pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag‘rikenglik g‘oyalariga tajovuz va tahdidlar. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining regulyativ funksiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, mezo, makro darajalari. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalari

**9-mavzu: Axborot xavfsizligini ta’minlashning g‘oyaviy-nazariy asoslari.** Yoshlarda media maydon, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Bu 4 vositalarga qaramlik emas balki, yoshlarda to‘g‘ri foydalanish tushunchasini shakllantirish. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv. Inkorni inkor qonunining media savodxonlik va axborot madaniyatida namoyon bo‘lishi. Internet tarmog‘idagi milliy segmentlar va axborot xavfsizligining nazariymetodologik asoslari. Ta’limda media savodxonlik va axborot madaniyatini qo‘llashning metodlari. Axborot xurujlari: etnik, irqiy, milliy, mintaqaviy, diniy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan kamsitishni targ‘ib etuvchi manbalarga nisbatan mantiqiy, psixologik hamda huquqiy yondashish

**10-mavzu: O‘zbekistoida axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari.**

Axborot almashinuvining milliy - mental, yosh, jins va hayoiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik, ma’naviy va ruhiy zo‘ravonlik. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari. Davlat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlar. Fuqarolarning sha’ni, qadr-qimmati va obro‘siga nisbatan dahl

qilish. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni targ‘ib qilish. Prezident asarlari, farmonlari, hukumat qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida media savodxonligi va axborot madaniyatini himoyalanishi. Xalqaro jurnallarda axboriy himoya. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. “Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi” kurash bo‘yicha ShXT konsepsiyasi

**11- mavzu. Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri.**

Kompyuterga tobelikning to‘rt bosqichi: moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta’siri, inson hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida. Internet va kompyuter o‘yinlarining paydo bo‘lishi. Virtual tanishuvlar. Virtual o‘yinlar - yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta’siri. Virtual olam va manipulyatsiya. Kompyuter o‘yinlarining ruhiy va jismoniy xatarlari. Virtual olamda o‘zlikni namoyon qilish - “qahramon”lik. Zo‘ravonlik, faxsh va shafqatsizlikka undovchi o‘yinlar: “Pubj”, “Minecraft”, “gta”, “counter-strike”, “EverQuest”, “Manhunt” “Internet orqali bog‘lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri” bo‘yicha sotsial so‘rovi

**12-mavzu: Media maydon va internet imkoniyatlari.**

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti. Ijtimoiy tarmoqlar. Forumlar. Blogerlar. Vikilar. Elektron tijorat, auksion, magazin va to‘lovlar. Yangiliklar guruhi (Usenet). Internet-radio, televidenie (IPTV) va telefon (IP). Veb-chatlar (IRC) va reklama

## III. SEMINAR MASHG`ULOTLARI BO`YICHA KO`RSATMA VA TAVSIYALAR

**Seminar mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyusiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati
2. Axborotni jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati
3. Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti
4. Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makondagi o‘rni.
5. Media maydon tuzilishi va ta’siri.
6. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar
7. Media maydon da axborot tarqatish madaniyati.

8. Shaxsga yo‘naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar
9. Axborot xavfsizligini ta’minlashning g‘oyaviy-nazariy asoslari.
10. O‘zbekistonda axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari
11. Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri.
12. Media maydon va internet imkoniyatlari.

Seminar mashg’ulotlar multemediya qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhga alohida o’tiladi. Mashg’ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o’tiladi. Keys-stadi texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni oqituvchi tomonidan belgilanadi. Ko’rgazmali materiallar va axborotlar multemediya qurulmalari yordamida uzatiladi, amaliy mashg’ulotlarda aqliy hujm, guruhli fikrlash pedagogic texnologiyalarini qo’llaydi.

## IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar:

*Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1.Media savodxonlikni rivojlantirishning yo‘llari
2.Ed’yuton konsepsiyasi
3.Post-haqiqat nima?
4.Filmlar va “ommaviy madaniyat”.
5.Televidenie - ko‘ngilochar sanoat sifatida
6.O‘yinlar - ijtimoiy faoliyat sifatida
7.Medialarning ijtimoiy mazmuni.
8.Media madaniyat va innovatsion pedagogik texnologiyalar
9.Ijtimoiy media shakllari
10. Ijtimoiy mediada tahdid va xavf-xatarlar
11. Tarmoq odob-axloqi. (Infoetika)
12. Axborot matnlar bilan ishlash va media madaniyat
13. Axborot nima va uning manbalari
14. Axborot turlari va ishonchliligi
15. Media muhitda axloqiy tamoyillar
16. Media muhitda bola huquqlari

17. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi”
18. Media texnologiyalar kundalik hayotda
19. Ijtimoiy mediani baholash
20. Media savodxonlikni qanday oshirish mumkin?
21. Siz nima uchun media savodli bo‘lishingiz kerak?
22. Takdimot tayyorlash va taqdim etish usul va vositalari
23. Media makonda axborotni taqdim etish
24. Kitob apparati bilan ishlash
25. Texnika madaniyati
26. Reklamaning ijtimoiy mazmun-mohiyati
27. Kompyuter o‘yinlari - manqurtlik vositasi
28. Virtual o‘yinlarning asoratlari
29. Virtual tutqunlikka qarshi kurash
30. Kiberterrorizm

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan dokladlar, buklet, taqdimot, esse, keys, muammoli vaziyat, videorolik va kontentlar yaratish, o‘quv ishlarini tayyorlash va uni himoya qilish tavsiya etiladi.

**V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar):**

Talaba bilishi kerak: Fanni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun raqamli texnologiyaning didaktik imkoniyatlari, media axborot va matnlar bilan ishlash texnologiyasiga doir global jarayonlarga analitik va mantiqiy tafakkurning roli haqida bilimga ega bo‘lishi; Raqamli media matn va tasvir bilan ishlash, media ta’limni tashkil etishda ta’limiy mazmundagi infografika, broadcast, caption videoaapim yaratishga oid dasturiy ta’minotlar, media matnlarni tahlili, analitik va sintetik fikrlash asosida, mushohadaviy tafakkurga asoslangan holda mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchalarini kasbiy va axboriy faoliyatni amalga oshirishning universal vositasi sifatida foydalanishda konstruktiv, mantiqiy ifoda etish malakalariga ega bo‘lishi lozim.

**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi. Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi. Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi. Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi. Yakuniy nazorat Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. Extremum-press, 2015-94.6

2. Yahyo, Muxammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Movaraunnahr, 2016.-672 b
3. A.V. Fedorov. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost Uchebnoe posobie. M. 2018 g
4. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Extremum-press, 2017-142.6

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Axmetova L.C. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost: teoriya, metodologiya, praktika. Uchebnoe posobie. KazGU. 2016 g
2. Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. 2010.
3. Burxanov X. M. Internet xavfsizligini ta’minlashda milliy segment faoliyatining sotsiologik jihatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2012.
4. Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.
5. Shermuxamedova A.U. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendensiyalari va xususiyatlari. Diss.Avtoreferag T.: 2021.
6. Sudich Yu.V., Prokazin V.V. Rol sotsial setey v jizn! molodeji. M. 2019.
7. Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013.
8. Tolipov A.A. Yoshlar orasida jiioyatchilikning oldiii olishning ijtimoiy mexanizmlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni

1. O‘zbekiston Respublikaeini yanada rivojlantirish bo‘yicha \harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 Vil 13 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yish qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi
3. PF-5598-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotyaari milliy bazasi, 13.12.2018 y,

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6-noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF - 6108- son farmoni.

**Axborot manbalari:**

1. http://www.edu.uz-0‘zbekiston Respubiikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

2. http:www.uzedu.uz - 0‘zbekiston Respubiikasi Xalq ta’limi vazirlgi sayti.

3. http://www.gov.uz- 0‘zbekiston Respubiikasi hukumati portali.

4. Prezident.uz - 0‘zbekiston Respubiikasi Prezidentming rasmiy vebsayti

5. www.press-service.uz. - Prezident matbuot xizmati

6. www.Lex.uz - 0‘zbekiston Respubiikasi Qonun hujjatlari ma’hmotlari mlliy bazasi.

7. www.ziyonet.uz - 0‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali

8. www.uza.uz - 0‘zbekiston Miiliy axborol agentligi (0‘zA)

9. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomidagi 0‘zbekiston Miliiy kutubxonasi

10. www.webofscience.com - Xalqaro iimiy maqolalar platformasi

11. www.scopus.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

12. www.elibrary.ru - Rossiya ilmiy maqolalari indeksi

13. www.pedagog.uz

14. “Xalq so‘zi” gazetasi -www info XS.Uz.

15. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor.uz

Mazkur fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil 30.08 dagi qarori bilan tasdiqlangan fanning o‘quv dasturi asosida tuzilgan.

**Fan modul uchun ma’sullar;**

B.E.Qodirov “Texnologik ta’lim” kafedrasi p.f.f.d.(PhD),dotsent

J.X.Xayitov ‘‘Texnologik ta’lim’’ kafedrasi o’qituvchisi.

O’.S. Eshaliyev. ‘‘Texnologik ta’lim’’ kafedrasi o’qituvchisi.

Z.Sh.Nurmamatov ‘‘Texnologik ta’lim’’ kafedrasi o’qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

**Toirov Akbar Xasanovich-** Termiz iqtisodiyot va servis universiteti fizika - matematika fanlari nomzodi dotsent.
**Mengliyev.I.A-** TerDU Axborot texnologiyalar fakulteti "Amaliy matematika" kafedrasi, P.F,F.d (Phd) katta o'qituvchisi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM FAN VA INAVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**
**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor**
**__________________ R. To’rayev**
**“ ____” _____________ 2023 yil**

**MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI**
**FANI BO’YICHA**

# S Y L L A B U S

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta’lim sohasi: 60112400 – Pedagogika

Talim yo‘nalishi: 60112400 – Prafissional ta’lim (60720700-texnologik mashinalar va jihozlar

**Termiz-2023**

## Modul/ FAN SYILLABUSI

**Milliy libos va sa'nat fakulteti**
**60720700–Texnologik mashinalari va jihozlar yo'nalishi**

| | | |
|---|---|---|
| Fan nomi: | **Media savodxonlik va axborot madaniyati** | |
| Fan turi: | Majburiy | |
| Fan kodi: | MSVAX104 | |
| Yili : | 4 | |
| Semester: | 1 | |
| Ta'lim shakli: | Sirtqi | |
| | semestr | |
| Mashg'ulotlarga shakli va semestrga ajratilgan soatlar | I | |
| Umumiy soat | 150 | |
| Ma'ruza | 12 | |
| Amaliy ma'shguloti | - | |
| Labaratoriya ma'shg'uloti | - | |
| Seminar | 12 | |
| Mustaqil ta'lim | 126 | |
| Kredit miqdori | 5 | |
| Baholash shakli: | Imtixon | |
| Fan tili: | O'zbek | |

| | |
|---|---|
| **Fanning maqsadi (FM)** | |
| FM(1) | Fanni o'kitishdan ko'zlangan asosiy maqsad - talabalarga bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo'lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblangan muloqot, ma'lumot evolyutsiyasi tarixini o'rgatish. Chunki, axborot tushunchasi, makon va zamonga xos bo'lib, u davriy hodisa sifatida turli shakl-shamoyilda namoyon bo'ladi. Jumladan, sobiq sovetlar davrida axborot taqchilligi yuzaga kelgan bo'lsa, hozirgi kunda esa jamiyatda axborot oqimi ko'paygani tufayli, axborotdan "bezish", uni tahlil qilmay, bor holicha iste'mol qilish jarayoni yuzaga keldi. Global axborot makonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baholash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish. |
| **Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar.** | |
| 1. | Informatika |
| 2. | Axborot texnologiyalari |
| 3. | Informatika va raqamli texnika |
| 4. | Informatika va axborot texnologiyasini o'qitish metodikasi |
| **Ta'lim natijalari (Tn)** | |
| | Bilimlar jihatidan |
| TN1: | Chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) |

| | |
|---|---|
| | yaratish |
| TN2: | Intrfaol kes-standartlar |
| TN3: | Semnarlar (mantqiy fikrlash,  tezkor savol-javoblar) |
| TN4: | Guruhda ishlash |
| | Ko'nikmalar jihatidan |
| TN5: | Taqdmotlar qilish |
| TN6: | Individual loyihalar; |
| TN7: | Jamoa bo'lib ishlash |
| TN8: | Himoya qilish uchun loyihalar |
| **Fanning ma'zmuni.** | |
| **Mashg'ulotlar shakli: Ma'ruza (M)** | |
| **I semestr** | |
| M1: | Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyusiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati. Axborotni jamiyatda tutgan oʻrni va ahamiyati. |
| M2: | Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti. Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makondagi oʻrni. |
| M3: | Media maydon tuzilishi va ta'siri.  Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar. |
| M4: | Media maydon da axborot tarqatish madaniyati. Shaxsga yoʻnaltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar. |
| M5: | Axborot xavfsizligini ta'minlashning gʻoyaviy-nazariy asoslari. Oʻzbekistoida axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari. |
| M6: | Virtual oʻyinlarning yoshlar ongiga ta'siri.  Media maydon va internet imkoniyatlari. |
| **Mashg'ulotlar shakli: Semenar mashg'ulot (S)** | |
| **I semestr** | |
| S1: | Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyusiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati. Axborotni jamiyatda tutgan oʻrni va ahamiyati. |
| S2: | Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti. Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makondagi oʻrni. |
| S3: | Media maydon tuzilishi va ta'siri. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar. |
| S4: | Media maydon da axborot tarqatish madaniyati. Shaxsga yoʻnaltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar. |
| S5: | Axborot xavfsizligini ta'minlashning gʻoyaviy-nazariy asoslari. Oʻzbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari |

| | | |
|---|---|---|
| S6: | Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri. Media maydon va internet imkoniyatlari. | |
| **Mustaqil ta’lim mashg’uloti (MT) I Semestr** | | |
| 1 | Media savodxonlikni rivojlantirishning yo‘llari | 4 |
| 2 | .Ed’yuton konsepsiyasi | 4 |
| 3 | Post-haqiqat nima? | 4 |
| 4 | Filmlar va “ommaviy madaniyat”. | 4 |
| 5 | Televidenie - ko‘ngilochar sanoat sifatida | 4 |
| 6 | O‘yinlar - ijtimoiy faoliyat sifatida | 4 |
| 7 | Medialarning ijtimoiy mazmuni. | 4 |
| 8 | Media madaniyat va innovatsion pedagogik texnologiyalar | 4 |
| 9 | Ijtimoiy media shakllari | 4 |
| 10 | Ijtimoiy mediada tahdid va xavf-xatarlar | 4 |
| 11 | Tarmoq odob-axloqi. (Infoetika) | 4 |
| 12 | Axborot matnlar bilan ishlash va media madaniyat | 4 |
| 13 | Axborot nima va uning manbalari | 4 |
| 14 | Axborot turlari va ishonchliligi | 4 |
| 15 | Media muhitda axloqiy tamoyillar | 4 |
| 16 | Media muhitda bola huquqlari | 4 |
| 17 | BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi” | 4 |
| 18 | Media texnologiyalar kundalik hayotda | 4 |
| 19 | Ijtimoiy mediani baholash | 4 |
| 20 | Media savodxonlikni qanday oshirish mumkin? | 4 |
| 21 | Siz nima uchun media savodli bo‘lishingiz kerak? | 4 |
| 22 | Takdimot tayyorlash va taqdim etish usul va vositalari | 4 |
| 23 | Media makonda axborotni taqdim etish | 4 |
| 24 | Kitob apparati bilan ishlash | 4 |

| | | |
|---|---|---|
| 25 | Texnika madaniyati | 4 |
| 26 | Reklamaning ijtimoiy mazmun-mohiyati | 4 |
| 27 | Kompyuter o‘yinlari - manqurtlik vositasi | 4 |
| 28 | Virtual o‘yinlarning asoratlari | 6 |
| 29 | Virtual tutqunlikka qarshi kurash | 6 |
| 30 | Kiberterrorizm | 6 |
| | **Jami:** | **126-soat** |


| | |
|---|---|
| | **Asosiy adabiyotlar** |
| 1. | Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015-94.6 |
| 2. | Yahyo, Muxammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Movaraunnahr, 2016.-672 b |
| 3. | A.V. Fedorov. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost Uchebnoe posobie. M. 2018 g |
| 4. | Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Extremum-press, 2017-142.6 |
| | **Qo’shimcha adabiyotlar** |
| 1. | Axmetova L.C. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost: teoriya, metodologiya, praktika. Uchebnoe posobie. KazGU. 2016 g |
| 2. | Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. 2010. |
| 3. | Burxanov X. M. Internet xavfsizligini ta’minlashda milliy segment faoliyatining sotsiologik jihatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2012. |
| 4. | Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati. Diss.Avtoreferat. T.: 2021. |
| 5 | Shermuxamedova A.U. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendensiyalari va xususiyatlari. Diss.Avtoreferag T.: 2021. |
| 6 | Sudich Yu.V., Prokazin V.V. Rol sotsial setey v jizn! molodeji. M. 2019. |
| 7 | Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013. |
| 8 | Tolipov A.A. Yoshlar orasida jiioyatchilikning oldiii olishning ijtimoiy mexanizmlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021. |

**Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya qilinadi.**

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- faning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlab, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik;
- fan bo'yicha mavzu materiallarning nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop etgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- Fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- Fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- Fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- Fan bo'yicha konspektni puxta shakllantirgan bo'lsa;
- Fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- Fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa;

c) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- ➢ Fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- ➢ Fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'ysa;
- ➢ Bayon qilish ravon bo'lmasa;
- ➢ Fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javob olinsa;
- ➢ Fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

d) Quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- ➢ Fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- ➢ Fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- ➢ Fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- ➢ Fan bo'yicha matndagi jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- ➢ Fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- ➢ Fanni bilmasa.

**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot.**

| | |
|---|---|
| Mualliflar: | **B.E.Qodirov** "Texnologik ta'lim" kafedrasi p.f.f.d.(PhD),dotsent |
| | **J.X.Xayitov** ''Texnologik ta'lim'' kafedrasi o'qituvchisi. |
| | **O'.S. Eshaliyev.** ''Texnologik ta'lim'' kafedrasi o'qituvchisi. |
| | **Z.Sh.Nurmamatov** ''Texnologik ta'lim'' kafedrasi o'qituvchisi. |
| E-mail: | Xayitovjonibek77@ gmail.com 93-891-85-11 |
| Tashkilot: | Termiz davlat universeteti Texnologik ta'lim kafedrasi |
| Taqrizchilar: | **Toirov Akbar Xasanovich-** Termiz iqtisodiyot va servis universiteti fizika -matematika fanlari nomzodi dotsent. **Mengliyev.I.A-** TerDU Axborot texnologiyalar fakulteti "Amaliy matematika" kafedrasi, P.F,F.d (Phd) katta o'qituvchisi. |

Mazkur Syllabus universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2023 yil "___" _____ ___-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.
Mazkur syllabus "Texnologik ta'lim" kafedrasining 2023 yil " ___" _________ ___-sonli yig'ilish bayoni bilan maqullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i: A.Ibragimov

Fakultet dekani: A.To'raqulov
Kafedra mudiri: M.Shomirzayev
Tuzuvchilar: B.Qodirov
J.Xayitov
O'Eshaliyev
Z.Nurmamatov

# GLOSSARIY

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Axborot** | *information* | *информatsiя* | 1. Taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar shaxs, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma’lumotlar.<br>2. Dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi obyektlar haqidagi bilim (ma’lumotlar) hamda tushunchalar yoki buyruqlar.<br>3. Ma’lum xos matnda aniq ma’noga ega bo‘lgan tushunchalarni ichiga oluvchi dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi obyektlar haqidagi bilim (ma’lumotlar). |
| **axborot agentligi** | *information agency* | *информatsiонное агентство* | Matbuot, radio, kino, televideniye, telefotografiya sohasidagi ixtisoslashtirilgan tashkilot. U axborot materiallarini to‘plash bilan muntazam shug‘ullanadi va bir paytning o‘zida tahririyat, nashriyot va tarqatuvchi statusiga egadir. |
| **axborot bozori** | *information market* | *информatsiонный рынок* | 1. Jamiyatda iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy munosabatlar tizimi. U axborot texnikasi vositalari, axborot texnologiyalari, axborot mahsulotlari savdosini hamda foydalanuvchilarga tijorat asosida axborot xizmatlari ko‘rsatishni ta’minlaydi.<br>2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot mahsulotlari va xizmatlari bozori. |
| **axborot butunligi** | *information integrity* | *целостность информatsiи* | 1. Axborot va uni tashuvchining holati. Butunlay axborot va uning alohida tarkibiy qismlari bo‘linmasligini ta’minlash hamda ularni ruxsatsiz qasddan yo‘q qilish, buzib talqin qilish, sizib chiqib ketish, o‘g‘irlash, axborot butunligi qalbakilashtirish va almashtirib qo‘yishni, oldindan bartaraf qilishni nazarda tutiladi. |
| **axborot eskirishi** | *information ageing* | *старение информatsiи* | Axborotning vaqt o‘tishi bilan o‘zining amaliy qiymatini yo‘qotish xususiyati. U ushbu axborot aks ettiruvchi fan sohasi ahvolining o‘zgarishiga bog‘liq. |
| **axborot foydalanuvchisi** | *information user* | *пользователь информatsiи* | 1. Axborotni yoki unga ishlov berish imkonini oluvchi subyekt.<br>2. Axborot tizimi yoki vositachiga kerakli |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | axborot olish uchun murojaat qiluvchi yoki undan foydalanuvchi subyekt. |
| **axborot huquqi** | *information law* | *информатsionное право* | 1.Huquq subyektlarining axborot sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi jami huquqiy me’yorlar.<br>2. Axborot sohasida (ishlab chiqarish, axborotni o‘zgartirish va iste’mol qilish sohasida) paydo bo‘luvchi, davlat tomonidan muhofaza qilinuvchi ijtimoiy me’yorlar va munosabatlar tizimi. Bu yerda huquqiy  rostlashning asosiy predmetlari – bu axborot jarayonlarini (axborotni yaratish, yig‘ish, ishlov berish, to‘plash, saqlash, izlash, tarqatish va iste’mol qilish) amalga oshirishda paydo bo‘luvchi axborot munosabatlari. |
| **axborot egasi** | *ingl.: information owner* | *rus.: владелец информатsiu* | 1. Qonun va/yoki axborot egasi tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga ega bo‘lgan va undan foydalanayotgan hamda foydalanish vakolatlarini amalga oshirayotgan subyekt.<br>2. Axborot uzatishni va tarqatishni, yaratilgan axborotni iste’molchiga eltib berishni ta’minlaydigan alohida huquqlarni qo‘lga kiritgan shaxs yoki shaxslar.<br>3. Axborot ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilari orasidagi vositachi. |
| **axborot ehtiyojlari** | *ingl.: information needs* | *rus.: информатsionные потребности* | Nomoddiy ehtiyojlar turi. Aniq vazifani bajarish yoki muayyan maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan axborotga ehtiyoj. |
| **axborot jamiyati** | *ingl.: information society, information oriented society* | *rus.: информатsionное общество* | 1. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti bosqichi. U jamiyat hayotida axborot va bilimlar roli o‘sishi, axborot ommunikatsi, axborot mahsuloti va xizmatlarining yalpi ichki mahsulot (YAIM) dagi ulushi ortishi, insonlarning samarali axboriy aloqada o‘zaro ishlashini ta’minlovchi global axborot makonining yaratilishi, ularning jahon axborot resurslaridan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | foydalanishi hamda axborot mahsulotlari va izmatlariga bo‘lgan ijtimoiy hamda shaxsiy ehtiyojlarini qondirishni ta’minlash darajasi bilan tavsiflanadi. |
| **axborot iste’molchisi** | *ingl.: information consumer* | *rus.: потребитель информатsiи* | O‘z ehtiyojlarini qondirish (bilimlarni oshirish, ta’lim olish, qarorlarni qabul qilish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi va oluvchi shaxs yoki shaxslar. |
